

XAYRIDDIN SULTON

SAODAT SOHILI

Qissalar
Hikoyalar
Esselar

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2005

84(5U)6

S 96

Sulton Xayriddin.

S 96 Saodat sohili: (To'plam)/ Xayriddin Sulton. – T.:
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
2005. – 176 b.

Boburning tushlari... Tahlikali uzun kechalarda, beorom tunlarda qandoq sirli, ilohiy tushlar ko'rgan ekan bu ulug' zot? Va karomatli, mo'jizakor bu tushlar qandoq ta'bir, ro'yob topgan ekan?

Muhtaram kitobxon!

Mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyning «Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli deydilar», degan hikmatli o'giti yodingizda bo'lsa kerak.

Qo'lingizdagi to'plam muallifi ham bu safar sizni olis va yaqin tariximiz sari sayohatga chorlamoqchi. Bu kitob sahifalarida siz Hofiz Ko'ykiy, Muhammad Sharif Gulxaniy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari mashhur ajdodlarimiz siymosi bilan uchrashasiz, xayolan ular kezgan moziy so'qmoqlaridan bosib o'tgandek bo'lasiz.

Yo'lingiz oydin bo'lsin!

BBK 84(5U)6

S $\frac{4702620201-5}{M 352 (04)-2005}$ 2005

© Xayriddin Sulton,
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2005-y.

ISBN 5-635-02312-6

«KO'NGUL OZODADUR...»

O'sha yili kuz shunday tiniq, shunday ma'yus kelgan ediki, beixtiyor odamning yig'lagisi kelardi.

Kechalari shaharda xazon yoqilardi.

Yarim tunga qadar ravonda o'ltirardim, o'pkam tutun hidiga to'lardi, dimog'im achishib «Zarbulmasal» o'qirdim va qor tushguncha oyog'imga etik sotib olishimgayu qonimga tashna qilgan dissertatsiyani yozib tugatishimga negadir qattiq ishonar edim. Garchi bundoq xomxayollar bilan shu ravonda o'zimni aldab necha kuzu necha bahorni besamar o'tkazib yuborgan bo'lsam-da, bari bir bu safar ishonchim komildek tuyulardi. Deydilarki, ilon-chayonlarni o'rganayotgan odam, oxir-oqibat shu gazandalarga ham mehr qo'yib qolar ekan. Shundanmikan yoki yosh umrimni bag'ishlab o'ltirganim uchunmi, qay bir zamonlarda yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy degan rindnafas bir odam ham endi menga otamdek aziz bo'lib qolgan, uzun, sovuq kechalarda uch xonali bo'm-bo'sh ijara uyda yolg'izlik nimadir — bilmas edim. Oy oxirlarida, shuncha paytdan buyon «og'ziga so'k solib olgan» telefon tuyqusdan tilga kirib, uy bekasi Dinora opa malol keltirmaygina ijara haqini eslatganida, g'oyibga tikilgancha po'pisa qilib qo'yardim: «Xo'sh, mavlono Gulxaniy, beka ijara istar, oqchadan chiqarsinlar! Kechayu kunduz shunda hoziru nozir bo'lsangiz, yo halimxona bundayu zikrxona undami?!» Mavlono Gulxaniy ranjib javob qilar edilarki: «Biz qo'y ko'rmasak ham qiy ko'rgan erduk. Qul bilan quymoq yesang, qustirmay qo'ymas, cho'ri bilan chalpak yesang, qaytarmay qo'ymas». So'ng tumtayib, indamay qolardilar, mening esa, u kishi G'ulom ismimga mutoyiba qilganiga darhol fahmim yetaqolmas, anglab yetgach, bisyor zavqim qo'zib kulib yuborar edim. Umuman,

mening G‘ulomligimu uning Muhammad Sharifligi aksariyat lutfu zarofatlarimizning qizg‘in va tunganmas payroviga aylangan edi. «Nechukkim aytmishlar, — der edilar u kishi soxta qovoq uyub, — qum yig‘ilib tosh bo‘lmas, qul yig‘ilib bosh bo‘lmas». «Haqqast rost, taqsir, — der edim men, — g‘ulomligim chin bo‘lmasa, sizning etagingizdan tutarmidim? Yaxshilar bila yurdung — yetding murodg‘a, yamon bila yurdung — qolding uyotg‘a. Bu o‘zingiz aytgan so‘zlar, tonmassiz, taqsir? Mana, kitobingizning yigirma uchinchi sahifasiga zikr etilibdir. Agar men ahmoq bo‘lmasam, ana, olmaymanmi, shoiri zamon «Ofarin Biyronning ejodida lirik qahramon evolutsiyasi» degan mavzuniyu bo‘lmaymanmi shu paytgacha do‘xtir nauk! Hayf, sizning tarixan cheklangan masalangizgayu hayf mening nodon umrimga!» Bu iddaolarimga javoban mavlono bepisand kular edilarki: «Ushbu so‘zung birla izhori fazl qilg‘oningmi?! Hech bilmas o‘xshayursanki, yumruq yukunib biyk bo‘lmas, echku yugurib kiyik bo‘lmas».

Shu zaylda kech kirib, qorong‘ilik tushardi. Kechalari esa tushimda gala-gala qush charx urardi. Har qushlarki, aqlingiz shoshadi. Boyo‘g‘li bilan Boyqush, Yapaloqqush bilan Turumtoy, Kordon bilan Ko‘rqush xilvat bir vayronada bazm qurib tinimsiz chug‘urlashar, qizig‘i shundaki, men ularning tiliga bemalol tushunar, tagimga to‘rtta guvala qo‘yib o‘ltirgancha oftob elitib, har biriga jo‘yali-jo‘yali kengashlar berar edim. Ba‘zi tunlar bu matalgo‘y parrandalar momiq patlari bilan yuz-ko‘zim, qo‘l-oyoqlarimni qitiqlab uyg‘otardi, ular meni bedor bo‘lmoqqa, yana «Zarbulmasal» kitobini varaqlamoqqa da‘vat etardilar. Goh esa ko‘zlarimga Ho‘qandi latifning ko‘knori xayolidek chalkash jinko‘chalari orasida, bo‘yradek bir sahnda ko‘kka sachrab yonayotgan gulxan ko‘rinardi. Gulxan tegrasida hammom go‘laxxonasini makon tutgan mavlono Gulxaniy o‘zi singari ozodavash xayol sohiblari — Mahzub, Majzub, Muntazir taxallusli uch rind shoir bilan suhbat qurib o‘ltirgan bo‘lardi. Olov chetida qora qumg‘on biqirlab turadi, jiyda choy hidi atrofga taraladi. Bu manzara esa mumtoz bir adibning ushbu so‘zlarini ko‘nglimga yetaklab keladi: «Men mana shunday gulxan yonida o‘ltirishni

va shu holda choy ichishni juda yaxshi ko'raman. Bu o'ltirishning shoirona, darveshona bir ma'nosi bor. Shu gulxan hayoti hanuz mening esimdan chiqmaydi va shu hayotga hamisha ko'ngilda bir muhabbat saqlayman...»¹ Muhammad Sharif to'rda, boshini quyi egib o'ltiradi, mudom tabassum, kinoya va mutoyiba jilva qilguvchi ozg'in, zahil yuzlarida qayg'u ko'lankasi. Va shunda uni bu choqqa qadar buningdek qiyofada ko'rmaganimni eslab hayratga tolardim. Uning suvratidagi zakiylik, dilkash nekbinlik qayga g'oyib bo'lganini o'ylab boshim qotardi. Gulxan esa charsillab yonadi, tevarakka, uchqunlar sachrab so'nadi. Shu tobda alanga yog'dusi emas, tolesiz qismat yog'dusi Muhammad Sharifning siyratini yoritib turgandek tuyuladi. Shu g'arib, fayzsiz makoniga boqib va shu g'arib, fayzsiz makonidan yulduzlar qadar yuksalib mavlono Gulxaniy ko'zlarini yarim yumgan ko'yi bayt o'qiy boshlaydi:

«Ko'ngul ozodadur, — shivirlaydi uning lablari, — ko'ngul ozodadur, dunyoga arzi ehtiyoj etmaz...»

Bunday lahzalarda Muhammad Sharif ko'zimga naq tajassumi iztirob bo'lib ko'rinadi. Ertalab, uyqudan uyg'onib, kechasi qoralagan qog'ozlarimni titkilaymanu «Gulxaniyning quvnoq hajviyotida...» degan satrlarga nazarim tushib, o'zimga, olamga nafratim oshib ketadi. Bunday lahzalardan so'ng o'lib-tirilib to'ldirilgan sahifa-sahifa qog'ozlarning huzurini savat ko'radi.

Ko'nglim sovib, ishga boraman.

Ishxonadagi butkul faoliyatimni bir og'iz qilib «ozgina» degan so'z bilan ifoda etib qo'yaqolish mumkin. Lekin bu faqat meninggina faoliyatim desam, haqim ketadi. Hamma-mizning ham hayotimiz ishxonadagi shu «ozgina» degan so'zda mujassam. Har qalay, men o'zim ko'rgan idoralarni aytayapman, boshqalariga kafolat berolmayman. Xullas, ishdagi kun tartibi taxminan shunday: ozgina salom-alik, ozgina gazetxonlik, ozgina kashandalik, ozgina g'iybat, ozgina hasad, ozgina xushomad, ozgina haqiqat, ozgina ovqat, ozgina sayr, ozgina shaxmat. Shu. Kun kech bo'ladi. Darvoqe, bu orada ozgina ish ham qilib qo'yiladi — boshliq so'kmasligi va

¹ Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon».

viydon qiynalmasligi uchun. Ilgarilari bu hol menga behad erish tuyulardi. O'zimni xuddi ishlamasdan tishlayotgandek sezardim. Oz-oz o'rganib dono bo'lar ekan kishi — mana, taqdirga tan berib, o'rganib ham ketdim.

Kechqurun uy-uyiga, tepa to'yiga bo'lganida birov do'konga jo'naydi — go'sht istab; birov bog'chaga yo'l oladi — bolasini istab; birovlar esa shahar kezmoqqa tushadi — may istab... Ishqilib, oqshom chog'i har kim ham nimadir istab qoladi.

Men esa imillab uyga qaytaman.

Mavlono Gulxaniyning chindan ham go'lax bo'lganiga ba'zan ishongim keladi: kun bo'yi uyda o'ltiradiyu biror ivirsigan narsaga qayrilib qaray demaydi. Qaytaga, matalgo'y parrandalarini yelkasiga qo'ndirib, uying to's-to'polonini chiqarib, mahmadona qushlari bilan birga bandai bechoralarni g'iybat qilib o'ltirgan bo'ladi: «Muhammad Yusufboy degan sodda bir mardum bozordin o'z zaifasiga kafsh olibdur, bir noshinoxt o'tkinchi kishiga ko'rsatubdirki: «Bu kafsh manim zaifamni ayog'iga loyiq kelurmi?» Ul javob beribdurkim: «Zaifangni ayog'ini kaftimga ko'tarib ko'rganim yo'q». Boyqush bilan Boyo'g'li huhulab kuladi, Turumtoy deraza rafidan qandilga sakrab qihillaydi, Yapaloqqush bilan Kordon uyni boshlariga ko'tarib chah-chah otadi. Muhammad Sharif ham, matalgo'y qushlar ham gurungga shunchalar berilib ketishganki, qo'ng'iroq tugmasini harchand bossam hamki, birortasi eshitmaydi. Axiyri o'zimning kalitimni qulfga solib, eshikni ochib ichkari kiraman. Hangoma qizigan, hech kim menga bosh ko'tarib qaramaydi. Ust-boshimni yechib, oshxonaga o'taman. Turumtoyning hiqirlagan tovushi, sho'x qichqiriqlari qulog'imga chalinadi: «Odamizot orasinda Yodgor po'stindo'z otlig' bir odam bor erdi. Goho o'zini o'tkur so'fi ot qo'yar, goho mirishkoru hushyor va donishmandi ro'zgor olib aytur erdiki: «O'n yoshimda hazrati Nuh payg'ambar obazobda qolg'onlarida kemalarin itarib boham erdim». Va yana aytur erdiki: «Andog' ham ermas. O'n besh yoshimda hazrati Ibrohim alayhissalomni kofirlar manjinaqqa solib o'tga otarda bir poyasinda hozir erdim», der erdi. Boz aytur erdiki: «Andog' ham ermas. Yigirma besh yoshimda hazrati sultoni orifin Xoja Ahmad Yassaviy

xonaqohlarning obod qilurda loy tepib, g'isht bergan man erdim», deb aytur erdi. Ul yerda o'lturg'on yor-jo'ralari aytur erdiki: «Ey, Yodgor aka, rost naql qiling», desalar, aytur erdiki: «Qudd Muhammad bahodirdin bo'lagini bilsam, xudo ursun», der erdi. Yodgorning po'stin tikkanini ko'rsangiz, chokidin barmoq o'tar erdi. Bozorg'a olib chiqsa, xaridorlar barmog'ini chokiga suqub aytur erdiki: «Bu na tikish?» Ul javob berurki: «Musht o'tmasa, xo'b tikish», der erdi...»

Sharaqlab kulgi ko'tarildi. Matalgo'y qushlar patir-putur qanot qoqib, chag'ir-chug'ur bilan qirg'og'idan oshgan zavqu shavqlarini izhor etdilar. Endi hangoma navbati Kordonga yetgan edi, u Muhammad Sharifning tizzasiga qo'nib olib, u yon-bu yon shox tashlab, Bozanda va Navozanda qissasini boshladi. Biroq endi bu qissa qulog'imga kirmas, oshxonadagi kursiga omonat cho'kkancha, Yodgor po'stindo'z sabab xayolim o'zim bilgan odamizot orasiga — ishxonamdagi turli fe'l-atvorlik kishilar sari og'ib ketgan edi.

Yodgor po'stindo'zni o'ylab o'ltirib, avvalo ilmiy rahbarim Eshmuhamedov domla yodimga tushdi va uning aqlu zakovatiga ichimda yana bir karra tasannolar o'qidim. «Gulxaniy tarixan cheklangan», deb oyoq tirab turib olganida u, axir, qanchalar haq ekan! Men nodon, nima uchun ustoz bilan bu borada masala talashib yuribman — o'zim ham hayronman. Eh, mavlono Gulxaniy, agar chindan ham tarixan cheklangan bo'lmaganingizda, Muhammad Yusufboydek go'l bir kimsayu Yodgor po'stindo'z kabi lof bandasini shunchalar mazammatt qilmagan bo'lur edingiz! Axir, bular bukungi men ko'rgan odamizot orasidagi turfa zotlarga qiyos etilsa, Arshi a'loda uchib yurgan farishtalar yanglig' pokdomon emasmi? Bilmaysizki, men xizmat va himmat kamarini bog'lagan mo'tabar idorada bir Rohibar bor edi, lak ming Yodgor po'stindo'zlaringiz yolg'on bobida uning qarshisida ip esholmay qolardi. Bir ayyomi nofarjomda barchamizni mashvaratga chorladilar, guras-guras kelib kursilarni ishg'ol etdik, beshin soniya o'tib Rohibar salobat va ziyo to'kib, anvoyi atirlar isini anqitib huzurimizga tashrif buyurdilar, ortlarinda sochi barra qo'zi terisidek jingalak Muovin, qo'llarida lagan, oyoq uchinda pildirab keldilar. Rohibar barchamizga

nimtabassumlar ulashib, bir xushxabar ila boshlarimizni falak toqiga yetkurdilarki: «Ayo farzandlarim, bilmagayman hech, sizlarning baxtingizmi bu yoinki mening, har nechuk, Tiyonshon tog‘larining bag‘ridan korxonamizga ajoyib xushhavo chorbog‘lar ato bo‘ldi. Ayni kunlarda baraka topkur binokorlar sizni deb, sizlarning aziz farzandlaringizni deb bunyod bo‘layotgan go‘zal ko‘shklarga so‘nggi pardo berayotirlar. Ayo hamkasblarim, og‘alarim, inilarim, barchangizni ana shu xushhavo chorbog‘lar ila muborakbod etaman. Umid qilamanki va ishonchim komilki, yaqin kunlar ichinda sizlar ana shu muazzam ko‘shklarda o‘ltirib, korxonamizning muhim ishlari ila mashg‘ul bo‘lasizlar, shirinshakar bolajonlaringiz yam-yashil o‘tloqlarda yayrab-yashnab kapalak quvib yuradilar, dilbar rafiqalaringiz esa tonggi shabnamlarni kechib, munaqqash ko‘zalarda muzdek qaymoq keltirib, sizga mehrlarini qo‘shib tortiq etadilar. Korxonamiz bilan chorbog‘lar orasinda muntazam avtoullovlar qatnab turadi. Ayo do‘stlar, tasavvur qilyapsizlarmi, axir qandoq saodatli kunlarga yetib keldikki, bundan buyon bizda uy-joy muammosi degan muammoning o‘zi bo‘lmagay».

Barchamiz azbaroyi hayronlik va shodu xurramlikdan hushimizni yo‘qotar darajaga yetgan edik, tilimiz kalimaga aylanmasdi. Bir payt yonimga qarasam, Jaloliddin degan hamkasabamiz, ko‘ngli mumdek yigit, dastro‘molini ko‘ziga bosib piq-piq yig‘layapti. Hay, telba bo‘lmadingizmi, nega obidiyda qilasiz, desam, sevinchimdan, uka, deydi, sevinganimdan, o‘zimni tutolmasam, qandoq qilayin? Boyoqishning holi kuni menga ma‘lum edi, to‘rt bolayu kasalmand ayoli bilan qariyb o‘n yilning nari-berisi ko‘ch-ko‘ronini ortmoqlab, ijaramajara sargardon yurardi. «Iloyo, — deb piqillardi Jaloliddin, — iloyo Rohibarimizning umrlari uzun bo‘lsin, mingga kirsinlar, deb duo qilardimu, uncha-muncha ichib turaman, uka, duom ijobat bo‘lmasmikan, deb xavotirim bor, qishloqda sakson uchga kirgan onam yashaydi, shularga aytaman, shular duo qiladilar, e, uka, pichoq suyakka borib yetgan edi-ku!» Men ham behad mutaassir bo‘ldim, ko‘p qatori ichimda Rohibarni olqadim. Rohibar minbarni tabarruk qilib tushishlari bilan lip etib Muovin u joyga ko‘tarildi va qo‘lidagi laganga

Rohibarning muborak ismi shariflarini solib andog' elay boshladiki: «Agar biz shundog' dono, shundog' saxiy va shundog' muruvvatli Rohibar qo'l ostida ishlayotganimiz uchun taqdirga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lsak, bir kecha-kunduzda yigirma to'rt soat shukrona aytsak ham qarzimizning o'ndan birini uzolmagan bo'lur edik...» Ko'p suxandon odam edi Muovin! Rohibarning ta'rif-tavsifini Odam Ato zamonidan boshlab kelib shu qadar chapdastlik ila Gitler degan mal'unning nomi bilan chambarchas qilib bog'ladiki, shundog'am tarixiy haqiqatlar kashf etdiki, biz gumroh bandalarning qo'limiz yoqa ushlashdan bo'shamay qoldi va oxir-oqibat, ushlayverib-ushlayverib yoqalarimiz yag'ir bo'lib ketdi. Go'yoki shundog' bo'lgan ekanki, qattol urush chog'larinda Rohibarimiz hali qirchillama yigit, radio-karnaydan zafar xabarlarini o'qib, yovga talvasa solib turgan kezlarida Gitler degan padarkush maxluq og'zidan tufuklar sochib qasam ichgan ekanki, Sho'rolar yurtini bosib olgan kunim, Rohibarning tilidan osib o'ldiraman! O', battol, bachchag'ar Gitler! «Umr bo'yi rost so'zdan o'zga so'zni bilmagan Rohibarimizning muborak tillariga haromi Gitler shundoq qasd qilgan edikim, mana, oqibati — o'zi past bo'ldi, jahannam qa'riga qiya bo'lib ketdi! Bizlar esa, baxtiyor zamondoshlar o'laroq Rohibarimizning bulbulkalom tillaridan mana shu xabarni tinglab turibmiz», deya so'ziga nuqta chekdi Muovin. Rohibar kamtar odam edi, Muovin to'lib-toshib so'zlagan damlarda boshini quyi egib, yuzlari loladek qizarib o'ltirdi. Ertasi Jaloliddin ishga xandon-xushon, yashnab-yasharib keldi. Ayoli xastaxonada ekan, xushxabarni aytib suyunchi olsa, mushtiparning yuragi yorilgudek bo'libdi, ortiq shiftga boqib yotolmabdi, eri bilan uyiga qaytibdi — erta-indin chorboqqa ko'chilsa, shoshib qolmayin, deb, axir, matal borkim, kambag'al bo'lsang — ko'chib boq! Hammamiz ham o'zimizcha taraddud boshlab yubordik: kim palos olgan, kim o'rin-ko'rpasini yangilagan, kim hasharga odam aytdi... Ammo oradan hafta o'tdi, oy o'tdi, ikki oy, uch oy — hijratdan darak yo'q. Rohibar ham, Muovin ham pinak buzishmaydi — go'yo hech qachon bunday gap bo'lmagandek. Vaqt o'tar, vaqt o'tgan sari endi biz o'zimiz

ham ishtiboh qila boshlagan edik: rostdan ham shunday gap bo'lganmidi yoinki bu aloq-chaloq bir tushmidi? Shuni ham biror kimsa aniq bilmas edi. Rohibarni hatto yolg'on gapirgan deb xayol qilarga ham hech zotning haddi sig'masdi, binobarin, buning bosirinqi bir tush yoki g'animlar tarqatgan ovoza ekani haqiqatga yaqinroq edikim, axiyri shundoq xulosai hukmga kelindi: bu bo'lmag'ur mishmish mana shu boshi buzuq Jaloliddindan chiqqan bo'lishi mumkin, o'ziam ichib yuradi, gapining ham tayini yo'q, miyanga shundoq bedavo xayol kelsa kelgandir, balki ko'zingga bir balolar chalingandir, lekin battar bo'lgur, nega endi bunga Rohibarning muborak ismi shariflarini aralashtirasan, dayus?! Eh, mavlono Gulxaniy, zamonlar ko'p g'aroyib edi, sharhiga yuz «Zarbulmasal» ham ojiz! Jaloliddin ko'ch-ko'ronini ko'tarib qishlog'iga, sakson uch yashar onasining duosini olgani ravona bo'ldi. Korxonamiz esa shu tariqa chorbog' afsonasini unutdi. Jaloliddinni ham butkul unutib yuborgan edik, o'tgan yili da'atan, ulkan ummon ortidagi tillosi mo'l mamlakatlarning biridan munkillagan alloma chol-kampir uni yo'qlab idoramizga kelib qolishdi. Daqqiyunusdan qolgan bir qo'lyozmaga shu Jalol maxsum ijarama-ijara hijrat aylab yurganida chala-yarim sharh tuzgan ekanki, mazkur sharh hozircha olam aro yagona ekan va o'shal qo'lyozmaga ham jahon ayvonida shu battol Jaloliddindan o'zga kimsaning tishi o'tmas ekan. Ajnabiy allomalar kelib, «mister D'Jalaled-din»ni topib ber, deb turibdi, hammamiz garang, oxiri Rohibar tomonidan farmoni oliy bo'ldikim, Muovin bilan G'ulom o'shal bachchag'arni yerning tagidan bo'lsa ham topib keltirsinlar. Hayyo hayt, deb jo'nadik, ertasi choshgohda arang Jalol maxsumning yurtini topib bordik. Topib bordigu battolning o'zini taniyolmay qoldik: semirib ketibdi, yuzlari yaltiraydi, chatanog'ini kerib lapanglab qadam tashlaydi. Biz borganda bola-chaqasi piyoz yulayotgan ekan. «Mana, — dedi, — shukr, bu yil hosil chakki emas, besh-o'n tonna plandan orttirsak, jujuqlarning rizqi, tag'in ikkitaga ko'payishganmiz, piyozdan ola ketinglar, bo'z yerniki, dorisi kamroq». Rohibarning farmoniyu ajnabiy mehmon daragini aytgan edik, parvo qilmadi, negadir brigadirini maqtab ketdi: o'zi

karis, lekin o'zbek bo'lib ketgan, juda ishbilarmon, dedi. Kelib, Rohibarga ko'rgan-eshitganlarimizni bayon etdik. Rohibar tavoze bilan jilmayib, tarjimon orqali ajnabiy cholkampirga tushuntirdiki, «mister D'Jalal ed-din» hozirgi kunda o'lkamizning sharqiy viloyatlaridan biriga ilmiy safarga jo'nab ketgan va benihoya band, shu sababli janoblardan uzr so'raymiz hamda iltimos qilamizki, bir piyola choyimiz bor, shuhrati yetti iqlimga mashhur o'zbek paloviga marhamat qilsalar. Palov — buyuk san'at asaridir, oh-oh!.. Qiztaloq alloma chol ham o'ziga yetguncha qaysar ekan, «No!» deb bosh chayqab turib oldi, tepakalini yaltiratib, to'tiqushdek yakkash bir gapni takrorlagani takrorlagan: «Mister D'Jalal-ed-din!» Rohibar unga qanday bas keldi — bunisi menga qorong'i, mavlono Gulxaniy. Siz esa... topgan gapingiz — Yodgor po'stindo'z. Qani edi, agar sho'rlik po'stindo'z tirik bo'lsa, boshidan suv o'girib ichar edim.

Qornim ochqab, boshim guvillay boshlaganini sezdim, o'rnimdan turib, choy qo'ydim. Dasturxon yozib, bo'ydoq bir g'ulomni mehmon qilishga taraddud ko'ra boshladim. Ichkari xonada hamon qushlar bazmi avjida, ahyon-ahyon Muhammad Sharifning quv, beozor ovozi eshilib qoladi. Boyo'g'li boshqalarning tovushini bosib qichqiradi: «O'qug'oning yo'qmu mulla Gulxaniyning «Zarbulmasal» kitobini, anda necha ahmoqlarning fazl bobini bayon qilur».

Boyo'g'lining soddaligidan ich-ichimdan kulaman, u bilan och qoringa bahs ochmoqchi bo'lamanu erinchoqlik g'olib keladi, qaynoq choy ho'plagancha, shang'illab so'ylayotgan Turumtoyning gapiga quloq tutaman: «Odamizot orasida Xolvoqi misgar degan odam bor erdi. Namozshom vaqtida birovni mehmonxonasig'a taom ustig'a mehmon bo'lubdur. Nechand hariflar ishtahoyi taom birla sufra atrofini qurshab o'lturub yerdilar. Xolvoqi misgar eshikdan kirishi birla azon ovozi keldi. Anda o'lturg'on odamlar aytdilar: «Avval namoz o'qub, andin taom tanovul qiloli». «Har kim namoz o'qumasa, taomdin mahrum», dedilar. Xolvoqi misgar aslo namoz uchun peshonasi yer o'pgan yo'q erdi. Ura qo'pub, tahorat qilub, namoz o'qub, andin so'ng nafi birla darjang bo'lub aytar erdikim: «Ey toshni yegur nafs, mani ko'knori

holimg'a boqmay ketimga sovuq suvni sazovor etib, axir meni namozxon qilding, rangimni kahrabodek sarg'artib», der edi...

Kulgining zo'ridan ho'plagan choyim tuyilib, qalqib ketdim, piyola qo'limdan tushib chil-chil bo'lishiga bir bahya qoldi. Matalgo'y, mahmadona qushlar yana qah-qah otib kuldilar — odamizot ustidan, odamizot orasida!

Yo'q, bari bir, Eshmuhamedov domla zakiy odam, «Gulxaniy — tarixan cheklangan», deb chindan ham to'g'ri aytadi. Mavlono Gulxaniy, meni ma'zur tuting-u, lekin andisha degan narsani sizdan anqoning urug'iga ham topib bo'lmaydi. Koinot gultoji va sarvari bo'lmish insoni sharifni allaqaydagi isqirt qushlarga mazax qildirib qo'yganingiz uchun ham har ne jazoga mustahiqsiz. Sizing baxtingiz shundaki, to'qson sakkiz foiz savodsizlik zamonida yallo qilib o'tib ketgansiz — gulxan yonida turshak shimib, qush o'ynatib, baytu g'azal bitib! Eh, mavlono Gulxaniy, biz bilan zamondosh bo'lganingizda edi, holingiz ne kechardi — men tasavvur qilolmayman, qo'limdan kelmaydi. Har qalay, shuni aniq bilamanki, oxir-oqibat «Zarbulmasal» ham chala qolib, tiriklayin ro'yan kavlamoqqa¹ ravona bo'lur edingiz. «Birpaslikka² yo'liqdi, bechora», der edik so'ng ortingizdan bosh chayqab. Mabodo, umr vafo qilib, «Zarbulmasal»ni bitirgan chog'ingizda ham, ahvolingizga maymunu najjorlar yig'lardi. Agar mening so'zlarimga ishtiboh qilsangiz, masalchining holini, ana, Zohidjon Obiddan so'rangiz. Avvalo, millatning badrashk o'g'lonlari na'ra tortib chiqar erdilarki, hayhot, o'zbek eliga bundog' tavqi malomatlar taqqani mulla Gulxaniyga kim huquq berdi, nechun ming yillik urf-odatlarimiz ustidan bu qadar qabih qahqaha ila kuladir? Ba'daz, bo'lak munaqqidlar aytur erdilarki, o'rtoq Muhammad Sharif eskilik sarqiti bo'lmish urfu odatlarni zavq ila tasviru targ'ib etmish, qani, buyoqqa keltiringizlar uni! Yana bir guruh munaqqidlar aytur erdilarki, Muhammad Sharifning ejodi hanuz an'ana botqog'i ichra qolibdur, ko'p

¹ R o ' y a n k a v l a m o q — qabrga ketmoq ma'nosida.

² B i r p a s l i k — infarkt.

taassuf! Va nihoyat, ba'zi arbob kimarsalar aytur erdilarki, umuman, g'alati, qahramonlar nomi ham...hm, haligidek — Boyqush bilan Boyo'g'li, andin so'ng, ming chaldevor xususida, o'rtoq Gulxaniy qayerda ko'rdi ekan bundog' vayrona mulkni? Kosa tagida nimkosa yo'qmikan? Va umuman, o'ylab ko'rmoq kerakkim, bu xatolig' tasodifmi, qonuniyat?

Ana shunda ko'rar edik holingizni, muhtaram Muhammad Sharif!

Matalgo'y, mahmadona qushlaringiz o'shal zamon sizni tark aylashardi — pir etib janubga, iliq-issiq o'lkalarga uchib ketishardi. Semizlikdan yoxud tanballikdan ucholmay qolib ketganlari esa darhol jabrdiyda ohangda sayray boshlardilar: «Muhammad Sharif degan zolimning dastidan dod, yigirma yil menga kun bermadi, hamma mehru inoyatini Boyo'g'liga tortiq etib, menga faqat jabru sitam o'tkardi! Dod, dod ustiga do-od!»

Odamizot esa, afsuski, siz kulib aytganingizdek, xom sut emgan bandadir, umr bo'yi tizzangizda o'ltirib, ko'zingizning yog'ini o'yib yemoqchi bo'lgan olchoq quzg'unlarning iflos lafzlariga yana ishonadir...

Mavloni Gulxaniy, naslimiz nazaridan pinhon qolgan umringiz tarixini talqin etmoq umidida behuda urinar ekanman, ko'pincha fikrim mana shu kabi xayollar, ya'ni Eshmuhamedov domlam aytmoqchi, ilmga aloqasi yo'q, mayda-chuydalar ustida tariqdek sochilib ketadi. Xo'p, deb o'ylayman shunday kezlarda, boringki, Muhammad Sharif Gulxaniy tarixan cheklangan bo'laqolsin, ana, deylik, dialektik materializmni tushunib yetmagan ham bo'lsin, lekin bugun biz — tushunib yetganlar go'r qilyapmizmi? Aytaylik, men o'zim yoki domla Eshmuhamedov? «Gulxaniy Madalixon buyrug'iga ko'ra qopga solib, daryoga cho'ktirilgan, degan fikrga qanday qaraysiz, domla?» deb so'rayman goho zerikkanda. «Kim biladi, deysiz, — deb yelka qisadi domla, — tarixchilarning ba'zilari bunga ancha ishonch bilan qaraydilar, ba'zilari shubha bildiradilar. Darvoqe, qop deganingizga esimga tushdi, bir-ikkita yangi qop topib qo'yishimiz kerak, sovuq kelyapti, kartoshka bilan sabzini g'amlasak, qishga turar-a, siz nima deysiz, dehqon bolasisiz-ku, axir?» «Qaydam, — deyman men ham mujmal

qilib, — o'ra-po'raga yaxshilab ko'milsa... Suv kirmasa, chirimaydi». Eshmuhamedov domla go'yo olamshumul hikmat eshitgandek meni ehtirom bilan yo'lakkacha kuzatib qo'yadi. Bechora bilmaydiki, men chindan ham dehqon bolasiman va ayni shu to'pori g'urur domlani darvozasidan qop orqalab kirishimga yo'l qo'ymaydi. Bundan ko'ra qopga solinib, daryoga g'arq bo'lganim afzal. Bu g'urur chekinmaguncha domla ham bir qadam chekinmaydi. «Gulxaniy — tarixan cheklangan», deb ilmu urfon ostonasida ko'kragimdan itargancha turaveradi. Mening esa boyoqish Muhammad Sharifni, ochig'i, sira ham cheklagim kelmaydi — ozgina vijdoni va es-hushi bor odam «Zarbulmasal»ni qayta bir mutolaa qilsa, bunga ming karra imon keltiradi.

Mavloni Gulxaniy zikr etmish har bir maqol ortidan bir taqdir darichasi yaqqol ko'rinib turadi.

«Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas». To'g'ri, deysizmi? O'lmang.

«Aslni xatosi bo'lmas, nokasni atosi». Ko'z o'ngingizdan bepadar nokaslar guras-guras saf tortib o'tayotgan bo'lsa, ajab ermas.

«Haromzodaning quyrug'i bir tutam». Quyrug'ini yashirib yurgan haromzodaning kimligini darrov tanidingiz-a? Borakalloh.

«Iki kema tutqonlar qoldi g'arqob ichinda». Bu, endi, tan olmog'im kerakki, vijdoni bilan domlasi o'rtasida sargashta kezib yurgan bir g'ulom ta'rifida — ya'ni kamina qulingiz xususida.

«Ota so'rab netarsan erni o'zi bo'lg'on so'ng,
Yo'l so'ragan nomarddur ot ustiga mingan so'ng».

Ot ustida qo'r to'kib o'ltirgan bu odam — domlam Eshmuhamedov. Bechora, ko'p yillardan buyon egardan tusholmayin qolgan bo'lsa ham, ba'zi bir yo'riqlarda quvvai hofizasi salobatidan bisyor farq qilur. Ayniqsa, domlani qishloq maishati va dehqon mehnati haqidagi tasavvurlari ham xiyla omonat, o'zi yanglig' ko'hna. O'ttiz yillar muqaddam matalu topishmoq to'plagali oxirgi marotaba borib kelgani hisobga olinmasa, domla shundan buyon qishloqni

faqat «oinai jahon»da ko'rib entikadi, xolos: «Oh, — deydi,— oh, go'zal ma'vo! Oh, bobodehqon!» Bilmaydiki, hozir hech qayda dehqon qolmagan, hamma yalpisiga paxtakor bo'lib ketgan. Binobarin, mening paxtakor otam ham hafta sayin avtobusda rayon markazi sari zuv-zuv qatnaydiki, do'kon-po'konga kartoshka, piyoz-miyoz kelib qolarmikan! Qarqunoqdek og'zini ochib o'ltirgan sakkiz bolani masal bilan boqib bo'lmaydi, mavlono Gulxaniy!

«Ore rost aytasiz, — degan guldurak tovushdan cho'chib tushdim. Ro'paramda shamshoddek bo'lib Muhammad Sharif turardi. — Mashoyixlar so'zi budurkim, quruq qoshiq og'iz yirtar».

«Ma'zur tutsinlar, taqsir, — dedim shosha-pisha o'rnimdan qo'zg'alib. — Bu mulohazani zinhor sizga emas, domlam Eshmuhamedovga aytmoqchi edim, xayolim chalkashib... Marhamat, o'ltirsinlar».

Darhol mavlono Gulxaniyga kursi qo'yib berdim. U bahuzur joylashib o'ltirgach, o'rtadagi dasturxonga boqdi, kinoya bilan bosh chayqadi:

«Az karam nest madxali kardan,
Xon nihoni taomi xud xo'rdan.

Beh az on sufra sufrai otash
Ki nasho'd z-o' gurusnai dil xush»¹.

Xijolatdan yuzlarim lov-lov yonmakka boshladiki, vujudimdan ko'tarilayotgan harorat otashiga bahuzur kabob pishirmoq mumkin erdi. Bisyor dovdirab, yana uzr aytgan bo'ldim:

«Qushlar bazmida behad band ekansiz, taqsir, shu vajdan...»

«Haqqast rost, — dedi Muhammad Sharif choy ho'plab, — hozirgina pashshadin to anqog'acha jumla tuyurlarg'a farmon yuborildikim, barcha parrandalar yig'ilsunlar, alarning majlisida Boyo'g'li qiziga mahr solayin».

«Ko'p ma'qul, majlis qayda bo'lur?»

¹ Mehmondan qizg'anib taomni o'zi yeyishi karamdan emas. Och qorin to'ymaydigan sufra (dasturxondan) olov sufrasi afzalroqdir (*fors*).

«Ushbu g'ulomgardishda¹, — dedi mavlono Gulxaniy menga ma'nodor boqib, — shul oshiyona mening didimga xiyla o'ltirishdi».

«Quloqlarim tom bitib, tilim tanglayimga yopishdi. Pashshadan to anqog'acha... demak, bu kecha ham uyqu harom ekan-da. Oq sahargacha uyim yana qushlar bozoriga aylanar ekan.«Nomi kalon, shahri vayron, oti ulug', sufrasi quruq, uyida chaksa uni yo'q, tomining boshida qo'sh tanur, itining oti — Marjon, egasining oti — Kaljon», degan ibora menga, faqat menga sodiq kelur», deb o'ylayman g'amga botib.

«Taom yemakda so'zlab taom yemak sunnatdur. Monandi hayvonotdek xomush taom yemak ozoda mardumlar shevasi ermas», — dedi Muhammad Sharif ta'na qilib.

So'zlashmoqdin o'zga choram qolmadi. Zero, go'dak kabi beg'ubor, navqiron yigit yanglig' sezgir, mo'ysafid misol donishmand bu kimsaning qosh-qovog'iga qismatim bog'langan, qismatdan esa zinhor qochib bo'lmagay.

Men unga dilimni o'rtab yotgan shubhalarni so'yladim. Olamning noraso ishlaridan gapirdim. Ne-ne ajdodlarim aqli yetmagan savollarga undan javob so'radim: odam nedur, nechun dunyoga kelur? Kelmagidan murod nadur, ketmagidan faryod nadur? Nechun haq mudom ta'qibdadur? Razolat hanuz g'olib kelur? Ne bois to hamon suv keltirgan xordir? Bani bashar tokaygacha sabiy qolur?..

Men uzoq so'yladim — beva xotin hasratidek uzoq. Umrin bino bo'lib, o'ttiz yildan buyon neki ranju alam tortdim, kimdan mehr yoxud qahr ko'rdim, qayda vafo badaliga jafu chekdim — barini bir-bir sharhu bayon etdim. Ko'pdan beri hech kimsaga yuragimni bu qadar ochib dard oshkor aylamagan edim — ruhim tozarib, g'uborlar chekinib, bemahal qarigan vujudim yosharib borayotgandek tuyulaverdi. Nihoyat, horib-toliqidim, tek qolib, qarshimda teran sukutga cho'mib o'ltirgan Muhammad Sharifni ko'rdim. Hasratlarim ko'zyoshlarim uchun zarracha xijolat chekmadim — axir, ikkimiz ham sirdosh, ham qayg'udosh edik! Mavlono Gulxaniy menga g'amgin nigohini uzoq tikib turdi, o'zi bilan

¹ G' u l o m g a r d i s h — qulxona. Bu yerda: g'ulomning uyi ma'nosida.

o'zi so'ylashgandek ohista: «San manga donishvarlik ko'rguzarsan», dedi. So'ng xiyol sukut saqlab so'radiki: «Aybga buyurma, yigit, nechun hanuz yolg'izsan? Mana, erta oqshom hatto Kulankir sulton chimildiqqa kirur, nainki sening yuragingda ishq o'tidan yilt etgan nishona topilmasa?» Shunda men bisyor to'liqib, savoliga savol berdimki: «Ayo mavlono Gulxaniy, ishq deganlari nadur?» Mavlono Gulxaniy tabassum ila aytdilarki:

«Ishqdur bir nash'ai komilkim, andindur mudom,
Mayda tashviri¹ harorat, nayda ta'siri sado».

Bosh irg'ab xomush o'ltirar ekanman, uni yana ustma-ust savolga tutgim kelardi: e, muhtaram Muhammad Sharif, qay chog'din ishq aro mast o'ldingiz? Muhabbat jomi Sizni faqat sarxush etdimi yoxud saodat bag'ishlagan onlari ham bo'ldimi? Saodatmand oshiq ersangiz, unda bu mahzun baytlar boisi nedur?

Mavlono Gulxaniy, ko'nglimda kezgan xayollarni anglagandek, sas-sadosiz kulib qo'yadi-da, tag'in choy ila mashg'ul bo'ladi. Mening dardmand dilim esa ushbu damlar bir mahrami asror tilaydi...

«Ey hamrozi komil! Men bu sirni o'zim birla qaro yer qa'riga olib ketarman, — deb o'ylar edim, — shu choqqa qadar kimsaga tish yorganim yo'q edi, naylayki, shu hazin kechada qulfi dilim ochilib ketdi, illo, Sizga aytganim — o'zimga aytganim emasmi?

Bu ham bir ishq qissasi edi, mavlono Gulxaniy. Bilmadim, devona ko'nglimni Siz yashab o'tgan zamonlar aqidasi ila Farhod yoxud Majnun ko'ngliga mengzamoq aql va adab yuzasidan joiz bo'lurmikan? Har nechuk, aztahidil shu narsaga iqormanki, muhabbat savdosining katta-kichigi bo'lmas, ishq yo chin, yo soxta bo'larkan, xolods. Ayo Muhammad Sharif, mening barcha sirru asrorim botiniy ko'zdek o'zingizga ayon, yodingizdadur, bir paytlar, bundan ko'p oylar muqaddam, saodatli kechalarda men U bilan

¹ T a s h v i r — to'lqin.

qandoq g'oyibona suhbatlar qurib o'ltirardim! U kezlarda Sizga qayrilib ham boqmasdim, zinhor tonmagayman. Axir, ne qilayki, ko'zim Undan o'zga kimsani ko'rmasa, qulog'im Undan o'zga odamning ovozi eshitmasa!

Bayt:

Balo'i ishqqa uchrab telbadurman, anglag'il ey shoh,
Kishi mandek baloga muhtalolik ko'rmasun aslo.

U bir gavhari asl edi. Taqdiri azalda esa g'ulomlar manglayiga hech vaqt bundog' davlat bitmagan ekan — bu marvarid gul menga nasib etmadi.

Men mudom uning yonida — kunlar hayotida, tunlar xayolida hoziru nozir edim. Oqshomlari, unutmagandirsiz, shu sovuq simlarga dilim payvasta, yarim tunga qadar u bilan birga nafas olardim.

Eh mavlono Gulxaniy, nimasini aytayin endi, padarlariga la'nat, o't ketsin bundayin nomard dunyogaki, meni bunchalar notavon etib yaratmasa! Notavon bo'lmasam, ko'ksimdagi gulimni ho'kiz poyiga tashlattirib qo'yarmidim, og'zimdagi oshimni itlarga oldirarmidim?! Joni jahonimdan judo bo'lib, bir kechada bor budidan ayrilgan qimorbozdek shipshiydam bo'lib qolarmidim?

Uni ilk daf'a uchratganimning o'ziyoq g'aroyib bir masalga o'xshardi.

So'nggi bor uchratganim esa chin marsiya bo'ldi.

To hanzuz hozirgidek aniq eslayman: yoz payti, o'n oltinchi avgust edi, kun choshgohdan o'tgan, ellik birinchi avtobusda ketib borardim va o'zimcha muqoyasa qilardimki, hammomni ham g'ildirakka o'rnatib, odam tashisa bo'larkan.

Bundog' xomxayolga berilganimning boisi shundaki, maoshgacha yetti kunu kissamda uch so'm qolgan edi. Asli, bunday damlarda miyaning murvatlari ham favqulodda jadal ishlab ketadi. Tezyurar avtobus oynasidan tashqariga lanj va loqayd termilib turarkanman, birin-ketin tirband bo'lib, to'xtab yotgan tramvaylarga ko'zim tushdi va odamzot aqlining noqisligidan ich-ichimda qattiq koyindim. E, bu qandoq nodonlikki, deb mulohaza qildim o'zimcha, shuncha ulov

bir-birining ketiga tiqilib yotmasa-yu, avtobusga o'xshab ba'zi birlarini tezyurar qilib qo'ysa bo'lmaydimi! Keyinroq shu ajoyib fikrni ishxonamda Jo'lliboy degan akamizga aytgan edim, yomon sarosimaga tushib qoldi. «O'ka, — dedi achinib, — bir do'xtirga ko'rinib qo'ygin, baloning oldini olgan tuzuk. Gulxaniyning matali deb adoi tamom bo'psan-ku». Xullas, oftob odamning miyasini atala qilib yuboradigan jazirama kunlarning birida avtobusda xayollar surib kelayotgan edim. G'ala-g'ovur to'polon ichra to'satdan yonginamda nay chalingandek bo'ldi. Hushimni yig'ib, boshimni burib qaragam, oq, oppoq ko'ylak kiygan bir qiz, shoir aytmochi, ko'ksiga soya solgudek uzun kipriklarini hadik bilan pirpiratib turibdi: «Hozir tushmaysizmi, aka?»

Tamom! Ana shu bir og'izgina so'z — «aka» degan kalom taqdirimni hal qilgan edi.

Nihoyat tilga kirib, «Yo'q», deya g'o'ldiradimu shu zahoti afsuslanib, tilimga tirsaklar chiqishini tiladim. Endi ko'nglimni kuchli bir xavotir egallagan ediki, bu bechora novdadek narsa ekan, bu mesh qorinlar, sumraygan basharalar, xaltayu to'rvalar orasidan — issiqda holsizlangan, asabi qaqshab, qonga tashna bo'lib turgan olomon orasidan qandoq qilib o'tib olarkin? Shu tobda unga zig'irdek bo'lsa ham ozor yetishiga, ust-boshining biror yeri g'ijim bo'lishiga sira chidayolmasdim. Istardimki, uning ma'sum chehrasiga hech qachon, hech vaqt na tashvish, na g'am-koyish ko'lanka solmasa, oq, oppoq ko'ylagiga hech qachon, hech vaqt bir dog' tushmasa...

U ur-yiqit to'polon ichra — odamizot o'rmoni ichra o'z manzili sari yo'l izlardi. Nozik-nihol jussasi, hadik to'la ko'zlari bu asov g'alayon orasida yanada mushtipar, yanada shafqatga zor ko'rinar va bunga sari tobora yuragim ezilib borardi. Shundoq yonginamdan, kimsaga malol yetkazmaslikka tirishib, sharpadek sirg'alib o'tarkan, bir soniya, atigi bir soniyagina ukpardek to'zg'igan sochlari iyagimga tegdiyu boshlarim aylanib ketdi. E, xudo, dedim ichimda, o'zing madad ber, e, xudo! U oppoq libosda, sochlari to'lqin-to'lqin chayqalib olg'a borarkan, beixtiyor meni ham o'z ortidan ergashtirdi:

boya yonimdan o'tayotganida ikki tola sochi ko'ylagimning tugmasiga o'ralib qolgan ekan...

Yuragim gursillab, avtobusni larzaga sola boshladi.

Endi o'ylab qarasam, o'shanda soch tolasi emas, taqdir rishtasi bizni bir-birimizga bog'lagan ekan.

Apil-tapil qadam tashlab borarkanman, qo'rqardimki, hozir u ilkisroq bir harakat qilib yuboradiyu joniga ozor yetadi. Bundan ham ko'ra qattiqroq qo'rqardimki, sezib qolib, sochlarini qullik asoratidan qutqaradiyu qaytib uni ko'rmayman... Shu tariqa unga bandi bo'lib, asiru maftun bo'lib, zulfi zanjirini bo'ynimga bog'lab, izlarini ko'zimga surtib tog'u toshlaru bepoyon vodiylar bo'ylab ergashib ketaversam, ketaversam... Mayli, u meni sezmasin, mehru marhamatini in'om etmasin, faqat meni it kabi quvmasa bas, it kabi ortidan uzoq-uzoqlarga ergashib ketaversam, nafasini tuyib tursam, ko'zlarim o'ngida oq, oppoq ko'ylagi hilpirab, to'liqin-to'liqin sochlari chayqalib boraversa... shuning o'zi kifoya. Shunda men armonsiz o'lardim. Shuning o'zi menga ulug' saodat bo'lardi.

Bir mahal ko'zimni ochsam, Alvastiko'prik ustida turibmiz. U — oppoq libosda, ozod, hur, mag'rur, men esa — kulrang ko'ylakda, bandi bechora. Yo'limni topolmayman — hushim o'zimda emas, topsam ham ketolmayman — izmim o'zimda emas.

Yana uch-to'rt qadam soyadek ergashib bordim.

U soyamni ko'rib to'xtadi.

Men ham indamay turaverdim.

— Nima kerak sizga? — dedi u allamahal o'tib, lekin qayrilib qaramadi. Tovushi titrab ketganidan bildimki, cho'chiyapti: axir, qoq choshgoh chog'i, Alvastiko'prik ustida turibmiz-da!

— Hech narsa, — dedim kulimsirab, — tugmamni qo'yvorsangiz bo'lar endi...

— Voy! — dedi u shundagina nima gapligini fahmlab va shosha-pisha ortiga o'girilmoqchi bo'lganida, to'xtatib qoldim, so'ng avaylab tugmamni tutqunlikdan xalos etdimu, biroq o'zim... — Kechirasiz, — dedi u qip-qizarib, yana nima deyarini bilmay takrorladi: — Kechirasiz...

— Shuning uchun kestirib tashlash kerak, — dedim hazillashib.

— Rost aytasiz, o'lsin ro'dapo bo'lmay, jonimgayam tegib ketdi o'zi. Bir kuni avtobus eshigi qisib olib, toza kuydiruvdi, — dedi u hasrat qilib.

— O', hali sen emas, butun boshli avtobusni ham ergashtirib ketganman, deng? Odam-podami bilan?

U sadaf tishlarini yarqiratib kulib yubordi.

Kulgi — ulug' mo'jiza, begonalarni tanish, tanishlarni do'st, do'stlarni qilo'tmas qadrdon qiladi. Mana, mavlono Gulxaniy, siz bilan ham shu bois oshno bo'lib turibmiz, shundoq emasmi?

Uning ismi Qunduz edi. Ismi Qunduz edi-yu, lekin o'zi yulduz edi. Mening qo'lim yetmagan yulduz. Toileim osmonida bir chaq nab so'ngan yulduz...

Bu tasodif taqdiri ilohiyning xayrli nishonasi ekaniga ishonib, unga so'z qotdim, muhtaram Muhammad Sharif. U ham xuddi o'zim singari hech qaysi xaritada zikr etilmagan ovloq bir qishloqdan ekan, men besh yil tuprog'ini yalagan dorilfunun dargohida, farang-rumo bo'limida tahsil olarkan. Alvastiko'prikdan o'tib, nom qurib ketgandek, alifbo harflari bilan atalgan yangi va chalkash mavzelar tomon asta so'zlashib ketdik. U istiqomat qiladigan besh qavatli oshiyon yaqiniga yetganimizda biz go'yo ming yillik oshnolarga aylangan edik.

«Yana shu avtobusga chiqarmikansiz?» deb iltijo bilan so'radim xayrlashayotib.

Uning ko'zlarida noyob bir tuyg'u — hayo aks etdi, boshini quyi soldi.

Ertasi tushdan keyin telba ko'ngil amriga bo'ysunib, dorilfunun sari yo'l oldim. Terakzor maydonchada ko'zim to'rt bo'lib o'ltirdim. Vaqtiki, darslar tugab, talabalar guras-guras chiqa boshladilar. Naq Farangistonu Rumoda tug'ilib o'sgandek bashang tolibu tolibalar, kumush kulgilar, tillo tabassumlar... Ammo, muhtaram Muhammad Sharif, shul tobda Siz aytgan kabi, qulog'im qozon qulog'idek gap eshitmas, ko'zim uzuk ko'zidek hech narsa ko'rmas edi. Bu holat qarshimda to Qunduzning gul ruxsori paydo bo'lguniga qadar davom etdi. U meni uzoqdan ko'rди, ko'rgani on,

sezdimki, yuzlari anordek qizarib ketdi, ko‘zlarini yerga tikdi va shu ko‘yi bosh ko‘tarmay yonginamdan o‘tib keta boshladi. Ro‘baro‘ bo‘lganimizda bor jur‘atimni jamlab salom berdim. U ohistagina javob qaytardi, bir lahza to‘xtab ikki og‘iz so‘zlamogqa doimiy hamrohi — ibo yo‘l qo‘ymadi.

Men esa ertasi ham, indiniga ham, undan keyin ham... yana ko‘p kunlar dorilfunun ostonasida intizor turaverdim. Daraxtlar bargini to‘kdi, yomg‘irlar yog‘di. Muttasil yog‘aversa yomg‘ir toshga ham kor qilarkan, mavlono Gulxaniy. Nihoyat, men ham ishq yo‘lida chekkan azobu zahmatlarim evaziga oliy mukofotga sazovor bo‘ldim: Qunduz oqshomlari sim qoqib turmog‘imga rozilik bildirdi.

Eslaysizmi, o‘sha o‘tgan kunlarni?..

Umrin ma‘no kasb etgandek edi. Hammani, hatto domlam Eshmuhamedovu Rohibarni ham yaxshi ko‘rib qolgandek edim, garchand muhabbat dardiga giriftor bo‘lib, ko‘pdan buyon Siz bilan muloqotni yig‘ishtirib qo‘ygan esam-da, dalli devona dilimni anglashingizga, binobarin, Mu‘tamir podshoh bechora oshiq — arab Uyaynaga homiylik qilganidek, Siz ham bir qoshiq qonimdan kechib, lutf ko‘rgazishingizga, saodatli bir soatda sovchi ham, to‘yboshi ham o‘zingiz bo‘lishingizga aztahidil inonar edim. Axir, umr savdosi bobida Sizga teng sohibtajriba kam, Boyo‘g‘li bilan Yapaloqqushdek ikki chars qaysarni quda-andachilik rishtalari ila chambarchas bog‘laganingizni ahli kitobxon yaxshi bilur. Yodimda, o‘sha kunlar bir uyda bir o‘zingiz, tegrangizda gala-gala qush, inson ovozig, insoniy haroratga zor bo‘lib o‘ltirardingiz. Nadomatki, men buni sezmas, podshoh kabi sarxush, mag‘rur yurar edim, shohning esa, hazrat Navoiy aytmoq-chi, munglig‘ mushavvashlar bilan ne nisbati?..

Ba‘zan Qunduz bilan barcha oshiqlar singari xilvat xiyobonlarda sayr qilmoqni tilab qolardik. Ming taassufki, Toshkentdek poytaxti azimda xilvat xiyobonning o‘zi yo‘qligi bois aksariyat Alvastiko‘prik yoqalarida, buzilib borayotgan bog‘lar atrofida ohista kezib yurar edik. Qunduz o‘qishidan, yumushlaridan, olis qishloqdagi sog‘ingan kekxa ota-onasiyu yosh uka-singillaridan so‘ylab berardi. Uning hikoyalari o‘zidek sof, sodda, ma‘noli bo‘lardi. Farang-rumo bo‘limidagi hoyu

havaslar, yolg'on hashamlar, kibr-havolar unga zig'irdek ham yuqmagan edi, qiz bola boshi bilan bu ohanrabo ta'siridan musaffo qolgani meni mudom hayratga solardi. Uning kiyimlari ham benihoya odmi bo'lardi, men buni kamtarlikka yo'yib quvonardim, biroq endi o'ylab qarasam, o'n to'qqiz yashar qizga kamtarlikni yagona ziynat qilib taqmoq ham insofdan emas ekan. U shohi-ipaklarga, dunyoning anvoyi liboslariga juda-juda munosib edi. Ammo biz bu paytlar bunga zinhor e'tibor bermasdik, mavlono Gulxaniy, mana, non hurmati, chin so'zim shu.

«Uyimizda ikkita sigirimiz bor, — derdi Qunduz ba'zan tuyqusdan ma'yuslanib, — enamning oyoqlari kuzda shishib ketadi, sog'ib ber, deb kimga yalinib o'tirgan ekanlar...» Goho u birdaniga o'yga tolib, o'qishini sirtqi bo'limga o'tqazib ketmoqqa qaror qilganini aytib yuragimga g'ulg'ula solar, goh esa xomush tortib qolganimni ko'rib kular ediki: «Muhabbat gulshaniga sigir oralab ketdi-ku!»

U «Zarbulmasal» kitobini maktabda el qatori varaqlagan edi-yu, biroq so'zlari hamisha zarofatga to'liq bo'lardi, nozik lutflarini tinglab doimo zavq qilardim.

Zarofatli odamning o'zi zamonamizda oz qoldi, mavlono Gulxaniy.

O'shanda Qunduz, bilibmi-bilmay bashorat qilgan ekan: bir qaro kunda biz shunchalar asrab-avaylagan, suq nazarlardan pinhon tutgan ozoda gulzorni sigir emas, quturgan ho'kiz poymol qildi...

Yana kuz keldi. Chaman-chaman ochilgan paxtalarni quvnab-quvnab tergali ming-minglab shahar ahli safarbar etildi.

Jamiki ulov dalaga jo'natildi. Faqat tramvayni jo'natmoqning iloji bo'lmadi. Ro'znomalar sahifasida andoq so'zbo'ronlar boshlanib, ko'z ochirmay qo'ydi; sakson yashar momoning etak tutgani ham, to'qson yashar boboning himmat kamarini beliga bog'lagani ham, besh yashar go'dakning g'o'zaga bo'yi yetmasa-da, umumxalq hashariga otlangani ham, uch kunlik kelinchakning oq saharni paykal og'ushida qarshilangani ham... hech narsa qolmadi. Hammamiz uchun hurmatli zotlar esa «oinai jahon»dan boqib, «million

egatlarga sochilgan» umumqo‘shinga amr qilar edilarki, so‘nggi misqoligacha! Jon berib, qon berib, sharaf-shon berib bo‘lsada!..

Yalpi xuruj boshlangan kuni men bir hafta muqaddam Nazarbekdan — oylik yantoq o‘rimidan qaytib endi ishga chiqqan edim. Menga bundoq hayronalik bilan boqmang, mavlono Gulxaniy: garchi biz ilmiy-tadqiqot muassasasi deb atalmish dargohda ishlasak-da, chopiqqa chiqamiz, yagana qilamiz, piyoz o‘taymiz, pichanu yantoq o‘ramiz, patinjondan¹ tortib paxtagacha teramiz va bir misqolini ham qoldirmasdan hukumatga to‘plab beramiz. So‘ngra agar shu ishlardan ozgina fursat orttirgudek bo‘lsak, ilmu urfon bilan ham mashg‘ul bo‘lamiz. Alqissa, oyog‘imni qo‘limga olib farangrumo bo‘limiga qarab chopdim. Hovliqib yetib borsam, afsuski, vatanparvarlik tashabbusiga birinchi bo‘lib qo‘shilgan farangrumolar chidab turolmay hafta burun jo‘nab ketgan ekanlar. Bo‘shashib idoraga qaytdim. Rohibar chaqirtirgan ekanlar, huzurlariga kirib, erta tongda Arnasoyda bo‘lishim kerakligidan xabar topdim. Nazarbekdan kelgan qopim hali og‘zi yechilmay turgan edi, orqalab jo‘nadim. Benihoya xursand edim: Arnasoy bilan Do‘stlikning orasi qochib ketgan emasdir, axir!

Ochig‘ini aytsam, paxta terimiga ilk marta buningdek quvonch bilan otlanmoqda edim. Men tug‘ilib-o‘sgan yurtlarda u paytlar g‘o‘za bitmasdi, shu bois yoshlik chog‘larimizdan kunbotardagi uzoq-uzoq dalalarda yotib terardik. Beshinchi sinfda o‘qib yurgan kezlirimda Ko‘korolga borganimni xotirlayman. Ob-havo odatdagidek noqulay kelib, mavsum o‘sha yili ham achchiqichakdek cho‘zilgan, biz uchun naq yetmish ikki kun davom etgan edi. Parij Kommunasining umricha. Biz ham kommunarlar kabi sabot-matonat ko‘rsatgan edik.

Endi ba‘zan o‘ylab, o‘n ikki yashar bolaning qo‘lidan nimayam kelardi, deb shubhaga boraman. Moziyda-ku misollar ko‘p: Bobur o‘n ikki yoshida Andijon taxtiga o‘tirgan, Motsart, deylik, simfoniya yozgan, lekin eng buyuk daho ham o‘n ikki yasharida Ko‘korol cho‘llarida

¹ P a t i n j o n — pomidor.

yetmish ikki kun paxta terolgan emas — tarixni varaq-varaq axtarib ham bu yanglig‘ hodisani hech qaysi solnomadan topolmaysiz.

Ko‘k yomg‘iri ustimizga tomadi, ko‘z yoshimiz — yerga, yer loy bo‘ladi — ahvolimiz voy, paytava quriydi — sho‘rimiz ham, quyosh mo‘ltiraydi — biz ham mo‘ltiraymiz, makaron sho‘rva qaynaydi — jig‘ildon qaynaydi, maymunlar yig‘laydi — biz yig‘lamaymiz. Kuni bo‘yi qo‘shiq aytib paxta teramiz, xuftonda etigimizni sudrab yotoqqa qaytamiz, bir qoshiq obi yovg‘on yutmasimizdan uy egasi — Mammad degan badjahl turk eshikni ochib mo‘ralaydi: apil-tapil kiyinib jo‘naymiz. Turkning o‘n chaqirim narida tomorqasi bor, poyoni yo‘q tomorqasida yeryong‘oq bor, qazib olgani vaqti yo‘q, biroq uyida hasharchi bor, hasharchining tili yo‘q, biroq dili bor, dilida jur‘ati yo‘q, ammo alami bor, oying issig‘i yo‘q, yolg‘iz shu‘lasi bor, ishsevarga tunu kunning farqi yo‘q, ish bor, ish bor, faqat ish bor!

Oramizda Tursun degan bola bo‘lardi. Eng nimjonimiz shu edi. Bir yil avval otasi o‘lgan, doim burnini tortib yurardi. Mavluda degan opachasi maktabga supuriqchi, paxtaga oshpaz bo‘lib kelgan edi. Kechqurun ovqat suzilgan payti biz bo‘rivachchalardek bechora Tursunni o‘rtaga olib talar edikki, Maluv apachang senga karchikani ko‘p solibdi, mana, menikidan ikkita makaron ortiqcha, go‘shting ham ko‘pga o‘xshaydi-ku, ablah?! Nihoyat, Tursun sho‘rlikning yemishini zahar-zaqqum qilib, ko‘nglimiz taskin topar — xusurimiz qongandek bo‘lar edi.

Mehnat hayvonni odamga aylantirganidek, ba‘zan odamni ham hayvonga aylantirishi hech gap emasligiga ana shunda imon keltirganman, mavlono Gulxaniy.

Bir sahar uyg‘onib ko‘zimizni ochsak, boyoqish Tursun kulala bo‘lib tirishgancha ingrab yotibdi. Yaqiniga borib bo‘lmaydi — bad bo‘y dimoqni yoraman deydi. “Kulmanglar, — deb yig‘laydi bechora, — kulmanglar, og‘aynilar, o‘rnimdan turolmay qoldim, voy, qornim, o‘lib qolaman, Maluvni chaqirib beringlar, jon og‘aynilar!..”

Biz esa qornimizni ushlab qotib-qotib kulardikki, ana shundoq bo‘ladi, nafi yomon hayitda o‘lar, deydilar, kinnamiz kirib, teshib chiqibdi-ku, axir!

Oyog‘imiz olti bo‘lib ko‘chaga yugurdik — boshqalardan suyunchi olgani. Radiodan aytsa ham shunchalik tez tarqamas: «Beshinchi «B»dagi Tursun bor-ku, o‘sha ishtoniga...»

Ming la‘nat! Ming karra la‘nat, mavlono Gulxaniy! Endi jirkanaman o‘zimdan — o‘sha paytda Tursun boyoqishdan jirkanganim uchun! O‘shanda boshqalarga qo‘shilib suyunchiga yugurganim uchun! Bir mahal sho‘rlik Maluv keldi, yig‘lab-yig‘lab jigarini pokiza qildi, kimlarnidir qarg‘adi, otasini yo‘qlab yana ko‘zyosh to‘kdi. Biz esa tashqarida, turkning ayvonchasida hamon hiringlashib turardik.

Saldan keyin muallimlar, direktor keldi, «Tez yordam», do‘xtirlar keldi, lekin ulardan avval qazo elchisi allaqachonlar kelib Tursun bechoraning qismatini hal qilgan ekan-u, hech kimsa buni sezmagani ekan.

Tursunni kasalxonaga olib ketishdi.

Keyin biz uni qaytib ko‘rmadik.

Faqat bir oydan so‘ng, maktabda o‘qish boshlangan kunning ertasiga o‘qituvchimiz Eson aka bizni Tursunning uyiga olib bordi.

Eshikni ko‘k kiygan Maluv ochdi.

Shu-shu, Ko‘korolni yomon ko‘rib qoldim. Dorilfununda biz bilan benihoya xushfe‘l, odobli, jajmondek bir qiz o‘qirdi. Ismi Barno edi, men olamda ismi jismiga bunchalar mos tushgan odamni juda kam ko‘rganman. Yigitlarning bari unga oshiq, qizlarning jami unga mahliyo edi-yu, yolg‘iz mengina uni yoqtirmasdim: Barno Ko‘koroldan edi. Ko‘korol rahmatli Tursunni yodimga solardi, Tursunning xotirasi esa menga o‘zimni, o‘zimning o‘sha paytdagi jirkanch qiyofamni eslatardi.

Nimasini aytayin, mavlono Gulxaniy, shundan keyin paxta terimlaridan ham bezillab qoldim. Dunyodagi istagan qora yumushga — go‘r qazishu go‘laxlikka, ichak-chavog‘u molxona tozalashga ham tayyor edim-u, paxtaga chiq, desalar, shaytonlab qolgudek bo‘lardim. Bilmadim, qay g‘addor kimsaning kasri tufayli bezabon, begunoh oq paxta ko‘zimga balo-qazodek yomon ko‘rinib qolgan edi. Mana endi, oradan yillar o‘tib, ilk marotaba paxtaga yorug‘ yuz bilan, umid ham quvonch bilan bormoqda edim. Ich-ichimda hech

narsadan istihola qilmay meni dalaga jo'natgan Rohibardan minnatdor ham edim. Paxta bahona — diydor g'animat.

Mening sodda, sofdil Qunduzim, toleim osmonidagi yorug' yulduzim ishqda tenglik shartini nihoyatda ustun qo'yardi. Bukun men ham shu tenglik darajasiga ko'tarilganimdan behad shod edim: Qunduz hasharchi edi, men ham hasharchi bo'ldim. Yo'lda ketib borarkanman, uning shu xususda aytgan so'zlari beixtiyor yodimga tushardi. Bir kuni nimadir munosabat bilan birovni esladik, uning bo'y yetgan ikki farzandidan voz kechib, taqdirini yosh qiz bilan bog'laganini gurung qildik. Kimdir ko'ngil, dedi, kimdir — muhabbat. Shunda Qunduz xomush tortib aytdiki, men shu odamning samimiyatiga ishonmasdim, negaki, jigarining qonidan bunyod bo'lgan o'z zuryodiga mehr ko'rgazolmagan kishi qanday qilib begona kimsaga mehr paydo qila olsin? So'ngra u o'ylanib aytgan ediki, muhabbatning yagona sharti bor, bu — tenglik-dir, shu tuyg'u yo'q joyda har qanday ezgu niyat g'orat topur, ishq olamida birovning qulligiyu ikkinchi birovnnig istibdodi boshlanur... Keyinchalik men bu borada ko'p fikr qildim va o'zimcha shunday bir qarorga keldimki, o'rtamizda tenglik barqaror bo'lmaguncha, ya'ni Qunduz ham dorilfunun guvohnomasini qo'lga olmaguncha to'y haqida og'iz ochmagan ma'qul. O'zim han ungacha qoqqan qoziqdek joyimda qotib turmasligim, nomzodlik unvoniga erishmog'im kerak. Demak, o'shandagi xomxayollarim bo'yicha ikki yildan so'ng Shahrizabz tomonlarga sovchi bo'lib borishingiz lozim edi, mavlono Gulxaniy. Nasib etsa, albatta. Afsuski, u paytda bu hikmatli kalomni tilimga ham olmagan ekanman. Oxir-oqibat esa... nasib etsa, kelar Shomu Iroqdin, nasib etmasa, ketar qoshu qovoqdin, deganlarining o'zi bo'ldi...

Armasoyga kelib o'rtnashdimu kechqurun Do'stlikka qarab yo'l oldim. Farang-rumo bo'limi tupkaning tagida joylashgan davlat xo'jaligida paxta terayotgan ekan, yarim kechasi yetib bordim. Muhtaram Muhammad Sharif, «Zarbulmasal»da tasvir etganingizdek, muhtasham bir choldevor (bizlar buni barak deymiz, lekin bu aslo chuchvara degani emas), oldida lovillab gulxan yonib turibdi, dorilfununda naq Farangistonu Rumoda tug'ilib o'sgandek ko'ringuvchi barno tolibalaru

o'ktam toliblarni aslo tanib bo'lmaydi — bamisoli Qashqadaryo cho'llariyu Xorazm dashtlaridan kelgan jaydari o'spirinlarga o'xshaydi. Faqat Qunduz, mening Qunduzimgina aslo o'zgarmagan edi. Isliqi kiyimlarda ham yulduzdek chaq nab, barak yonidagi yakka tup sadaqayrag'ochga suyangan cha lovillab yonayotgan gulxanu zikrsimon raqs tushayotgan yigit-qizlarga ma'yus termilib turardi. Meni ko'r diyu birdaniga allanechuk titrab ketdi, beixtiyor parishon, aftodahol alfozda ikki qadam ortiga chekingandek tuyuldi.

«Qunduz! — dedim qo'rqib, entikib, — senga nima bo'ldi, Qunduz? Tobing yo'qmi?»

«Assalom! — dedi u kuch bilan kulmoqqa tirishib. — Menga nima qilibdi? O'zingiz nechuksiz, daragingiz yo'q?»

«Mendan ranjima, Qunduz», — dedim kaftlarini qo'limga olib.

«Nega ranjiyin? Qo'ying, anavilar qarab turibdi. Qachon keldingiz?»

«Hozir. Pichandan to'g'ri bu yoqqa jo'natishdi».

«Ha-a, — deb bosh irg'adi Qunduz va ko'zlarida bir lahzagina ozor aks etdi: — Men esa, mana... yuribman».

«Biz juda yaqindamiz, Qunduz, — dedim hovliqib, — endi har kuni kelib turaman».

Bunga javoban Qunduz lom-mim demadi.

«Yupun kiyinibsiz, G'ulom aka, — dedi achinib, — sovuq ham tushib qoldi...»

«Nega haydayapsan, Qunduz?»

U boshini quyi egib, eshitilar-eshitilmas pichirladi:

«Kech bo'lib ketdi, noqulay...»

«Nimasi noqulay? Nimasi noqulay? Bu farang-rumolaring bari men uchun bir tiyin, eshityapsanmi, bir tiyin!»

«Mayli, G'ulom aka, mayli, domlalarimiz ham...»

«Qunduz! Qiynama meni! Qiynama! Sog'iniblar ketdimku, Qunduz!»

«Xo'p, G'ulom aka, faqat ertaga, ertaga gaplashaylik, xo'p deng, o'zingiz yaxshisiz-ku...»

Mening yana boshim aylanib, zimiston cho'lu biyobonlar ko'zlarimga nurafshon vodiy bo'lib ko'rindi. Qunduzning diydoriyu bir og'iz shirin so'zidan mast, sarxush odamdek

chayqalib, tag'in bo'yinsundim: «Xo'p, Qunduz, aytganing bo'lsin, faqat menga bir kulib qaragin. Ana shundoq! Bo'pti, xavotir olma, hoziroq jo'nayman, ko'zimga qarab ketaman, hech kim bilan yoqalashmayman, yo'lda ham adashmayman».

Yo'lovchi mashinalarga osilib, poyi piyoda yo'l yurib, yo'l yursam ham mo'l yurib, saharga tomon o'z baragingma yetib keldim. Ko'zlarimga qum tiqilgandek achishardi, yotib birpas mizg'imoqchi bo'ldimu, eplayolmadim. Qunduzni o'ylayverdim, yuragim zirqirab, allaqanday begona, mavhum bir xo'rlik tuyg'usi eza boshladi.

Axir, u hech qachon men bilan bu taxlit muomalada bo'lmagan edi-ku! Hech mahal menga bunchalar parishon boqmagan edi-ku! Nega u bu qadar mahzun edi-yu, mahzunligini yashirmoqqa bu qadar zo'r berib urinar edi?

Mavlono Gulxaniy, falak odamizotga ravo ko'rgan uqubatlilar orasida shubha azobidan ham ko'ra og'irrog'i bormikan?

Kun yorishib, odam odamni taniydigan bo'lganida sudralib baragimdan chiqdim. Ishboshimiz Jo'lliboy akaga yo'liqib, ijizat so'radim. Ahvolimni ko'rib, yana qo'rqib ketdi: «O'ka,— dedi bosh chayqab, — adoi tamom bo'psan-ku. Kirib, qimir-lamay yot».

Xaloyiq ishga tarqab, oyoq osti bosilgach, yo'lga tushdim. Ikki soat burun o'tib kelgan yo'llarimdan telbaga o'xshab ortimga qaytdim.

Qunduzni poyoni yo'q paxtazorda, yarim etak ustida kechagidek ma'yus o'ltirgan holda topdim. Kunbotarga qarab nelarnidir o'ylab, g'amga botib o'ltirardi, tepasiga yetib borganimni ham sezmedi. Qo'limda bir siqim paxta, yuragim uvushib, asta qarshisida tiz cho'kdim: «Horma, Qunduz». U yalt etib burilib qaradi, qizargan ko'zlari, qayrilma kipriklarida yosh yiltirab ko'rindi va nogoh boshini ko'ksimga qo'yib, unsizgina yig'lab yubordi. «Qayoqda edingiz, G'ulom aka, — deb shivirladi alam bilan, — qayoqlarda edingiz?!» Men gumroh, tabiiyki, u payt bu so'zlar ma'nosini anglab yetmadim, qiz ko'nglining tammannolari deb qabul qildimu uning yuz-ko'zlarini silab g'o'ldiradim: «Xafa bo'lma, yulduzim, mana, keldim-ku». Qunduz birdaniga yulqinib og'ushimdan chiqdi, ukpardek to'zg'igan sochlarini shosha-pisha tuzatib,

durrasini boshiga tortdi va menga anduh to‘la bir nigoh bilan shunday tikildiki, mavlono Gulxaniy, jigar-bag‘rim uzilib ketgandek tuyuldi. «Nega bunday qaraysan?!» dedim zor qaqqshab. «O‘zim, — dedi u ko‘zlarini hamon ko‘zlarimdan uzmay, — o‘zim...» «Gapir, Qunduz, — deb iltijo qildim titrab, — gapirsang-chi, nima bo‘ldi, axir?! Nega indamay-san, Qunduz?!» Nihoyat, u hushini yig‘ib, o‘rnidan turdi, ust-boshini qoqdi, bo‘g‘ziga tiqilib kelgan xo‘rsiniqni bir kiprik qoqib mardonalik bilan yutdi-da, naq yuragimga xanjar urgandek: «Endi boshqa kelib yurmang, G‘ulom aka», dedi... Shundagina men uning so‘z ohangidan bu gaplar qiz qalbining istig‘nolari emasligini angladim — o‘ltirgan joyimda tosh kabi qotdim. Ko‘zlarimga nur qaytib, oyoqlarimga yana mador ato bo‘lganida Qunduz paykal etagida, boshini quyi solgancha ufq tomon ketib borardi. Ufq esa yaqin edi. Baxtim, saodatim, tole yulduzim lahza sayin mendan abadiyan uzoqlashib ketmoqda edi. Jo‘yaklarga qoqilib-surinib, jonimning boricha ortidan yugurdim. O‘pkam bo‘g‘zimga tiqilib quvib yetdim-u, yelkalaridan tutib o‘zimga qaratgali jur‘atim yetmadi. «To‘xta, Qunduz, — deb yalindim xolos, — meni tiriklayin o‘ldirib ketma, gunohim ne, aytib ket». U qayrilib to‘xtadi, ma’sum kulgichlarida yana zo‘raki kulgi zaif jilva qildi. «Sizda hech bir gunoh yo‘q, G‘ulom aka, — dedi allaqaylarga qarab, — qancha gunoh bo‘lsa, endi mening bo‘ynimda. Men... men sizga teng emasman!»

Bir o‘lib tirilgan kimsaning umri uzoq bo‘ladi, deydilar, muhtaram Muhammad Sharif. Ba‘zan o‘ylaymanki, mening ham umrim uzoq bo‘lsa kerak — o‘sha lahzada bir o‘ldimu so‘ng ne zamonlar o‘tib qayta tirildim.

Hammasini birdaniga yaqqol angladim, ko‘nglim muzdek bo‘lib, unda faqat sovuq qahr qoldi. «Kim u?! — deb so‘radim tishlarim takillab. — Ayt, qaysi haromi u?! Ayt, yo‘qsa, hozir sening o‘zingni... o‘ldiraman!» Qunduz, ko‘zlari to‘la jiqqa yosh, indamay, jallod kundasiga bosh qo‘ygandek, qarshimda bo‘yin egdi. «Arzimaydi, — deb pichirladi bir mahal, — na u, na men bunga arziymiz». So‘zlari ham, xoksor, muztar qiyofasi ham mening tajassumi riyo bo‘lib tuyuldi, aqlimni yo‘qotdim, yuz-ko‘zlari aralash ustma-ust tarsaki tortdim, keyin yana qo‘l

ko'tardimu faqat mehrga, faqat ardoqqa munosib bu nurli chehra, bu teran ko'zlar cheksiz qayg'uga g'arq ekanini ko'rib, ingrab yubordim. Qunduz yuzlarini changallab, bazo'r o'rnidan turarkan, armon bilan bosh chayqadi: «Nega meni ilgariroq urmadingiz, G'ulom aka?!» Shundagina hushim o'zimga qaytdi. «Qo'lim sinsin, Qunduz, — dedim ich-ichimdan bo'zlab, — qo'llarim sinsin...»

Lekin endi na bo'zlash, na qarg'ishu ta'na-nadomatdan zarra naf' yo'q — bo'lar ish bo'lgan, bo'yog'i singan edi. Endi mening chekinga tushgani achchiq armon edi xolos, chekka tushgach esa, cheklashmoqdan o'zga chora yo'q.

Ishongan tog'da kiyik yotmas, deganlari nahot shundoq bo'lsa, mavlono Gulxaniy?

Qunduzning so'nggi iltijosi shu bo'ldi: «G'ulom aka, bilaman, meni hech qachon kechirmaysiz. Faqat unutmangki, men sizga munosib emasman deganim — siz menga munosib emassiz, deganim emas».

Shu jumboqni aytdiyu boshini egib etagini sudrab, ustimdan kulgandek tirjayib turgan paykal aro bora-bora uzoqlashib ketaverdi. Shu palla, shu soniyalarda aqlu idrokim, ko'zim, qo'l-oyoqlarim faqatgina jaholatga, jaholatning qahrli tilidan chiqqan «Ketik!» degan hukmgagina itoat qilar edi — ketdim. Makkapoya bosilgan mashinaga tirik jasadimni ortib baragimga qaytdim.

Bu tun — yigirmanchi oktabr, iliq kuz oqshomi edi, biroq u menga yaldo kechasi kabi benihoya tuyuldi. Tong otmadi. Balki dunyo endi abadiyan zulmatda qolur, deb o'ylay boshlaganimda, ufq uf tortib uyg'ondi.

Devonavor yurib yo'lga chiqdim. Arnasoyda hali hamma uxlab yotardi. Do'stlikka yetib kelganimda oldi odam endi o'rnidan turib bet-qo'lini yuvmoqda edi. Farang-rumo bo'limining yotoqxonasida esa bu vaqt qiyomat-qoyim qo'rgan edi: tong qorong'isida Vohid degan uyg'ur oshpaz bola oshxona eshigini ochib qarasaki, shifta Qunduz...

Shahrizabz — yashil shahar, motam libosingni kiy!

Qunduz ketdi. O'zi bilan birga bir umrlik armonlarimni, to qabrga kirgunimga qadar suyak-suyaklarimni sirqiratadigan intiqom tuyg'usini, alamli va sharmisor bir sirni ham olib ketdi.

Atrofda — tumonat odam. O'ng tomon boqsam ham odamizotga ko'zim tushadi, so'l tomon boqsam ham. Ammo bularning qaysi biri qotil?! Qaysi biridan baxtiqaro Qunduzim uchun, o'zim uchun qonli qasos olayin?! Eh, qani edi, loaqal izlarining gardini topsam, it bo'lib iskar edim, umrim ado bo'lguniga qadar izlar edim... Qayda u, qaysi biri u?! Qay burchakka biqinib olgan?.. Nima qilib qo'yding, Qunduz? Men senga ishonardim-ku? Sen tufayli olamga, odamga ishonardim-ku? Endi kimga ishonayin? Endi qandoq ishonayin?

Talato'p bo'ldi, so'roq-tergov boshlandi. Qunduz umr bo'yi biror odamga, odam nima, hatto chumoliga ham ozorni ravo ko'rgan emas edi, favqulodda ham biror kishiga aytarli ziyon-zahmat yetmadi. Yostig'i ostidan chiqqan ikki enli xatga bir og'izgina qilib: «Charchadim», deb yozib qoldirgan ekan. Men ham el qatori so'roq berdim. Ko'p gapni quduq bo'lib ichimga yutdim. Bilardimki, endi ularning hech biri Qunduzga sharaf keltirmagay. Da'vo-janjal yo'q, guvoh-isbot yo'q, tergovlar tugadi. Yengil-yelpi hayfsanlar, ko'z yoshlari, dafn, hayot abadiyati... Yana yolg'on aytyapman, tergov tugagani yo'q. Toki men tirik ekanman, u davom etmog'i muqarrar, muhtaram Muhammad Sharif. O'zimni hargiz kechirolmayman: o'shanda Qunduzning sabr kosasi to'lgan ekanu men so'nggi tomchi bo'lgan ekanman.

Ba'zan esa, turib-turib o'zgacha xayollarga ham boraman. Axir, u Layli emas, Qunduz edi, men ham Majnun emas — bor-yo'g'i bir G'ulom edim, bas, shunday ekan, ishqimiz qissasini bu qadar qayg'uli xotima topdirmoq shartmidi, deb ham o'ylayman. So'ng o'zimga o'zim javob aylab deymanki, u holda Qunduz Qunduz bo'lmas edi, butkul boshqa kimsaga, ajab emaski, boshqa narsaga aylanib qolardi. Aytaylik, gulbeorga.

Sodir bo'lmish bu voqealarda mening ham gunohim bormidi, deb tunu kun ba'zan o'zimni taftish qilaman. Shunda yuragimning tub-tubidan bir necha o'n ovoz baravariga nido berib hayqiradi: «Aybdorsan! Aybdor!»

O'rtaydigan joyi shundaki, oradan mana, to'rt yil o'tibdi hamki, hali Qunduzni biror marta tush ko'rganim yo'q. Hatto ba'zan yuz-ko'zlari qandayligini ham unutilib qo'ygandek sezaman o'zimni. Sarg'aygan daftarlar qatida saqlanayotgan

ikki-uchta suratni olib qarashga yuragim dov bermaydi. Va mudom shu bois hayron bo‘lamanki, nega endi shuncha vaqt o‘tib, loaqal biror marta uni tushlarimda ko‘rmasam?

Nahotki diydor qiyomatga qolgani chin bo‘lsa?

«Ana shundoq, mavlono Gulxaniy, — dedim nihoyat hasratimga yakun yasab, — notavon qulingizning boshidan mundoq savdolar ham o‘tgan. O‘tinaman, o‘ylamangki, yuragida ishq o‘tidan yilt etgan nishona yo‘q, deb. Yo‘q, aksincha! Ehtimol, to hanuz yuragimni kuydirib yotgan ishq alangasi so‘nganida edi, balki men ham o‘zgaga ko‘ngil qo‘ygan bo‘lurmidim... Hozircha esa, bu o‘tda yolg‘iz o‘zimning yonganim ham kifoya — begunoh bir odamni ham bu alanga domiga tortmoq ayni noinsoflikdir. Imonim komilki, Siz ham buni ma‘qul topmay, zaharxanda bir kinoya bilan qaydadir chimdib o‘tur edingiz». Shunday deb boshimni ko‘tarib qarasamki, ro‘paramda o‘ltirgan Muhammad Sharifdan nom-nishon ham yo‘q. Hayron bo‘lib o‘rnimdan turdim. Qo‘shni xonada qushlarning chag‘ur-chug‘uri tag‘in avjiga chiqqan, patir-putur qanot qoqqan tovushlar baralla eshilib turar edi.

Asta deraza oldiga borib, ikkala tavaqasini ham lang ochib yubordim. Dimog‘imga achchiq kuyindi isi urildi. Yaqin atrofda qaydadir xazon yoqilardi. Entikib-entikib havo simirgancha tashqari boqarkanman, yuz qadamlar narida, katta yo‘l adog‘ida, jo‘xorisi o‘rib olingan yaydoq dala boshida lovillab gulxan yonayotganiga ko‘zim tushib qoldi. Avvaliga, xazon shu yerda kuydirilayotgan ekan, deb o‘yladim, biroq gulxanning ko‘kka o‘rlagan baland shiddati, tevarak-atrofni kunduzidek yoritib yuborgan yorug‘ shu‘lasi e‘tiborimni o‘ziga tortdi. Diqqat bilan tikilib qarab, buning maxsus yoqilgan gulxan ekanini payqadim. Uning atrofida davra qurib nima haqdadir qizg‘in suhbatlashib o‘ltirgan uch kishining qiyofasi g‘ira-shira ko‘zga chalinardi. Shoshib ortimga burildim, stol ustidan ko‘zoynagimni olib taqdim va dastlab odmi to‘nga o‘rangan Muhammad Sharifning xiyol bukchaygan qomatini ko‘rdim. Yonidagi odamlar ham nihoyatda tanish ko‘rinardi. Sinchiklab qaradimu ko‘zlarimga ishonmay qoldim: tungi hamsuhbatlarning biri qirg‘iyburun, sochlari fatila-fatila bo‘lib yelkasini tutgan, egniga kigiz chakmon tashlab olgan kishi...

yopiray! Nahotki Gogol bo'lsa?! O'lay agar, aslo adasha-yotganim yo'q: quvtabassum, xushmo'ylov bu kimsa poyonsiz xayollar sohibi Nikolay Vasilyevich Gogolning naq o'zi edi, charsillab yonayotgan gulxanga uzun, qoqsuyak qo'llarini tutganча Dikanka qishlog'i oqshomlaridan maroq bilan hangoma qilardi. Uning qarshisida esa qora abo kiygan, rang-ro'yi qorong'i tun zulmatida yanada oqarib ko'ringan boshqa bir tanish siymo kulohsimon qalpog'ini tizzasiga qo'yib alanga shu'lasiga jimgina tikilib o'ltirardi. Xans Xristian Andersen! Yorug' g'ussa bilan yo'g'rilgan sirli qissalar ijodkori! «Yo tavba! — deb pichirladim hayrat barmog'imni tishlab, — odam charchagandan so'ng ko'ziga har balolar ko'rinaverar ekan-da! Nahotki o'ngim bo'lsa? Unda... unda bular yarim kechasi qaydan kelib qolishdi? Muhammad Sharif shu bois g'oyib bo'lib qolgan ekan-da! Yo, qudratingdan!»

Yana hayronalik bilan ular tomon tikildim. Ularning qanday qilib til topishgani menga qorong'i, lekin til topishgani aniq edi — suhbat benihoya qizg'in davom etardi. Gulxandan uch-to'rt qadam narida shotisi ko'tarib qo'yilgan allaqanday bir aravaning ko'lagasi qorayib ko'rinar edi. Umuman, g'aroyib manzara edi bu: tepada — yulduz to'la osmon, tevarak-atrofdan — ufq qadar cho'zilgan dala, o'rtada — lovillab gulxan yonar, uning tegrasida olamning uch zukko donishmandi dunyoning ustidan kulib o'ltirar edi!

Birdaniga ma'yus tortib qoldim, ko'nglim shu gulxan taftini, uning yonidagi suhbat haroratini tiladi. Kiyinib, dahlizga chiqdim, qarshidagi xona eshigiga quloq tutdim: qushlar bozori avjida, osmon uzilib yerga tushsa ham birortasi sezmaydi. Asta tirqishdan mo'raladim: anqodan tortib bulbulgacha, tosqoradan tortib churrakkacha jamiki qushlar bunda charx urar edi-yu, sohibi salotin Muhammad Sharifning qorasi ko'rinmasdi. Xotirjam bo'lib, sekingina tashqariga chiqdim.

Kuz kelgani rost ekan. Muzdek ayoz, oyoq ostida diydiragan bargi xazon buni har qadamda ta'kidlar edi.

Uyni aylanib o'tib, lovillab gulxan yonayotgan tomon yo'l oldim. Ana u, ko'kka sapchib turibdi! Suhbat ham gulxandek qizigan, bedor hamsuhbatlar gurungga shu qadar berilgan edilarki, qo'l cho'zsa yetgudek joydan daqiqa sayin

shu'la sochib g'iz-g'iz o'tayotgan ulovlarga pinak ham buzmasdilar.

O'n qadamlar chamasi qolganda birdaniga o'yladi, qanday qilib boraman? Aytmagan joyga yo'nimgan tayoqday...

Bir zumdan so'ng ko'z o'ngimni to'sgan bu andisha pardasi ko'tarilib, yana oldinga boqdim. Yo falak, ko'r bo'layinki, agar qarshimda qop-qora bo'shliqdan o'zga narsa bo'lsa! Hushim uchib, yon-atrofga sarosimalanib qaradim. Ortimda, huv uzoqda yuz bir ko'zli derazalari bilan ijara uyim gungursdek bo'lib qorayib turibdi, ro'paramda — shipshiydam jo'xoripoya, sal yursam tog' bo'yi uyulib yotgan axlat tepasiga yetaman. Yo qudratingdan! Gulxan qayga g'oyib bo'ldi?! Andersen-chi? Gogol-chi? Muhammad Sharif?! Axir, hozirgina ularni o'z ko'zim bilan, so'qir bo'lgur mana shu ko'zlarim bilan ko'rgan emasdim?! Har birining o'ltirgan joyini hozir ham aniq ko'rsatib bermog'im mumkin!

Aqlu hush boshimdan uchib, yana ijara uyimga qaytdim. Xonamga kirayotib qo'shni xonaga quloq tutdim: jimjit. Qushlar ham sayrab charchab, nihoyat, tingan bo'lsalar kerak. Yon-verimda ro'y berayotgan sirli hodisalardan taajjub va hayratim chandon ortib, asta joyimga cho'zildim. Ko'zim ilindi, bir mahal kimdir eshikni ohista ochib kirayotganini payqab, uyg'onib ketdim. Hovliqib, boshim tepasidagi noparmon tunchiroqni yoqdimu eshik tirqishidan qalami to'ningning etaklarini hilpiratib o'tayotgan Muhammad Sharifning daroz qomatiga ko'zim tushib qoldi.

U gulxan yonidagi tungi bazmdan qaytib kelmoqda edi!

Ertalab o'rnimdan turgan zahoti borib do'xtirga ko'rinishga ahd qilib, yana mudrab ketdim. Jo'lliboy akam aytmoqchi, baloning oldini olgan tuzuk.

Tongga yaqin odatdagidek erinchoqligim tutib, allapaytgacha «ana turaman-mana turaman», deb to'shakdan qo'zg'almay yotdim — issiqqina o'rindan sira chiqqim kelmasdi. Oqibat nonushtani nasiya qilib, chala-chulpa soqol qirtishladimu ishxonaga qarab chopdim. Avtobus bekati tomon yo'rtmoqlab ketarkanman, qiziqish g'olib kelib, atay yo'lni chapga soldim — kechqurun gulxan yongan joyini ko'rmoqchi bo'ldim. Bordim. Ko'rdim. Ko'zimga ishonmadim: yo'l chetida,

shishiydam paykal boshida chala o'chgan shox-shabba, hali hovuri ko'tarilmagan bir uyum kul...

Ishxonada ko'rgan-kechirganlarimni aytib yuragimni bo'shatay desam, ohkim, hamdard yo'q. Yolg'iz ishonganim Jo'lliboy aka, lekin u ham poyintar-soyintar gap-so'zlarimni tinglayverib, shu darajaga borib qolganki, yana bir karra shu xususda og'iz ochgudek bo'lsam, ruhiy kasalliklar shifoxonasiga o'zi qo'shqo'llab eltib tashlashi tayin. Shu sabab hech kimsaga damimni chiqarmay qo'yaqoldim.

Tushlikdan kechroq qaytdim. Xonada tamaddi qilib o'ltirgan Jo'lliboy aka (uning oshqozoni kasal, ovqatni uyidan olib keladi) non kavshagancha: «O'ka, Dinora opangga sim qoqar ekansan», — deb qoldi.

Obbo! Maoshga hali uch kun bor-ku! Ijara haqining muddatini asli moyana kuniga to'g'rilab olsam bo'larkan-u shunga ham hech hafsala qilmadim-da!

Shoshib bekaning ishxonasiga sim qoqdim. Bekamiz bugun ishga chiqmabdilar. Uylariga qo'ng'iroq qildim. Hech kimsa javob bermadi. «Tushlikdan so'ng istirohat qilib yotgan bo'lsalar ajab ermas», degan xayolga borib, yana ishga kirishdim. Kechga yaqin sirli qo'ng'iroqni eslab, tag'in sim qoqdim. Hamon jimlik. Shunda Jo'lliboy akamdan yigirma besh so'm qarz so'radim. Kasaba uyushmasining xazinachisi edi u, o'ng yonboshidagi temir qutida mudom besh-o'n so'm bo'lardi, kalitni esa ishtonbog'iga bog'lagandek qilib ehtiyotlardi. Jonini chiqarib berayotgandek inqillab, arang beshta besh so'mlik olib uzatarkan, to'tiqushdek tinimsiz bir gapni takrorlar edi: «Sayfulla akang bilmasin, jon o'ka!» Qo'lyozmalar bo'limidagi Sayfulla aka uning eski g'animi edi, Jo'lliboy akam undan Azroildan qo'rqqandek qo'rqardi.

Qarzni cho'ntakka solib, kechqurun beg'am-beparvo boyvachcha niqobini yuzimga tortib, bekaning uyiga — Dorilmuallimin tomon yo'l oldim. Muhammad Sharif bukuncha bir tirikchiligini qilar. Ana, bijildoq, erkatoy qushlari bor, bir oqshom shularning rizqiga sherik bo'lib turar!

Dorilmuallimin ishxonamizdan u qadar uzoq emasdi, darrovda yetaqoldim. Husnu hashamning oliy maqomiga ko'tarilgan obod ko'chalar bo'ylab bekamizning uyiga ravona

bo'ldim. Dorilmuallimin shahar chetidagi ozoda, sokin mavzelardan bo'lib, dorilfunun biqinida joylashgan va aksariyat dorilfunun muallimlari istiqomat qilgani vajidan shunday deb atalardi. Ammo uch yildan buyon kelib-ketib yurib, bu yerda muallimlar barmoq bilan sanarli ekaniga ishonch hosil qildim. Bunda har turli katta-kichik arboblari, ahli tijorat, ahli chayqov va turfa xil ahli bekorchi umrguzaronlik ila mashg'ul edi.

Dinora opamizning hovlisi Dorilmualliminning qoq o'rtasida joylashgan. Qo'qon xoni deysizmi, Buxoro amiri deysizmi, Xiva xoni deysizmi, istagan hukmdoringizning o'rdasi bilan husn talashadigan muazzam bir mulk edi. Bekamizning o'zi iftixor bilan aytishicha, qay bir yili yetmish besh mingga xaridor chiqqan-u, bular ko'nishmagan. «Bu joyni joy qilguncha umrim ado bo'ldi, nahot umrimning bahosi yetmish besh ming bo'lsa?!» derdi Dinora opamiz o'ksinib. Pochchamiz Sherlon aka xandon tashlab kular ediki: «Bizning umrimiz-chi, bizning umrimiz hisobga kirmas ekan-da, a, xonim?» «Albatta hisobga kirmaydi, — deb jilmayardi Dinora opamiz, — sizning umringiz bebaho-ku, xo'jayin, biror narsa bilan o'lchab bo'larkanmi? Lekin xudoligingizni ayting, agar men xala qilmaganimda haliyam o'sha uch xonali katalakka tiqilib o'tiraverardingiz, to'g'rimi?» Sherlon aka bunga javoban kulib qo'yardi, xolos.

Ular dastlab hozir men istiqomat qilayotgan oshiyonni sotib olishgan. Ishxonalariga yaqinroq bo'lgani uchun. Er-xotin shahar tashqarisidagi ruhiy kasalliklar shifoxonasida muqim yigirma yetti yil birga ishlab keladilar. Rasman pochchamiz xastaxona boshlig'i, lekin men buning aksincha ekanini allaqachon sezib olganman. Bu oshiyon uchun o'n ming to'lashgan. «O'n ming u paytlar katta pul edi, — deydi Dinora opamiz uh tortib, — qutulguncha o'lib bo'lganmiz. Keyin bu imoratga unnadik. E, ukajon, bu dunyoda qiynalganda pochchangiz ikkalamiz qiynaldik. Endi, ishqilib, bolachaqamiz rohatini ko'rsa — bas. Tirik jonga joy hech ortiqchalik qilmas. Mana, Jahongir ukangiz ham katta bo'lib qoldi».

Ha, Jahongir ukamning ham bo'yi cho'zilib qolgan. Bul-tur uchinchida o'qirdi, bu yil to'rtinchiga o'tibdi. «Agar o'nin-chini bitirib uylansa ham olti yil bor ekan, — deb asta xomcho't

qilaman. — O'ldimi, axir ungacha menga ham ishxonamdan uy-puy tegib qolar». Garchi Jo'lliboy akam shu lallayib yurishim bo'lsa, qirq yil qiyomatda ham boshpana tegmasligini aytib ko'nglimga vahima solib tursa-da, men nekin odam, umid bilan yashayman. Lekin bari bir unga qadar uy xo'jalari bilan munosabatni sariyog'dek silliq olib bormoq lozim. Chunki buningdek soz, qulay ijara uyni men, mana, o'ttiz to'qqiztasini almashtirib endi ko'rishim. Ijaradan ayrilmaslikning yagona yo'li — vaqtida hisob-kitob. Hisobli do'st ayrilmas, deb bejiz aytmaganlar, shunday emasmi, mavlono Gulxaniy?

Yong'oqdan yasalib, naqshu nigor o'ymakorlik ila jilo berilgan darvoza qarshisida bir zum nafas rostlab, asta qo'ng'iroq tugmasini bosdim. Xiyla vaqtgacha biror sharpa sezilmadi. Bir ozdan so'ng yana qo'ng'iroq chaldim. Hech qanday sado bo'lmagach, ostona hatlashga jur'at etdim. Darvozaxonada oqqushdek sollanib turadigan sutrang «Volga» ko'rinmasdi. To'rdagi yarqiragan koshona sari qadam bosmoqqa yuragim dov bermay, darvoza yonidagi bir uy, bir ayvon tomon yurdim. Bu yerda Sherlon akamizning otasi Rahmon bobo yashaydilar. Yoshlarini o'zlari ham aniq bilmaydilar. Bir so'rasangiz, sakson olti deydilar, bir so'rasangiz, bir kam to'qson. Ana, bobomiz xontaxta ustidan yopilgan nimdoshgina ko'rpani sandal qilib kitob ko'rib o'ttiribdilar. Boshlarida guli o'chgan taqya, yaktakning asl rangini kimyoviy tekshiruv yo'li bilan ham aniqlab bo'lmasa kerak. Oyoq ostiga to'shalgan sholchanning tusiga qarab turib, kishi beixtiyor bu matoh Rahmon bobo dunyoga kelmasidan besh-o'n yillar burun shu joyga solingan bo'lsa kerak, degan xayolga borishi tayin. Qorasuvoq uyning tokchalarida ikki-uchta chegalangan choynak-piyola, taxmonda ham uch-to'rtta shaparakdek ko'r-pacha, poygakdagi ulkan qalacha kavush Rahmon boboning parishon ro'zg'orini bezab turadi. Qachonki bu xonadonga kelsam, ota-bolaning turmushidagi tafovutni ko'rib turli o'ylarga borar, ammo biror xulosa chiqarmoqqa, ochig'i, botinmas edim. Rahmon bobo meni g'ira-shira tanirdilar, har gal o'zimni qayta tanitishimga to'g'ri kelardi. Hozir ham shunday bo'ldi. Salomimga alik oldilaru betimga qarab o'ylanib qoldilar.

— Men G'ulomman, Yunusobodagi uydan keldim, —

dedim u kishining mushkullarini oson qilib. — Bardam-baquv-
vatmisiz, bobo?

Rahmon bobo mamnuniyat bilan bosh irg'adilar.

— Yunusovotda Mahzar polvon bilan tariq ekanmiz, —
dedilar daf'atan qadim zamonlarga sho'ng'ib. — Mahzar
polvonning xotini o'shog'da chillashir bo'lib o'lgan. Ikki o'g'il
o'shandan qolgan. Keyingi xotinidan uch qiz...

Men sir bermay kulib o'ltiraverdim.

— Kennoyim qayoqdalar, ota? — dedim bir payt u kishini
xayol daryosidan tortib chiqarib.

Rahmon bobo ko'zlarini qisib, menga norozi qaradilar.

— Ketgan, — dedilar xiyla o'tib, noxush kayfiyatda. —
Hammasi ketgan. Sherlon ham, nevaralar ham.

Tag'in so'zsiz qolib, kitob ko'rmoqqa tutindilar.

— Qayoqqa ketishdi, ota?

— Bular bazmsiz turolmaydi. Bugun bojasinikida ziyofat.
Qamoqdan qutulib kepti. — Rahmon bobo shunday deb asta
atrofga alangladilar, so'ng birdaniga tovushlarini pasaytirib
shivirladilar: — Sherlonning topgani harom. Shunaqa. Fitro'za
bermaydi badbaxt. Bir uyiga kiruvdim. Yuztacha piyolasi bor
ekan. Harom hammasi. Choy ichib bo'lmaydi.

Rahmon boboga, xuddi qarshimda muguzli odam
o'ltirgandek, ag'rayib tikildim.

— Kishining moli, — deb uh tortdilar Rahmon bobo.

Tilimga tushov tushgan, nima deyarimni bilmay garang
o'ltirardim.

— Hafta sayin qo'y so'yib turadi, — deb hasratlarini davom
ettirdilar Rahmon bobo. — O'zicha mehribon bo'lib menga
ham chiqaradi. Biror luqmasini og'zimga solsam koshki ekan.
Haromni yeb bo'lmaydi, o'g'lim. Ko'p bo'ldi, men bilan
gaplashmay qo'ygan. Yolg'iz o'g'il edi, xudoga ne yomonligim
o'tgan ekan...

— Xafa bo'lmang, ota, yarashib ketasizlar, — deb tasalli
bergali shoshildim va shundagina sezdimki, Rahmon bobo
meni allaqachon unutib, o'zlariga o'zlari dardlarini aytib
o'ltirgan ekanlar.

— Yolg'on gapiradi. Hammasi. Kelin-ku yamlamay yutadi.
Bolani ham o'rgatgan. Norasidani-ya! Odamning faqat lafzi

halol. Agar lafz ham bulg'anib ketsa, tamom, odamning boshidan oyog'igacha harom. Yaratgandan qo'rqaman, erta bir kun shu noqobil farzand uchun ham so'roq berarman...

Mutaassir bo'lib, bobodan ijozat so'radim. Zero, mening bunda o'ltirishimdan endi hech qanday naf yo'q edi. Ijara haqini unga bersam, battar ranjitmog'im tayin edi, shu bois, qo'shni xotin — Xadicha xolaga qoldirdim.

Uyga qaytdim, Muhammad Sharif haq deb yo'limga termilib o'ltirgan ekan, norizo to'ng'illab qo'ydi. Kulib, uzrxohliklar qilib, darhol bir qoshiq obi yovg'on pishirmoqqa tutindim, so'ng ikkovlon shakarguftorlik ila taom tanovul etdik. Choy mahali unga bekaning uyiga borganimni, Rahmon bobodan eshitgan ajabtovur hangomalarni so'ylab berdim. Muhammad Sharif birdaniga xayolga toldi, o'rnidan turib og'ir uh tortdi, xona bo'ylab nari-beri betoqat odimlar ekan: «Chaynamayin yeganlar og'rimayin ketarlar», dedi.

Ertasi tushga yaqin Dinora opa qo'ng'iroq qildi. «Xadicha xola aytdilar kelganingizni, — dedi u, — sizni faqat shuning uchun yo'qlamovdim. Bu, sizdan beso'roq bir ish qilib qo'ydik, xafa bo'lmaysiz-da». «Xo'sh-xo'sh?» dedim yuragim noxush tortib. «Bir uyatli odam iltimos qilib qo'ymadi, o'g'liga tuzukroq joy axtarib yurgan ekan, yo'q, deyolmadik. Siz endi bitta xonaga o'tib turasiz-da, u bola buyoqqa joylashar. Bugun-erta borib qolishsa, hayron bo'lmang, deb... Men unga o'zimning kalitimni berdim. Endi, men sizga ishonaman, sinashta bo'lib qolganmiz, ko'z-quloq bo'lib turasiz-da, maylimi, G'ulomjon?» «Mayli, — dedim bo'shshib, — o'zi tuzuk bola ekanmi, ishqilib?» «Ha, ko'nglingiz to'q bo'lsin, — dedilar beka xotirjam, — tagi ko'rgan odamlar. O'g'lining oti Shodiyor ekan, ikkinchi kursda o'qirmish. Aka-ukadek yashay-verasizlar, qaytaga gangur-gungur. Axir, mashoyixlar aytgan-ku, erga bersang oshingni — erlar silar boshingni, itga bersang oshingni — itlar tortar boshingni, deb... Bo'pti, G'ulomjon, sizga ishondim-a?»

Oqshom chog'i bu xabardan ogoh bo'lib, Muhammad Sharifning kapalaklari uchib ketdi. Biz sening birla shu umidda ahdu qaror qilibmidik, degandek ta'na bilan qarab qo'ydilar. Shoshib uzr aytdim, xijolat ichra g'o'ldiradimki, nachora,

musofir itning dumi qisiq. Mavlono Gulxaniy o‘rinlaridan turib, yelkalariga to‘nlarini tashladilar: «Avloroq uldurki, avval borib Boyo‘g‘liga uchrasam, harna hijrat tadorigini ko‘raylik, toinki qahraton qish chillasida ko‘chalarda darbadar itdek surinmaylik», deb jo‘nay berdilar. Ming tavallo bilan bazo‘r to‘xtatib qoldim, uyimiz tor bo‘lsa ham, ko‘nglimiz keng, taqsir, o‘zingiz ham, jamiki tuyurlaringiz ham xonamga sig‘asizlar, deya aylanib-o‘rgilib, arang ko‘ndirdim. Bilardimki, Muhammad Sharifdan ayru tushsam, hayotim benihoya befayz, benihoya nursiz bo‘lib qoladi. Mavlono ikkilana-ikkilana rizolik bildirdilar, lekin xonamga ko‘chib o‘tgach ham, sekingina xo‘rsinib: «Tor joyda osh yegandan keng joyda musht yegan afzal», deb qo‘ydilar.

Ertasi tongda barvaqt turib, qo‘shni xonaga chiqdim. Mavlono Gulxaniy kecha oqshom matalgo‘y qushlariga ijozat berib yuborgan, shu sabab xona kimsasiz edi. To‘rt tomonda momiq patlar, xas-cho‘p, qush tezagi sochilib yotar, ko‘p-dan beri supurgi tegmagan bu xonumon xarobalik sari yuz tutgan edi. Har nechuk, ozoda qilib qo‘yayin, eman yog‘ochining egilgani — singani, er yigitning uyalgani — o‘lgani, degan andishaga borib, supurgiyu ho‘l latta ko‘tarib keldim, qandil tugmasini bosib, ne ko‘z bilan ko‘rayinki, xona yog‘ tushsa yalagudek yaraqlab, chinni-chiroq bo‘lib turibdi!

Boshimni qashlab, hayrat barmog‘imni tishlab, damim ichimda, indamaygina izimga qaytdim. Muhammad Sharif oshxonada xo‘rillatib choy ichib o‘ltiradilar.

Kechqurun idoramizda qarori uch kun burun bitib qo‘yilgan navbatdagi mashvarat bo‘ldi. Gapirmagan bir jon qolmasin, deb vahiy kelgandek, qimirlagan kimsa borki, bari so‘zga chiqdi — fikr emas, tilning namoyishi bo‘ldi. Rohibarimiz mashvaratni cho‘zib, cho‘zgan sari huzur qilib, yayrab-yashnab o‘ltirdilar, amal lazzatidan sarxushu sarmast, kengashni mohir darg‘adek bexato boshqarib bordilar. Mansabning shoiri-da Rohibarimiz. Yig‘in tarqab, ko‘chaga chiqqanimizda, zulumot cho‘kkan, kishi kishini tanimaslik darajasiga yetgan edi. «Obbo, — deb to‘ng‘illadi Jo‘lliboy akam, — o‘g‘rigina bolalar, popiris bormi, deb so‘raydigan vaqt bo‘pti-ku!» Ichimni itlar tirnab uyga otlandim — so‘nggi paytlar ustma-

ust kech qolib, Muhammad Sharifni qayta-qayta ranjitmoqda edim. Har qalay, ko'ngli yarim, hujrasidan mosuvo bo'lgan... Shundoq xayollar og'ushida apil-tapil oshiyonimizga yetib keldim, eshik qiya ochiq ekan, qo'ng'iroq tugmasini bosib o'ltirmasdan ostona hatladim va dahlizga kirganim on xijolatdan lavlagi bo'lib ketdim: ovsarlikni qarangki, g'aflat bosib birovning uyiga kirib qolibman! Oyoq ostida — uzun poyandoz lovillab yonar, yo'lakdan sof, sarin bir is ufurar edi, ro'paradagi xonada antiqa xorijiy jihozlar saf tortgan, nimpushti pardalar nafis sollarib turibdi... Xayriyatki, adashganimni hech kimsa sezmedi — uy egalari oshxonada ekan shekilli. Shosha-pisha tashqariga chiqib, eshikni yoparkanman, ko'zim beixtiyor tepadagi so'lkavoydek tunukaga zarb etilgan raqamlarga tushdi: 114. Gangib, devordagi yozuvga qaradim: 8. Aqlim battar shoshdi. Aftidan, o'zimning ijara oshiyonimga o'xshaydi, lekin... Agar shu vaqt ichkaridan gulduragan yo'g'on tovush eshitilmaganda, bilmadim, qay paytgacha eshik ortida besar turar ekanman. «Shadyar! — deb qichqirdi allakim. — Mana buni qayerga qo'yaylik?» Shundagina miyamga fikr yuritmoq iqtidori qaytadan ato bo'ldi. Shodiyor! Demak, ko'chib kelibdi-da.

«Alvido, Boyqush! Alvido, Kordon! Alvido, bazmi tuyur!» — deya xayolan shivirlagancha qo'ng'iroq tugmachasini bosdim. Eshik shu zahoti shahd bilan ochildiyu yarim-yalang'och, xushsurat bir yigit mushaklarini o'ynatib, tahdidomuz so'radi: «Na kerak?» «Salom, Shodiyor, — dedim kulimsirab, — hormang!» «Men Shadyar emas, — dedi u xo'mrayib. — Shadyar kerakmi?» Asta bosh irg'adim, taklifni kutmay ichkari kirdim va yigitning battar nafratiga sazovor bo'ldim. «Kim?» — degan yangroq ovoz keldi oshxonadan, so'ng xitoyi chiyduxobadan bejirim kamzul-shim kiygan, boyagi yigitdan-da ko'rkamroq o'spirin ro'paramda qaddiqomatini namoyon etdi. «Men G'ulomman, — dedim qo'l uzatib va shundagina ismimning bu qadar g'arib ekanligini alam bilan his qildim. Chindan ham, Shodiyor yoki Shadyar degan qarsillagan nom qayoqdayu aytganingda pisillab chiqadigan G'ulom degan ism qayoqda! — Yaxshi keldingizmi?» — deb qo'shimcha qildim azbaroyi takalluf yuzasidan.

Shodiyor bir zum menga hayron tikilib turdi, keyin nimadir yodiga tushgandek, bosh irg'ab qo'l cho'zdi. «Zo'r, — dedi u g'o'ldirab (keyin bilsam, og'zida yelim saqich bor ekan), — keldik. Qayerda ishlaysiz?» Shodiyor ishxonamizning nomini umrida eshitmagan shekilli, yelka uchirib qaydaligini so'radi. «Falon magazin yonida», — deb tushuntirdim unga. «A-a, — deb bosh irg'adi u, — zo'r magazin. U yerda bir qiz bor. Flora. Klassniy tovar». So'ng shu zahoti meni unutdiyu shippagini sudragancha shipillab oshxonaga kirib ketdi, ichkarida uymalashayotgan o'rtoqlariga nimadir qiziqroq gap aytdi chamasi, jo'rovoz qahqaha yangradi.

Ust-boshimni yechib, men ham asta xonamga kirdim. Muhammad Sharif burchakdagi liqildoq kursida qunishibgina o'ttirar, kuni bilan qo'sh haydagan chorakordek horg'in ko'rinar va bu holat unga sira-sira yarashmas edi. «Ha, taqsir? — dedim yasama xushhollik bilan.— Taslim bo'lgan qo'r-g'onbegidek xomushsiz?» Mavlono Gulxaniy ko'zlarayu qo'llarining imosi bilan meni tovush chiqarmaslikka undab, sharpadek sassiz yurib yonimga keldi. Qo'shni xona tomon bosh irg'ab shivirladiki: «Mening bunda makon tutganimni zinhor kimsa bilmasin». «Nega endi, mavlono Gulxaniy? — dedim tavajjuh bilan. — Yashirishning hech hojati yo'q. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas. Men hoziroq chiqib ularni ogoh etib qo'yurman, toki birortasi sizga noshoyon so'z aytib yurmasin...» «Aslo, aslo unday qilmagaysan,— deya betoqat pichirladi Muhammad Sharif,— agar menga orom tilasang, bunda mavjudligim pinhon tutgil». «Demak, yolg'on so'ylashim lozim?» — deb soxta qovoq uydim. «Yolg'on aytsa bo'lur, — deb uh tortdi mavlono, — aytguchi dono bo'lsa...» «Mayli, lekin sirimiz ikki kunda fosh bo'lur, axir ularning ham ko'z-qulog'i bor». «Ajab sodda G'ulomsan, — deb kuldi Muhammad Sharif, — shuncha vaqtdan beri hamoshiyonu hamtovoq bo'lib, shu narsaga hanuz fahming yetmaydurki, meni faqat qalb ko'zi bilan ko'rmoq, dil qulog'i bilan eshitmoq mumkin. O'zga xatti-harakatlar bari bekordur». «Bas, shunday ekan, — deya bo'sh kelmadim men ham, — unda, bu qadar ehtiyotkorlikka na hojat? Surma yutgan xo'rozdek bo'g'ilmay, tovushingizni qo'yib gapiravering». Mavlono bosh chayqadilarki, o'zingga ehtiyot bo'l-u, qo'shningni o'g'ri tutma...

Taom mahali yetib, qorinlar surnay navosini boshladi. Men esa, azbaroyi g'ulomligimga borib, shu kungacha qariyb xo'jayin bo'lib kelgan uyimda oshxonaga chiqib, biror obi yovg'on pishirmoqqa istihola qilib turardim va bu haqda o'ylaganim sari tobora g'am bosar ediki, boyvachcha bolalarga o'xshaydi, go'shtsiz qozon ossam, ne xayolga borisharkin? Piyoz qolganmidi-yo'qmi? Idish-oyoq ulardan bo'shamagan bo'lsa, qandoq qilaman?

Boshim qotib, Muhammad Sharifga yuzlangan ko'yi aytdimki, shu uy ham jonimga tegdi, ishxonamga uzoq, har kuni it azobida borib-kelaman, isimaydi, sovuqligini qarang, katta ko'chaning og'zi, shovqin-suroni-chi... Mavloni Gulxaniy diydiyomni tinglab, miyig'ida kuldi: sani so'zung anga o'xsharki, bir odam yaxshi ko'rgan do'ppisini tez suvga oqizib, harchand taraddud bilan ololmadi, mahrum bo'lib aytur erdiki: «Yo'qolg'ani ham xo'b bo'ldi, boshimg'a ham tor kelur erdi», deb...

O'zimni tutolmayin kulib yubordim va lahza o'tmay qayg'u aridi: Muhammad Sharif yana bir g'aroyib hangoma so'ylamoqqa boshladi.

Vaqtiki, eshigim tuyqusdan takallufsiz ochilib, Shodiyor kirib keldi.

— Zo'rmisiz? — deb jilmaydi u, so'ng xonamga bir qur nazar tashlab, stol ustida yotgan kitobni nima uchundir qo'liga oldi, orqa-o'ngini aylantirib, varaqlagan bo'ldi. — «Zar-bulma-sal», — deb ajnabiy bir so'zni o'qigandek hijjalab o'qida, lablarini cho'chchaytirib: — Na degani bu? — deb so'radi. Javobimni ham kutib o'tirmay, deraza rafidagi boshqa kitoblarga nigohini yugurtirdi. — Ko'p-ku! — dedi bosh chayqab. — Barini o'qiganmisiz? — Qiziq bola ekan bu: savol berarkanu javobingizni kutmas ekan. Ehtimol, odati shudir, ehtimol, javob berib emas, so'rab o'rgangandir. Eski imlodagi bir risola diqqatini tortdi, avval kitobga, keyin menga sinchiklab tikildi. — Qur'on o'qishni bilasizmi? — dedi, dediyu to'shagimning bosh tomonida yotgan plastinkalarni ko'rib qoldi. — Ortiq yo'qmi? — deya ularga qo'l cho'zdi va tag'in og'iz ochishimga imkon bermay: — Zira bormi? Osh qilyapmiz, — dedi-da, xonadan chiqdi.

Bu g'aroyib muloqotdan chandon hayratlanib, men ham ortidan ergashdim.

Oshxonada boya ostonada ko'rganim yarim-yalang'och yigitdan boshqa yana biri mo'ylovli, biri mo'ylovsiz ikkita daroz o'spirin bor edi. Ichkari kirdimu ag'rayib qoldim: oshxonani tanimadim. Yo tavba, qachon ro'y berdi bu mo'jiza: oshxonamizning devorlariga qordek oppoq har turli katta-kichik javonlar o'rnatilibdi, yarqiroq stolu kursilar paydo bo'libdi. Domlam Eshmuhamedovning oshxonasida ko'rgan edim bundoq olmoniy jihozlarni. Domlam bechora shularga erishaman, deb allaqaysi do'kondorning qizi bilan birga besh yil qayta o'qib chiqqan edi...

Yigitlar mening parishon ahvolimga parvo ham qilmay, qo'l berib ko'rishdilar. Tanishdik. Ikkitasi — O'ktam bilan Qadamboy, bo'lg'usi do'xtirlar, Shodiyorning sinfdosh jo'ralari ekan, Safar esa Shodiyor bilan birga tergovchilikka o'qirkan. Hasharni osh bilan nihoyasiga yetkazmoqqa ahd qilibdilar-u, lekin birortasi ham palov damlashni bilmas ekan. Bu ish mening qo'lmdan kelishini bilib, behad suyunib ketishdi. «Yashang-e, og'a! — dedi boyadan beri xo'mrayib o'ltirgan mushakdor Safarboy va o'rnidan turib stoldagi «zahri qotil»dan piyolaga to'ldirib uzatdi. — Oling esa, Shadyar bilan qo'shni ekansiz!» Oldik. Gangur-gungur gaplashib, osh qilishga tutindik. Och qoringa simirilgan sharob ta'siridami, har nechuk, o'spirinlar endi ko'zimga nihoyatda sodda, mard, yoqimtoy ko'rina boshladi, ularni qishloqdagi bo'sh-bayov inilarimdek suy gim keldi, gap-so'zlarini tinglab, zavqim oshdi.

Taom tayyor bo'ldi. Katta xonada tanovul qilmoqqa kelishildi. Bir kosaga suzib (o'zi kechirsin), qo'shnilarimning ko'zini shamg'alat qilib Muhammad Sharifga olib kirib berdim. Deraza qarshisida hanuz g'amga botib o'ltirgan ekan, asta o'girilib qaradi, taomni oldiga qo'yib harchand undasam hamki, churq etmadi. Shodiyor yo'lakdan betoqat baqirdi: «Kelsangiz-chi, axir, osh sovidi!» Mavlono Gulxaniydan uzr so'rab, lekin ko'nglim bir xil bo'lib, katta xonaga chiqdim. Xuddi kelin tushadigan xonadek yasatilibdi. To'rda ko'zglasiga quloch yetmaydigan rangli «oynai jahon», oromijon yumshoq kursilar, oyoq ostida mayin patgilam, billur qadahlar... Og'zim

lang ochilib oshga tikilib qoldim. Bir tilak ikki-uch marta takrorlandiki, eng yomon kunimiz shunday bo'lsin! Taomdan so'ng Qadamboy burchakdagi magnitofon tugmasini bosdi, elsevar xonanda ashula boshladi. Bir nafas ashula aytib tin oldi-da: «Bu yilgi paxta planlarimiz to'lsin», dedi. Guvv etib qiyqiriq, chapak, hushtak yangradi. Xonanda jazava bo'roni bosilishini bir oz kutib turgach: «Biz san'atkorlar xizmatimizni sizga manzur qilolsak, o'zimizni baxtli deb hisoblaymiz», dedi. Yana sharsharadek qiyqiriq, yana olomon yer tepgan... Safarboy ham azbaroyi zavqi jo'shganidan o'ltirgan joyida hushtak chalib yubordi.

Shu tariqa bazmi jamshid davom etarkan, men sekin uzr so'rab, xonamga chiqdim. Choy damlab, mudroq elitgan Muhammad Sharifga ichirdim. «Javr bo'lganda sizga javr bo'ldi, — dedim achinib, — qushlaringiz diydoridan benasib qoldingiz. Qachonki, lozim bo'lsa, bahuzur mening xonamga chorlayvering, hech bir istihola qilmang». «Sen buning tashvishini tortma, — dedi Muhammad Sharif, — jamiki ahli tuyurga fapmon berildikim, bundan buyon kengashga tunda emas, kunduz hozir bo'lg'aylar. O'zingning holing nechuk, mutaassir ko'rinursan?» «Ko'nglim g'ash, taqsir, — dedim rostiga ko'chib, — qo'shnilarimiz baland oxurdan suv ichgan kimsalar ko'rinadi, hayronman... Ona suti og'zidan ketmagan go'dakka buncha as'asayu dabdaba, bilmadim, na hojat ekan». Mavlono Gulxaniy istehzo bilan kuldiki: «Gaplaringdin suq hidi kelur. Unutmaki, suq hasadning qarindoshi bo'lur». «Qo'ysangiz-chi, mavlono, — dedim astoydil ranjib, — kelib-kelib, shu so'takka hasad qilamanmi? Hasad qilganim yolg'on, lekin alam qilgani... rost». «Sabr qil, — deb taskin berdi Muhammad Sharif, — sabr saning dardingga darmon bo'lur». «Tokaygacha?! — deb shivirladim nadomat bilan, — tokaygacha, mavlono Gulxaniy?!»

Savolimning javobi sukut bo'ldi.

Qo'shni xonada yertepar bazm yarim tunga qadar davom etdi. Mehmonlar goh yo'lakka yugurgilashib chiqar, goh ichkaridan shaytoniy qahqaha eshitilar, ularning tolmas chakaklari tinganda magnitofonning temir jag'i ishga tushar edi.

Soat uchdan oshganda qo‘noqlarning birortasi ham umrida andisha ko‘chasidan o‘tmaganiga qanoat hosil qildim, sabr kosam to‘lib-toshdiyu irg‘ib turdim, qahr bilan eshikni ochib kirdim. Ko‘rsamki, to‘rt bahodir to‘rt tomonda tirrayib qolgan, temir quti o‘zi o‘chib, o‘zi aytib yotgan ekan! Hayronaligim battar ortib uni o‘chirdim, tiriklayin kabob bo‘lmoq xavfidan xalos etgani uchun ich-ichimdan falakka shukronalar o‘qib, qaytib chiqdim. Yuz bergan hodisani tasodifga yo‘yib, sharobning kasofati bilan bog‘lab, tongga yaqin, nihoyat, mizg‘ib ketibman.

Kechqurun ishdan kelsam, uy jimjit, Shodiyorning qorasi ham ko‘rinmaydi.

Muhammad Sharif bilan allapaytgacha chaqchaqlashib o‘ltirdik hamki, daragi bo‘lmadi.

Shodiyor shu bo‘yi uch kechayu uch kunduz badar ketdi. To‘rtinchi kuni qora xuftonda burnidan tortsa yiqilgudek bir ahvolda so‘ljayib kirib keldi, egnidagi uzun charm yomg‘irpo‘shini yechib bir burchakka tashladi-da, menga qarab iljaydi: «Zo‘rmisiz?» So‘ng odatdagidek javob kutmay, poyabzalini ham yechmasdan telefonga yopishdi, kimgadir sim qoqib, nimanidir surishtirdi, tag‘in menga yuzlanib: «Safar kelmadimi?» dediyu xonasiga kirib ketdi. Yarim soatlardan so‘ng butunlay o‘zga liboslarda javlon urib chiqdi, oshxona yo‘lagida turganimni ko‘rib, qo‘l silkib qo‘ydi: «Biz ketdik esa».

Ertalab ust-boshimni olay deb, dahlizdagi javonni ochsam, mixda osig‘liq charm yomg‘irpo‘shiga ko‘zim tushdi. Qachon keldi ekan — sezmayman ham.

Namozshomda uyga qaytib, uni onadan tug‘ilgandek bir qiyofatda ko‘rdim: avratini yopib turgan bir parcha lungidek olachipor ishtonchani aytmasa, qariyb shiryalang‘och edi. Borlig‘imda g‘azab o‘ti ishtig‘ollanib, azbaroyi ensam qotganidan churq etmay xonamga qamalib oldim.

Bu olamda mudom o‘z xayollari bilan tanho qolgan inson baxtlidir. Men buningdek saodatni dunyoning hech qaysi laz-zatiga almashmagan bo‘lurdim. Lekin o‘lim yomongakim, hech vaqt yolg‘iz qolmoqqa imkon bermagay! Eshigim ochilib, savatdek sochlari to‘zg‘igan Shodiyor boyagi qiyofada bostirib

kirdi. «Qorin ochib ketdi-ku, oqsoqol, — dedi ishshayib, yoldor ko'kragini qashigancha, — yo bir nima pishiraylik, yo yuring, biror joydan tamaddi qilib kelaylik». Qahrim qo'zib, bir zahrimni sochmoqqa ham chog'landim-u, tag'in shaytonga hay berdim. «O'ka, — dedim Jo'lliboy akamga taqlid qilib, — avval bir odamga o'xshab kiyinib oling-chi, keyin gaplasharmiz». «Qo'ysangiz-e, oqsoqol, — dedi u pinak buzmay, — qiz bormi bunda? Bo'lsa, ko'rsating, gaplashaylik. Issiqni qarang, hammom-ku. Go'sht keltirganman, nima qilay?» «Mayli, avval kiyinib oling», — deb takrorladim qat'iyat bilan. Shodiyor bilinar-bilinmas qizargandek bo'ldi-yu, egniga yengi kalta ko'ylak, jinsi shimini kiyib chiqdi.

Birgalashib taom tayyorlamoqqa kirishdik. Umuman, men unga tushunolmay qolgan edim. Bir qarasang, ko'ngli ochiq, tanti yigitga o'xshaydi, bir qarasang, dordan qochgan kazzobning o'zi. Aytishicha, bu o'qishga qiziqmas ekan, otasi qo'ymay kiritibdi, o'ziga qolsa yo futbolchi, yo artist bo'lmoqchi ekan. «Menga kalla ishlatmaydigan o'qish bo'lsa», — dedi u orzulaniib. Dunyoda ikkita narsani — rok-muzikayu mashina haydashni yaxshi ko'rarkan. «Kvin», «Livin-bluz», — dedi u ko'zlari qisilib, — kayf! Shoshmang, hozir qo'yib kelaman». Muzika sadolari ostida meni qalb bisoti bilan tanishtirishda davom etdi. Uylarida o'zining «Jiguli»si bor ekan, «nol olti», o'ninchini bitirar yili tug'ilgan kuniga sovg'a etilgan, yap-yangi turgan emish, otasi, qarzlaringdan qutulib, uchinchi kursga o'tsang, Toshkentga olib kelib beraman, deb va'da qilgan emish. Oilada ikki o'g'il, bir qiz ekanlar, u to'ng'ich emish. Yoshligida o'ladigan kasalga yo'liqibdi, do'xtirlar Maskovning kasalxonalariga yotqizib arang asrab qolgan ekan. Shu kunlarda otasi Toshkentga, sessiyaga kelishi kerakmish. Men merov, g'ulomligimga borib so'radimki: «Nima, otangiz ham sirtqi bo'limda o'qiydilarmi?» «Qanaqa sirtqi bo'lim? — dedi Shodiyor ajablanib. — Anov, katta sessiyaga keladi». So'ng nimadir esiga tushib: «Ey, men ro'yxat tayyorlab qo'yayin», — dedi-da, cho'ntagidan qog'oz-qalam olib, ishga kirishdi. Ro'yxati nima ekan, deb hayron bo'ldim. Ertalab xolodilnik ustida yotgan bir varaq qog'ozga ko'zim tushib, gapning ma'nisiga yetdim. Shodiyor qing'ir-qiyshiq harflar bilan bitgan ro'yxat ushbu turur:

Siyosiy iqtisod — 50 s.

Logika — 40 s.

Diamat — Safarboy qo‘ydiradi (50 s.)

Voyenka — konyak (1 ta, Kazansev.)

Dav. huq. — ?

Ateizm — Xudoyberdi Ollanazarovichga tel.

Angladimki, Shodiyor qishki imtihonga qattiq tayyorgarlik boshlab yuboribdi.

Taomdan so‘ng oshxonada choy ichib o‘ltirar ekanmiz, u tuyqusdan so‘rab qoldi: «Mamashokirov degan domlani tanimaysizmi, falsafadan?» «Yo‘q, — dedim har ehtimolga qarshi, hadiksirab. — Nima edi?» «E, ablah ekan, qo‘ymaypti, — dedi u boshini qashlab, — dekan aytsa ham qo‘ymaypti». «Nega qo‘ymas ekan, qo‘yadi, — dedim dalda berib, — yaxshiroq tayyorlaning-da». «E! — deb qo‘l siltadi Shodiyor, — yuz ellik, desam ham qo‘ymadi. Hay, o‘ziga qiyin. Shunday qilaversa, yaqinda haydalib ketadi».

Shodiyor bu gaplarni ishonch bilan so‘zlar va shu ishonchidan qo‘rqulik edi.

Chidab turolmadim, uni insofu diyonatga chorlab ko‘rdim. «Kasbingiz benihoya nozik, Shodiyorjon, — dedim salmoqlab, — bunaqa chala-yarim o‘qisangiz, erta bir kun qiynalib qolmasmikansiz? Har qalay, inson taqdiri degan gaplar bor». «Ey, qiziq ekansiz, — dedi Shodiyor tamaki buruqsatib, — bitirib olsam, ishning enasini ko‘rsatib qo‘yardim. Otam...» «Ota-onaga suyangan tuzuk, lekin mavlono Gulxaniydan qolgan bir gap borki, o‘z aqling bilan o‘zing kengash». «Qanaqa gulxan?» — deb so‘radi Shodiyor. «Gulxan emas, Gulxaniy. Shoir o‘tgan shunaqa». «Ha, — dedi Shodiyor, — men «Gulxan» jurnalimi deb o‘ylabman». «Shu kishining dono bir hikmati borki, — dedim uning hafsalasi so‘nganiga e‘tibor bermay, — o‘ynashga ishonib, ersiz qolma, degan... Yosh yigitsiz, hali istiqbolingiz oldinda, bir martagina beriladigan umrni harom-harish yo‘llarga sarf qilsangiz, bilmadim, oxiri qandoq bo‘larkin?» «Nima harom-harish? — dedi Shodiyor yelka qisib, — hamma qatori, ko‘pchilik nima bo‘lsa, biz ham shu. O‘zingiz aytdingiz, umr bir marta beriladi, o‘ynab-kulgan qoladi, boshqasi — bir tiyin». «To‘g‘ri aytasiz, — dedim

muloyimlik bilan, — shuning uchun ham hayotning qadriga yetish kerak». «Mana, qadriga yetyapman-ku, — dedi Shodiyor kulib va homuza tortdi. — O‘, soat o‘n ikki-yu. Hay, yotaylik esa, ertalab vaqtlitroq uyg‘onsangiz, meni ham uyg‘otib qo‘yarsiz». So‘ng erinibgina kerishdi-da o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Mavlono Gulxaniy uxlamay meni kutib o‘ltirgan ekan, choy damlab kirdim. «Bolaga ozroq amri ma‘ruf qildim, — dedim, — odam achinadi, yaxshi yigit, hayfki, buzulg‘onda». Muhammad Sharif betimga kinoya bilan boqib, bosh chayqadiki: «So‘zni aytg‘il uqqong‘a, jonni jong‘a suqqong‘a, aytib netarsan onadin bemahal tuqqong‘a...» Men e‘tiroz bildirib dedimki: «Bu bir yosh nihol, tarbiyasi chatoq bo‘lgan, xolos, hali yo‘lga sorsa bo‘lur. Ko‘rasiz, men uni shunday mulla qilayki...» Mavlono Gulxaniy ishonchsiz kuldi: «Bemahal niholni o‘zga yerga o‘rnatsalar, ul ham ko‘karmas».

Muhammad Sharifning bu so‘zlarini eshitib, uning chindan ham tarixan cheklanganiga yana bir karra ishonch hosil etdim va shu vajdan u bilan bahslashib o‘ltirmay, charchoqni bahona qilib, uyquga hozirlik ko‘ra boshladim. Shubhasiz, mulla Gulxaniy eski zamonlar — kishi kishiga o‘rtoq, do‘st va birodar emas, bir-biriga bo‘ri bo‘lgan davr farzandi, binobarin, hayotiy aqidasi ham shunga yarasha bo‘luvi tabiiydir. Ko‘z o‘ngimda yosh bir vujudning halokat sari ketayotganini ko‘ra turib, nahotki tinchgina uxlamoqqa mening vijdonim yo‘l qo‘ysa?! Yo‘q, Shodiyorni noto‘g‘ri tarbiya ta‘siridan qutqarib, adlu insof sari boshlamoq lozim. Ishonamanki, uning mudroq ko‘zlarini ochib, rost ko‘chalarga olib kirsam, mendan o‘la-o‘lguncha minnatdor bo‘ladi. Axir, bu bechora ham birov-larning aziz farzandi, to‘qlikka sho‘xlik qilib adashib yuribdi, xolos.

Shu payt ko‘nglimdan kechgan xayollarni anglagandek, Muhammad Sharif deraza oldida o‘ltirgan joyidan ovoz berdi: «Shul bola uch xislatdin tashqari emas: avvalo, ko‘zi bejo — uyatni unutmangdir; ikkinchi, vujudidan taryok isi kelur — af-yunga rag‘bati zo‘rdur; uchinchi, boshdin-oyoq zino botqog‘iga botgandur, oxir-oqibat el andin nafrat qilur». «Taqsir, meh-ringizga ham, qahringizga ham taraf yo‘q, — dedim qizish-

ganimni sezdirmaslikka tirishib, — lekin bu safar nazarimda, xiyla oshirib yubordingiz. Mushtdek o‘spiriga buncha malomat toshini otmaylik-da, yaxshisi, uning ham dil asroridan boxabar bo‘laylik. Ne balo, yo meni rashk qilyapsizmi?» Shunday deb boshimni ko‘tarib qaragamki, mavlono Gulxaniy allaqachon pinakka ketibdi...

Shodiyorning xonasida habash xonandalar avj pardada kuylay boshladi. O‘rnimdan turib, eshikni chertdim. Shodiyor olachipor lungisida chiqib keldi. «Iltimos, tovushini pasaytirsangiz», — dedim asta. U hayronalik ila yelka qisdi: «Nega? Yaxshi-ku?» «Men ham yomon deyayotganim yo‘q, lekin atrofda bizdan boshqa odamlar ham bor». «Qisnimga-e!» — deb kuldi Shodiyor va xonasiga kirib ketdi, biroq oradan sal fursat o‘tib, har tugul, muzika tovushi pasaydi.

Ertalab yuz-qo‘limni yuvib, uning eshigidan ohista mo‘raladim: Shodiyor tosh qotib yotardi. Sekin yelkasidan turtdim: «Turing, graf, sizni buyuk ishlar kutyapti!» Shodiyor betoqat to‘lg‘anib, yonboshiga ag‘darilib oldi. «Turmaysizmi?» — dedim kulgim qistab. «E! — deb norizo to‘ng‘illadi u. — Soat necha bo‘ldi?» «Sakkiz». «Vaqtli ekan-ku, ozgina yotaylik». «Birinchi soat darsingiz yo‘qmi?» «Kim biladi deysiz, — deb esnadi Shodiyor, — bo‘lganda nima...» Bari bir hol-joniga qo‘ymadim, kechqurun Avloniydan keyingi «muallim us-soniylik»ni bo‘ynimga olganim uchun Shodiyorni qayta tarbiyalash ishiga ishtiyoq bilan kirishdim.

Nari-beri choy ichib ko‘chaga chiqdik. Sezib turibmanki, Shodiyor bo‘ynidan bog‘lagandek arang borayotir. Qarasam, yo‘lni ham avtobus bekatiga emas, chapga qarab solmoqchi. «Ha?» desam, «Yuring, taksida ketamiz», deydi. «Hali erta, bemalol ulguramiz». «Ey, sizga na bo‘lgan o‘zi, shu avtobusga chiqib bo‘ladimi?!» «Nega chiqib bo‘lmas ekan? Men har kuni borib kelaman-ku». Shodiyor menga benihoya achinib tikildi. «Yuring, — dedi so‘ng qat‘iy qilib, — men sizni tashlab o‘taman». Taksi tutib, joylashib o‘ltirganimizdan keyin u ayt-diki, otasi, mashinangni opkelib bergunimcha taksida yuraturasan-da, deb uzr so‘ragan ekan. Indamay kulib qo‘yaqoldim. O‘zga olam, o‘zga odatlar...

Shodiyor yo‘lda, o‘qishxonasi yonida tushib qoldi. Unga

sabru matonat, insofu diyonat tilab, men idoramga ravona bo'ldim. Borib, Jo'lliboy akamga maslahat soldim. Taqdir meni umr chorrahasida tarbiyasi qiyin bir o'spirin bilan ro'baro' keltirganini aytib, endi uni to'g'ri yo'lga boshlamoq uchun qandoq sa'y-harakatlar qilishim lozimligi xususida undan kengash so'radim. Jo'lliboy akam, erinmagan odam, ko'zoynagini olib qo'yib, Shodiyorning nasl-nasabi, fe'l-atvorini sinchiklab obdan surishtirdi, oxiri g'amgin bosh chayqab uh tortdi-da, Navoiyning nazmi bilan javob berdi.

Bayt:

«Kim kuchuk birla xo'tikka qancha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, eshshak bo'lur, bo'lmaslar aslo odami».

Dunyoda o'zi nekbin odam qolmabdi. Shu achchiq xulosaga keldim-u, ammo qarorimdan qaytmadim: Shodiyorni qutqaraman! U bir nozik novda, qay tarafga egsang, shu tomonga egilaveradi. Mayli, xizmatu zahmatlarim pinhon qolaqolsin, lekin bari bir yaxshilik qilamanu daryoga solaman — xoliq bilmasa, baliq bilur.

Oqshom shu kayfiyatda ishtiyoqmand bo'lib uyga otlandim. Kelib ko'rsamki, xonadonimizda bayram, bayramki, it egasini, mushuk bekasini tanimaydi! Shodiyor va Safarboy ikkita qiz bilan oshiyonimizni butkul zabt etgan, yeru ko'kni zirillatgan ohanglar og'ushida sarmast, «zikr tushib» yotibdi!

Bilmadim, bundog' vaziyatda boshqa odam nima qilgan bo'lurdi, lekin men gangib serrayib turaverdim, nihoyat, oyoq uchida yurib xonamga o'tdim. Birorta kursi yo'q, kitobu qog'ozlarim go'yo bir dasta mirg'azab kelib tintuv qilgandek ag'dar-to'ntar...

Bu holni ko'rib, fig'onim falakka chiqib ketdi. Meni ursalar-so'ksalar, tilimni kessalar churq etmay chidashim mumkin, biroq qog'oz-qalamlarimga daxl qilgudek bo'lsalar, jonim naq bo'g'zimga kelardi, illo ularni mulki mahram deb, inson huquqlari majmuasining ilk bandlariga doxil deb bilardim. Shuncha yillardan buyon odamizot isini xush ko'rmay ijarama-ijara tanho yashab yurishimning ham boisi aslida shu edi. Ne ko'z bilan ko'rayinki...

Vujudimga jaholat o'ti tutashib, bir burchakda qisilib-qimtinibgina o'ltirgan Muhammad Sharifga nayzamni sanchdim: «Taqsir, ishonmagil do'stingga, deganlari shu ekan-da?! Burningizning tagida nobakorlar xonamizni g'orat qilsalar ham bir og'iz «qo'y», deb aytishga yaramabsiz-da?! Sizdan umidimiz bu emas edi, borakalloh!» Mavlono Gulxaniy qo'shni xona tomon bir qarab olib, hazin pichirladiki: «Bu fe'lingdan qayt, ey sodda G'ulom! Yomonning kuchi yapa-loqqa yetibdi bo'lmasin tag'in! Bu gaping birla manga ko'p ozor berding, alfozlaringga borman!» Birdaniga so'zlarimdan o'zim uyalib, taqsimga ketma-ket uzrxohliklar aytdim. «San bu gapingdan, — deya hamon o'pkalab davom etdi mavlono Gulxaniy. — Tevani bo'tasi onasi birla munozot qilg'onidin bexabar o'xsharsan». «Nechuk bexabar bo'layin?» — dedim xijolatdan nam tortib. «Teva zor yig'lab aytganidek, manda agar zarra kabi ixtiyor bo'lsa edi, bu yanglig' zabun bo'lmas edim». «Axir, bu kasofatni ertalab, ko'rdingiz, yetaklab ketgan edim, insofga enar, deb xayol qilgan edim, — dedim bo'g'ilib, — qachon galasini boshlab kelaqoldi?» «Choshgohdin so'ng, — deb uh tortdi Muhammad Sharif, — endigina tuyurlarni to'plab, Ko'rqush bila Kuykanakdan ahvol so'rab turib edim-ki, qarsillab eshik ochildi, keldilar kirib, qo'llarinda shishalar, boshladilar bazm! Temir qutilarining quloqlarini buradilar, Isrofil sur chalgandek badhazm nag'malar yangradi. Va bir-ikov du jo'ba birla kohili namozni muhtasib tutib urgandek, dangur-dungurga ura berdilar va bir-ikov daf orqasini o'g'ringing orqasini o'tga toblagandek, toblay berdilar. Alqissa, nag'ma navosini falak-falakdagi maloikalarga yetkura boshladilar... — G'azabdin bir tutam bo'lib, jizg'inakka yetgan ersam-da, mulla Gulxaniyning rok-muzikaga bergan bu g'aroyib ta'rifidan zavq qilib, beixtiyor kulib yubordim. — So'ng o'shal ko'zi bejo bacha jo'rasi birla bu yon kirdi, ming shukr ollohgakim, meni ko'rmadi, kursilarni ko'tarib jo'nay berdi, jo'rasi to'xtab kitob-qog'ozlaringni kavlashtirmoqqa tutindi. Har balo bo'lsa — ana shunda bo'lgandur...» Murdor panja tekkan kitob-daftarlarimga hayron tikildim va ich-ichimda Shodiyorni ham, yuvuqsiz jo'ralarini ham la'natlaganacha ahd qildimki, ertagayoq bu noxush ahvolni Dinora opaga

yetkazmoq kerak! Aks holda, bu badbaxt hammamizni sharmanda qilmog‘i tayin. Lekin avval bir tanobini tortib qo‘yayin! Hali mo‘ychinak tishlamagan-da, nonni «nanna» deb yuribdi! Ko‘zlaring bir moshday ochilsa, ana, undan keyin ko‘ramiz!

Qahrning qudrati bilan shaxdam yurib yo‘lakka chiqdim, eshikni qarsillatib ochgan ko‘yi Shodiyorning xonasiga bostirib kirdim. To‘rdagi divanda Shodiyor chordana qurgan, naq biqinida sochlari qop-qora, yoshgina bir qiz mushuk boladek uning yelkalariga suykanib o‘ltirardi. Meni ko‘rib, yovvoyi bir qarash qildi-da, kaftini Shodiyorning tizzasiga qo‘ydi. «Salyut! — deb ishshaydi Shodiyor, — so‘ng qo‘l silkib, dedi: — Zo‘rmisiz? Tortasizmi?» Daf‘atan uning gapini anglayolmay: «Nima?!» — deb so‘radim. Shodiyor iyagi bilan pastak kursi ustidagi kuldonga, tutab turgan bir juft papirosga ishora qildi: «Bir kayf qilaylik axir!» Shundagina uning xira, ma‘nosiz ko‘zlariga, qizning sharmisor qiyofasiga qarab, nima gapligini tushundim, yuragim orqamga tortib ketdi: Muhammad Sharif kechagi bashoratida qanchalar haq ekan!

Qo‘shni xonadan esa Safarboyning bo‘g‘iq tovushi, qiz bolaning qiqir-qiqir kulgisi, «Qo‘lingizni oling... qo‘yving...» degan, e‘tirozdan ko‘ra rag‘batga moyil ovozi baralla eshitilib turardi.

E falak, kimlarga oshno etding meni?!

Bular bilan hozir har qanday muloqot borib turgan bema‘nilik bo‘lur edi, shu bois alamim bo‘g‘zimda, indamay eshikni yopib, xonamga qaytdim.

Tamom! Ertagayoq Dinora opani boshlab kelaman! O‘z ko‘zi bilan ko‘rsin! Mabodo bu battolning otasi ham kelib qolsa, bekaning og‘zidan eshitsin! Men ahmoq, men xom sut emgan banda, kimni panohimga olib, kimni qayta tarbiyalamoq bo‘lib yuribman?! Yetti iqlimda meningdek nodon g‘ulom bormikan? Men dunyodan orqada qolibman, shunday orqada qolibmanki, endi umrimning oxiriga qadar ming jahdu jadal qilsam hamki, yaqin bormog‘im gumon — axir, u meni kutib turmaydi, shitob ila o‘z shahdu shiddatida davom etadi. Ayon, ayon bo‘ldiki, mulla Gulxaniyga qo‘shilib men ham o‘z qobig‘imga o‘ralib, tarixan cheklanib qolibman. Men bilgan

odamizot farzandlari ham o'zgaribdi, o'zga ko'chalarda o'zga aqidalar jilva qilib yuribdi.

Iztirob ichra bo'g'ilib yotarkanman, xayolimdan turli-tuman o'ylar kechdi: shartta o'rnimdan tursamu to'g'ri borib tegishli joydan odam boshlab kelsam, tilsiz guvoh bo'lib turganim bu sharmisor holatdan ogoh etsam!.. Biroq buning ortidan bir talay noxush g'avg'olar tizilib kelmog'i muqarrarki, oqibati, eng yengil ko'chsa, ijara xonamdan ayrilmog'im tayin. Keyin tergovxonaga tanda qo'yib qolamanmi: xo'sh, nashani kim keltirdi? Qaydan keltirdi? Nega ilgariroq xabar qilmadingiz? Sizning xonangizni ham bir ko'rsak... Mulki mahramimga yana daxl qilinsa... Yo'q-yo'q, har nechuk, Dinora opadan bemaslahat bundog' ish tutmagan ma'qul. Uy kimniki, degan savol ham chiqib qolsa, tilimga ko'ndalang kaltak kelmaydimi?

Lekin nega tong otaqolmaydi? Kishiga bu qandog' azobki, naq qulog'im tagida hamon shahvoniy qiyqiriqlar, kayfu safo, raxnagar musiqa... Go'yo bir bog' yantoq ustida yotgandek betoqat to'lg'anar edim. Men bu oshiyonimga Qunduzni bor-yo'g'i ikki marta taklif etgan edim — ortiq haddim sig'magan. U kelib, qo'ymasdan kir-chirimni yuvib, tansiq taomlar bilan meni siylagan, so'ng choy ichib bo'lmasimizdan ketmoq taraddudiga tushgan edi. Endi o'ylasam, o'shanda ikkimiz ham cho'chirdikki, xoli qolsak, kim bilsin, tuyg'ularimizga erk berib yuborarmidik... Bu cho'chish zamirida mavlono Gulxaniydan istihola hissi ham mujassam edi. Qolaversa, ikkimiz ham ich-ichimizda istar edikki, ishqning pinhon mavjlari ming yillar burun ota-bobolarimiz boshidan qandoq kechgan bo'lsa, bizning boshimizdan ham xuddi shundoq sirli va maxfiy kechsin — to'yu tomoshalardan so'ng, bir-birimizga nondek halol bo'lganimizdan so'ng. Zero biz inson, inson farzandlari edik, binobarin, insoniylik tilar edik...

Muhammad Sharif ham bardosh berolmadi, uh tortib, o'rnidan qo'zg'aldi. Tun uzog'i va uqubatidin hazin ovoz bilan shikva qilib dediki:

«Bu nechuk tunki ani tongi yo'q,
Yo muazzinlarini bongi yo'q.

Yo muazzin minora mindimukin?
Yiqilib bo'yni oni sindimukin?!
Yo xo'rozni tamog'idin tulki —
Tutdi mahkam va yo yer yutdi».

Agar mavlono Gulxaniy bilan hamxona bo'lmaganimda, bu g'urbatlarga chidayolmay aqlu hush meni allaqachonlar tark etardi. Mana, hozir ham dilimdagi qayg'u bulutlarini ikki og'iz lutf bilan tarqatib yubordi-qo'ydi.

Yomonlarga insof tilab, nihoyat, tongga yaqin uyquga ketdik.

Ertasi ishxonaga yetib kelganimda hamon jahl otidan tushmagan edim, g'uvillab turgan boshimda har turli alamzada rejalar g'ujg'on o'ynardi. Chindan ham, endi masalani ko'ndalang qo'ymoq lozim. Men-ku, mayli, bo'lari bo'lgan bir g'ulomman, lekin mulla Gulxaniydek pokdomon bir odamni nahs bosgan bu oshiyonda majburan tutib turmoq... Yo ular chiqib ketsin, yo biz!

Bekaga sim qoqdim. Ishxonasidan «Betob», degan javob bo'ldi. Kechga tomon arzi hol qilgani uylariga o'tib bordim. Borsam, bekamiz, darhaqiqat, qattiq uchinib yotgan ekanlar. Egnilarida parcha gulli xalat, boshlarini zangori durra bilan mahkam tang'ib olibdilar, bugun upa-elik surilmaganidanmi yoki betoblik ta'sirimi, ko'rinishlari ham horg'in ham parishon edi. «Yaxshi bo'ldi kelganingiz, — dedilar inqir-sinqir qilib, — endi kimni chaqirsam ekan, deb boshim qotib turuvdi». So'ng kambag'alning chorbog'idek keladigan muhtasham ravonga boshlab kirdilar. Ravonning qoq o'rtasida yig'ma pillapoya turardi. «Mana shu qandilni, keyin anavi isqot qolgur pardalarni olish kerak, — dedilar uh tortib, — kuchim yetmay...» «Mana, hozir-da», — dedim chaqqonlik bilan pillapoyaga tirmashib va birin-ketin pardalarni qisqichidan bo'shatib, bekaga uzata boshladim. Xiyla urinib, chang bosib ketgan zalvarli, kungirador billur qandilni ham bir amallab olishga muvaffaq bo'ldim. «Tinchlikmi? — deb so'radim pillapoyadan tushayotib, — usta chaqirganmisiz?» «Yo'g'-e, — dedilar beka, — o'tgan yili remont qildirdik-ku. Shu, o'zi...» Keyin birdaniga ko'zlari g'iltillab, atrofga olazarak alanglab, shivirladilar:

Sherlon akamiz qamalib qolibdi! Hech narsadan hech narsa yo‘q, quruq tuhmatga uchrab... Iloyo qasd qilganlar past bo‘lsin. Tanangizga o‘ylang, uka, axir, nahot jinnixonada o‘g‘irlyadigan bir narsa bo‘lsa?! Jinnining rizqini yeguncha tosh yegan afzal emasmi?! Bu hammasi bir-ikkita g‘alamisning ishi emish, bekamiz kimligini juda yaxshi bilarkanlar, mayli, ularga ham boqqan balo bordir. U kishi meni o‘ziga ukasidek yaqin olgani uchun bu gapni aytayotgan emish, aslida hech ovoza qilishning hojati yo‘qmish... Turgan joyimda bo‘shashib, g‘o‘ldiradimki, mayli, xafa bo‘lmang, tuhmat bo‘lsa, tagi chiqib qolar... Beka tasalliga quloq ham solmay, gapda davom etdilarki, shu qandil o‘lgurni ham yaxshi niyat bilan ikki yarim mingga olishgan ekan, uzoqroq bir qarindoshlarinikiga eltib qo‘yisharmish. Birdan yuzlari yorishib aytdilar: aqlimning ishlaganini qarangki, xayriyat, mashinani ukamning nomiga olganimiz, kompozitor u, birov shubhalanmaydi. So‘ng lablari lablariga tegmay menga qattiq tayinladilarki, ukajon, endi ehtiyot bo‘ling, birortasi borib surishtirsa, uydagilar yo‘q, komandirovkada deng, men jiyanlariman, bir oyga o‘qishga kelganman, o‘zlari shu yerda turishadi, deng! Men ungacha bu ishlarni bir yoqli qilsam, o‘zim ham o‘tib qolarman. Asli, tuzukroq xaridor chiqsa, shu uyni sotib qutular edim... Shunday deb sirli ravishda pichirlab qo‘ydilar: tergovchi o‘lgurning ham nafi jahannam ekan, o‘nta so‘rayapti.

Bu gaplarni eshitib, holim bisyor faromush bo‘ldi, tag‘in g‘ulomligimga bordim — og‘zimdagi gapim og‘zimda qolib, beka bilan nari-beri xayrlashdim: andisha qildimki, o‘lganning ustiga chiqib tepgan bo‘lmasin.

Imillab ortimga qaytarkanman, Rahmon boboning qiya ochiq darichasiga nazarim tushdi. Bobo shilpiq ko‘zlari yoshlanib deraza oldida ko‘k yaktaklarini yamab o‘ltirardilar. Asta o‘zimni panaga tortdim.

Demak, hijrat muqarrar. Yana qaydin ijara topdim? Qanday bo‘lar ekan qirqinchi oshiyonim?

Uyimizda esa hanuz bayram davom etardi! Cho‘ponning ayroni ko‘p, boyvachchaning bayrami. Bu oqshom Shodiyorning otasi bilan tog‘asi kelibdi. Katta xonadagi dasturxonga odamning jonidan bo‘lak hamma narsa tog‘ qilib uyilgan, ota

bilan tog'a to'rda, Shodiyor Safarboy jo'rasi bilan yelib-yugurib xizmatda!

«Aytaman!» deb qaror qildim ostona hatlashim bilan.

Shodiyorning otasi judayam yosh ekan, bilmagan odam ularni aka-uka deb o'ylashi ham mumkin. Aksincha, tog'asining yoshi otasidan kichik ekan-u, lekin u ancha qarimsiq ko'rinardi: sochlari siyrak, ko'z ostlari salqib tushgan, harakatlari lanj va sust. Aytishicha, oshqozoni kasal, davolatgani Kavkazga ketayotgan ekan, yo'l-yo'lakay jiyanini ko'rib o'tishga ahd qilibdi. Meni darhol izzat-ikrom ko'rgazib to'rga tortishdi, Shodiyor bir og'iz so'z bilan ta'rifimni keltirdi: «G'ulom aka — zo'r!» Ota menga yuzlanib hol-ahvolimni so'radi, bugun bekamiz bilan ko'rishganini, u meni maqtaganini aytdi, biroq bechora bekamizning boshiga tushgan savdolar haqida og'iz ochib o'ltirmadi, men ham churq etmadim. Bag'oyat xushchaqchaq, ulfat odam ekan, birpasda o'ziga rom qildi-qo'ydi. Tog'a bilan Samarqandda birga o'qigan ekanlar, talabalik kezlari boshlaridan o'tgan g'aroyib va kulgili hangomalarni galma-gal so'ylamoqqa tutindilar. Har zamonda ota yonida o'ltirgan Shodiyorning sochlarini to'zg'itib, bag'riga bosar, suyguvchi, sog'ingan padarning bu izhori dili g'oyat mutaassir ko'rinardi. Bir mahal tog'a anor so'ymoq bo'lib pichoq so'radi. Safarboy oshxonadan yelim dastali pichog'imizni keltirdi. Tog'a unga sinchiklab nazar tashladi, ko'ngli tortmadi shekilli, dasturxon chetiga qo'ydi-da: «O'tmas ekan, Shadyar, diplomatimni ochsang, pichoq bor, birini ol-chi», dedi. Shodiyor dik etib o'rnidan turdi. Tog'a guldor qinga solingan pichoqni avaylab sug'urdi, olma kesib, anor so'ydi, so'ng pichoqni sochiq bilan artib Shodiyorga uzatdi: «Ma, tutib yurarsan. Esdalik. Men ikkita olib edim». «E, zo'rsiz, tog'a!» dedi Shodiyor va tog'asini o'pib qo'ydi. Pichoqni bir-bir qo'lga olib, tomosha qildik. Nafis naqshlar ila ziynatlangan sopidan sal pastroqda «Chustdan sovg'a» deb arabi imloga taqlidan qiyshaytirib bitilgan yozuv ko'zga chalinardi. Birdan ota xushxabar aytdi: erta-indin garaj muammosini hal qilib ketar ekan, keyin Shodiyorning mashinasini shafyori olib kelib berarkan. «O'zim haydab kelay?» deb yalindi Shodiyor, biroq ota muloyimgina qilib, lekin qat'iy javob berdiki, yo'q, sen

o'qishingning payidan bo'l. Shunday degan odam, butun suhbat davomida bir og'iz o'g'lining o'qishini surishtirmadi. Kim bilsin, balki ota-bola bu xususda men kelgunimga qadar so'ylashib olishgandir?

Hanuz qarorimdan qaytmagan edim, biroq odamning yuzi issiq, Shodiyorning dasturxonida o'ltirib, uni otasiga yomonlagani tilim bormas edi. Ehtimol, ertalab mavridini topib aytarman.

Talabalik hangomalari tugab, may ta'siridami yoki avvaldan o'zi shunday betakalluf ekanlarmi, qaynog'a-kuyov endi «anov mavzular»da ham bir-birlariga oshkora so'ylay boshladilar. Tog'a siyrak sochlarini siypagancha, o'sha yillari birga davron surgani Gavharxon bilan kechmish ishqiy sarguzastlarini batafsil so'ylar, Shodiyor bilan Safarboy bir-birlariga ko'z qisib, zavqqa botib tinglar edilar. Oshqozoni kasal odamning bu qadar ko'p ichishi va ichib mast bo'lmasligi meni qattiq hayratga solmoqda edi. Ota ham chetda turgisi kelmadi shekilli, tog'a bilan bir kecha «jononga borganlari»ni kula-kula hikoya qilmoqqa tutindi. Qotib-qotib kuldilar. Qizig'i shundaki, o'shanda armiya bayrami ekan, xotini unga ertalab xorijiy mayka sovg'a qilgan ekan, borgan joyida maykasini unutib qoldiribdi, tongga yaqin uyga qaytib, yotoqxonasida yechinayotganida xotini «Maykangiz qani?» deb so'rganida ko'p mushkul ahvolga tushgan ekan... Bu voqea ularning talabalik yillarida emas, yaqinda, ya'nikim qaynog'a-kuyov bo'lganlaridan so'ng sodir bo'lgan, biroq ikkovi ham bu hodisada hech qanday g'ayritabiiylik ko'rmas, aksincha, «yigitchilik» deya mamnuniyat bilan izoh berib o'ltirar edilar.

Eh, Shodiyor, sho'rlik qushim, uyangda ko'rganing qursin!
Endi men yana nima deyin?!

Oxiri zamon bo'ldi, desam, birov ishonadimi?!

Meni jinniga chiqarmaydimi?!

Negaki...

Oxiri zamonda ham mundoq ishlar bo'lmagay!

Axir, qaysi zamonda qaysi inson ko'ribdiki, ota o'g'liga dasta-dasta pul tutqazib: «Buning bari haromdan kelgan, haromga ketishi kerak. Ma, o'g'lim, ye, ich, o'yna-kul, eng zo'rlarini sur», desa! Qaysi zamonda qaysi inson ko'ribdiki,

tog'a jiyani bag'riga bosib: «Kavkazga opketay, onasi o'pmanlari o'zi qo'yingga kiradi», deb aytsa!

Alhazar, alhazar! Bulardan qochmoq kerak! Faqat qochib qutulmoq kerak!

Lekin qayga?

Qaydasiz, Muhammad Sharif? Mening aqlim shoshdi, endi o'zingiz madad bering, ne qilayin: dasturxoniga tufurib turib ketayinmi yoki betimni sidirib, shular qatori tuban tushib, dilimda borini aytayinmi? Nega bosh chayqaysiz, mavlono Gulxaniy? Eshakning qulog'iga tanbur chertmakdan naf yo'qligini o'zim ham yaxshi bilurman, ammo...

Vaqtiki bemahal, ota bilan tog'a chayqala-chayqala o'rinlaridan turdilar. Mehmonxonaga qaytajaklarini aytib, takror-takror xo'shlashdilar. Ota qo'limni mahkam qisarkan, amirona ohangda dedi: «Martning boshida kutaman, Shodiyor olib boradi. Barraga to'yib kelasiz». Bir-birlarini surgashib, yo'lakdan pastga tushib ketdilar. Qadam tovushlari tindi. Eshik-derazalarni lang ochib, barcha xonalarni shamollatdim. Qamalgan g'uborlarni quvdimu qo'noqlardan qolgan badgo'y xayollarni quva olmadim.

Bu tun xonada yolg'iz edim. Muhammad Sharif meni ogoh etmay, qaygadir g'oyib bo'libdi. Sezib yuribman, so'nggi paytlar u ana shunday kishibilmas ko'zdan yo'qoladigan odatlar chiqardi. Churq etib og'iz ocholmayman. Ehtimol, bu oshiyonda qaynasa qoni qo'shilmas kishilar bilan hamnafas bo'lgandan ko'ra yaydoq dalada bazo'r miltillab turgan gulxan yonida ozoda ko'ngil bilan dildirab o'ltirmoqni afzal bilar? Eh, qani edi, imkonim bo'lsayu men ham boshimni olib bir sari oyoq yetguncha ketsam! Dunyoning tunganmas tashvishlaridan xalos bo'lib, dilim faqat hur xayollarga to'lib!

Shu o'y bilan qanday qilib kiyinganimni bilmay qolibman. Yon-verimga boqsamki, katta ko'chaning qoq o'rtasida turibman. Poyi piyoda yo'lga tushdim. Bir paytlar, umrimning mas'ud onlarida Qunduz bilan bearmon kezgan yo'llarim bo'ylab asta yurib ketdim. Borar manzilimning tayini yo'q, lekin bundan yuragimda aslo qayg'u yo'q, o'zim o'zimga bek, o'zim o'zimga xon, ko'nglim istagancha ketaberdim. Ko'cha-ko'ylar jimjit, har zamon-har zamon olislarda daydi itlar huradi, kech

qolgan mashinalar chirog'i miltillab ko'zga chalinadi. Alvastiko'prik tomonlarda, teleminora poygaklarida shamol hushtak chalib, qadimgi bir kuyni xirgoyi qiladi. Shu lahzada shamolga benihoya havas qilardimki, qani edi, men ham shundoq erkin bo'lsam... Ariqlarda yiltirab ko'ringan suvlarga boqib xayol surardimki, qani edi, men ham mana shundoq o'z holimcha oqib yotsam... Boshimda boshpana tashvishi, yomonlar qutqusi bo'lmasa... Ne uchundir, ko'nglimning bir burchida bir umid pinhon ediki, mana hozir mavlono Gulxaniy yoqib o'ltirgan gulxan qarshisidan chiqurman!

Biroq girdo-girdim quyuuq zimiston, hech qayda gulxan shu'lasidan asar ham ko'rinmas edi.

Falak ko'k toqida quyoshdan gulxan yoqquniga qadar bedor kezib yuraverdim. Xayriyatki, tong otdi, yo'qsa, shu ketishda qishlog'imga dovur piyoda borib qolardim. Boya parishon kezib yurgan chog'im yuragimda shundoq bir yengib bo'lmas istak uyg'ongan ediki... Chindan ham, men o'zi bu yerlarda nima qilib sargardon tentirayman? Bu shahri azimda itim adashganmidi? Shu kungacha nima topdim? Bundan keyin nima topaman? Topamanmi o'zi yoki faqat yo'qotamanmi?!

Qadrdomim oftob momo tillo sochlarini tarab, muloyim jilvalar qilgan cha menga tasalli bermoqqa boshladi. «Qo'y, o'g'lon, — deb tabassum qilardi u, — xayolingni buzma, og'ir toshni qo'yningga sol, qara, atrof qandoq go'zal, o'zing qandoq navqironsan! Idorangga bor, yumushlaring boshini qo'yib seni kutib yotibdi, Jo'lliboy og'ang ham muntazirdir. Tushingni suvga aytib yurgandan ko'ra, ilojini topsang, oshiyoningdan xabar olib o't, boyoqish Muhammad Sharifning holi ne kechdi ekan, u bechoraning sendan boshqa kimi bor?..» Ezgu o'gitlari uchun momo quyoshga minnatdor boqdim, yuz-qo'limni anhorning muzdek suvida yuvib, ishxonamga ravona bo'ldim.

Jo'lliboy akam rangi-ro'yimni ko'rib, darhol tashvishga tushdi. Ko'rgan-kechirganlarimni unga munchoq tergandek bir-bir tizib bayon qildim. U so'z qo'shmay tinglab turdida, keyin mendan ranjidi: «Odam bo'lmasan, o'ka, shuncha kundan beri yorilib ketmaganingni qara! — So'ng bosh chayqab, aftini bujmaytirdi, xo'rsinib: — Hay ajalga omon

bersa, bir ilojini qilarmiz. Men mahallamdan surishtirib ko'ray-chi, joy-poy chiqib qolar, — dedi. — Ungacha, uyingga boraverasanmi yoki biznikida yotib turasanmi?» Jo'lliboy akamga tashakkur aytib, hali birovdan mushugimni pisht demaganini, demoqqa haddi ham sig'masligini pisanda qilib, tuzukroq joy chiqsa, o'ylab ko'rishimni egardan tushmay bildirib ham qo'ydim. Jo'lliboy akam soxta navozishlarimga pinak ham buzmay, ishiga sho'ng'idi.

Kechqurun yuragim tag'in taka-puka bo'lib qaytdim-u, har tugul, bu safar uyimizni osuda topdim. Kutilmagan holki, Shodiyor katta xonada qog'oz-kitobga ko'milib o'ltirardi. Meni ko'rib, ko'zlari ravshan charaqlab ketdi. «Keldingizmi, oqsoqol, — dedi quvonchini yashirmay, — zo'rmisiz? Bir palov qilaylik. Gap bor». Shunday deb ko'zlarini ma'noli qisib qo'ydi. Obbo, dedim yana bezillab, tag'in bir baloni boshlasa kerak. Vaqtim yo'qligini bahona qilib qutulmoqchi edim, lekin buni qarangki, Shodiyor hozirgina aytgan gapi shu ondayoq esidan chiqib, xonamga daftar-kitobini ko'tarib kirdi. «Bir ko'mak berib yuboring-e, — dedi tirsagimdan tutib, — boshim ishlamay yotir. Sizga cho't emas-ku bunday narsalar, qotirib tashlaysiz. Ha, partiya tarixidan, mana, temasi, savollari ana bu yonda. Ko'p emas, o'n-o'n besh bet bo'lsin. — Samimiy jilmayib, bo'yniga oldi: — Meni o'ldirsangiz ham eplab yozolmayman. Gonorar oldindan. — Kissasini bamaylixotir kavlab uchta o'n so'mlik chiqarib, daftar ustiga tashladi. — Xo'p esa, men bir yerga borib kelaman».

Turgan joyimda hangu mang qotib qoldim. Qachon bu qadar sir berib ulgurdim, qachon?!

«Menga qara, bola, — dedim hansirab, tishlarim qisirlab singudek bo'ldi, — meni kim deb o'ylayapsan, maraz?!» Shodiyor hech narsaga tushunmay, soddalik bilan ko'zlarini pirpiratdi: «Ha, ozmi? Kafedrada doim shunchaga to'g'rilab beradi-ku?» «Yo'qol ko'zimdan!.. — dedimu shaytonning so'ziga kirib, unga qo'l ko'tardim, so'nggi lahzada arang o'zimni bosib, shaq-shaq qaltirab qichqirdim: — Iblis, yo'qol deyman, odamni dindan chiqarma!» «Ibi, nega qichqirasiz? — deb aztahidil hayron bo'lardi Shodiyor.— Men, nima, bir yomon gap aytdimmi, sizga?!»

Yo‘q, bekor, bari bekor!

To‘ng‘illab so‘kingancha, eshikni qarsillatib yopdi.

Muhammad Sharifdan hanuz darak yo‘q.

Ust-boshimni yechmayoq, o‘zimni karavotga tashladim. Yuragim alamdan yorilmoq darajasiga yetgan, «Ur! Ur!» deya gij-gijlab gursillar edi.

Nahot bu kecha ham Alvastiko‘prik bo‘yida tong ottirsam?

Qachonki, dunyo ko‘zimga ignaning uchidek tor ko‘rinsa, poyoni yo‘q olam ichra o‘zimni qo‘ygali bir qarich joy topolmay qolsam, yagona ovunchim — «Zarbulmasal» kitobini jimgina varaqlar edim. Bu safar ham jamiki xo‘rlik-haqoratlarni qult etib yutdimu uzanib, mudom boshim ustida, stolimning o‘ng tomonida xizmatga shay turadigan «Zarbulmasal» kitobiga qo‘l cho‘zdim. Umidim ul ediki, zora dunyoi qo‘tirni unutsam, sohibi farosat va xushchaqchaq qushlar suhbatiga quloq tutib, gavharu marvaridlarga bergisiz hikmat ma‘nilarini tersam...

Afsus, samo tangrilari bu oqshom qatlim sari qasd qilgan ekanlarmi, kitob joyida yo‘q edi. Ko‘nglim kuz yaprog‘idek uvishib, bir zumda hammayoqni tit-pit qilib tashladim. Tumshug‘imni suqmagan biror teshik qolmadi. Hech qayda yo‘q, go‘yo umuman, mavjud bo‘lmagandek. Darvoqe, kecha bor-midi?.. Aniq eslayman, ishxonaga olib borganim yo‘q, birovga bermaganman. Magar zilzila-pilzila bo‘lib, yer yutmagan bo‘lsa... Yer yutadigan bo‘lsa, avvalo anavi betavfiqni yut-masmidi?

Bisotimda bu kitobning bir necha nashri bor edi-yu, biroq piyoz po‘stidek yupqagina, kaftim ichra bemalol jo bo‘ladigan shu mo‘jaz risola men uchun ayricha qadr, ayricha qimmatga ega edi: Reyx degan benazir iqtidorli yahudiy musavvir ajib bir mahorat ila tortgan g‘aroyib suvratlar muqovani bezab turardi. Men soatlab shu suvratlarga termilib o‘ltirar va inson xayolining cheksizligiga qayta-qayta tahsin o‘qir edim. Musavvir «Zarbulmasal»da zikr qilinmish jamiki jonzotlarni tirik odam qiyofatida tasvir etgan, nozik, zakiy bir uslub vositasida har bir chizgi zamiriga pinhoniy ma‘nolar yashirgan edi. Mana, zarbof to‘n kiyib, yostiqdek keladigan kitobni qo‘ltiqlab olgan ayyor tulki quv tabassum-la boqib turibdi; nortuya, egnida olacha to‘n, tumshug‘ini osmonga ko‘targancha na‘ra tortgan

kabi qah-qah otib kulayotir, baland, naqshinkor ravonda taqya kiygan taqvodor To'tiqush bilan sallani kibr ila qo'ndirgan bukri Yapaloqqush istehzo ichra uni kuzatishmoqda. Bir burchakda esa — quloqlarida qashqari baldoqlar yarqiragan nozparvar Kunushbonu eshikni qiya yopmoq bahonasida mahallaning shu alomat namoyishiga mo'ralaydi... Orqa tomonda mahobatli gumbaz, ingichka minorayu mezanalar sharpasi, paxsa devor ayrisiga zanjirband toshfonos osilgan, ko'kda singan qilichdek hilol... Bu tasvirga boqqanim sari dilimda shundoq taassurot sezardimki, go'yo men bag'riga beaded sirlar ko'milgan shu egri-bugri ko'chalarda juda ko'p bor kezganman, go'yo butkul umrim shunda kechgan, har bir g'isht, har qarich tuproq gardi bolalik chog'larimdan tanish, yuragimda og'riq kabi sog'inch uyg'otgudek qadrdon...

Yo'q, harchand tirishganim bilan bu suvratga tikilib tuygan zavqu hayratlarimni aytib bitirolmayman. Faqat bu emas: bu kitob necha yillardan buyon bedor tunlarimning, oshuftahol kechgan kunlarimning yolg'iz yodgori edi, sarg'aygan sahifalarini qayta-qayta varaqlab Muhammad Sharifning diydoriga to'yar, uning siyratidagi go'zal sifatlariga oshino bo'lib o'ltirar edim. Qatlarida tanho o'zimgagina ayon o'nlaracha, yuzlaracha qaydlarim bor edi, ular odamizot farzandlarining turfa fe'l-atvoriga aksariyat lol qolganimni ifoda qilardi. Faqat bu emas: uni menga Qunduz Shahrisabzdan olib kelib bergan edi. Sahifalarida Qunduzimning qo'l izlari, ko'z nurlari, qaytmas nafasleri...

Nahot endi shularning baridan judo bo'lsam?!

Va birdaniga xayolimda barcha ko'rgiliklarim sababkori tulkitabassum bilan iljayib qad rostladi: «Zo'rmisiz?»

«Shodiyor! Ablah Shodiyor! — dedim ichimda qaltirab, sirtimda esa, tegirmon toshini yelkamga ortgandek vazminlik bilan so'radim: — Kitob qani?»

Shodiyor hafsala bilan tirnog'ini tozalab o'ltirardi, ishidan bosh ko'tarmay savolimga savol bilan javob qaytardi: «Qanday kitob?» «Mening kitobim. «Zarbulmasal», — dedim ta'kidlab. «Men ne bilay?! — deb to'ng'illadi u va yarim o'girilib, kaftidagi tirnoq ostidan qidirib topgan kirini bir chetga puflab yubordi. — Men ne bilay? — deb takrorladi yana, — o'zimning

kitobimni ochib ko'rishga erinaman, siznikini boshimga uramanmi...» «Qani bo'lmasa?!» — dedim qichqirgudek bir alfozda. Shodiyor labini jiyirib, menga iljayib qaradi. Odatda, ko'cha-ko'yda yuradigan beozor tentak hangomatalab kishining joniga tekkanda mana shundoq irganib qarab qo'yadilar. Buni yaqqol sezib tursam-da, parvo qilmay qasdi-basdiga olaverdim: «Siz ko'rmagan bo'lsangiz, jo'ralaringiz tekkandir, mehmonlaringiz». «E!» — deb qo'l siltadi betoqat Shodiyor va etagini qoqib o'rnidan turdi-da, varanglatib magnitofon qo'ydi, joyiga uzala tushib, shiftga tikilib yotaverdi. Xona o'rtasida serrayib qoldim. Ko'nglimga ishtiboh tushdi. Chindan ham, bu kitobga qayrilib qaraydigan banda emas. Faqat bitta kitobni kechayu kunduz boshiga yostiq qilib yotganini ko'rardim: «Dekameron». «Zo'r!» — derdi ko'zlari charaqlab. Bu olmagandan keyin jo'rasi ham... «Safarboy kitoblarimni ko'rgan ekan...» dedim kupp-kunduzi birovga tuhmat qila-yotgan kimsadek bo'shahib. Shodiyor uzoq esnab, yonboshiga ag'darildi: «Yo'qolgan pichoqning sopi oltin bo'lar ekan-da? Hov, ana Safarga telefon qiling». So'ng erinibgina raqam aytdi. Shundan ma'lum bo'ldiki, Safarboy ham el qatori yotoqxonada emas, telefoni bor alohida bir joyda yashar ekan. Kim bilsin, u ham birovni mana shunday qaqshatib turar?

Telefon betoqat Safarboyini chorlar, ammo narigi tomondada, chamasi uning arvohi ham yo'q edi. Eshik tirqishidan kuzatib o'ltirgan Shodiyor hiringlab kuldi: «Qaysi go'rda birortasining butiga tiqilib yotgandir...»

Umidim bilan birga yuragim ham uzilgudek bo'lib, xonamga chiqdim. To'rt devor iskanjaga olib siqa boshladi. Xona bo'ylab asabiy tanobchilik qilar ekanman, angladimki, to'rt devor ichra bo'g' ilmoq uchun albatta feodal o'tmishda tug' ilmoq shart emas ekan.

Muhammad Sharifdan hanuz darak yo'q.

Derazadan tashqariga boqaman. Yana xazon isi dimoqlaringma uriladi. Qaydadir aniq gulxan yonayotir. Tegrasida mavlono Gulxaniy, shubhasiz, rindnafas ulfatlari bilan davra qurib o'ltiribdi. Mening bunda chekkan iztiroblarim, yo'liga intizor termilganlarim — hamma-hammasi yodidan ko'tarilgan. Eh, muhtaram Muhammad Sharif, oshinolik qoidasi ham shundoq bo'lurmi?

Yarim kechasi zahar tang qilib, hojatxonaga kirdim. Uyqu-sizlikdan qizargan ko'zlarim ko'rsaki, «Zarbulmasal» kitobim sakkiz bo'lakka bo'linib, yelim tutqichga qistirib qo'yilibdi!..

Vaqt bemahal bo'lgani bois, o'ng yelkamdagi rahmon qattiq uxlab yotardi. Chap yelkamdagi qutqutalab shaytonning joni kirib, vujudimni jaholat bo'ronida pirpirakdek uchirib, naq Shodiyorning oldiga eltib tashladi. Es-hushimni unutib, ustidagi ko'rparasini yulqib ochdim: «Bu enangning mahriga tushganmidi, nega yirtding, it?!» Shodiyor talmovsirab, quti o'chib, sapchib turdi. «Nima?! Nima bu?! Kim bu?!» deya o'pkasi bo'g'ziga tiqilib beo'xshov qichqirdi. Shartta chiroqni yoqib, qalt-qalt titragancha kitob parchalarini tumshug'iga niqtadim: «Nega yirtding, deyman, gazanda!» Shodiyor nihoyat gapning tagiga yetib, besaranjom yuzlari alam bilan burishib ketdi: «E, kitobing boshingni yesin, — deb so'kindi, — uyquni harom etib... — So'ng yerda sudralib yotgan ko'rparasini olarkan, g'udranib: — Ahmoq Safar, eshshak... — deb jo'rasi-ning onasini «ishladi». To'satdan menga o'girilib qo'lini paxsa qildi: — Nastoyashchiy psix ekansan! Meniyam psix qilmoqchimisani?! Safar svoloch yirtgan bo'lsa, men nima qilay?! Bor, o'ziga borib dodla!» Beixtiyor ikki qadam ortimga tisarildim — jahl ustida shu qaro tunda bir kori hol qilib qo'yishdan cho'chirdim... Shodiyor buni o'zicha tushunib, picha ruhlandi, ustimga bostirib kelib, tishining orasidan chiqqan bir ovoz bilan so'radi: «Xo'sh, qancha turadi shu matohing? O'n baravar to'lasam, qutulamanmi? Yuz baravar to'lasam, tinch qo'lasanmi?» «Sensirama, ablah!» — dedim yana bir qadam chekinib va shu zahoti ortimda eshik borligini, bundan ortiq chekinib bo'lmasligini sezdim. Shodiyor shiddat bilan qo'limdan kitob bo'laklarini yulqib oldi, orqa-o'ngini ag'darib, bahosi bitilgan joyini axtarib topdi, yoruqqa solib ko'rdi va adoqsiz bir zaharxanda bilan tantana qilib: — To'qqiz tiyin! — deb qichqirdi, so'ng shodligiga chidayolmay qah-qah otib kuldi: — To'qqiz tiyin! Ah, o'laman, to'qqiz tiyinga hali... Mana, mana senga o'n tiyin, bir tiyini siylov — suv olib ichasan! Vox-xa, to'qqiz tiyin, to'q...»

Ana shunda shuncha paytdan buyon qo'rqib turganim voqea sodir bo'ldi — men ikki qo'lidan mahkam tutib turgan shayton

changalimdan otilib chiqib ketdi, burchakdagi kursini olib, Shodiyorning boshiga qarab otdi...

Shodiyor so'nggi lahzada boshini olib qochishga ulgurdi, kursi qarsillab yelkasiga tegdi va og'riqning zo'ridan qichqirib yuborgancha bukchayib qoldi. «O'ldiraman! — deb quturardi shayton menga bo'y bermay, — o'ldiraman seni!» Kursi ikkinchi bor otilganda Shodiyor bor kuchi bilan iyagimni mo'ljallab kalla qo'yib yubordi. Ko'zlarimda mushak porlab, boshim devorga gumburlab urildi. Urildi-yu, yorilmadi. Yorilgani tuzuk edi. Faqat, og'zim sho'rta'm bo'lib qoldi, pastki labim muzlab, kurak tishim sinib ketganini payqadim.

Ikkimiz ham odamlik suratidan chiqib, hayvonlik qiyofasiga kirgan edik, hansirab-irillashib bir-birimizning kekirdagimizni uzishga intildardik. Nihoyat, o'ng yelkamda uxlab yotgan rahmon ham cho'chib uyg'onib ketdi. «Odam emas ekansan! — deb shivirladi quti o'chib. — O'ldirib qo'lasan-ku! O'ldirib qo'lasan! Bas qil! Hoziroq bas qil!» Shayton esa bosh-ko'zimni aylantirgancha dumi bilan g'azabimni qo'zg'ab aytar ediki: «O'ldir buni, o'ldir! Shunday xumordan chiqasanki...» Rahmon, bunga sari kapalagi uchib, ko'zlarini vahima bilan katta-katta ochib pichirlar edi: «Qamoqda chiriysan! Qamoqlarda chirib ketasan...»

Andishaning rahnamosi — rahmon bu safar ham g'olib chiqdi: changalimda mushuk boladek big'illab yotgan Shodiyorini qo'yib yubordim-da, hamon titragan ko'yi xonamga chiqdim. «Enangni ko'rasan hali! — deb to'lg'angancha xirillardi Shodiyor. — Kallangni uzdiraman, ko'rkalamush!»

Oshxonaga kirdim, qaltirayotgan qo'llarim bilan to'kib-sochib bir piyola suv ichdim, keyin yana... Soat endi uch yarim bo'libdi.

Bir ozdan so'ng Shodiyorning ingragani eshitila boshladi. Ingrash turib-turib kuchayar edi. Yuragimga vahima oraladi: o'lib-netib qolsa-ya? Kim biladi, qaltisroq zarb yegan bo'lsa...

Endi nima qildim?

Do'xtir chaqirsam, do'xtir melisa ham chaqirsa... Yo'q, har balo bo'lsa ham bu ishga begonani aralastirmagan ma'qul. Ammo bir kor-hol bo'lib qolmasa edi!

Ko'nglimda pushaymonlik uyg'ongan, lahza o'tgani sayin u vijdon azobiga aylanib, yuragimning tub-tublariga igna sanchar

edi. Shartmidi shuncha jaholat? Uxlab yotgan odamga qo‘l ko‘tardim-a! Axir, uyqu — o‘lim bilan teng, deydilar! Yo‘q, egilgan boshni qilich kesmas, harna bo‘lsa-da, kirib, holidan xabar olayin — har holda, tirik jon...

Shodiyor bet-boshini sochiq bilan tang‘ib, qon tufurib yotardi. Menga ko‘zi tushdi-yu, besaranjom tipirchilab, yonveridan qo‘lga ilingudek biror narsa qidirdi. Yostig‘i tagiga billur kuldon yashirgan ekan, olib jon-jahdi bilan ko‘tardi. «Bas! — dedim ham qo‘lini, ham shahdini qayirib. — Bo‘ldi deyman! Nega inqillayapsan? Qani, ko‘zingni ko‘rsat-chi!» «Yo‘qol! — deb baqirdi Shodiyor qizarib-bo‘zarib va yulqingancha betimga tufurdi, boshimni olib qochishga ulgurdim, tufugi ko‘rpasiga tushdi. — Ko‘zimga ko‘rinma, ablah!» Mardlik qilib, shunday deb qichqirishga qichqirdiyu shu zahoti og‘riqning zo‘ridan ihrab, joyiga gurs etib quladi. Indamay, o‘rnimdan turdim, sochiqni ho‘llab kelib, qo‘llarini panjara qilib yuzini bekitib yotgan Shodiyorning peshonasiga bosdim, iyagidagi, yonoqlaridagi qotib qolgan qon izlarini artdim. U endi negadir ko‘zlarini yumgancha churq etmay yotardi. A‘zoyi badanini sinchiklab ko‘zdan kechirib, picha yengil tortdim: xayriyat, hech yeri sinib-netmabdi. Chap qovog‘i salgina yorilibdi, xolos. Oshxonaga chiqib, bir piyola iliq choy bilan dori keltirib, og‘ziga tutdim: «Ich buni». Shodiyor quturgan yo‘lbarsning ko‘zlari bilan menga o‘qraydi: «Nima bu?» «Uyqu dori. Og‘riqni ham qoldiradi». Lom-mim demay dorini ichib yubordi, sochiqni peshonasiga bosgancha ters o‘girilib oldi. «Birinchi yordam» ko‘rsatilgan, endi xotirjam pinakka ketaversam bo‘lardi, biroq buning o‘rniga o‘ng‘aysiz bir vaziyatda qolib, qoziqday qotib turaverdim. So‘ng uning ko‘rpasini tuzatib, oyoq tomonidagi kursiga cho‘kdim. «Hushingni yig‘ib ol, bola, — dedim nihoyat, tovushimga bardam tus berishga tirishib, — bunaqada bir kunmas-bir kun birovning qo‘lida o‘lib ketasan. Buni shahri azim deb qo‘yibdilar, bedarvoza emas». «Ko‘ramiz! — deya xirilladi Shodiyor yotgan joyida. — Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingga umr tila!» Albatta, Shodiyor bu gapni aytgani yo‘q, ichida shunday deb o‘ylayotgandir, deb gumon qildim men. «Hali yoshsan, ko‘zingni och, — deya nasihatda davom etdim, — bu ketishda oxiri shunday afsus qilasan, lekin unda kech bo‘ladi.

Bilmadim, mushtday boshingdan buncha buzg'unchilik, buncha fitna, axir, men senga yaxshilik qilmoqchi edim, nahot, yaxshilikka yomonlik qaytaversa?» Shodiyor sachrab o'rnidan turdi: «Ha, yaxshilikka yomonlik ekan! — dedi lablari gezarib. — Men senga yaxshilik qilib, uyimga qo'yib o'tiribman! Nimaga baqrayasan? Men bu uyni sotib olganman! Ichidagi hamma narsasi bilan! Seni ham qo'shib! Yigirma mingga, bildingmi! Xohlasam, uyga qo'yaman, xohlasam, ketingga tepaman! Tushundingmi?!»

Cho'chib-sapchib o'rnimdan turdim: Shodiyor bu gal mening xayolimda emas, ro'paramda ro'y-rost so'zlamogda edi!

Qaydasiz, Muhammad Sharif? Qadringizga endi yetayotirman. Meni mudom «ajab sodda G'ulomsan», deb suyar edingiz. Endi bildim, siz meni azbaroyi ayaganingizdan shundoq deb atar ekansiz. Aslida men ajab laqma, ajab ahmoq g'ulom ekanman.

Birdaniga miyam ajabtovur ravishda ishlab ketdi: tunov kungi Dinora opaning hasratlari, otaning to'satdan tashrifi... Axir, o'sha kun o'z og'zi bilan aytdi-ku, opangizni ko'rdim, deb! Uh, sotqin beka, sotqin dunyo! Endi men nima degan odam bo'ldim? Ustimdan o'zgalar bir buyumdek savdo qilgach, men chinakam g'ulom bo'lmay, kimman? Lekin nega bu chayonvachcha shuncha kundan buyon churq etib og'iz ochmadi?

«Nega menga aytmading?» — deb alam bilan vishilladim.

Shodiyor xira pashshadan bezor bo'lgan kimsadek qo'llarini hafsalasiz to'lg'adi: otasining gapini ikki qilolmabdi. Otasi tayinlagan ekanki, bu ko'rkalamushni qo'ldan chiqarma, kallasasi ishlaydigan ko'rinadi, o'qish-po'qishingga yordami tegar, osh-ovqatingga qarab, xizmat-pizimatingni qilib yurar, debdi. Hali men qon qusishim tayin ekan. Hali Shodiyorning oyoqlarini o'par ekanman — u titrab-qaqshaganicha og'zidan ko'piklar sochib, istiqbolimni ana shundoq bashorat qilar edi.

«Mayli, Shodiyor, sen ham shoshma! Biz endi kurashga kirdik. Bilasanmi, kurashda faqat qullar hech narsadan toymaslar — zero, ularning kishandan o'zga yo'qotadigan narsalari yo'qtur! Sen endi o'zingga ehtiyot bo'l, Shodiyor uka!»

Xayolan ana shundoq o'tli nutq irod qilib, aslida esa toru mor bo'lib xonamga chiqdim. Ha, endi ming otashzabonlikdan foyda yo'q — yov ketgandan so'ng qilichingni yerga chop.

Sudralib kiyindim, sudralib yig'ishtirindim. Bir sidra ust-boshimni, eng zarur kitob-qog'ozlarimni oldim, qolganini puxta saranjomladim. Eshigimning qulf-kalitsiz ekaniga afsuslanib, bir parcha qog'ozni yelimplab yopishtirdim-da, xonani «muhrladim». So'ng moli dunyomni Shodiyorga, Shodiyorni jaholat tangrisiga topshirib, uydan chiqib ketdim. Ishqilib, Shodiyorga insof bersinu abgor ro'zg'orimni derazadan uloqtirmasin!

Alvastiko'prik yoqasiga yetganda birdaniga yuragim uvushdi: Muhammad Sharifning holi ne kechadi? Axir, u horib-tolib meni izlab kelsa-yu, arvohimni ham topolmay... Nobakor Shodiyor ziyon-zahmat yetkazmasmikan?

Ammo hozir olamda hech kuch yo'q ediki, meni ortga qaytarolsa.

Boshim qotib, xiyla vaqt ko'prik ustida ikkilanib turdim. Axiyri, taqdir inoyatiga umid bog'lab, tavakkal bilan olg'a ketaverdim. Hali so'fi obdastani qo'liga olmasidan ishxonaga yetib keldim. Oynavand derazani chertib, yo'lakdagi ko'hna divanda tamshanib uxlab yotgan qorovulimiz Oxun buvani uyg'otdim. U ko'zlarini ishqay-ishqay to'ng'illab eshikni ochdi, lekin sal o'tmay xursand bo'lib ketdi: birgalashib choy ichdik.

Bugun Jo'lliboy akamning uyda ishlaydigan kuni edi, kechqurun «semiz» jurnalga yozayotgan maqolamni maslahatlashish bahonasida hovlisiga o'tib bordim. Osh yeb, g'iybat aralash suhbatga berilib ketganimizdan maqola paqqos yodimizdan ko'tarilibdi, bemahal bo'lgani uchun yotib uxladik va ertalab nonushta payti unga dardimni aytdim. Jo'lliboy akam xotinini chaqirib dedi: «Mana shu G'ulomni ijaraga qo'ysak, nima deysan? Bir bo'lmag'ur joyga ham bekorga oy sari yigirma beshdan to'lab yotgan ekan». «Gapingiz qursin, — dedi yanga xijolat bo'lib, — joygayam pul oladimi odam? G'ulomjon, hech tortinmay, o'z uyingizdagidek turavering. Mahallamizda yaxshi qizlar ko'p, zora shu bahona boshingiz ikkita bo'lib qolsa». «Ha-ya, ajabmas, ikkita bo'lgandan keyin boshing

ishlab ketsa», — dedi Jo‘lliboy akam piching qilib va birgalashib idoraga jo‘nadik.

Jo‘lliboy akam bilan Oypora yangamning ikkita o‘g‘li bor edi. Shu kundan e‘tiboran men «uchinchi o‘g‘il» bo‘lib, shu yerda istiqomat qila boshladim.

Chorshanba kuni kechqurun menga ajratib berilgan kunjak xonada yuragim siqilib, parishon kitob varaqlar edim. Qachon bir boshpana topiladi-yu, qachon yana o‘z xayollarimga ko‘milib o‘ltirar ekanman, deb o‘ylardim. Joy topsam, Shodiqo‘rg‘onda qolgan ko‘ch-ko‘ronimni olib kelar edim. Jo‘lliboy akam bilan xotini chandon mehribonliklar ko‘rsatgani sari men battar xijolatga tushar edim. Ko‘nglim harchand keng bo‘lgani bilan katalakdek hovliyu pastak bu xonalar...

Tuyqusdan eshik ochilib, kitobdan ko‘zimni uzdim. Jo‘lliboy akamning to‘ng‘ich o‘g‘li Kuntug‘mish odatan shu paytlarda taomga aytib chiqardi. Lekin, taajjubki, eshik ochildi-yu, hech kimsa kirmadi. Hayron bo‘lib o‘ltirganimda yelkamga kimdir asta qo‘lini qo‘yganini sezdim va shoshib o‘girildimu jilmayib turgan Muhammad Sharifni ko‘rdim! Ham hayrat, ham sevinchdan tilim kalimaga kelmay qoldi. Keyin o‘zimni picha bosib, qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar qabilida do‘q qilmoqqa boshladim: «Ha, taqsir, qayoqlardan so‘raymiz?» Mavloni Gulxaniy, yuzlarida hanuz o‘sha tanish tabassum balqib, bosh chayqadi: «Bilmadim, har kim o‘z boshini quruqqa olib qochaversa, olamning ahvoli ne kechar ekan...» «Qochgan kim, axir?» — dedim bo‘sh kelmay. «Yo‘q, xotiring jam bo‘lsin, — dedi Muhammad Sharif va ko‘zlarini yerga oldi, — senga ta‘na-malomat taqmoq niyatida emasman. Imon qochayotir, imon». Bir muddat so‘zsiz qoldik. «Hay, qaylarda edingiz, odamni xavotir qilib, — dedi mulla Gulxaniy, — avval — Urgut, soniyan — Yangiqo‘rg‘on, Rabot, Pushog‘ar, Eski sabot, Mo‘g‘ulchikin, Firuz, Shahrison, Beshsaroy, Mang‘it, Kenagas, Yangiariq, Bekobod, Xayrobod... Kunushbonu oyimning mahrlarini bitirdim. Va shu tariqa «Zarbulmasal» kitobim ham adog‘iga yetdi. Qissamning intihosida behad ma‘yus bo‘lib qoldimki, har nechuk sodda G‘ulom bo‘lsang ham, senga o‘rganib qolg‘on ekanman. Huzuringga oshiqdim: bedarak ekansan. Izlay-izlay, mana, oxir,

topdim...» Beixtiyor ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi. «Yuragim shundoq g'ash edi, — dedim shivirlab, — shundoq g'ash ediki, bu oqshom sizni ko'rmasam, bilmadim, holim ne kechardi. Shukur taqdirgakim, loaqal Siz meni yo'qlab keldingiz...» «G'alat so'ylaysan, yigit, — dedi Muhammad Sharif, — boshingdan kechmish jamiki savdo menga ayon. Xotiringda bo'lsa, men o'shandayoq ogoh etgan edimki, har kimki nojinsdin muruvvat tilar, go'yo tol yog'ochidan zardolu tilaydur. Boshingni ko'tar, ko'ngling ozodadur. Rub'i maskunda bundan-da buyuk saodat yo'qtur. Sen endi bundoq xonanishin bo'lma, dunyo kez, ko'rasanki, olam bepoyon, yaxshilik ham, yaxshilar ham olam ichra behisob. Yomonlar ham ulardan oz emas, ammo shularni deb o'z yog'iga jahonni qovurmoq oqillar ishi emas. Dunyo kezsang anglagaysanki, inson behudud borliq qarshisida bir zarradir. Shunda sen dilingni o'rtagan qabohatlarni unutgaysan. Yaxshilik — olamning ustuni ekaniga imon keltirgaysan. Na choraki, zaru zo'r hamma zamonlarda ham bo'lgan. Bu ofatning davosi nadur? Ojiz aqlim bunga yetmaydur. Ammo sochim oqarib, tubiga yetganim hikmat shul: inson ekansan, inson qalbiga yaxshilik urug'ini sochginu uni mehr chashmasi bilan sug'orgil. Endi esa, ey sodda G'ulom, agar ijizat etsang, tun yarimdan o'tganda kulbanga ahli tuyurni chorlasam. Ajab emaski, sen ham ularni sog'ingan bo'lsang?»

Shu tun yana bag'rim to'lib qoldi.

Tonglasi Jo'lliboy akam suyunchi so'rab chiqdi: ikki mahalla naridan menga bir joy topibdilar. Yon-atrofi buzilayotgan ekan, lekin hali ikki-uch yil daxlsiz turarmish, ungacha esa — yo eshak, yo podsho, yo Afandi. Eng muhimi, hovli egasiz ekan. Choy ham ichmasdan, hovliqib ko'rgani bordik. Egnidagi moshrang kamzuliga GTO, DOSAAF nishonlarini qatorlashtirib taqib, ko'zlariga surma qo'ygan bir soqolsiz oqsoqol bizni kutib oldi, indamay eshikni ochib, hovliga boshlab kirdi. Ayon bo'ldiki, bu joy mahalla qo'mitasining sobiq idorasi ekan, qo'mita choyxona yonidagi yangi binoga ko'chib o'tganidan so'ng bu yer bo'shab qolibdi. Bir uy, bir ayvon, tomi shifer bilan yopilgan. Imorat ancha puturdan ketgan, lekin bundan tuzukrog'ini menga hozir ammamning eri ham topib berol-

maydi. Biror yil amal-taqal qilib turarman. Tunuka, qog‘oz, karton bilan naridan-beri o‘ralgan devor ortida keta-ketguncha chaldevor, uzoqda saf tortib qad rostlab kelayotgan osmon-o‘par binolar. Chaldevorni ko‘rib, yuzim yorishdi: Muhammad Sharif qushlari bilan yayraydigan bo‘ldi-da! «Ma‘qul», — deb yubordim shu xayol ta‘sirida. «Yaxshilab supurib-sidirilsa, binoyidek joy», — dedi bizni boshlab kelgan Siddiqxo‘ja aka. U mahalla qo‘mitasining raisi ekan. «Xo‘p, ijara haqi nima bo‘ladi?» deb so‘radim taraddudlanib. Oqsoqol bu gapni eshitmagandek qo‘l siltadi. Keyin Jo‘lliboy akamdan bilsam, bir tiyini ham kerakmas, debdi, faqat shu qo‘mitaga shior-pior kerak bo‘lganda, qarashib yuborsa bas. Chamasi, Jo‘lliboy akam shunaqa hunariyam bor, deb narximni oshirgan bo‘lsa kerak.

Oqsoqolning bu xususda shart qo‘ygani bejiz emas ekan — bo‘lg‘usi oshiyonimni sinchiklab ko‘zdan kechirgach, bunga ishonch hosil qildim. Ayvonning burchagida qor-yomg‘irda ivib puturdan ketgan besh-oltita qulochga sig‘mas alvon-taxtalar taxlab qo‘yilgan ekan. Birini ag‘darib, rangi o‘chgan yozuvlarga nazar tashladim: «Chorvachilik — zarbdor front!» Ikkinchisida: «Ishlamagan — tishlamaydi!» Xonaning is bosgan devorlari ham har turli tashviqot qog‘ozlari bilan ziynatlangan edi. Ularning birida fildek keladigan pashsha tasviri bo‘lib, tagida qat‘iy buyruq zikr etilgan edi: «Sog‘liq dushmani — pashshalarni qiring!» Chap tomondagi devorning qariyb yarmini egallagan afishasimon qog‘oz esa ahli fuqaroni jamg‘armalarini omonat kassalarda saqlashga da‘vat qilardi. Oyoq ostidagi polning chirigan yog‘ochlari qadam bosganim sari g‘ijjakdek nolavor bir musiqa chalardi.

Tabiiyki, bu Yunusobodagi ordona qolgan muhtasham oshiyon emas, biroq o‘ziga yarasha fazilatlariga ega edi. Eng muhimi, yerga yaqin, bo‘yradek bo‘lsa-da, sahni bor. Girdo-girdidagi chaldevorni aytmaysizmi!

Ishdan barvaqtroq qaytdimu boshimni mahkam tang‘ib kulbai vayronani obod qilmoqqa kirishdim. Mavloni Gulxaniyning xursandchiligi cheksiz edi. Uning yelkasida mudom tumshayib o‘ltiradigan Boyo‘g‘lining ham chiroyi picha ochilgandek. «Men qizimni jamolig‘a yarasha qalin solurman, — derdi u. — Ming chaldevori tokchaband bo‘lsa, yangi ganj-

xok qilg'on bo'lsa, hech Boyo'g'lini soyasi tushmagan bo'lsa, unarman va illo mundin biri kam bo'lsa, unamasman». Muhammad Sharif menga sekin ko'z qisib, battol Boyo'g'lining qaysarligidan unsizgina kulardi.

Alqissa, ikki kecha vaqtimni sarflab, boshpanani odam kirs bo'lgulik bir ahvolga keltirdim. Eshigimning og'zini mahalla ahli kultepa qilib olgan ekan, bazo'r tozalab, uzoq o'yovlardan so'ng devorga ilk shior bitdim: «Axlal tashlagan axlatday xor bo'lsin!» So'zning qudratini qarangki, ertasi ham, indini ham hech kimsa bu yerga cho'p tashlashga ham jur'at etolmadi! Holbuki, devorga o'qlog'iday-o'qlog'iday harflar bilan bitilib, kultepa tagida ko'milib yotgan boshqa bir yozuv ham bor ekan: «Axlal tashlaganga — 50 so'm jarima!!!» Jarima olmaydigan bo'lganim uchun uni ohak bilan oqlab qo'yaqoldim.

Oqsoqolga bu ishim benihoya ma'qul tushibdi. Lekin shiornavisligim boshimga bitgan balo bo'ladi shekilli: Jo'lliboy akamning aytishicha, oqsoqol shu shiordan yigirma-o'ttizta yozib berishimni iltimos qilibdi. Eshitib, yelka qisdim. Nachora, aravasiga tushgandan keyin ashulasini ham aytishga to'g'ri keladi.

Kuni bo'yi qo'sh haydagan chorakordek horib-charchab, namozshomdayoq uxlab qoldimu kechasi to'rt yil mobaynida birinchi marotaba Qunduzni tushimda ko'rdim! O'sha ilk daf'a uchratganimdek oq, oppoq ko'ylakda, sochlari to'lqin-to'lqin chayqalib osmoni falakda, parqu bulutlar ustida qaygadir ohista uchib ketayotgan emish. Harchand zo'r berib chorlasam hamki, ovozim yetmashmish. Bir mahal naq qulog'im ostida uning: «Shahrisabzga keling, G'ulom aka, — degan qadrdon tovushini aniq-taniq eshitdim, haroratli nafasini yaqqol tuyib, a'zoyi badanim bir totli jimirlab ketdi. — Shahrisabzga keling, — deb takrorlardi u, — ko'klamda, maylimi? Albatta kelasiz-a?» U benihoya yuksakda, qo'l yetmas, ko'z yetmas samo bag'rida oqqushdek suzib yurardi-yu, men uning ma'sum chehrasini shundoqqina ravshan ko'rib turardim...

Ko'nglim bir xil bo'lib uyg'ondim. Talay vaqt shiftga termilib yotgancha tushimga ta'bir izladim. Qunduz, Qunduz... Endi men Shahrisabzga qandoq borayin? Nima deb, qaysi yuz bilan borayin? Sen bo'lmaganingdan keyin Shahrisabz

tugul, shu sabzai olam menga tatirmidi? Lekin nega menga bu qadar iltijo bilan o'tinding? Kim bilsin, huzuringga eltar yo'llarni o't-o'lan ko'mib yubordimikan? Ko'klam kezlari, ehtimol, qabring poyida bir kalima so'z bilan yod etmog'imga intizordirsan? Bilmayman, bilmayman, biroq, har qalay bu bejiz alomat emas. Shahrisabz bormog'im kerak. Zudlik bilan!

Yuragim shoshib, o'rnimdan turdim.

Hamma narsa taxt bo'lib, shanba kuni kechqurun ko'ch-ko'ronimni olib kelmoqqa ahd qildim. Tushdan so'ng sekin chiqib jo'nayotgan edim, Jo'lliboy akam to'xtatib aytdiki, «sen borib lash-lushingni yig'ishtirib turaver, men Shokirni olib boraman, ikki soatda ishdan qaytib keladi». «Ovora bo'lmang, — dedim, — taksi-paksi qilib kelarman». «Jinnimisan, men qo'shninga aytib qo'yanman», — dedi Jo'lliboy akam ranjib. «E, ag'darma moshinga ortadigan buncha mol-dunyoni qaydan olaman», — dedim boshimni qashib. Bir chetda jimgina kuzatib turgan Muhammad Sharif miyig'ida kulimsirab so'z qo'shdi: «Kambag'al bo'lsang, ko'chib boq».

Borar joyni Jo'lliboy akamga yaxshilab tushuntirib, Yunus-obodga ravona bo'ldim. Borsam, Shodiqo'rg'on taqa-taq berk, derazalar zimiston. O'sha kuni jahl ustida cho'ntagidagi kalitni uloqtirib kelgan nodon G'ulomni so'kkancha bo'g'ilib kuta boshladim. Na Shodiyordan, na Jo'lliboy akamdan darak bo'ldi. Tajangligim tutib, tevarak-atrofnii aylanib kelishga qaror qildim. Avtobus bekatigacha bordim, undan bozorga o'tib, qo'limni cho'ntagimga suqqancha narx-navo bilan qiziqdim, to'rva-xalta ko'targan kampirlarga qo'shilib, kartoshkaning bahosi osmon baravar sapchiganidan darg'azab bo'ldim, Ganja Qorabog'dan kelib po'rtahol sotib o'ltirgan qoshi qora, ko'zi qora bog'bonlardan bitta qizil pulga bir kilo po'rtahol oldim. Jo'lliboy akamning o'g'illari Kuntug'mish bilan Alpomish har oqshom po'rtahol deb xarxasha qilar, otasining esa har oqshom esidan chiqib qolar edi. Esidan chiqmay nima ham qilsin: po'rtaholning kilosi o'n so'm, maoshgacha hali olti kun bo'lsa... Izimga qaytib qaragam, sobiq makonimning derazalarida chiroq ko'rindi. Hovliqib, sakkizinchi qavatga ko'tarildim. Bir vaqtlar qadrdon bo'lgan, endi esa butkul begona eshik ortida bir zum nafasimni rostlab, qo'ng'iroq

tugmasini bosdim. Qo'ng'iroq bulbul bo'lib sayradi, lekin ichkaridan qilt etgan sharpa sezilmadi. Yana ustma-ust qo'ng'iroq bosdim. Anchadan keyin Shodiyorning uyqu va zarda aralash bo'g'iq ovozi eshitildi: «Kim?!» «Oching. Narsalarimga keldim», — dedim bosqlik bilan. Eshik sharaq-shuruq qilib ochildi, Shodiyor, ko'zlari qizargan, sochlari to'zg'igan, doimgidek qariyb yalang'och qiyofada yo'lakda turardi, betimga qayrilib ham qaramadi — to'g'ri xonasiga kirib ketdi. Tan olib aytishim kerakki, tergovchilik o'qishiga tobi-toqati bo'lmasada, qonun-qoidadan birmuncha xabardor ekan — bir paytlar men istiqomat qilgan, endi esa uning xususiy mulkiga aylangan xona eshigidagi so'rg'ichlangan «muhr» daxlsiz turardi. Ichkari kirib, dimiqib ketayozdim. Supurgi tegmagan xonumon xarob, deb bejiz aytmaydilar, gard-g'uborga to'lgan sobiq makonimda nafas olib bo'lmasdi. Darhol derazani lang ochib yubordim, so'ng shosha-pisha narsalarimni yig'ishtirmoqqa boshladim. Hozir Jo'lliboy akam ham kelib qolsa kerak. Shodiyorning xonasidan hamon o'sha rahnagar musiqa eshilib turar, chamasi, bu oqshom ham yolg'iz emas edi.

Bir mahal telefon jiringladi. Xo'jayin shipillab chiqib keldida, dastakni qulog'iga tutdi, keyin turgan joyidan menga qarab o'qraydi: «Telefon!» Jo'lliboy akam ekan. «Bir oz kutasan-da, o'ka, — dedi, — Shokir endi keldi. Ovqat yeb olay, jo'naymiz, deyapti. Faqat yo'lda bir joyga kirib o'tsam, deydi. Birpasga». «E, mayli, — dedim suyunib, — bemalol, men hali tayyor bo'lganim yo'q». «Ha, bo'пти», — dedi Jo'lliboy akam xotirjam tortib.

Shodiyorning xonasidan qichiq nag'mayu ayol tovushi bilan birga taralayotgan o'tkir bir hid butun yo'lakni tutib ketgan edi. Nima ekan-a bu? E, menga nima! O'liblar ketmaydimi!

Kitoblarni o'rab-bog'lab, o'rin-ko'rpamni yig'ishtirayotganimda to'satdan boshimda qattiq og'riq his etdim. Go'yo mana hozir yorilib ketadigandek tuyulardi. Yodimga tushdi: bir safar suvaraklarni qiraman, deb, haddan ziyod dori sepib yuborib, ikki-uch kun mana shundoq boshimning og'rig'iga chidayolmay yurgan edim. Ro'bi ro'zg'orimni yig'ishtirib taxt qilgach, benihoya chanqaganimni sezdim. Qani endi, bir

piyolagina qaynoq choy bo'lsa! Choynak-piyolani joylab qo'yanimdan qayta ochishga erindim-da, oshxonaga chiqib, muzdek suv ichib keldim, so'ng xona o'rtasida, kursiga suyan-gancha qo'ng'iroq kuta boshladim.

Shodiyor ikki marta shisha ko'tarib o'tdi.

Jo'lliboy akam negadir hayallab qoldi. O'rnimdan turib, deraza oldiga yaqinlashdim. Ko'zim yetganicha uzoqlarga tikildim. Kuz kuni ham bir tutam, soat sakkiz bo'lmasidan hammayoq zimiston, naq yarim kechaga o'xshaydi. Havoda achchiq kuyindi isi kezadi. Chamasi, hanuz yaqin-atrofdagi xazon yoqilmoqda. Xazon bo'lgan yaproq ham ko'p ekan-da, hali-hamon yoqib ado qilisholmaydi. Iya, anavi nima? Gulxanmi? Ha-ha, gulxan, lovillab, ko'k toqiga chirmashib, atrofni kunduzdek yoritib yonayotgan gulxan! Xuddi o'sha eski joyida — bir mahallar meni naq es-hushdan ayirgudek hayratga solgan yaydoq jo'xoripoya adog'ida gurillab yonmoqda! Tegrasida uch-to'rt kishi davra qurib o'tiribdi. Qiyofalari tanishdek. Bor quvvatimni ko'zimga to'plab, mijjalarimni qisib o'sha tomonga tikildim va ohista gurgung berib o'tirgan Muhammad Sharifni ko'rdim. Tinmagur odam ekan-da bu mulla Gulxaniy! Qachon bu yerga yetib kelmoqqa ulgurdi ekan? Yuragimda yana havas qo'zg'aldi. Hamsuhbatlari kimlar bo'ldi ekan? Rindnafas shoirlar — Mahzub, Majzub, Muntazirmi? Poyonsiz xayollar sohibi Gogolmi? Anduhga yo'g'rilgan sirli qissalar ijodkori Andersenmi? Nimalarni so'ylamoqda ekan ular? Shu gulxan tegrasida davra qurganlarda ham armon bormikan?

Yonginamda nimadir gumburlab quladi, keyin kimdir jonining boricha qichqirdiyu shu zahoti uning faryodini qasira-qusur musiqa sadolari bosib ketdi. Ilkis qayrilib qaradim: Shodiyorning xonasida oto'yin boshlangan edi. Ayol jon-jahdi bilan yer tepar, yig'i aralash allanimalar deb qichqirar, Shodiyor g'o'ldirab tahdid qilar, habash xonandalar esa uyni boshlariga ko'tarib ularning ikkalasidan ham baland kelmoqqa tirishar edi. Bilmagan odamga bu makonda qiyomat qo'pgandek tuyulishi mumkin, ammo bundagi siru asrordan boxabar kimsa pinak buzmasligi tabiiy, zero bu Shodiyorning odatiy kunlaridan biri edi, xolos. Shu bois eshikni zichlab yopdim-da, qo'limga ilingan kitobni varaqlashga tutindim. Besh-o'n daqiqa

o'tdi, ayolning jazavasi battar kuchaydi, u endi yolg'iz o'zi to'rtta zabardast zanjining na'ravor nag'malarini bosib uvvos tortar edi: «Qo'yvor! Qo'yvo-o-r! A-a-a! Onajon, voy, onajon! Qutqaringla-ar!»

U «onajon»lab bejiz dodlamas — quturgan Shodiyor hozir onajonini ko'rsatayotgani aniq edi. Yana nimadir qarsillab sindi, nimadir gumburlab ketdi, Shodiyor boloxonador qilib so'kindi, temir karnaylar quloqni qomatga keltirib hayqira boshladi. Ortiq bu mashmashaga chidab turolmay, pastga tushib kutmoqchi bo'ldim, endi o'rnimdan turgan ham edimki, qarshimdagi eshik sharaqlab ochildi yu qip-yalang'och bir ayol jon talvasasida o'zini mening xonamga qarab otdi. Bu voqea ko'z ochib-yumguncha ro'y berganidan ilon avragan baqadek qotib qoldim. Ayol ichkari kirasolib, qo'lidagi singan kursi oyog'ini eshik tutqichiga tiqdi, shu zahoti Shodiyor bir ho'kiz kuchi bilan eshikni itarib-tepishga tushdi: «Och, qanjiq! — deb vahshat solardi u hansirab, — ochmasang, naq onangni...» Joyimda hamon qimir etmay o'ltirardim, zero bu mojaroda men tilsiz guvohlikdan o'zga ishga yaramas edim. Beixtiyor ayolga ko'z qirim bilan nazar soldim va uning bu qadar yosh, bu qadar chiroyli ekanini ko'rib, alam bilan yuzimni chetga burdim. «Battar bo'! — deb qahr ila pichirladim o'zimcha. — Senlarning jazoingni Shodi ayg'irlar bersin!» Ters o'girilib o'ltirarkanman, nima qilarimni bilmas edim. Hozir Jo'lliboy akam Shokirni boshlab kelsa, bu ne sharmandalik? Yemagan somsaga pul to'lab... Yo'q, hozir chiqib ketaman, menga desa bir-birini pishirib yesin!

Shartta o'rnimdan turdim. Qiz deraza raxida yotgan yirtiq gazetani parda qilib, o'rin-ko'rpalarim ortida biqinib yotar, yelkalari dir-dir titrar edi. Buni ko'rib, jon-ponim chiqib ketdi: to'shagimni nahs bostiradi! «Tur o'rningdan! — deb baqirdim. — Bir narsamga qo'lingni tekkizsang!..» Qiz, ko'zlari sarosima ichra telbalanib, qaltirab-qaqshab, burchakka to'rt oyoqlab surgaldi, vahshiy hayvondek bo'ynini ichiga tortib, uvvos soldi. Yuz-ko'zi momataloq, qon-qus, sochlari kirpitikan bo'lib hurpaygan... Shodiyor eshikni qasira-qusur urgancha endi ikkalamizni qo'shib so'ka boshladi: «Ochlaring! Och, deyapman, o'ldiraman ikkovingniyam!» Eshik oldiga yaqinlash-

ganimni ko'rdiyu qiz jonholatda it kabi emaklab kelib, oyoqlarimga yopishdi, g'ayrishuuriy bir tarzda qichqirdi: «Ochmang! Ochmang! Jon aka, qutqaring meni! O'ldiradi, ochmang!» Irganib, shartta oyog'imni tortib oldim. «Opkelgan akajoning qutqarsin seni, — dedim nafratimni bosolmay, — kelishga kelvolib, nega endi big'illaysan?!» «Aldadi meni, aldadi, — deb ho'ngillab yig'lardi qiz, — bilmay qoldim, aldab...» «Aldadi?! — deb so'radim istehzo bilan, — aldasa bu yerga holva yegani kelibmiding?! Battar bo'!» Eshik tutqichiga qo'l cho'zdim. Shunda qiz kutilmagan bir abjirlik ila sapchib o'rnidan turdi, jon-jahdi bilan meni itarib yubordi. Ko'zlarida moda arslonning dahshati yonardi! Hozir hech balodan qaytmas edi u, hayiqib, deraza oldiga chekindim. Shu payt eshikning o'rtasidan mushtdek joy o'pirilib tushdi — Shodiyor bolg'a yo bolta bilan gursillatib urmoqda edi. Qiz qo'llari bilan ko'ksini chala-yarim bekitgancha, avratini ham yashirmoqni unutib, Shodiyorga ham atalgan qahru g'azabini qo'shib, menga mislsiz nafrat bilan tikilardi. Shu tariqa qancha vaqt o'tdi — bilmayman. «Urdimi?» deb so'radim bir mahal asta. Qiz eshikka suyangancha tiz cho'kdi, yuz-ko'zlarini changallab, eshilar-eshitilmas shivirladi: «Ursa, urib o'ldirsa ham mayli edi... Aytolmayman, aytolmayman... A-a-a!» U shunday deb o'kirib yubordi, ajal g'arg'arasi tutgandek, ustma-ust o'qchib, behol bukchayib qoldi.

Boshimdan oyog'imga qadar jivirlab, vujudimga titroq kirdi. Shunchalar tuban ketding-a, inson farzandi!..

Shodiyor qo'shqo'llab eshikni urar, tepar, gumburlagan tovush ketma-ket so'roq bo'lib miyamga qadalmoqda edi: ey, baxtiqaro, badbaxt qiz! Otang o'lganmi sening? Otang o'lgan bo'lsa, onang ham o'lganmi? Ota-onang o'lgan bo'lsa, aka-ukang ham o'lganmi? Aka-ukang ham o'lgan bo'lsa, ornomusing ham o'lganmi? Ozod ayol bo'lib, qishlog'ingdan shu umidda kelibmiding? Xudobexabar onang, go'l, landovur otang, ehtimol, o'lmagandir, qizim otin bo'lib keladi, deb shishinib yurgandir! Shubhasiz, bir kun otin bo'lursan — qariganingda! Ey ablah Shodiyor, nega o'shanda seni o'ldirib qo'yaqolmagan ekanman?! Savobga qolardim — yana bir manglayi qorani juvonmarg qilmas eding!

Qachon odam bo'lasan, ey odamizot?!

Shu lahza eshik qarsillab qizning ustiga quladi. U dodlab, eshik tagidan arang o'rmalab chiqdi-da, menga yopishib oldi. Shodiyor, ko'zlari qonga to'lgan, bir qo'lida go'sht qiymalaydigan bolta, bir qo'lida pichoq, ostonada shipdek bo'lib turardi. «Tegma! — deb qichqirdi menga qarab. — Meniki u! Eshityapsanmi, meniki! Pulini men to'laganman! O'ldiraman, qo'yvor!» Qizning changalidan siltanib chiqib, Shodiyor tomon ikki qadam yurdim. Qiz burchakka tiqilib, g'ujanak bo'lib oldi, qinidan chiqayozgan ko'zlari goh menga, goh Shodiyorga telbalanib boqar, og'zi bir tomonga qiyshayib borar edi. «Tashla qo'lingdagilarni! — deb amr qildim va tovushimning titramay chiqqaniga o'zim ham hayron qoldim. — Tashla, men hozir ketaman». «Yo'q-o-ol!» — deb qichqirdi. Shodiyor va boltasini boshi uzra baland ko'tarib, tikka bostirib kela boshladi. Shundagina hushim uchib ketdi: u mutlaqo o'zini bilmas edi. Boyagina butun uyni tutib yotgan burqiragan isning nimaligini endi angladimu yuragim orqaga tortdi. To men o'yimni o'ylagunimcha bolta yonginamdan ship etib havoni sermab o'tdi, bazo'r chap berib qoldim. Shodiyor bir sakrashda qizning tepasiga yetib bordi, sochidan changallab, eshik sari sudradi. Qiz ilondek to'lg'anib, o'zini ko'tarib otar, boshini tars-tars devorlarga urar edi. Ko'zlarim tinib, nafasim bo'g'zimga tiqildi. Daf'atan, Shodiyor men umrimda birinchi marotaba ko'rib turgan, yetti yot begona, nasl-nasabi betayin bir qizni emas... Qunduzni sudrab ketayotgandek tuyuldi!

Balki Qunduz ham o'shanda, o'sha mash'um soatda mana shundoq vahshiy mal'un changaliga tushgandir? Bundan battar qiynoqlarga duchor bo'lgandir? O'shanda ham madad qo'lini cho'zgali biror kimsa topilmagandir? Qunduz, sho'rlik, baxtiqaro Qunduz...

Seskanib tushdim. Shodiyorning orqasidan borib, qo'lga jon-jahdim bilan urdim. Bolta uchib ketdi. Yelkasiga chang soldimu qizga qarab qichqirdim: «Qoch! Joning boricha yugur! Tez!» Qiz orqa-o'ngiga qaramay, yo'lak tomon emakladi. Shodiyor, tuman bosgan ko'zlarida misli ko'rilmagan bir olov chaqnaq, ortiga o'girildi, xuddi bo'g'izlangan odamdek xirillab: «O'ldiraman seni!» deb pishqirdi. Ta'qibdan qochib, orqaga


chekinar ekanman, tuyqus xona o'rtasiga yetganda yer bilan bitta bo'lib sochilib yotgan, Kuntug'mish va Alpomishga atalgan po'rtaholning birini bosib olib toyib ketdimu naq ko'z o'ngimda yaraqlagan pichoq sopidagi «Chustdan sovg'a» degan yozuvga ko'zim tushdi, Shodiyor ko'ksimga minib, nafasidan o't sochib yaqinlashganida tom bitib borayotgan quloqlarimga yovvoyi bir qichqiriq chalingandek bo'ldi va shunda bildimki...

...anda Boyo'g'li bildiki, taqdirni tadbir yangi bilan yashirib bo'lmas ekan...

So'ng nigohi qarshisida lovillab yonayotgan gulxan paydo bo'ldi. Gulxan atrofida o'ltirgan Muhammad Sharif xuddi shu lahza yuragi bezovta sanchib, irg'ib o'rnidan turdi, qo'llarini u tomon cho'zib, faryod solgancha yugurib kela boshladi. Afsus, ming afsuski, u harchand yugurgani bilan hargiz bu sodda G'ulomga ko'makka yetib kelolmasdi — axir, oralarida ikki asrdan ziyodroq masofa bor edi-da...

Gulxan esa hamon gurillab yonar, dengizdagi mayoq kabi tobora o'ziga chorlar, G'ulom o'zidan, o'zligidan butkul kechib, shu porloq alanga tomon ketib borar edi. Vujudi pardek yengil bo'lib qolgan, lablari mahkam qimtilgan, go'yo hozir bir himo bo'ladiyu osmoni falaklarga uchib ketadi. Parvozga chog'langan ozod qush yanglig' ohista qanot qoqar ekan, «Ko'ngul ozodadur, — deb shivirlar edi u, — ko'ngul ozodadur, dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz...»

1986



SAODAT SOHILI

— Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay huv dovonga yetib olaylik! O'sha dovonga yetaylik, u yog'i — yo razzoq!

— Uh, taqsir, oyoq bosgulik holim qolmadi. Yurolmayman, taqsir, yurolmayman!

— Andak bardosh qiling, usta Binoqul! Chekkan mashaqqatlarimiz, inshoolloh, besamar ketmas! Ajab emaski, dovon ortida biror qo'nalg'a bo'lsa... Shu manzilga yetib olsak bas, jarohatingizga ham bir davo toparmiz. Qani, qo'lingizni bering, usta Binoqul!

— Eh-h, taqsir...

Uch kundan buyon ahvol shu: usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosganicha zorlanib inqillaydi, har qadamni ming bir azob bilan qo'yadi. Hofiz Ko'ykiy esa lablarini mahkam qimtigancha ko'proq o'z yuragidagi vahmni yengish uchun unga tinimsiz taskin-tasalli beradi, sabr-bardosh sari da'vat etadi. Binoqul ingraydi, og'riqqa chidayolmay yig'lagudek yolvoradi, Hofiz Ko'ykiy go'dakni aldagan kabi uni yupatmoqqa tirishadi, «ko'pi ketib, ozi qolgani»ni aytib ishontirmoqchi, ishonmoqchi bo'ladi, lekin bundan na yo'l qisqaradi, na yo'l azobi kamayadi.

Ular o'n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima bilmay, vaqtichog'lik bilan yo'l bosdilar. Taglarida o'ynoqlagan dulduldek otlar, xurjunlarning ko'ziga to'ldirilgan lazzatli ozuqalar belga quvvat, dilga mador bo'lib keldi. Karvondagi dunyo kezgan savdogarlarning vazmin, maroqli gurunglari yo'l tanobini tortar, huvillagan, fayzsiz cho'lning o'lik manzarasiga bir qadar jonlanish bag'ishlagandek bo'lar edi.

O'n sakkizinchi kuni sahar chog'i kimsasiz biyobonda hali mast uyquda yotgan karvonni qaroqchi bosdi.

Ular olatasir to'polonda tog' unguri yoqalab qochishga muvaffaq bo'ldilar. Binoqul qo'liga ilingan kichkina bir tugunchagini olishga ulgurdi, xolos.

— Taqsi-ir, — dedi Binoqul yig'lamsirab, — hech vaqomiz qolmadi-ku, taqsir?!

— Binoqul, — dedi Hofiz Ko'ykiy, — jon qoldi, jon!

U — dunyoning qariyb yarmini kezgan jahongashta odam edi, hayot qadrini, tiriklikning nechog'li ulug' ne'mat ekanini teran anglardi, kechagina safar-sayohat zavqi, sirli, noma'lum manzillar ishtiyoqi bilan sarmast Binoqulning musichadek javdirab turganini ko'rib kulgisi qistadi, soddadil yigitning yuragiga mador bo'ladigan biror og'iz so'z aytgisi keldi. Hali oldinda jazirama issiq, ochlik, tashnalik, tushkunlik singari mislsiz uqubatlar kutayotgan, istiqbolda ajal sovuq quchog'ini ochib turgan bir paytda bu so'zning mahzun ko'ngilga naqadar ulkan quvonch va quvvat bag'ishlashini u yaxshi bilardi.

— Kuyunmang, Binoqul, — dedi u jilmayib, — padari buzrukvoringiz Hind sori ayni shu yo'ldan o'tgan bo'lsa, ne ajab!

Binoqulning yuzi yorishdi. Hofiz Ko'ykiy yigitning dilida pinhon muqaddas sirdan voqif: Binoqul hali go'dak ekan, Bobur Mirzo Farkatda bir muddat to'xtagan kezlar otasi cherikka kirgan, amirzoda Hindistonga otlanganda birga jo'nagan.

Binoqul otasini enasining so'zlaridan tanib ulg'aydi. Domdaraksiz ketgan otasining yo'liga ko'z tika-tika enasi bultur olamdan o'tdi.

Binoqul — qaddi-qomati kelishgan, pishiq-puxta, chayir yigit, kulganda kuldiringichli yuzlarida ajib bir joziba paydo bo'ladi — chin dildan yayrab kuladi. U har ishga tirishqoq, havasmand, uzun qish kechalari kulbasida etik, mahsi-tikadi, yozda ikki tanob yerida ter to'kadi, kitobga, ilmga cheksiz ixlos qo'rganidan hammahallasi — Mozori Hoji masjidining imomi Hofiz Ko'ykiyni o'ziga ustoz deb biladi, uning kechmish voqealar, ayniqsa, jangnomayu jahongirlar tarixiga doir dilkash suhbatlarini soatlab jon qulog'i bilan tinglaydi. Hofiz Ko'ykiy safarga ketgan paytlarda Binoqul uni intizor kutadi.

Ustozi so‘qqabosh, vorasta¹ ko‘ngil odam bo‘lib, umri muttasil safarlarda o‘tardi. U ba‘zan ikki-uch yillab benomu nishon ketar, safardan qaytgach, masjid xonaqosiga tutash hujrasida mutolaadan bosh ko‘tarmay, allanarsalar yozgani yozgan edi. Binoqul bu bitiklarning nimaligini bilmas, so‘ragani botinolmas, ammo ustozining yosh bo‘lsa-da, ulug‘ odam ekanini sezardi: masjid eshigiga Toshkand, Samarqand va boshqa shahru kentlardan otiqlar, hashamatli soyabon aravalar tez-tez kelib turar — zarbof to‘n kiyib, simobiy salla o‘ragan turli-tuman basavlat kishilar Hofiz Ko‘ykiyni ziyorat qilib chiqar edilar...

Bir oy muqaddam u ustozining Hindiston safariga hozirlanayotganini eshitib qoldi. Eshitdiy yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, oromidan ayrildi.

Otasi bundan yigirma yetti yil avval — yigirma yoshida xonadonini tark etgan ekan. O‘shanda Binoqul uch yashar go‘dak bo‘lgan. U otasining tirikligiga, qirg‘inbarot janglardan omon chiqqaniga, yot ellarda sog‘-salomat yurganiga so‘nmas ishonch bilan inonar, nazarida, padari buzrukvori ona yurtda qolgan murg‘ak zuryodining diydorini intiqlik bilan kutayotgandek tuyular edi.

Binoqul chidab turolmadi, ustozining oyog‘iga bosh urib, birga olib ketishini so‘radi. Hofiz Ko‘ykiy rozi bo‘ldi.

Ular o‘n yetti kun aziyat nima, mashaqqat nima, bilmay, vaqtichog‘lik bilan yo‘l yurdilar...

Karvoni qaroqchi bosgan o‘sha mash‘um juma oqshomida ular yana bir falokatga yo‘liqdilar: toshdan toshga sakrab, tog‘ yonbag‘ridan pisib borarkanlar, Binoqul oyog‘i toyib, yetti-sakkiz gaz pastdagi xandaqsimon ungurga — qirrador xarsang ustiga yiqilib tushdi. Beli shilinib momataloq bo‘ldi, to‘pig‘i handalakdek shishib, qadam bosolmay qoldi. Hofiz Ko‘ykiy yigitning belini, boldirini silab, chiqqan suyakni solgan bo‘ldi, biroq ertasi og‘riq battar zo‘rayib, Binoqulning o‘rnidan qo‘zg‘alishga ham majoli kelmadi...

Hofiz Ko‘ykiy Binoqulning umurtqasi qattiq shikast yeganini payqadi, labini tishladi-yu, indamadi. U hamrohini goh opichib, goh suyab, shu kuni yarim yig‘och ham yo‘l

¹ V o r a s t a — ozod, erkin.

yurolmadi. Ertasi kuni ochlik va og'riqdan sillasi qurigan Binoqul ustozidan o'tinib iltijo qildi:

— Taqsir, endi menga ozor bermang! Sezib turibman, kunim bitgan ko'rinadi. O'zingizni ham, meni ham qiynamang. Meni shunda qo'yib, yo'lingizdan qolmang, taqsir, uh-h...

— Unday demang, Binoqul, ayb emasmi? Qani, menga mahkamroq suyaning, ha!

Tog' yo'li, soqov xarsanglar. Yalang'och tovonlarning qoni tomgan chag'ir toshlar. Ufq qadar cho'zilgan kimsasiz yo'l.

— Uh, taqsir, endi madorim qolmadi... Oh, suv, bir qultumgina suv bering!

— Binoqul... — Hofiz Ko'ykiy atrofga nochor alangladi. — Binoqul, bir oz sabr qiling, huv ko'kalamzorni ko'ryapsizmi? Shoyad o'sha yalanglikdan suv topilsa...

— Suv... Su-u-v... Taqsirjon, bir qultumgina suv, umrimni beray, taqsirjon, bu azobdan qutqaring!

— E olloh! O'zingdan bo'lak madadkorim yo'q, shafqat qilg'aysen!

Sel bosib kelmoqda, sel — olov seli. Ho'l-quruqqa barobar o't qo'yib quyosh yonayotir, quyosh!

— Oh... Meni yerga qo'ying, taqsir, oh-h! Taqsir, men o'laman. Ey olloi berahm, murodimga yetkazmading-a!

— Binoqul, tavba deng, kufrga botmang!

— E, yaratgan egam, mayli, bu ko'rsatgan kuningga ham shukur. Armonim ichimda qoldi, taqsir. Padarimning daragini bilsam edi. Bobur shohni bir ko'rsam... — Binoqul jim bo'lib qoldi, so'ng majolsiz barmoqlari bilan tugunchagini yecha boshladi. — Taqsir, mana shu kitobni men unga ixlos bilan tortiq etmoqchi edim. O'zim kitobat qilib edim... Bilmaysiz, taqsir, o'zim ham bilmayman, lekin nechundir xudo mening mehrimni ul zotga tushirgan...

— Ko'ngilni buzmag, Binoqul... — Hofiz Ko'ykiy titrab ketdi. — Hali tortig'ingizni, inshoolloh, o'z qo'lingiz bilan topshirursiz. Faqat niyatni bardam qilmoq kerak.

— Yo'q, taqsir, hol-kunim ayon-ky... — Binoqul unga qarab ma'yus bosh chayqadi. — So'nggi tilagim ham, vasiyatim ham shu: bu kitobni Bobur hazratlariga eltib, duoi salomimni yetkazgaysiz.

— Binoqul, inim...

— Aytgaysizki: «Gʻarib dunyoda ollohning Binoqul degan gʻarib bir quli bor edi, otasi navkaringiz edi, u ham sizga dildan ixlos qoʻyib, xizmatigizga oʻzini chogʻlagan edi. Yetib kelolmadi — yoʻlda tangri rahmatiga bordi», degaysiz.

— Qoʻying, Binoqul... — Hofiz Koʻykiy unung choʻgʻ kabi yonayotgan yuz-koʻzlarini, peshonasini siladi. — Koʻngilni ezmoq nechun? Qoʻying...

— Mana, taqsir... Oh-h! — Binoqul tugunchagidan kitobni olib uzatdi, mijjalarida yosh yiltiradi.

— «Nasoyim ul-muhabbat»?

— Ha, taqsir.

— Shoshmang, axir bu... Navoiy hazratlarining...

— Oʻzim kitobat qilib edim. Bu endi sizga qiyomatligʻ qarz, taqsir.

— Inshoolloh...

— Uh-h! Taqsir, soʻnggi oʻtinchim: imkon topsangiz, otamning daragini soʻroqlab koʻrarsiz. Yodingizda boʻlsin, taqsir, otamning ismi Boboqul, otasining oti Oʻrinqul. Xotiringizdan chiqmas, taqsir?

— Binoqul...

— Ha-ah! Taqsir, rozi... mendan rozi boʻling...

— Mingdan-ming roziman, inim, siz ham rozi boʻling... Binoqul! Binoqul!.. E, olloh, vo darigʻ!

* * *

Uch kundan soʻng togʻdan oʻtin terib qaytayotgan oʻtinchilar behush yotgan Hofiz Koʻykiyni dara etagidagi nuragan qoya tagidan topib oldilar.

* * *

Agra bozorining etak tomonida joylashgan, odatda yoʻlovchilar koʻpda bosh suqavermaydigan pasqam karvonsaroy bu oqshom har qachongidan koʻra sershovqin: turli oʻlkalardan kelgan ajnabiy savdogarlar, tuya, fillarga ortilgan yuklarni baqirib-chaqirib tushirayotgan yarim-yalangʻoch hammollar, tilanchilar, sayoq sozandalar...

Hofiz Ko'ykiy ikki kundan buyon shu karvonsaroyda muqim edi. Bu kun erta tongdan shaharni kezib, qosh qorayganda qo'nalg'asiga qaytarkan, darvoza oldida o'tirgan turq-tarovati g'alati bir kimsa tuyqusdan e'tiborini tortdi. Paxmoq soch-soqoli patila-patila bo'lib yelkasiyu ko'ksini qoplagan, egnidagi juldur ridosiga son-sanoqsiz tumor-ko'zmunchoqlar taqilgan qariya charm tasmali peshonabog'ini qo'lida tutamlagancha devor tagidagi tuyatoshda mudrab o'tirardi. U ahyon-ahyon qisiq, chag'ir ko'zlarini yarim ochardi-da, telba bir hayqiriq bilan baqirib qo'yar edi:

Moli vofir-r¹, eli kofir-r, yo'l yovuq...²

So'ng dunyoni unutgandek, yana ko'zlarini yumib pinakka ketardi.

Hofiz Ko'ykiy uni bir dam kuzatib turdi, nihoyat, qiziqishi g'olib chiqib, asta yaqin bordi. Cholning yalang'och, qoqsuyak o'ng yelkasida allaqanday eski jarohat izi bo'lib, chap qoshi uzra badburush chandiq qorayib ko'rinar edi. U shundoqqina oldida haykaldek qotib turgan odamga parvo ham qilmay:

— Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq! — deya og'zidan tufuk sochib vishilladi-da, birdan jimib qoldi.

Olag'ovur shovqin ichida tuyqusdan yangragan bu turkiy kalom Hofiz Ko'ykiyning qulog'iga issiq chalinib, darhol sergaklandi, ehtiyotkorlik bilan salom berdi. Choldan sado chiqmagach, bir oz taraddudlanib:

— Ma'zur tutgaysiz, siz turk emasmi? — deb so'radi.

Chol churq etmadi, go'yo bo'shliqqa tikilgan kabi ma'nosiz ko'zlarini baqraytirganicha chayqalib o'tiraverdi. Xiyol o'tgach, zerikdi shekilli, ridosining yoqasidan uchburchak tumorini uzib olib o'ynay boshladi.

Hofiz Ko'ykiy sekin iziga qaytdi. To'rdagi supada chilim chekib o'tirgan qizil yuzli, ulug'sifat savdogar ohista so'z qotdi:

¹ V o f i r — ko'p, mo'l
² Y o v u q — yaqin

— O‘ yak odami devona. Hamo o‘ro Baxshiturk menomidand.¹

Hofiz Ko‘ykiy savdogardan forschalab so‘radi:

— Shu yerda istiqomat qiladimi?

— Yo‘q, uning makonini hech kimsa bilmaydi. Bu yerga ba‘zan boshi og‘ib kelib qoladi. O‘zi beozor, hech kimsaga ziyoni yo‘q. Faqat goh-goh jazavasi qo‘ziydi, xolos. Ana, ana, tag‘in boshlandi!

Baxshiturk uyqudan cho‘chib uyg‘ongandek, sapchib o‘rnidan turdi, qo‘llarini to‘rt tomonga to‘lg‘agancha tasavvuridagi g‘animga vahshat bilan o‘shqira ketdi:

— Bari bir oxiri voy bo‘lur, ha! Bilib qo‘y, ha, oxiri voy! Umring o‘tib ketar, tongla mahsharda yuzing qaro, ha! Mana, bu oy jumadul avval, so‘g‘in jumadul oxir, so‘g‘in rajab, so‘g‘in sha‘bon, undan so‘g‘in ramazon, undan so‘g‘in shavvol! Ha, bari bir oxiri voy! Vallohu a‘lam bissavob; to‘qson to‘rt kundan so‘g‘in ramazon iydi, bir yuzu ellik to‘rt kundan so‘g‘in kichik iyd, ha! Yana oltmish uch kunda ro‘za kelur, ha! Zakot berdingmi? Zakot bermadingmi? Bari bir oxiri voy! Yana sakkiz haftadan so‘g‘in qish, yana o‘n uch haftadan so‘g‘in ko‘klam, yigirma yetti haftadan so‘g‘in tag‘in yoz! E g‘ofil banda, umring ham o‘tar, sovuq go‘rga kirarsan, ilon-chayonga yemish bo‘lib, tufroqqa qorishgaysan! Kulma, kulma, bir pul so‘g‘in! Bir pul, ha, bari bir oxiri voy!.. Yo‘qol, deyman, yo‘qol, nega zakot berding?!

Chol baqira-baqira darvozadan uzoqlashdi. Xirqiroq ovozi endi olislardan eshitilar edi.

Hofiz Ko‘ykiy devonaning poyintar-soyintar so‘zlari zamiridagi oddiy, ammo shafqatsiz haqiqatdan benihoya hayratga tushgan edi. Unung hisob-kitoblarini xayolan tekshirib ko‘rarkan, bu qadar aniqligidan g‘oyat taajjublandi.

«Devona emas, — deb o‘yladi u. — Haqqa yetgan, xolos...»

Baxshiturk saroydan ancha uzoqlab ketdi. Ketdi-yu, ajabtovur so‘zlari, g‘alati baytining aks sadosi Hofiz Ko‘ykiy qulog‘ida qoldi:

¹ Bu bir devona odam. Hamma uni Baxshiturk deydi.

Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq,
Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq...

* * *

Devoni Buzurg ertalabdan gavjum edi. Yo'laklarda yasovul va choparlar, turli-tuman arzgo'ylar uymalashar, mulozimlar, mirzolar naycha qilib o'ralgan qog'ozlarni ko'targancha u yoqdan-bu yoqqa savlat to'kib o'tishar edi.

Bog'i Nurafshonning yashil qo'ynida yarqirab turgan oq marmar saroyda Afg'on, Hind va Bangola o'lkalarining mutlaq hukmdori — keyinchalik yevropalik muarrixlarning «faromushxotirligi» tufayli tarix sahifalariga «Buyuk Mo'g'ul imperiyasi» degan mubham nom bilan bitilguvchi ulkan saltanat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo arkoni davlat bilan ertalabki mashvarat o'tkazmoqda. U viloyatlardan kelgan turli nomalarni ko'zdan kechirib, a'yonlarga tegishli farmoyishlar berib bo'lgach, majlis ahlidan mamlakatning ichki ahvoliga taalluqli xabarlarni tinglamoqqa kirishdi, so'ng Kobuldan kelgan chopar bilan bir necha arzgo'ylarni qabul qildi.

Mashvarat nihoyasiga yetay deb qolganda zarbof to'ni yoqasiga zarrin uqa tutilgan barvasta eshik og'asi kirib ta'zim qildi:

— Olampanoh, Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy otlig' bir zot husni tavajjuhingizga muntazir!

Bobur sergak tortib, eshik og'asiga qaradi:

— Kim ul? Qaydin kelibdir?

— Toshkanddin, olampanoh. Siz zoti shariflarini ziyorat etmoq orzusida kelibdir!

«Toshkanddin?..»

Endi faqat tushlarida ko'radigan, olislarda armon bo'lib qolgan yurtidan Boburni ko'pdan buyon biror kimsa yo'qlab kelmagan edi. Ko'ngli allanechuk to'lib:

— Ayting, kirsin! — dedi. So'ng Ko'histon va hind javohirlari, asl afg'on yoqutlari bilan ziynatlangan taxtdan turib, o'z mavqelariga ko'ra tizilishib joy olgan arkoni davlatga bir-bir razm soldi. Yo'g'on gavdali, siyrak mo'y Abulvohid Forig'iyga ko'zi

tushgach: — Mavlono Forig'iy, — dedi ohista, — bu zot kim bo'lsa ekan? Sizning hech eshitganingiz bormi?

Abulvohid Forig'iy damqisma kasaliga muhtalo edi, o'rnidan qo'zg'alib, hansiragancha so'z boshladi:

— Olampanoh, sizni yo'qlaguvchi bu zot Movarounnahrning mashhur allomalaridan bo'lur. «Ko'ykiy» taxallus qilibdur, deb eshitganim bor. Toshkanda ekanimda bir kitobatini mutolaa qilib edim. «Risola fi fani attafsir va-l usul va-l furu' va-l mantiq va-l kalom»¹ deb nom bermishlar ekan, shoyon tahsinga sazovor edi. Yana bir nima tasniflari ham bor, alalxusus, ilmi tarixda benazirdur.

— Siz Toshkanda suhbat quribmi edingiz?

— Yo'q, olampanoh, men bisyor orzumand bo'lib edim, lekin, taassufki, hamsuhbatliq nasib etmagan edi. Sababki, ul zot Toshkanddin o'n yig'och narida, Farkat otlig' bir kentda istiqomat tutgan ekanlar, fursatim ziq edi, men u yerga borolmadim.

— Farkatda?

— Ha, olampanoh, tog'ning ortidagi bir kent u. Bu zot asli jannatosa Ali Qushchining nabirasi Kamoliddinning o'g'li bo'lur, alar azaldan shu manzilda muqim bo'lib kelurlar.

Abulvohid Forig'iy yana allanarsalarni gapirar, ammo Bobur endi eshitmas — teran xayolga cho'mgan edi. «Farkat» degan so'z unga sovuq yomg'ir savalab turgan izg'irinli kunlarni, kuzak osmonida favqulodda chaqnagan chaqmoqlarni eslatdi, umrining rutubatli, hazin onlarini yodiga soldi. O'sha voqealarga qancha bo'ldi ekan? Yo rabbiy, yigirma yetti yil! Qarchig'aydek bir yigit umri! O'shanda yonida hamrohu hamkor bo'lganlardan kimlar bor? U turli-tuman nomlarni eslashga urinarkan, ularning bari barmoq orasidan shuvillab to'kilgan qum singari xotirasi qatlaridan bir-bir sirg'alib tushayotganini sezdi. No'yon ko'kaltosh, G'ulda Qosimbek, Xoldor, Mirshoh qavchin, Qo'chbek... Evoh, qayda ular? Qayerlarda? Barchasi endi «rahmatli»! Ba'zilari shiddatli janglarda boshidan ayrildi, ba'zilari g'anim nayrangiga duchor bo'ldi, ayrimlarining umri qisqa ekan, ayrimlari esa... xiyonat

¹ «Tafsir, din asoslari, fiqh, mantiq va din aqidalari ilmi haqida risola».

qildi... Oqibat, o'sha kunlardan bu kun faqat achchiq, mahzun xotiralar yodgor, xolos.

Bobur alamli o'ylardan egilgan boshini ohista ko'tardi. Abulvohid Forig'iy jimgina qo'l qovushtirib turardi.

Eshik og'asining ortidan adl, tik qomatli, odmi to'n kiygan, bodomqovoq, yuzlari shishinqiragan, malla soqolli ko'hlik bir kishi ichkari kirib, ta'zim qildi:

— Yetti iqlimning shamsi anvori, zarofatliq podi-shohimiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo hazrati oliylariga duoyu ehtiromlarimiz bo'lg'ay! Assalom alaykum, olampanoh!

— Vaalaykum assalom, xush kelibsiz, — dedi Bobur iltifot bilan mehmonga joy ko'rsatarkan. — Marhamat, o'ltiring. Ziyoringiz olloh dargohida qabul bo'lg'ay!

— Qulluq, olampanoh.

Boburning ilmi hikmat ustodi Shayx Zayn Sadr fotihaga qo'l ochdi:

— Ilohi omin, olampanohimizning umrlarini uzun, davlatlarini ziyoda qilsin, jumlai mo'minning ko'ngillari shod, oxiratlari obod bo'lsin!

Mashvarat ahli «Omin!» deya gurillab fotihaga qo'shildi.

— Mening betakalluf tashrifim olampanohga g'alati tuyular, — deya so'z boshladi Hofiz Ko'ykiy. — Men bir olloh quli, ishim yo'l yurmoq, dunyo kezmoq. Ko'p mamlakatlarda bo'ldim. Turk, Misr, Bag'dod, Lubnon, Damashq, Qashqar diyorlarini ko'rdim, undagi el-elat, yurt-ulusning turmush-yumushlari ila oshno bo'ldim. Bu safar esa ona vataningizdan, ko'z ochib ko'rgan viloyatlaringizdan sizlarga ko'pdan-ko'p duoi salomlar keltirdim. Ota yurtimizning tabarruk yodi muborak xotirlaridan ko'tarilmagan bo'lsa kerak...

— Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutgay? — dedi Bobur ohista. Ovozi titrar edi.— Unutgan kishining ko'zlariga tiriklayin tufroq to'lmasmi?

Ahli majlis mutaassir bo'lib, o'rtaga xiyla vaqt sukut cho'kdi.

— Haq so'zni aytdingiz, olampanoh, — dedi Hofiz Ko'ykiy. — Komil inson kindik qoni to'kilmish yurtni hargiz unuta olmas. Xotiringiz jam bo'lsin, olampanoh, ul diyordlarda

muborak nomingizni hanuz yod eturlar. Inchunin, sizga atalmish bir omonatni topshirmoq menga qiyomatlig' qarz edi. — U qo'ynidan nafis saxtiyon muqovali kitobini olib, Boburga avaylab uzatdi.

Bobur andak taajjublanib o'rnidan turdi, kitobni olib ilk sahifasini ochdi.

— «Nasoyim ul-muhabbat!» — Boburning ko'zlari chaq nab ketdi. — Mir Alisherbekning tabarruk bitiklari-ku!

— Ha, olampanoh.

— Ne chog' go'zal san'at! — Bobur kitobni zavq va ardoq bilan ko'zdan kechirardi. — O'zingiz kitobat etdingizmi, mavlono? Xatlari bu qadar ravshan, nafis...

— Yo'q, olampanoh. Men bilan birga ollohning g'arib bir quli ham diydoringizga orzumand bo'lib yo'lga o'tlanib edi. Ming bor taassufki, yetib kelmoqlik nasib etmadi — yo'lda shikast topib qazo qildi. Shul tortiqni sizga hadya etmoq umidida ixlos bilan kitobat qilgan ekan, yetkazmoqni mendan o'tinib so'radi.

— E, olloi karim! Kim ekan ul do'sti sodiq? — Bobur Mirzo olimning bu so'zlaridan g'oyat ta'sirlangan edi.

— Olampanoh, u yigitning nomi Binoqul edi, diyonat va idrokli bir muslim edi. Asli kosiblik qilardi, kaminadan birmuncha xat-savod o'rganib edi. Balki xotiringizda bordir, otasi bir paytlar cherikingizga navkar bo'lib kirgan ekan?

Boburning qoshlari chimirildi:

— Qay vaqt? Qayda?

— Bir muddat Farkatda muqim turgan ekansiz, o'sha kezlari chamasi.

— Ha-a... Ul kentda ko'p mardona yigitlar cherikka qo'shilib edi. Ismi kim bo'lsa ekan?

— Olampanoh, hamrohingiz jon taslim qilayotib otasining ismini aytgan edi: Boboqul otlig' bir odam ekan, otasini O'rinqul der ekanlar.

— Eh-ha, Boboqulmi? — Bobur jonlanib bosh irg'adi. — Nechun xotirimda bo'lmasin? Jasorati mumtoz navkarlarimizdan edi. Hamrohingiz shuning zuryodi ekanmi?

— Ha, olampanoh.

— Tangri rahmat qilsin, padariga tortgan ekan-da, Boboqul ulug' yurakli yigit edi.

— Olampanoh, u... qazo etganmi?

— Yo‘q. — Bobur g‘amgin bosh chayqadi. — Biz Hindni olganda Boboqul ko‘p mardliklar ko‘rsatib edi. Uch-to‘rt yil chamasi o‘tgach, yurtiga qaytmoq bo‘lib bizdan izn so‘radi. Tilagini o‘rinlatdik, biroq tonglasi Ponipatda Ibrohim Lo‘diy yuz ming qo‘shin bilan bosh ko‘tardi. Bizning navkar o‘n mingning nari-berisida edi. Bizni bundoq mushkul ahvolda qoldirgali ko‘zi qiymadi chog‘i, Boboqul qanotimizga kirib Ponipat sari yurdi. O‘sha chopqinda boshidan zarsb yeb, xayoli xiliy parishon bo‘lib qoldi. Ne muolaja, dori-darmon bo‘lsa, barini qildirdik, hech bir naf ko‘rmadi. So‘ng saroydan bir hujra berib, istiqomatidan xabardor bo‘lib turadigan kishi tayin etdik. Yo‘q, bunda turolmadi, bir oqshom eshitdimki, chiqib ketgan emish. Endilikda ko‘cha-ko‘ylarda hamdu sano aytib yuradir, deb qulog‘imga chalinadir...

— Shu kunlar yana Ograda paydo bo‘lgan emish, — deya so‘z qo‘shdi poygakda o‘tirgan Boburning xos mulozimi Yusufiy.

«Yaratgan egam yarlaqagan ekan seni, boyoqish Binoqul!» deb nadomat bilan ko‘nglidan o‘tkazdi Hofiz Ko‘ykiy.

— Xayr, mayli, ollohning irodasi... — dedi Bobur suhbatga yakun yasagandek. — Bizga ehtiromi shu qadar ustuvor ekan, endi bizdan-ku qaytmas, xalloqi olamdan qaytsin. Mavlono Abulbaqo!

Ko‘rkam soqolli, nuroniy mo‘ysafid — shayxulislom Mavlono Abulbaqo o‘rnidan turdi:

— Labbay, olampanoh?

— Ertan juma namoziga fatvo beringkim, saltanatdagi barcha masjidlarda bandai mo‘min Binoqulning haqiga xatm bag‘ishlansin. Biz ham, inshoolloh, g‘oyibona sadoqati uchun arvohi pokiga besh vaqt namoz uzra tilovat qilurmiz.

— Bosh ustiga, olampanoh!

A‘yonlar kitobni navbatma-navbat hayrat va zavq bilan tomosha qilib bo‘lgach, Abulvohid Forig‘iy uni Boburga uzatdi.

— «Nasoyim ul-muhabbat»! — Bobur hamon kitobga termilib to‘ymas edi. — Muhabbat nasimi kelgan yurtga jon sadqa bo‘lsin...

Hofiz Ko'ykiyni Bog'i Nurafshonning kunchiqar tara-
fidagi xos hujralardan biriga joylashtirdilar. Jazirama issiq va
qabul tashvishlari uni qattiq charchatgan edi, tushgacha dong
qotib uxladi. Peshin namozidan so'ng, umrida ilk daf'a ko'rib
turgani — notanish anvoyi gullar yal-yal yongan salqin
xiyobonda jannatoshiyon qushlarning hur navolarini zavq-
shavqqa to'lib tinglagancha ohista kezib yurdi.

Oqshom tushib, osmonda ilk yulduzlar charaqlagan palla
Yusufiy hujraga kelib, olampanoh uni yo'qlayotganini xabar
qildi.

Hofiz Ko'ykiy yuz shamli muhtasham tilla qandillar
yog'dusiga cho'mgan bo'm-bo'sh salomxonaga kirib borganda
Bobur to'rdagi kumush lavh ortida barqut bolishlarga
yonboshlagancha mutolaaga berilgan edi. U Hofiz Ko'ykiyni
xush kayfiyat bilan qarshi oldi. Olim lavh ustidagi kitobga asta
razm solarkan, o'zi topshirgan tortiqni tanidi. Bu favqulodda
hadya tufayli Boburning dilida qo'zg'algan o'sha botiniy hayajon,
o'sha o'tli taassurot hanuz so'nmagan edi. U do'stona jilmayib,
sassiz bir harakat bilan mehmonga joy ko'rsatdi, so'ng yana
«Nasoyim ul-muhabbat»ning ochiq turgan sahifasiga tikildi. Zum
o'tmay, jimjit salomxonada shohning o'ychan, tiniq ovozi yangradi.

— «Birov alardin savol qildikim, darvishlik sizga mavrusdir¹
yoki muktasab?² Alar dedilar: tangri hukmi bila bu saodatqa
musharraf bo'lduk, — deya ko'ngliga behad marg'ub bo'lgan
parchani hafti qiroatning inja tovlanishlari bilan ta'kidladi
Bobur. — Derlarki, alarga hargiz qul va dodak³ bo'lmas ermish.
Alardin bu ma'nida so'rabturlar. Alar debturlarki, qachon bu
bandalig' xojalig' bila rost kelur?!»

U kitobdan nigohini uzib, qad rostlab o'tirdi, kungirador
qandilga, uning porloq yog'dusuda zar sochib yongan
naqshlarga ilk bor ko'rayotgandek xiyla vaqt termilib qoldi,
nihoyat, tolg'in bir tovush bilan xayolchan takrorladi:

¹ M a v r u s — meros.

² M u k t a s a b — kasb.

³ D o d a k — cho'ri.

— «Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!»

Va o'z savoliga javob axtargan kabi, nigohi yana charog'on sahifalar uzra keza ketdi.

Hofiz Ko'ykiy hanuz muntazir qo'l qovushtirib o'tirarkan, hamsuhbatining ulug'vor chehrasida lahza sayin tajassum topayotgan turfa hislarning oniy jilvalarini, fikrning tutqich bermas shiddatini zo'r diqqat bilan kuzatar, ulardan o'zicha ma'no topmoqqa tirishar edi.

— Alisherbek benazir zot erdi, — dedi Bobur kitobdan bosh ko'tarib. Qiyiq ko'zlarida horg'in quvonch uchqunlari chaqnar edi. — Har daf'a o'qib hayrat qilamenki, turkiy tilda hech kim ash'orni ul hazratdek ko'p va xo'b aytqon emas.

— Yaxshi kitob — kishi ruhining jon ozig'i, — dedi Hofiz Ko'ykiy uni quvvatlab.

— Har qanday kishining ham emas, — deya birdan e'tiroz bildirdi Bobur.

— Albatta, olampanoh. Lekin yaxshi kitobni o'qigan kishiga ham yaxshilik sharofati yuqmog'i shubhasizdir.

— O'qiganga yuqmaydir, mavlono! — Bobur Mirzoning qaysar qoshlari mardona chimirildi. — Uqqanga yuqadir.

— Haq so'z, olampanoh.

Oraga og'ir dam jimlik kirdi.

— Olampanoh... — Hofiz Ko'ykiy shohga qimtinibgina murojaat qildi. — Mening qutlug' huzuringizga kelmoqdan maqsadim, avvalo, siz zoti shariflarini ziyorat etmoq bo'lsa, so'ng shuhrati yetti iqlimga mashhur allomalarangiz bilan tanishmoq, kutubxonangizdagi noyob dyrdonalardan bahramand bo'lmoqlik umidi hamdir. Kamina qulingiz ne vaqtlardan buyon ilmi tarixga doir bir risola bitmak orzusida yuradirman. Kutubxonangizda tilloga topilmas mo'tabar kitoblar bisyor, deb eshitaman. Agar zoti muboraklari ijozat etsalar...

Boburning chehrasiga taajjub ifodasi qalqidi:

— Mavlono Abulvohid Forig'iy sizni ko'p ulug' alloma deb ta'riflab edi, taassuf...

Hofiz Ko'ykiy kutilmagan bu gapdan gangidi, kalovlanib boshini ko'tardi:

— Olampanoh...

— Niyatingiz xolis ekaniga shubha yo‘q, mavlono, biroq... — Bobur suhbatdoshini ayagandek, bir zum taraddudlanib qoldi, — biroq ilm ko‘yida o‘zlarini bozordan olib, bozorga solguvchi allomalarning allomaliklari menga har vaqt kulgili va qalbaki tuyulur!

Olim duv qizardi, o‘rnidan og‘ir qo‘zg‘alib qo‘ydi: yer yorilsa kirgudek holi bor edi, ammo yer yorilmadi!

U so‘nggi jur‘atini to‘plab, hayajon ichra izohga og‘iz chog‘ladi:

— Olampanoh mening tilagimni yanglish angladilar chog‘i...

— Sizni ranjitmoq maqsadim yo‘q edi, — dedi Bobur kulimsirab. — Faqat so‘z o‘rni uchun aytdim, xolos. Zero, umrim mobaynida qalbaki tangalardan ko‘ra qalbaki allomalarni ko‘proq uchratdim. Alarning haq va ma‘rifat nomidan so‘ylagan yolg‘onlari meni muttasil g‘azabga soldi, imkonim yetgan chog‘larda unday betavfiqlarning barchasini ogir jazolarga mustahiq etdim. Imonim komilki, bu qilmishim qodiri lamyazalga ham xush kelg‘ay! — Bobur, tovushining allanechuk keskin pardalarda yangrab ketganini sezdi shekilli, xiyol tin olib, vazmin ohangda so‘zlay boshladi. — Rahmatli padari buzurgvorim aytur edilar: jannatmakon imom Muhammad G‘azzoliy hazratlari Bag‘dod madrasasida tahsilni tugallab, karvon bilan o‘z yurtlariga qaytar ekanlar. Yo‘lda karvonni qaroqchi bosibdir. Qaroqchilar savdogarlarning mol-mulklarini tortib olibdilar. Hazrati imom qaroqchiboshiga ro‘baro‘ bo‘lib arz etibdilar: «Men bir tolibi ilmman, na oltin, na kumushim bor. Bor bud-shudim ikki sandiq kitob erdi, odamlaring tortib oldilar. Ey marhamatlig‘ sardor, amr etkim, kitoblarimni qaytarib bersinlar. Bari bir alarning senga ham, yigitlaringga ham hech qanday naf‘i yo‘qdir». Qaroqchiboshi qahrga minib so‘roqqa tutibdir: «Xo‘sh, alardin sehga ne naf‘ bor?» Imom hazratlari benihoya taajjubga qolib: «Nechun naf‘ yetmasin? — deb javob beribdilar. — Axir, bu mening o‘n yil musofirlikda riyozat chekib orttirgan ilmlarim-ku!» «Sen o‘zingni olim sanaysanmi?» debdi qaroqchiboshi. «Ollohning inoyati bilan...» debdilar imom hazratlari. «Yo‘q, sen olim emassan! — debdi qaroqchiboshi. — Chindan ham fozil bir kimsa bo‘lsang erdi,

kitoblaring butkul yo‘qolsa-da, parvoyingga keltirmagan bo‘lur eding. Chin olim kishining ilmi sandiqda emas, yuragida bo‘lur, uqdingmi?» Qaroqchiboshi shunday deya imom hazratlariga marhamat ko‘rsatib, sandiqlarini qaytarib berishni amr etibdir. Ul zoti sharifga vahshiy bir qaroqchining bu yanglig‘ malomat-minnatlari g‘oyat og‘ir botibdir. Yo‘lning qoq o‘rtasidan ortga — Bag‘dodga qarab qaytibdilar. Qaytadan madrasaga kirib, o‘shal ikki sandiq kitobni xatmi kutub qilib chiqibdilar va barcha egallagan ilmlarini yurak va ko‘ngilning qatlariga jo qilib olgunlariga qadar madrasa ostonasini tark etmabdilar. Shundan so‘ng imom hazratlari hargiz kitobga qaramabdilar: ilm ul zoti bobarakotning qalb chamanida yashnay boshlabdir.

Hofiz Ko‘ykiy butun vujudi quloq bo‘lib tinglardi.

— Oqibatda, imom hazratlari ilmda shundog‘ ulug‘ martabaga yetibdilarkim, kishilar: «Agar bu yorug‘ olamdan Qur‘oni sharif yo‘qolgudek bo‘lsa, imom Muhammad G‘azzoliy qayta tiklab beradir», deydigan bo‘libdilar, — deya so‘zini tugatdi Bobur va olimga sinovchan tikildi.

Olim ich-ichidan iztirob chekar, uning so‘zlari haq ekanini chin dildan e‘tirof etsa-da, o‘zga bir fikr xayolidan ketmas edi: «Qilich siqqan qinga qalam sig‘mas ekan-da...» Yuragining tubidan e‘tiroz g‘alayoni toshib kelsa hamki, boshini quyi solib, tasdiq alomati bilan cheklanmoqqa tirishdi:

— Ko‘p ibratomuz rivoyat ekan, olampanoh.

Bobur shahodat barmog‘i bilan kumush lavhni asta chertganicha hamon savolomuz tikilib turardi:

— Xo‘sh, mavlono?

— Olampanoh... — Hofiz Ko‘ykiyning manglayidagi chiziqlar yanada chuqur tortdi, mulohaza yuki yelkalaridan xarsangtosh bo‘lib bosdi, andisha tig‘i tiliga ko‘ndalang keldi — qiynaldi, ammo bari bir... chidayolmadi: — Shakkok qulingizni ma‘zur tuting, olampanoh, biroq, taassufki, sizni ham ko‘p donishparvar zot, ilm-ma‘rifatning chin homiysi, deb ta‘riflab edilar!

Olimning ko‘ksini to‘ldirgan bezovta og‘riq birdan tindi, so‘ng o‘rtaga cho‘mgan qaltis sukunat ichra butun vujudini larzaga solib gursillayotgan yuragining dupuri yaqqol eshitila boshladi.

Va banogoh... darg'azab farmon o'rniga momoqaldiroqdek qahqaha yangradi. Hofiz Ko'ykiy quloqlariga ishonmay boshini bazo'r ko'tardi-yu, ko'zlariga ham ishonmay qoldi: shohning yuzida tabassum balqirdi!

— Borakallo, mavlono! — dedi Bobur ko'zlariga qalqqan yo'sh tomchilarini artib. — Dov yurakli kimsa ekansiz! Asli bu istehzolarni sizni bir sinab ko'rmoq yo'liga aytib edik. E'tiqodingiz sha'ni uchun, aning pokligi uchun bizning na savlatimizni, na davlatimizni istihola etdingiz! Bilsangiz, shu choqqa qadar kamdan-kam odam bizning bu yo'sin da'volarimizga e'tiroz aytdi. Aksincha, bunday damlar aksariyat kishi yo'q gunohlariga ham iqror bo'lib, tavba-tazarruga zo'r beradur. Tasanno, jur'atingizga, mavlono! Chin fozil inson asli shunday bo'lmog'i lozim. Zero, odamizot iymonining barqarorligi avvalo uning ne chog' mard va haqgo'y ekani bilan o'lchanur. Bizni qora tortib shundog' joylardan zahmat hekb kelibsiz, nainki, muruvvatimizni darig' tutsak!

Hofiz Ko'ykiy bori-borlig'i hayajondan titrab, qulluq qildi.

— Bizning huzurimizga ne-ne muhtaram zotlar ganju davlat tilab, rutbayu unvon tilab qadamranjida qildilar, — deya so'zida davom etdi Bobur. — Lekin shu vaqtgacha kitob izlab, ma'rifat istab kelgan kimsani ko'rganimiz yo'q edi. Shukur tangrigakim, alhol inoyat aylab, zoriqib ko'z tutgan kishimizning diydoriga yetishtirdi. Har qandog' noyob kitobimiz bo'lsa, sizdan aylansin... Darvoqe, risolangiz nima xususda?

— Olampanoh, ne vaqlarki Chingizxon va unung oli' haqida bir risola bitmak orzusi ko'nglimga orom bermay keladir. Ma'lumingizkim, bu ulug' saltanat edi, aning takomil va taraqqiyoti ham, tanazzulu inqirozi ham meni birdek hayajonga soladir. Alalxusus, Chingizxon zuryodlarining taqdiri, joriy etgan tartib va qonunlari, davlatni idora etmak usullari... Muqoyasa ibratiga sizning mamlakatdorlik siyosatingizni ham bir sidra nazardan kechirmoq umididamen.

Bobur unung so'zlarini diqqat berib eshitdi.

— G'oyat mushkul yumushga qo'l uribsiz, mavlono, — dedi u. — Xayr, olloh madad bersin, yo'lingiz oq, yo'ldo-

¹ O l i — avlodi.

shingiz haq bo'lsin. Illo bu bebaqo dunyoda faqat haq so'z boqiy qolur. Qasrlar yemirilur, saltanatlar to'zar, as'asayu dabdabalar yitar... Yorug' jahonda qirq sakkiz yil umrguzaronlik qilib anglagan yagona haqiqatim shu, mavlono. Shunday mashaqqatli bir ishni uhdangizga olgan ekansiz, imkonimiz yetgan ko'makni bermoq biz uchun farzul vojibdur. Marhamat, xonadonimizning ham, kutubxonamizning ham to'ri sizniki. Fahmi ojizimcha, mutolaani Bahovaddin Muhammad Juvayniyning «Tarixi jahongushoy»¹ kitobidan boshlasangiz chakki bo'lmas.

Hofiz Ko'ykiyning ko'zlari chaq nab ketdi:

— Men ul muborak zotning bu tabarruk asarini ne vaqtlardan buyon izlayman, olampanoh!

— Xayr, neki izlaganingiz bo'lsa, topmoqqa biz balo-gardon, — deya kulimsiradi Bobur. — Valekin, bizning saltanat xususida biror nima demoqdan ojizman. Mavlono, bu siz havas qilg'udek barqaror saltanat bo'lmog'iga ko'zim yetmaydir. Bu zarurat tufaylidan parokanda elatlarning boshi qovush-tirilgan bir viloyat, xolos. Umid qilamanki, so'zlarimni kamtarlikka yo'ymagaysiz. Zero, zukko muarrixsiz, barchaga ersa-da, sizga maxfiy emaskim, qon daryosi uzra qurilgan saltanatning zamini hamisha omonat bo'lur!..

Ulkan saroy suv quygandek jimjit edi.

— Sizni menga xudo yetkurdi, — dedi Bobur. — Men ham boshimdan kechmish voqealarni qog'ozga tushirib, tartib bermak orzusida edim. Ba'zi nihoyaga yetgan sahifalar bor, nasib etsa, o'qib kengashurmiz.

— Bosh ustiga, olampanoh. Bu azimatingizni tangri taolo muborak qilsin!

— Inshoolloh.

— Shul olijanob maqsadingiz ko'ngildagidek o'rinlansa, ko'p ulug' ish bo'lur edi. Qandoq nom bilan atamoqqa qaror berdingiz, olampanoh?

— Nomi? — Bobur ikki-uch daqiqa o'ylanib qoldi, so'ng uzil-kesil bir tarzda: — Nomi «Voqeoti Bobur» bo'lur, — dedi.

— Ma'qul, olampanoh.

¹ «Jahongirlar tarixi»

— Siz yo‘ldan horib kelgansiz, — dedi Bobur, — toliqmasingizmi?

— Yo‘q, yo‘q, olampanoh.

— Ha-a... Toshkandan qachon chiqib edingiz? El-ulus, raiyatning kayfiyati nechuk? — Bobur kutilmaganda suhbat mavzuini o‘zgartirdi. — Farkatda istiqomat qilurmi edingiz?

— Ha, olampanoh.

— Samarqanddan quvilib, Andijondan ayrilgan sargardon kunlarim ul manzilda bir muddat turib edim, — deya Bobur xayolchan so‘zlarkan, tuyqusdan tovushi hayratomuz ohang kasb etdi. — Yodimda, bir oqshom bir yuzu o‘n oltiga kirgan kampirning kulbasida yomg‘irdan jon saqlab edim. Ko‘p umr topqon tabarruk kampir edi. Bir og‘asi Sohibqiron Temur zamonasida cherikka qo‘shilgan ekan, muttasil shuni aytib so‘ylar edi. Og‘asini «Hindistonda o‘lgan», deb edi. Manglayimga bitmish g‘aroyib savdoni ko‘ringkim, bu kun o‘shal ko‘hna kampirning tilidan tushmagan yetti yot yurtida o‘ltirib uni eslayotirman... Ha-a... Siz bunga qay yo‘l bilan keldingiz? Xo‘rmuzdanmi?

— Yo‘q, olampanoh. Oloy va Qarategindan oshib Maschoh kentiga o‘tdik, andin Obigarm yoqalab, Hisor vodiysiga tushdik.

Bobur sergak tortdi:

— Maschoh?! G‘alat! Yo‘qsa, Qobiburdondan ham o‘tgan chiqarsiz?

— Ha, olampanoh.

— Yo qudratingdan! — deya xitob qildi Bobur. — Axir biz bir paytlar Kobil sari otlanganda xuddi shundog‘ yo‘l tutmish edik! Siz esa, bukun go‘yo bilgandek, ortimizdan izma-iz yurib kelibsiz. Vo ajab! Obiburdondan oshg‘an chog‘imiz bir chashma labida to‘xtab edik. Shu chashma yoqasida bir toshga bayt ham yozdirib edim. Banogoh ko‘zingiz tushgani yo‘qmi?

Olim afsuslanib bosh chayqadi:

— Hech, olampanoh... Ne bayt edi o‘zi?

— Hanuz xotirimdan o‘chgan emas, — dedi Bobur. — Jonfizo baytlar edi:

Shunidam ki, Jamshidi farrux sirisht,
Ba sarchashmaye bar sange navisht:
«Bar in chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand chun chashm barham zadand...»¹

Bobur Mirzo qattiq hayratga tushgan edi. Ammo chinakam hayratangiz ishlar keyinchalik — oradan asrlar o'tgach sodir bo'lib, oradan asrlar o'tgach oshkor bo'lajagini u mutlaqo bilmas edi.

... Ming to'qqiz yuz ellik uchinchi yili arxeologik ekspeditsiya Obiburdon qishlog'idan Bobur bayt yozdirgan o'sha xarsangtoshni topadi. «Boburnoma»da qayd etilgan tafsilot dalili shu yo'sin qo'lga kiritiladi. Lekin eng hayratlanarli nuqta shundaki, qissamiz qahramonidan uch asr muqaddam yashab o'tgan shoirlar shohi — Shayx Muslihiddin Sa'diyning jonbasta kalomidan vujudga kelgan va xushnavo shoir Mirzo Bobur, ko'ngligagina emas, balki cho'ng xarsangga ham naqsh ettirib abadiyat bag'ishlashga intilgan bu baytlar, oradan uch asr o'tgach, yana bir buyuk otashnafas shoir — «rus she'riyatining quyoshi» Aleksandr Pushkinning ham yuragiga titratma soladi: «Boqchasaroy favvorasi»ga aynan shu baytlar epigraf qilib olinadi!

Bir-biriga g'oyibona talpingan buyuk qalblar ana shunday g'oyibona diydor ko'rishadilar. Bir-biridan asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha ayri yashagan uch daho shoirning so'nmas nafasi bu baytlarning mo'jizakor qudrati tufayli shu tariqa ulug'vor sir, tengsiz sehr kasb etadi. Vaqtning qattol, beshafqat yellari turfa zamonlar qa'riga sovurgan ularning jismu joni She'riyat diyorining boqiy bag'rida yagona vatan topadi...

Bu hayot chashmasi qoshiga biz kabi juda ko'p kishilar keldilar, tiriklik nash'asiga g'arq bo'lib, o'ltirdilar, so'ng bir-bir abadiy yo'qlik sari ketdilar.

Bukun chashma labida biz zavqu safoga to'lib o'tiribmiz.
Bizdan avval o'tganlarning barchasi ketdi.

¹ Eshitdimki, qutlug' tabiatli Jamshid bir buloq boshida toshga shunday deb yozdiribdi: «Bu chashma qoshiga ko'plar biz kabi kelib o'ltirdilar, biz kabi ketdilar va yo'q bo'ldilar».

Bizdan keyin kelguvchilarning ham barchasi ketajak.

Bizning ham azaliy qismatimiz shu.

Hammamiz keturmiz — istisnosiz, istig'nosiz. Bu chashma qoshida na jismimiz, na ruhimiz sobit qolur. Faqat, qachondir, qaydadir o'rtangan yurakning o'rtangan tili bilan bir haq so'z ayta olgan bo'lsak, yolg'iz shu so'zgina zamonlar suroniga bo'y bermay, asrlar osha, millatlar, til va mazhablar osha haqqa tashna, o'rtangan bir yurakka yetib bormog'i ehtimol...

Qayda u — o'sha O'lmas so'z?..

* * *

Hofiz Ko'ykiy Boburning rag'batini tufayli zo'r havas va ishtiyoq bilan ishga kirishdi. Olimning boshdan kechirmish uqubatlari shoh kutubxonasining ostonasidan ichkari hatlashi bilanoq butkul unut bo'ldi. U ko'hna qo'lyozmalarning sarg'aygan sahifalarini ko'z nuri va yurak qoni bilan munavvar etib, tarixning unutilgan, chalkash so'qmoqlari orasidan Haqiqat vodiysi sari eltuvchi chag'ir toshli yagona yo'lni izlashga tushdi...

Bobur ilk uchrashuvdayoq musofir alloma siymosida ota yurtdan duoi salom keltirgan mehmonni emas, balki ulkan tafakkur sohibini ko'rdi, ahli donish bilan suhbatni har qanday vaqtichog'liqdan afzal bilgani sababli, uni har oqshom huzuriga chorlab, do'stona izzat-ikrom va lutf-karamlar ko'rsata boshladi. Hofiz Ko'ykiy suhbat asnosi buyuk hukmdor qarshisida o'tirganini deyarli unutilib qo'yardi: Bobur Mirzoning teran salohiyati, favqulodda tiniq hofizasi, fikridagi mantiq qudrati unga umrini yolg'iz ilmu fanga baxsh etgan, mubohasada benazir nuroniy allomani eslatar edi...

* * *

Tun. Olam farog'at og'ushiga cho'mgan. Saroy etagidagi qator xos hujralardan birining darichasida miltillayotgan tanho chiroq shu'lasigina poyonsiz zulmat saltanatiga tahdid soladi.

Yelkasiga yengsiz jubba tashlagan Hofiz Ko'ykiy mutolaadan tolgan ko'zlarini bir zum qog'ozdan uzib, asta

devorga suyandi. Manglayini siypagancha darichadan tashqariga tikildi. Osmonning kaftdek burchi oqarib ko'rinardi.

Kecha oqshom suhbat boqe' bo'lgach, Bobur unga bir ju'z qog'oz uzatib, sekin kulimsiradi.

— «Vaqoe'»mi, olampanoh?

— «Vaqoe'».

«Vaqoe'»ning qudratli sehri Hofiz Ko'ykiyning aqlu hushini tamoman maftun etgan edi. Boburning ulug'vor, shavkatli siymosi olimning ko'z o'ngida satrma-satr yuksalib borardi.

Uning nigohi yana qog'oz betida kezishga tushdi.

«Farg'onaning janubi tarafidagi qasabalardan biri Andi-jondurkim, vasatta voqe' bo'libtur, — deb yozardi Bobur sog'inchdan o'rtanib. — Andijon eli turktur. Shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Aning uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash'u namo topibdur, bu til biladur...»

Osuda, orombaxsh tun. Besar oy ko'kdan ma'yus termiladi. Bog'da mastona hidlar gurkiraydi. Yurak allaqanday ismsiz tuyg'ulardan ohista orziqadi. Olim mijjalarini yumgan ko'yi ana shu ismsiz tuyg'uga ism topmoqqa tirishadi: nima bu — sog'inchmi, anduhmi, hasratmi? Balki ushbu go'zal lahzalarning endi aslo takror bo'lmasligini, daqiqalar hosilasi — umrning bebaqoligini yana bir karra anglagani tufayli ko'ngil pinhoniyligi iztirobda sirqirayotgandir?

Olim xo'rsinib qo'ydi, qalam oq qog'oz uzra shodon yugura boshladi:

«... Ko'p vaqt hazratning fayziyob suhbatlaridan bahramand bo'lib, ushmundoq g'arib holni fahm etdimki, hazrat Sohobqiron Amir Temur Ko'ragoniy va jannatmakon Mir Alisherga birdek ulug' e'timod bog'lag'on edilar, alarning qutlug' nomlarini hargiz tildan qo'ymasdilar. Hazrati Mir hayotligida diydor nasib etmaganini muttasil taassuf bila so'ylar edilar...»

U qalamni lavhning bir chetiga qo'yib, o'yga toldi. Suronli zamonlarning shiddatvor to'lqinlarida sarosar suringan, o'z diliga behad yaqin bu ikki buyuk zot — Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida o'ylab ketdi.

... Hayot ularning diydor ko'rishuvini xush ko'rmagan edi. Ular to tirik ekanlar, bir-birlari sari mislsiz ixlos va ishtiyoq bilan talpindilar. Ikkisining ham qalbida bir-biriga aytilishi shart va muqarrar bo'lgan juda ko'p gaplar pinhon qoldi.

Va faqat o'lim, shafqatsiz, odil o'lingina ularni daf'atan yaqinlashtiradi — ular yagona bir zamin tuprog'ida, bir-birlaridan bor-yo'g'i yuz ellik chaqirim masofa narida, bir-birlaridan butkul bexabar mangu maskan va farog'at topadilar, ularning boqiy va mardona ruhi yulduzlarga to'lgan yagona osmon ostida beorom keza boshlaydi.

Yuz ellik chaqirim!..Yovqur, o'ktam chavandoz bu masofani uchqur tulporda ikki kechayu kunduzda bosib o'tmog'i tayin. Ammo oradan asrlar o'tsa hamki, ular shu manzilga abadiyan mute' bo'lib qolaveradilar, bir-birlarining istiqbollariga hech vaqt peshvoz chiqa olmaydilar va qalblaridagi bir-birlariga aytilishi shart va muqarrar bo'lgan juda ko'p gaplarni hech qachon ayta olmaydilar...

Biroq Hofiz Ko'ykiy — Movarounnahrning zukko allomasi, qismatning bu turfa savdolaridan hali mutlaq bexabar edi. Nogahoniy, notanish bir g'alayon olimning ko'ksini tuyqusdan hayajonga to'ldirdi. Shu laha Boburni ko'rgisi, dilidagi g'aroyib tuyg'ular haqida unga so'zlagisi keldi, qalbini chulg'agan va o'zi ham anglab yetmagan bu g'alati hislarni faqat shu zakiy zotgina tushuna olishiga chin yurakdan ishondi.

Ammo bu ayni paytda ro'yobga chiqmog'i mushkul bir istak edi. Bu vaqtda Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ulkan saltanatning ulkan tashvishlari bilan mamlakatning janubiy viloyatlarida ikki kundirki, behalovat kezib yurardi.

Olim o'rnidan yengil qo'zg'alib tashqari chiqdi, ayvonning naqshinkor ustuniga suyangancha nimtatir oqish tusga kira boshlagan mashriq tomon tikilgan ko'yi sas-sadosiz turib qoldi.

Tong yaqin edi. Hofiz Ko'ykiy Hindiston tuprog'ida bedor qarshi olayotgan o'n ikkinchi tong yorishib kelardi.

* * *

Bog'i Nurafshon — yer yuzining jannati — sirli farog'at va shukuhga to'lib shovillaydi.

Hofiz Ko‘ykiy bu dilkash maskanga birinchi kundanoq qizg‘in mehr qo‘ydi. U kun bo‘yi goh kutubxonada, goh hujrasida mutolaadan bosh ko‘tarmay o‘tiradi, oqshom tushib, qosh qoraya boshlagach, adoqsiz bog‘ sahnida xayolkash kezib, horg‘inlikni butkul unutadi.

Shunday oqshomlarning birida u Bobur Mirzoga duch kelib qoldi.

Bog‘ etagida, azim shamshod va dafna daraxtlari orasida qad ko‘targan muazzam toqi ravoqda Bobur yolg‘iz o‘ltirar edi. Umrining so‘nggi yillarida u saroydagi xushchaqchaq suron bilan to‘la bazmu tomoshalardan sovigan, jon olguvchi hind raqqosalarning sitamkor ishvalari ham, bulbuligo‘yo shoirlarning shon-shuhrat ko‘yida o‘rtanib aytguvchi dilrabo baytlari ham endi ko‘ngliga zavq bag‘ishlamas edi. U ko‘p vaqtini ko‘zdan yiroq, xilvat shu toqi ravoqda tanho o‘tkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chog‘lardagina Yusufiyni chaqirib, chog‘ir buyurar edi. Bunday paytlarda Bog‘i Nurafshonga teran sukunat cho‘kar, olampanohning dardmand, miskin kayfiyatini sezgan saroy ahli, mulozimlar un chiqarmaslikka tirishar edilard.

Hofiz Ko‘ykiy Boburni qattiq xayol og‘ushida ko‘rib, sekin iziga qaytmosqchi bo‘ldi. U qizg‘ish qum sepilgan yo‘lkadan mo‘jaz xiyobonga burilganida, ortidan Boburning:

— Mavlono, marhamat qilg‘aylar! — degan sarhush ovozi eshitildi.

Toqi ravoqda, qizil sandal og‘ochidan ishlangan pastak xontaxta ustidagi oltin barkashda munaqqash ko‘zachalar, nafis chinni piyolalar tizilib turar edi. Hofiz Ko‘ykiy ohista ta‘zim qilib, poygakka tiz cho‘kdi.

— Istirohatmu? — Bobur ko‘zlarini qisgancha kulimsirab unga qaradi.

— Ha, olampanoh, bu kun oqshom g‘oyat latif...

— Ha-ha... — Bobur bosh irg‘adi. — Latif, latif...

Xiyla vaqt so‘zsiz-sadosiz qoldilar. Quyosh bog‘ ortida jimirlab oqayotgan Jamna suviga zar kokillarini yuvmoqda edi. Nihoyat, Bobur intihosizdek tuyulgan jimlikni buzib:

— O‘shning oqshomlari ham ko‘p so‘lim, tarovatli bo‘-
lur, — dedi.

Hofiz Ko‘ykiy bosh irg‘ab qo‘ydi.

— Bu olamda men kezmagan yurt kam qoldi, — deb davom etdi Bobur o‘ychan ohangda. — Ne-ne go‘zal maskanlarni zabt etmadim! Lekin hech qayda O‘shdek latofatlig‘ bir viloyatni ko‘rmadim...

U xayolga cho‘mgancha tag‘in jim bo‘lib qoldi.

— U yerda bir ustuvor tog‘ bor, Baroqko‘h derlar. Men O‘shni olganimda — tarix to‘qqiz yuz ikkida — tangri taolo inoyati bilan ushbu tog‘ning tumshug‘ida bir ayvonliq hujra soldim... Tamom shahr va mahallot oyoq ostida edi. Hanuz o‘sha hujra ko‘z o‘ngimdan ketmaydir. Ayniqsa, shu kunlar... Qani edi, inon-ixtiyorim o‘zimda bo‘lsayu besh kunlik gunohkor umrning qolganini o‘sha hujrada o‘tkarsam! — deya tuyqusdan shivirladi Bobur.

Hofiz Ko‘ykiy unga hayronalik bilan qaradi. Bobur go‘yo suhbatdoshini unutgandek parishon o‘ltirar edi.

— Ming taassufki, dard bor, darmon yo‘q. — U og‘ir tin oldi. — Saltanat shunday bir tilsim ekanki, mavlono, uni qo‘lda tutmoq uchun kishi avvalo qo‘lidagi inon-ixtiyoridan xalos bo‘lmog‘i lozim ekan...

Hofiz Ko‘ykiy nima deyarini bilmay qoldi.

— Meni «sohibqiron», «yetti iqlimning shamsi anvori», «shahanshohi olam», deb ko‘klarga ko‘taradilar, — deya hasratli tovush bilan so‘zlardi Bobur. — Lekin biror kimsa bilmaydiki, men ham asli shu yog‘och taxtga qaramman, mana shu yaltiroq tojga qulman... Illo, har bir banda faqat ollohgagina qul emas.

Olim birdan qizarindi. Axir, u ham Boburni necha da‘fa takror va takror ayni o‘sha so‘zlar bilan madh etmaganmidi? Lekin azal-abad shunday bo‘lgach, unda ne ixtiyor? Chindanda, mushkul muammo bu: axir hukmdorni inson insonni ataganidek, «birodar» yoxud «og‘a», yoxud «ini» deb atab bo‘lmasa!..

Demak, bu so‘zlarni u har safar botiniy istehzo va ijirg‘anish bilan tinglar ekan-da...

Hofiz Ko‘ykiy hindlar Boburga «qalandar shoh» deya nom berganliklari bejiz emasligini da‘atan angladi.

— U yurtlar endi bizga harom... — Bobur qo‘lidagi piyoladan paydar-pay boda sipqarardi. — Olmaning sarxilini

qurt yermish. Yurt buzg'uvchi, badfe'l, boyqush shohlarga qoldi u viloyatlar... Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmag'ay. Yo'qsa, birining etini biri yeb, yurtini g'animga berarmidi?

Olimning vujudiga simobdek titroq yugurdi. «Alarning aqli boshidagi tojidan hargiz tashqariga chiqmag'ay...» Boburning sarmast, ammo ma'nodor so'zlari uning yuragida ilhom o'tini yoqdi — shu bir jumla ne vaqtdan buyon to'xtab yotgan asariga najotbaxsh ko'prik bo'lib tushuvi muqarrar edi...

U olampanohdan tezroq ijozat olib qo'zg'alish istagida o'rtana boshladi.

Yana sukunat cho'kdi. Hofiz Ko'ykiy na bu osoyishta, dilbar sukunatni, na o'yga tolgan Boburning xayolini buzishga jur'at etardi.

Bobur botib borayotgan quyoshdan ko'z uzmay o'tirarkan, bir payt allanarsa yodiga tushgan kabi eshitilar-eshitilmas shivirladi:

— Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq...

Hofiz Ko'ykiy birdan sergak tortib, Boburga yalt etib boqdi.

— Sharq sori gar yiroqtur, ul yovuq, — deya bosh chayqadi Bobur va jimib qoldi.

Hofiz Ko'ykiy lol qotgan edi: karvonsaroy, Baxshiturk, chog'ir...

U fikrini yig'ib nimadir deyishga og'iz chog'ladi-yu, botinolmadi: suhbatdoshining qiyofasidagi horg'in iztirobni ko'rib, hozir har qanday so'z ortiqcha ekanini payqadi.

— Mavlono... — Bobur tuyqusdan unga o'girildi. — Siz ko'p mushkulotlarni kechirgan sohibi aqlsiz. Men sizdan yana bir so'roq so'rasam maylimi?

— Bosh ustiga... — Olimning birdan tili tutildi, so'ng jur'atsizgina: — Bosh ustiga, olampanoh, — dedi.

— Mana, siz... Yo'q, ollohning har bandasi goh hud, goh behud tushlar ko'rur. Tushda kishiga ko'p biliksiz narsalar ayon bo'lg'usidir. Shunday emasmi, mavlono? Ammo mening... Ne vaqtlarkim, men muttasil bir tush ko'rib mazmunini anglamoqdin ojizman. Tunlar ba'zan yakkash bir yo'sin manzara namoyon bo'lur, o'sha Farkatda ko'rganim — toshqin

soy hududsiz bir dengiz kabi ayqirib yotadi. Suv betini yupqa muz bosgan. Qo'limda aso, muz uzra shitob ila qaygadir yelib boraman. Har qadam qo'yanimda oyog'im ostida muz qirs-qirs ushalar, muz har qisirlaganda yuragim qalqib-qalqib ketar... Na dengizning poyoni bor, na yo'limning, vahm ichra qaro terga botib tentib yuraman. Sahar chog'i hushim boshimdan uchib, ne vaqt hayronu parishon o'ltiraman. So'ng arkoni davlat, munajjimlardan ta'bir so'rayman. «Olampanoh, muborak nazaringiz tushgan ul kanora, inshoolloh, saodat sohili bo'lur», deydilar...

Mag'ribdan shamol turdi. Gullarning boshi egildi. Quyoshning so'nggi jilvasi toqi ravoqning gulgun naqshlarini yallig'lantirdi.

— Saodat sohili! — Bobur yoniq bir xo'rsinish bilan xitob qildi. — Qayda u? Qay baxtiyor kimsa unga yetibdir?

Hofiz Ko'ykiy hanuz some' bo'lib o'tirarkan, lablari beixtiyor shivirladi: «Darhaqiqat, qayda u? Bu rub'i maskunda saodat istagan banda hech vaqt uning chin diydoriga erishurmikan? Dunyoni zir titratgan jahongirki unga yetmagan ekan...»

— Ko'p allomalardan, ulamoi kiromlardan so'roqladim: «Qayda u?» Ko'ngil tingudek bir javob topmadim, — deya davom etdi Bobur. — Goh aytdilarki, u chog'ir dengizining qirg'og'ida, goh dedilarki, ma'rifat daryosining kanorasida... Goh esa uqtirdilarki, savob ummonining sarhadlarida...

Hofiz Ko'ykiy dilidagi gap tiliga qay yo'sin qalqib chiqqanini bilmay qoldi:

— Saodat sohili — vatanda, olampanoh...

Bobur birdan yalt etib qaradi. Shohning sarhush ko'zlarida nogoh o'kinch ko'lankasi paydo bo'lganini ko'rib, Hofiz Ko'ykiy g'ayrishuuriy tarzda unung dilidagi bitmas jarohatga tig' tortganini payqadi-yu, xijolat chekib, yerga tikildi.

Ufq quyoshni o'z bag'riga dafn etdi. Bulutlarning ko'ksi qonga to'ldi. Olisdagi tog'lar unsiz faryod chekdi.

Yorug' olamda bu faryodni muazzam toqi ravoqda o'z xayollariga g'arq bo'lib o'tirgan ikki kishidan bo'lak biror kimsa eshitmadi...

Ertasi oqshom Bobur uni odatdagidek yana huzuriga chorladi. Bu kun uning kayfi chog' ko'rinar, kechagi mahzun o'ylaridan asar ham sezilmas edi. U fiqhning ba'zi bir masalalari yuzasidan olimdan fikr so'radi, so'ng "Voqeoti Bobur"ning yangi sahifalari xususida so'z ochdi.

Vaqt shomga yaqinlashganda yirik lashkarboshilaridan biri — amir Sulton Muhammad Do'ldoy kirib bosh egdi:

— Olampanoh, shahnatun najaf Humoyun Mirzodin chopar keldi!

— Xo'sh? — Bobur o'tkir ko'zlarini amirga qadadi.

— Humoyun Mirzo kecha oqshom muborak huzuringiz sari otlangan ekan. Biroq tonglasi Junpurda boshi buzug' hindilar yana isyon ko'tarmishlar. Humoyun Mirzo zudlik bilan madad tilaydir.

Bobur bir zum o'ylanib qoldi:

— Ha... Xoja Kalon qayda?

— Xoja Kalon hali Bangoladan qaytgani yo'q edi. Olampanoh ijozat etsalar, turkman navkarini olib, hoziroq yo'lga chiqur edim.

Bobur bosh irg'adi:

— Ma'qul. Otlaning. Faqat G'iyosiddin qo'rchiga yetkazing: Qandahor yo'lga kishi chiqarsin. Hasan Alining bir to'p yigitlarini andin olib Lohurga yubormoq darkor.

— Lohurga?

— Junpur rojasi Lohur begining qaynisi bo'lur. Maqol borkim, o'zingga ehtiyot bo'l-u, qo'shningni o'g'ri tutma. Bas, ehtiyotkorlik hech kimsaga ziyon keltirgan emas.

— Boshim bilan, olampanoh!

— Oллоh yor bo'lsin. — Bobur kaftlarini fotihaga ochdi. — Omin yo rabbil olamin!

Sulton Muhammad Do'ldoy yuziga fotiha tortdi-da, eshikka yo'naldi. U bo'sag'aga yetganda Bobur:

— Amir Sulton Muhammad! — deb chaqirdi yangroq tovush bilan. — Bir lahza sabr eting! Humoyun Mirzoga amrimizni yetkazingkim, toki faqat aql va tadbir bilan ish

ko'rgay. Uqdingizmi? Sizdek sohibtajriba kishiga hech bir o'rgatgulik yeri yo'qtur.

Sulton Muhammad Do'ldoy taajjub bilan ostonada qotib qoldi.

— Nechun tag'ofillanasiz? Anglamadingizmu? Bu safar ham Balodardagidek qirg'in-qiymat qo'pmasin, deyman!

Amirning silliq miyiqdari asabiy pirliradi:

— Amringiz vojib, olampanoh, ammo bu sodiq qul-ingizning fikri ojiziga ham quloq bersangiz: buzuq boshlarning davosi — yolg'iz qilich!

Bobur keskin bosh chayqadi:

— G'alat so'ylaysiz, amir Do'ldoy! Mamlakatdorlikda har bir ishning o'z mavridi bordir. Siz bu yurtida bugun bir boshni uzsangiz, erta sizga qarshi ikkisi bosh ko'taradi. So'ng unutmangkim... — U bir lahza tin olib ta'kidladi: — «Muruvvat va mardi peshi xoliq va xaloyiq mahmud ast»¹ Bu hikmatni kim lutf etgan, bilurmisiz?

— Olampanoh...

— Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy! — dedi Bobur o'ktam bir g'urur bilan va suhbatga yakun yasagandek, o'rnidan turdi. — Xo'p, ijozat, boring. So'zlarim qulog'ingizda bo'lsin!

* * *

Oradan uch hafta o'tdi. Humoyun Junpurdan zafar qozonib qaytdi. Agra shavkatli bir ruhga chulg'andi.

Bir tong Hofiz Ko'ykiy dilg'ash bo'lib uyg'ondi. Bomdod namozidan so'ng ham ko'ngli yorishmadi. Tunda ko'rgan allaqanday aloq-chaloq tushini esladi, joynamoz ustida o'ltirgan ko'yi ta'bir izladi.

Tushiga rahmatli Binoqul kiribdi: qo'llarini fotihaga ochib turgan emish.

«Arvohi chirqillab yuribdimikin? — deya ezildi Hofiz Ko'ykiy. — Balki haqiga duoi fotiha lozimdir... Umidvorsinganganlar ozmidi, axir?»

Shu o'y barobari qalbida sog'inch tuydi, saldan keyin sog'inch tuyg'usi aybdorlik hissi bilan almashdi.

¹ «Insonparvarlik va mardlikni olloh ham, xalq ham ulug'laydi».

Binoqulning bevaqt o'limiga u ham beixtiyor sababkor emasmi? Nega xudoning bir mo'min bandasini yo'ldan ozdirdi? Axir, o'shanda yigitni bu xatarli orzusidan qaytarsa bo'lmasmidi? O'shanda bir muslimning padari bilan diydor topishuviga ko'maklashay, harna savob deb, o'ylagan edi. Endi batafsilroq mulohaza qilib qarasa, ota diydori Binoqulga bir bahona ekan, xolos. Axir, u bedarak ketgan otasidan ko'ra ko'proq Boburshoh haqida yonib so'zlamasmidi? Bobur Mirzoning jonbasta g'azallaridan ko'ra ko'proq jangu jadallari tarixiyu muzaffar jahongirlik ta'rifini so'rab-surishtirmasmidi? Nega o'shanda manglayi qora bu g'ofil yigitni o'zining uqubatli yo'lga hamroh, chigal qismatiga hamdam etdi? Chin saodat olis tog'u toshlar ortidagi begona yurtda emas, balki ilgidagi ikki tanob yeriyo kosiblik do'konida ekanini u gumroh kimsaga uqtirmadi? Ne boiskim, Binoqul Boburshohga bu qadar ixlos qo'ygani edi?..

Nonushta chog'i ham shu andishalar xayolidan nari ketmadi. U hujrasidan chiqib, asta kundalik mashg'ulotlariga otlanganida, mulozim kelib, huzuri muborakka — shoh qabuliga taklif etdi.

Bobur uni shu paytgacha hali biror marta ertalabdan yo'qlamagan — oqshomlarigina suhbatga chorlar edi. Olim kutilmagan taklifdan taajjulanib, saroy sari yo'l oldi.

Devonda Bobur negadir yolg'iz, arkoni davlatdan hech bir kimsa ko'rinmas edi. Hofiz Ko'ykiy ta'zim ado qilib, ko'rsatilgan joyga o'ltirarkan, Bobur unga sinchkov nazar solib:

— Ustingizdan shikoyat bor, mavlono, — dedi.

Hofiz Ko'ykiy azbaroyi gangiganidan talay vaqt tili kalimaga kelmay qoldi.

«Yo rabbano! Quruq tuhmatdan o'zing asra!»

Nihoyat, yurak yutib, bo'g'iq ovoz chiqardi:

— G'ofil qulingizdan ne gunoh sodir bo'libdir, olampahoh?

— Gunoh shulkim, — dedi Bobur qat'iy ohangda, — bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan loaqal bir luqma tanavvul etmas emishsiz. Shu gap chinmi, mavlono?

Hofiz Ko'ykiyning vujudi zirillab bo'shshadi.

«Xayriyat!»

— Ha, olampanoh, — dedi u bosh irg'ab.

— Sabab? — deb so'radi Bobur chimirilib.

— Sabab... Olampanoh, xotiringizga bad gumonlar kelmasin, bakovullaringizda ham, taomlarda ham hech bir ayb yo'qtur, — dedi olim ohista tin olib. — Alardin tanavvul etmasligimning boisi shundakim, men tutmish tariqat yo'li bunga imkon bermaydir. Ma'lumingizkim, maqomati naqshbandiyaga binoan, o'zganing minnatisiz, o'zganing mehnatisiz, o'z mehnati bilan topilgan narsagina kishiga halol sanalur...

Bobur birdan so'zsiz qoldi, sukutga cho'mdi.

— Xo'p, bu uzringizni inobatga olaylik, — dedi u nihoyat, hamdardona bir yo'sinda. — Lekin sizning ko'cha-ko'ylarda suv tashib, yer supurib yurishingiz o'z sha'ningizga ham, bizning sha'nimizga ham yarashmas. Og'ziga kuchi yetmagan mardum aytmasmiki, musofir mehmonini sig'dirmabdir, deb?

Hofiz Ko'ykiy xijolat chekib kulimsiradi:

— Ko'ngil to'g'ri bo'lgach, mardumning har ne gap-so'zi hech emasmi, olampanoh?

Bobur yana uzoq o'yg'a toldi.

— Xayr, mayli, biroq xizmatigingizga berilgan mulozimlarni jo'natib yubormoq na hojat erdi?

— Olampanoh... — dedi olim qo'lini ko'ksiga qo'yib. — O'tinib so'raydirmen, bu harakatlarim zinhor noshukurlik deb baholanmasa... Nachora, bu notavon banda mulozim saqlamoqqa qodir emas. Men — bir olloh quli, bas, o'zim qul bo'lganim holda, yana qay yo'sin qul saqlamoqqa haddim sig'sin?

— Nechuk xotirimdan faromush bo'libtur? — deya bosh tebratdi Bobur. — Axir: «Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!» Shunday emasmi, mavlono?

— Haqqasti rost, olampanoh.

Gap-so'z tugagandek, har kim o'z fikr-o'ylariga g'arq bo'lgandek edi. Bir payt Hofiz Ko'ykiyning qulog'iga allaqanday hasratli, shikvakor shivir chalindi:

— Unda bizning ahvolimiz ne kechur, mavlono?

Olim boshini ko'tarib, Boburning mubham iztirob cho'kkan ko'zlarini ko'rdi, ko'rdi-yu botinib qarayolmadi.

— Labbay, olampanoh?

— Bizning ahvolimiz ne kechur? — Shohning sezilar-sezilmas taassuf ohangi zohir ovozi asta titrab ketdi.

Hofiz Ko‘ykiy shoshib:

— Sizing yo‘rig‘ingiz bo‘lak, olampanoh, — dedi.

— Nechun, mavlono? Yoinkim, tangriga bandalikni bizga ravo ko‘rmaysizmi?!

Yana ezgin jimlik, yana bezovta sukut...

— Gohi damlar ozodavash darvish bo‘lgim keladi, — deya nogoh tilga kirdi Bobur. — Barchasiga etak silkib, «Hayyo huyt!» deb oyoq yetguncha ketsam, deyman... Mundin ikki yil muqaddam Chandara otlig‘ bir viloyatda bo‘lg‘on qattiq chopqindan so‘ng shu xayol xotirimg‘a bot-bot keladigan bo‘lib qoldi. Ul qattol bir jang edikim, to‘kilgan qon daryo bo‘lib, murdalar esa o‘shal daryoda xas-cho‘p bo‘lib oqqan edilar. Tangri bizga yana bir bor inoyat qilib, qo‘limiz baland kelgan edi. Chopqindan so‘ng barcha beklar bazmga yig‘ilib, zafar nash‘asidan to‘lib-toshib so‘yladilar: kim fillar podasini taloto‘p etgan, kim zarbzan palaqmonlarni g‘animning o‘ziga qarab o‘q otmoqqa majbur qilgan... Men esa bir so‘z demay o‘ltirardim, parishon, aftodahol. Ko‘z o‘ngimda sodir bo‘lmish qo‘rqinch bir jasorat aqlu hushdan tamom ayirgan edi: juvong‘or qurshovida qolgan qal‘a devori ostida hindi askarlari navkarlarimiz zarbidan bir-bir qirilib bitdilar, axiri, o‘n besh nafar yov askari muqarrar bandilik xavfida qoldi. Shu chog‘ alardin biri ag‘darilib yotgan aroba uzra chiqib, qilich yalong‘ochladi, boshqa o‘n to‘rt nafari bir-bir kelib qilich tig‘iga boshlarini tutib berdilar... Nihoyat, qilich tutqon navkar qo‘ynidan dudama xanjar chiqarib, o‘z ko‘ksiga sanchdi... Alarning jasoratig‘a sidqidildan tong qoldim. Va so‘ngroq gunohkor dilimga sitam kirdi.

Hofiz Ko‘ykiy, qarshisida ko‘ngil yorib istig‘for keltirayotgan muztarib bu kimsaga ich-ichida ollohdan shafqat va muruvvat tilar edi.

— Angladimki, bu o‘lkada alarning yolg‘iz jismlarini bo‘ysundira olur ekanman, ruhlarini itoat ettirmakka hargiz qudratim yetmas ekan... Va yana angladimki, alar o‘z yurtlaridan tiriklayin judo bo‘lmoqdin ko‘ra o‘limni afzal ko‘rdilar. Men esa, ne yuz qarolig‘kim, o‘zga yurtni o‘z yurtimdan afzal bildim...

Boburning miskin kayfiyati olimga ham yuqdi. To‘satdan

olis tog' etagidagi qishlog'ini, kitoblarga to'la hujrasini benihoya sog'inganini his etdi, hoziroq yo'lga otlangisi keldi.

— Qaytgim keladir, mavlono! — dedi Bobur to'liqib. — Ammo imkon qayda?.. Siz bilan ko'rishganimdan buyon g'arib bir xayol tunu kun tinim bermaydir: ul viloyatlarni endi zo'ru zarb bilan ola bilmasmen. Xayr, olayin ham. Lekin dastimdan shuncha sitam ko'rgan ona yurtimga yana sitam o'tkazamanmi?.. Yo'q, balki o'zga chora izlab ko'rmoq darkordir. Rozimen, kindik qonim to'kilmish yurtga shohlik minnatidan xalos bo'lib, qalandar libosida qaytay...

Yana dilgir sukunat hukm surdi. Bobur tuyqusdan quyi egilib, sirli tovush bilan shivirladi:

— Mavlono... Yo'lga birga otlansak, ne deysiz?

Hofiz Ko'ykiy Boburdan har ne so'z kutsa kutgan, biroq uning bunday nogahoniy kengash tilashini hargiz xayoliga keltirmagan edi — es-hushidan ayrilgandek angrayib qoldi.

— Nechun jimsiz, mavlono? — dedi Bobur o'rtanib. — So'ylang, bir so'z deng!

— Olampanoh... — Olim nochor tin oldi. — Saltanat ne bo'lur?

Bobur parishon qo'l siltadi:

— Eh, saltanat... Ne bo'lsa — ollohdan! Shu saltanat minnati umr bo'yi oyog'imga kishan bo'ldi, muroding'a — g'ov. Lekin... — U kuchlanib o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi. — Lekin endi bir zo'r bilan jahd qilurmenu bu kishanni tilka-tilka eturmen!

Shu payt xosxonaga nafis shohi ko'ylak ustidan yoqutrang zarbof kamzul kiygan yetti-sakkiz yoshlar chamalig' durkun qizaloq — Gulbadanbegim yugurgancha kirib keldi. Otasi huzurida begona kishi borligini ko'rib, poygakda bir dam to'xtadi, so'ng boshidagi nimpushti harir ro'molini tuzatib, ta'zim bilan salom berdi.

— Vaalaykum assalom, ona qizim, — dedi Bobur chehrasi yorishib. — Keling?

— Begimlar kanizlar bilan bayt aytayotirlar, padari muborak, — dedi Gulbadanbegim tuyg'un ko'zlari chaqnaq. — Soz chalib o'yin qilayotirlar. Men tinglab o'tirib edim, nogoh bir ruboiyni yod oldim.

— Borakallo zehningizga, ona qizim! — dedi Bobur jilmayib va Hofiz Ko‘ykiyga qarab qo‘ydi. — Qani yo‘qsa eshitaylik, ne ruboiyni yod oldingiz ekan?

— Siz bitmish ruboiyni, padari muborak.

— Qani?

Gulbadanbegim biyron til bilan burro-burro o‘qiy ketdi:

Tuz oh, Zahiriddini Muhammad Bobur,

Yuz oh, Zahiriddini Muhammad Bobur,

Sirrishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor

Uz oh, Zahiriddini Muhammad Bobur.

Bobur, ko‘ngli erib, qizini bag‘riga bosdi, manglayidan, yuz-ko‘zlaridan suyib o‘pdi.

— Ilohim, tangri o‘z panohida asrasin sizni, — dedi. — Hofizangiz durust, ona qizim. Faqat juz‘iy bir sahv qildingiz, mayli, hech boqisi yo‘qtur.

Gulbadanbegim loladek qizarib, otasiga hayron boqdi:

— Qay nuktada, padari muborak?

— «Sirrishtai aysh», deb o‘qidingiz. Bu ma‘ni forsiyda asli «sarrishtai aysh» bo‘lur, ya‘nikim, «kalavanning uchi» demakdir, — dedi Bobur kulimsirab.

— Begimlar ham, nozimalar ham hali men aytgandek o‘qib edilar, — dedi Gulbadanbegim xiyol taraddudlanib.

— Begimlar ham, nozimalar ham shundog‘ o‘qigan bo‘lsalar, — deb kuldi Bobur, — u holda, kalavanning uchi xo‘b chuvalgan ekan!

Hofiz Ko‘ykiy beixtiyor kulgiga qo‘shildi. Gulbadanbegim ham qo‘ng‘iroqdek tovush bilan kulib yubordi.

— Yo‘q, men borib aytay, kalavanning uchini topib olsinlar, — dedi u va yugurgancha chiqib ketdi.

Bobur uning ortidan termilib qolarkan, lahza o‘tmay, ko‘zlaridagi mehr o‘rnini anduh egalladi.

— Mana, mavlono, — deya xo‘rsindi u olimga yuzlanib, — hol-kunimni ko‘rib turibsiz. Darvish bo‘lib vatanga qaytmoq orzusini qilurman-u, biroq... bu donadek farzandlarimdan qandoq ko‘ngil uzarmen? Yo‘q, mavlono, mening imkonim

yetmas mushkul savdo ko‘rinadir bu... Darvish shoh bo‘lmog‘i mumkindir, ammo shohning darvish bo‘lmog‘i...

Ostona ortida betoqat qadam sharpasi, ivir-shivir tovushlar eshitildi. Bobur sergak rortib, eshik tomon qaradi. Rang-quti qum o‘chgan, favqulodda besar-bezovta saroy muhrdori Kichik Xoja eshik og‘asining ortidan shoshib ichkari kirdi.

— Ne gap? — Bobur uning bejo avzoyini ko‘rib, ilkis o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

— Noxush xabar, olampanoh! — dedi muhrdor nafasi tiqilib. — Afg‘on amirlari Biban va Boyazid Qanujdan qochib, Shamsiobod qal‘asini ishg‘ol etmishlar, Abul Muhammad nayzador ojiz qolibdur. Fitnakorlar Gangdan o‘tib, Sarvar sari jadal bosib kelmoqda emishlar. Fotihxon Sarboniy ham alarning himoyatiga tayanib, qayta bosh ko‘tarmish. Banorasdan ham chopar keldi: Sherxon Surning cherigi shaharni tamom qurshov tutmishdir. Bangola hukmdori Nusratshoh ham alar bilan ittifoq tuzgan emish!..

Kichik Xoja, keltirgan bu xabarlari uchun yolg‘iz o‘zi aybdordek, boshini quyi solgan ko‘yi tosh qotdi.

Boburning mahkam qimtilgan yupqa lablari sezilar-sezilmas pirillab ucha boshladi, bodom qovoqlari ostidagi qiyiq ko‘zlarida Hofiz Ko‘ykiyga begona bir shiddat va qahr alangasi yondi.

— Uh, mal‘unlar! — dedi u tishlarini qisib. — Qasam ko‘r qilgur murtadlar! Necha daf‘a alarning sulh va itoat bobida bergan puch va‘dalarig‘a inondim, biroq har safar ham mana shundog‘ g‘ofil qoldim. Bu xayoli buzug‘lar saltanatni egasiz deb, Bobur Mirzoni o‘lgan deb gumon qiladilar, chamasi. Xayr, mayli, o‘zlaridan o‘tdi — o‘zlaridan ko‘rsinlar! Lafzni unutmog‘ingiz! shafqatni unutmog‘ingiz kerak!

U keskin yurib eshik oldiga bordi, hanuz muhtar turgan Kichik Xojaga shijoatli nigohini tikdi:

— Xo‘sh, Kichik Xoja?

— Labbay, olampanoh? — Kichik Xoja ko‘zlari javdirab unga yuzlandi.

— Rang-ro‘yingiz bir holat?

— Olampanoh...

— Nechun abdiraysiz? Bundog‘ qaro kunlarni hech ko‘rmabmidingiz? Sizdek suyangan tog‘imizki shumxabar

shabadasiga tebransa, xo‘b bo‘lg‘on ekan! Tag‘in o‘zgalardan ne gina qilaylik!

— Olampanoh... — Kichik Xoja bemajol titrab, tilga kirdi: — Kamina qulingizning sadoqati ham, jasorati ham zoti muboraklariga kundek ravshandur. Davlatingiz soyasida ko‘p marhamatlar ko‘rdim, shavkatli kunlaringiz saodatiga sherik bo‘ldim, endi jahannam komig‘a yo‘llasangiz ham bosh tortmay bormoq men uchun farzdur. Faqat, ko‘nglingizga kelmasin, parishonlig‘im boisi bo‘lak: mundin yarim soat burun Shamsiobod qal‘asidan farzandi arjumandim Malik Xojaning o‘ligini keltirdilar...

Tosh qotmoq navbati endi Bobur Mirzoga yetgan edi. U bir so‘z deya olmay, joyida turib qoldi.

Barlos beklaridek alpkelbat, mutaassir chehrali Malik Xojaga uch hafta muqaddam o‘z qo‘li bilan isfahoniy qilich tortiq etgan, mo‘ylabi endigina sabza ura boshlagan bu bahodir yigitni yuzboshilik martabasi bilan qutlab, lutfu karamlar ko‘rsatgan edi. Mana, bukun endi u yo‘q. Uning o‘sha lutfu karamlarini deb shahid bo‘libdi!

«Yo rab! Qandog‘ navqiron edi!»

— Oллоh sabr bersin, habibim, — dedi u ko‘ksi xo‘rsiniqqa to‘lib va muhrdorning g‘am bukib qo‘ygan jussasini bag‘riga bosdi. — Boshingizga shundog‘ musibat tushibdi-yu, siz nechun bunda yuribsiz?

— Olampanohdan ijozat...

— Ijzati ne! — dedi Bobur koyinib. — Boring, ma‘raka tadorigini ko‘ring. To‘xtang! Rahmatlining yoshi o‘n sakkiz-midi, o‘n to‘qqiz?

— Hamal kelsa, o‘n to‘qqizga chiqur erdi, — dedi Kichik Xoja o‘zini bazo‘r tutib.

— Vo darig‘! Juvonmarg ketibdi... — Bobur Mirzo so‘z topolmay qoldi, hozir har ne taskin-tasalli aytmasin, jabrdiyda otaning miskin ko‘nglini ko‘tarmoqqa harchand tirishmasin, barcha harakatlari zoye, barcha mahrami asrorligi soxta bo‘lib chiqadigandek tuyuldi — ezildi, o‘rtandi...

Xufton namozi o‘qilgach, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo boshchiligidagi yigirma ming otliq-yayov qo‘shin shahar darvozasidan guras-guras chiqib, Agra sari mo‘r-malahday

bostirib kelayotgan dushman qarshisiga — hayot-mamot jangiga jo'nadi.

... Malik Xojaning janozasida Bobur Hofiz Ko'ykiyga tasodifiy ko'zi tushib: «Hali uchrashurmiz, mavlono», degan edi, ammo oqshom olim u bilan xayrlasha olmadi.

Shu bo'yi ular olti oydan so'ng — Bobur Shimoliy Hindistonda tinchlik va osoyishtalik o'rnatib qaytgandan keyingina ko'rishdilar.

* * *

Hofiz Ko'ykiy ertalabdan buyon kutubxonada mutolaa bilan mashg'ul edi. U ne vaqtlarki bir kitobni izlab yurar, uni Tehronda ham, Istanbulda ham, Qohirada ham axtarib topolmagan edi. Boburning kutubxonasidagi dunyoning jamiki tafakkur xazinalaridan keltirilgan qimmatbaho qo'lyozmalar orasida bu nodir asarning nafis nasta'liq xat bilan ko'chirilgan nusxasini ko'rib, shohlik tekkan gadodek quvonib ketdi. Bu — Muhammad ibn In'omning «Tarixi Turkiston» asari edi. Olim kitobni zo'r ishtiyoq bilan mutolaa qildi, son-sanoqsiz istilo va bosqinlar, mislsiz kulfatlarda toptalib, vayrona kultepalar uzra Qaqnus singari qayta mag'rur qad tiklagan, asrlar bo'yi kimsaga bo'yin egmagan ona xalqi, ona yurtining shonli tarixi qalbiga larza soldi, shu ajoyib asar yuragida qo'zg'agan hayrat va hayajon to'lqinlari tinmasdan turib, uni ona tiliga o'girmoqqa kirishdi. Shu tariqa bor olamni unutib o'tirarkan, kitobdor kelib yelkasiga ohista kaftini qo'ydi:

— Ma'zur tutgaysiz, mavlono, sizni yo'qlab kelmishlar.

Hofiz Ko'ykiy ostonada xomush turgan Yusufiyni ko'rib, shosha-pisha o'rnidan qo'zg'aldi:

— Ne gap?

— Olampanoh sizni ko'rmoq tilaydilar, — dedi Yusufiy g'amgin tovush bilan.

— Tinchlikmu? — Hofiz Ko'ykiyning ko'nglida bezovta bir hadik paydo bo'ldi. — Ne gap?

Yusufiy yerdan ko'z uzmay jimgina borar edi. Qorong'ilik qo'ynida hayhotdek bo'lib turgan Bog'i Nurafshonga burilib,

saroyning oq marmar zinalaridan ko'tarilayotganda parishon ohangda shivirladi:

— Olampanoh betob... Og'ir yotibdilar...

To'rdagi xosxonada besh-o'n chog'li odam to'plangan, hamma tashvishmand qiyofada, shivirlashib sozlashadilar.

Hofiz Ko'ykiy yuragi uvishib ichkariga qadam qo'yarkan, ostonada ko'zlari qizargan, chehrasi parishon Humoyunga duch keldi. Chetlanib yo'l berarkan, yengil ta'zim bilan so'radi:

— Qiblagohingizning sihatlari nechuk?

Humoyun g'amli ko'zlarini yerga tikdi.

— Shukur, — dedi bo'g'iq ovoz bilan. Keyin ipak sal-lasining pechi bilan ko'zlarini artarkan: — Kiring, — dedi.

O'rtadagi baland o'rinda Bobur Mirzo yotardi. Ranglari siniqqan, kirtaygan ko'zlarida intihosiz bir anduh...

— Salomatmisiz, olampanoh?

Bemor sezilar-sezilmas bosh irg'adi, ko'zlarini shiftdan uzib, olimga qaradi. Mavlono Abulbaqo uning yostig'ini to'g'rilab qo'ydi-da, Hofiz Ko'ykiyning poyqadamiga fотиha o'qidi:

— Omin, dard bergan tangrim o'zi shifo bersin!

Xobgoh jimjit bo'lib qoldi. Hofiz Ko'ykiy ikki kun muqaddam Boburning huzurida Toshkandga qaytish uchun ijozat so'raganini esladi.

«Bemavrid bo'lgan ekan», deya ko'nglidan o'tkazdi afsuslanib.

Bobur boshini bolishdan kuch bilan uzib, unga yuzlandi-da:

— Ahvolingiz nechuk, mavlono? — deb so'radi.

— Ollohga ming qatla shukur, olampanoh.

— Safaringiz qaribdi-da?

Olim qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Zoti shariflari ijozat etsalar...

— Ijizat eturmiz! — dedi Bobur ichki bir zo'riqish bilan, so'ng mushkul bir vaziyatda qolgandek, boshini yostiqqa tashladi. — Mavlono, mening sizni bunga chorlamoqdin maqsadim... — Uni birdan yo'tal tutib, so'zi bo'lindi. — Maqsadim shulki,

bitmak orzusida yurgan tasniflaringizga rivoj tilamakdir, xolos. Bizdan ne ko'mak lozim bo'lsa, zinhor tortinmangiz.

— Qulluq, olampanoh.

— Xotiringizdan faromush bo'lmog'on ersa, ilk bor suhbat qurganimizda qalbaki allomalar xususida so'zlab, sizga nohaq ranj yetkurgan edim, — dedi Bobur. — Azbaroyi o'shal ko'zi ochiq, qalbi basirlarga qahrim tufaylidan... Alarning kitob kemirguvchi sichqonlardan ne farqi bor? Ma'rifat xazinasining chin qadriga yolg'iz sizdek ahli fazllargina yeta olur. Bizni ham o'zingizga teng ko'rib, ko'p mutaassir etib edingiz, bilmam, ne yo'sin tashakkur ayturmiz... Kitobdorga farmoyish berilur: ko'nglingiz tilagan ismiki kitobni o'zingiz bilan olmog'ingiz mumkin.

Borlig'i hayajondan titragan Hofiz Ko'ykiy qayta-qayta qulluq qildi.

— Biror «sichqon»ga yemish bo'lgandan ko'ra, sizdek zarshunos qo'liga tushsa, odamizotga ko'proq nafi tegur...

Og'ir jimlik cho'kdi. Muhtasham tilla qandillardagi shamlarning lipillab yonishigina sukunatga raxna solardi. Anchagacha hech kimdan sado chiqmadi. Bu o'ng'aysizlikdan yana Boburning o'zi qutqazdi.

— Kecha oqshom g'arib xayolimga bir nimarsalar kelib, qog'oz qoralab edim, — deya zaif jilmaydi u.

Barchada allanechuk bir jonlanish sodir bo'ldi:

— Olampanoh marhamat etsalar...

— Tabarruk bitiklari nomuborak quloqlarimizga sazovor ko'rilsa, boshimiz ko'kka yeturdi...

Bobur bir zum o'ylanib qoldi, so'ng horg'in ko'zlarini yonidagi lavhga tikdi. Yusufiy o'rnidan ildam turdi-da, lavh ustidagi saxtiyon muqovali kitobni Boburga uzatdi. Bobur kitob qatidan buklangan yupqa qog'oz olib, tizzasiga qo'ydi, bemajol lablariga nimpushti qizillik yugurgandek bo'ldi:

Yo qahru g'azab birla meni tufroq qil,
Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil.
Yo rab, sengadur yuzim, qaro, xoh, oq qil...

Boburni tag'in quruq, qattiq yo'tal tutdi, nafasi bo'g'ilib, so'nggi misrani kuch bilan bazo'r shivirladi:

Har nav sening rizong erur, andoq qil...

Ruboiyning ajib ohangiga sehrlangandek hamma bir lahza tek qoldi. Nihoyat, birin-ketin a'yonlarning olqishlari eshitila boshladi:

- Xo'p aytibdursiz, olampanoh, bisyor go'zal!
- Haq so'z, g'oyat xushtakallum baytlar...
- Oshiqona go'zal lutf bo'libdir, olampanoh...

Bobur Mirzo ohista bosh chayqadi, hazin jilmaygandek bo'ldi. Siniqqan chehrasida bir lahza alamnok taassuf ifodasi ko'rindi...

Bu dardli misralarning «oshiqona go'zal lutf» emas, balki suronli umri so'nggi manzil sari borayotgan ulkan muhtarib qalbning kelgusi nasllar oldida berajak iztirobli hisobi, davron hukmi qarshisidagi ma'yus o'tinchi ekanini yolg'iz Hofiz Ko'ykiygina o'z savqi tabiiysi bilan angladi.

Bobur buni sezdi, minnatdor ko'zlari olimga javdirab boqdi...

Olamning qariyb yarmini qilich bilan, qariyb yarmini qalam bilan zabt etgan, bir og'iz kalomiga ming-minglab odamlarni muntazir itoatda tutgan, hamisha sha'nu shavkat og'ushida muzaffar yashagan bu ulug' zakovat sohibini bunday mahzun va g'arib holda ko'rmoqlik g'oyat og'ir edi — Hofiz Ko'ykiy mutaassir bo'lib, beixtiyor nigohini olib qochdi...

Ertalab bemorning ahvol-ruhiyasi xiliy yengillashdi, ammo hamon darmonsiz edi. Hofiz Ko'ykiy bomdod namozidan so'ng u bilan xayr-xo'shlashib, barcha yaxshiliklari uchun qayta-qayta tashakkur aytdi, ollohdan shifo tiladi. Xobgohda talay odam bor edi, biroq Bobur mijjalariidagi yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi.

— Sizga nechog'li havasim kelishini bilsangiz edi!

Uning Hofiz Ko'ykiyga aytgan so'nggi so'zlari shu bo'ldi...

Karvon endigina Hindiston sarhadidan chiqqanida ko‘pirib ketgan chavkar otda Kobul sari yelib borayotgan chopar orqadan quvib yetdi: «saodatmand» shoh — Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo olamdan o‘tgan edi...

* * *

Hofiz Ko‘ykiy bir haftagacha Bog‘i Nurafshonda motamdorlar bilan bo‘ldi. Nogahoniy bu musibatdan dildildan iztirob chekarkan, butun qalbi, butun borlig‘i Bobur Mirzo yodi bilan bog‘lanib qolganini yana bir bor teran his etdi, o‘zini benihoya g‘arib, mehrga zor sezdi. Olimning nazarida, butkul dunyo huvillab qolgandek... Faqat Bog‘i Nurafshongina hamon avvalgidek shukuhga to‘lib shovillar edi.

Marhumga yetti ushatilgach, Hofiz Ko‘ykiy Kobulga jo‘naydigan biror karvonni daraklab topmoq maqsadida shaharga chiqdi. Muddaosi bitib, dilgir saroyga qaytarkan, ko‘ngli nechundir o‘zi ilk bor bosh qo‘ygan karvonsaroy yonidan o‘tishni istadi. Darvoza oldida bexos Baxshiturkka ko‘zi tushib qoldi. U g‘ayriinsoniy jazavada, og‘zidan tufuk sochgancha o‘tkinchilarga qo‘llarini to‘lg‘ay-to‘lg‘ay xirqiroq tovush bilan qichqirar edi. Olim unga yaqinlasharkan, o‘sha tanish bayt qulog‘iga uzuq-yuluq chalingandek bo‘ldi:

— ... sori gar yiroqtur, ul yovuq...

Baxshiturk birdan unga qaradi-yu xuddi ne vaqtlardan buyon izlab yurgan odamini ko‘rib qolgandek, hayqira ketdi:

— Buni qalandar shoh bitgan, ha! Chog‘ir ichgan paytlarida aytar edi, ha! Ha-ha, chog‘ir ichdingmi? Bo‘z-lama, bo‘zlama! Nega chog‘ir ichasan? Bari bir oxiri voy, ha! Bu kun odina, tonglasi shanba, indini dushanba, undan so‘g‘in seshanba, chahorshanba, undan so‘g‘in panjshanbai murodbaxsh! So‘g‘in yana odina, e bari bir oxiri voy, ha! Vallohu a‘lam, oxiri voy!

Hofiz Ko'ykiy turgan joyida hang-mang bo'lib qotib qoldi. Yo olloh! Bu nolakor baytni Bobur Mirzo bitgan ekan-da! Yuragi qalqib ketdi.

«Ko'nglim sezgan edi, — deb pichirladi u, — sezgan edi...»

Qarshisida Baxshiturk hamon jununi jo'shib vaysardi. Hofiz Ko'ykiy boshini ko'tarib uning yuziga tikildi. Va birdan seskanib ketdi: ro'parasida o'ttiz yoshlar chamasi qarigan Binoqul turardi!..

* * *

Ertasi kuni murch, dolchin, zaytun moyi ortilgan kichik bir karvon tong saharda shahar darvozasidan chiqib, Sharq sari yo'l oldi. Karvon so'ngida ko'rimsizgina ot mingan Hofiz Ko'ykiy xomush borar edi.


... Bepoyon sahro. Quyosh olov seli purkaydi. Ufq qadar yastangan qumlikda qilt etgan tirik jon ko'rinmaydi. Ahyon-ahyon ko'hna sardobalar uchraydi. Karvon qo'n-g'irog'idan atrofga sarob halqalari singari hazin sadolar taraladi:

Moli vofir, eli kofir, yo'l yovuq...

Bu mungli sadolar og'ushida horg'in ko'zlarini yumgancha tebranib borayotgan Hofiz Ko'ykiy mahzun shodumonlik bilan ohista shivirlaydi:

Sharq sori gar yiroqtur...

1981



HIKOYALAR

OY BOTGAN PALLADA

Hijriy to‘qqiz yuz yettinchi yil¹ kech kuzida toju taxtidan mahrum etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ko‘hna va azim Shoshning ustki tarafida, Chir vohasining tog‘li kentlarida yaqin bir oy o‘ttiz chog‘li yigiti bilan sarson-sargardon kezib yurardi.

Manglayidan mangu qor arimas Chotqol bag‘rida yashnab yotgan Farkat nomli so‘lim, mo‘jazgina bu kent Bobur Mirzoning ko‘ngliga xiliy ma‘qul tushib, ikki haftadan buyon shu yerda xirgoh² tikib, turg‘un bo‘lib qolgan edi.

* * *

... Tun bo‘yi sharros quygan yomg‘ir kuni bilan tinmadi. Osmoni falakni to‘ldirib yuborgan qora bulutlar qahr bilan to‘lg‘anib, savalab sel quyardi.

Bobur yelkasiga chakmön tashlab, toyg‘ana-toyg‘ana soy bo‘yiga tushib bordi. Tahorat olgach, chakillab suv tomib yotgan xirgohga qaytdi-da, bomdod namozidan so‘ng beklar, ishonchli yigitlar va ichkilarni kengashga chorladi. Xirgohga birin-ketin engil-boshlari shalabbo Xoja Husayn, Qaro barlos, Sulton Husayn arg‘un, Qo‘chbek, No‘yon ko‘kaltosh, Banda Ali, G‘ulda Qosimbek, Xoldor va eng so‘ngida mo‘g‘ul bashara, suyagi buzuq Mirshoh qavchin jam bo‘ldilar.

— Shayboniyxon Xo‘jand suvini kechib o‘tib, Shohruhiyani egallabdur, Piskent viloyatini qamal qilmishdir, — dedi Bobur. — Biz bo‘lak biror kentga ko‘chgali qaror berdik.

¹ Milodiy 1501-yil.

² Xirgoh — chodir.

Barcha anjomlarni taxt qiling, yomg'ir to'xtagach, darhol yo'lga o'tlanmoq lozim.

Bir zumda hammaning yuziga tashvish pardasi soya soldi, ammo biror nima deb e'tiroz bildirguvchi kimsa bo'lmadi. Faqat Qaro barlosgina xirqiroq tovush bilan so'radi:

— Qaysi manzilga ko'chmoqni qaror qildingiz, amirzodam?

— Bundan ikki yig'och¹ nari Somsarak otlig' bir kent bor. O'shal yerga qarorgoh qururmiz. Yo'l tadorigini ko'ringiz. Siz, G'ulda Qosimbek...

Yig'ilganlar tegishli amr-farmonlar olib, oldinma-keyin tarqalishdi.

Xirgohda allanechuk taraddudlanib Ho'yon ko'kaltosh qoldi. Bobur qoshini chimirib unga yuzlandi:

— So'ylang'.

— Amirzodam... Hali xotirdan faromush bo'libdur... Mulla Haydarning o'g'li Mo'min Ahmad Qosimni, kaminani va yana ba'zilarni og'izlag'oni chorlab edi. Agar janoblari ijozat bersalar...

— Mo'min kim?

— Amirzodam, ul Piskent viloyat begi Mulla Abdullamannonning inisi. Biz bilan Samarqandda bir tavr oshnoligi bor edi.

Bobur bir zum o'ylanib qoldi.

— Bilaman, xabarim bor, mulla Haydarning Mo'min otlig' bir parishon o'g'li Samarqandda ekanimda qoshimga kelib edi... Darvoqe, u bilan orangizda so'z qochgan, deb eshitar edim?

· No'yon ko'kaltosh miyig'ida kuldi:

— Jilla ahamiyatli emas, amirzodam.

Bobur Mirzo nima qilishini bilmay qoldi. Havoning avzoyi bunday bir paytda ko'chilsa, No'yon ko'kaltosh barcha ishni o'z qo'liga olib, joniga ora kirgan bo'lardi. Ammo ijozat etmasa, balki ranjib, ko'ngli og'rinar... Axir, Mirzo undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan, har nima tilagini o'rirlatsa ham oz. Saripul

¹Yig'och — 8 kilometr.

chopqinida ko'kaltosh uni ikki marta muqarrar o'lim zarbidan asrab qolgan edi.

Bobur o'z tabiatiga xilofan negadir ikkilanardi. Har nechuk, Shayboniy yaqin, xatar bor. Ehtimol... Lekin shunday jo'mard yigitning shahdini qaytarishga nima uchundir ra'yi bo'lmadi.

— Xo'p, yomg'ir tingach — ijozat. Biroq shart shulkim, bu kun o'tib, erta tonglasi men aytgan manzilga yetib borursiz. Biz tunda yo'lga chiqamiz.

— Bosh ustiga, amirzodam.

No'yon ko'kaltosh ta'zim qilib, tashqariga chiqdi. Yomg'ir hamon shovillar, ammo shashti bir oz susaygan, qadam tashlagan sayin oyoqqa chilp-chilp loy yopishar edi.

* * *

Peshindan keyin havo charaqlab ochilib ketdi. To'da-to'da uvada bulutlar orasidan quyosh xijolatomuz mo'raladi. Qarorgohda yana odamlar g'imirlab qoldi.

Bobur yalang oyoq, yalang bosh, selgiy boshlagan nam yerni bir-bir bosib maydondan o'tdi. Qayrag'och tagidagi kigiz xirgoh yonida sevikli navkari Banda Alining inisi — o'n to'qqiz yoshlar chamasidagi xushro'y, xushqad yigit Qo'chbek ikki qadam narida qulog'ini chimirib o't chimdib yurgan jiyronning uzilgan abzallarini ulab o'tirar, past, tiniq bir ovozda xirgoyi qilar edi:

Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana...

Bobur taqqa to'xtab qoldi. Yo olloh, axir bu bir paytlar o'zi bitgan g'azalning matlai-ku!

Ko'nglini mahzun bir xushnudlik chulg'adi.

Ha, bir vaqtlar, umrining ma'sud onlarida, u ham nazmga ixlos qo'yib, turkiyda bayt aytar edi. Devon tartib etmak orzusi — diliga cho'g' tashlagan o't — hali-hanuz yuragini o'rtaydi. Taqdiri azal bu taxlit toju taxt minnatini bo'yniga ortmaganida, shubha yo'qkim, o'zini butkul ash'or va ilm zahmatiga baxsh etgan bo'lardi.

Bu sargardon xilvatda sadoqatli navkari tilidan o'z baytini tinglar ekan, vujudiga titroq tushib, allanechuk g'alati tortib ketdi. Hech narsadan xabari yo'q Qo'chbek unga teskari o'tir-gancha asta chayqalib, ishtiyiq bilan astoydil berilib kuylar edi:

Tiyra bo'ldi ro'zgorim ul qaro qoshdin yana...

Bobur asta iziga qaytarkan, ko'zlariga beixtiyor yosh keldi. Yodida, Samarqandni ikkinchi bor olganida Alisherbek hali hayot edi. Hatto, bir gal jur'at qilib, turkiy bayt aytib bitgan kitobatini Hirotda, ul hazratga yuborgan edi. Musannafoti¹ yetti iqlimga mashhur va manzur donishpanoh shoir ahli fazl, ahli hunarga chin murabbiy, tengsiz homiy edi. Muqarrar, ul zot uning jasoratiga loyiq bir sa'yi harakat ko'rsatgan, marhamatini darig' tutmagan bo'lardi. Kim bilsin, ehtimol, mavlono uning ta'bi nazmini, mashq yo'sin abytini muborakbod etarmidi? Yoxud, ul fursatlarda ahyon-ahyon aytib yurgan baytlarini «Ado — durust, vale aksar sust», deya baholab, qattiqqo'l ustoz dastxati bilan maktub yo'llagan bo'larmidi? Har nechuk, Bobur uning bir og'iz mo'tabar kalomiga ilhaqlik ila ko'z tutgan edi. Taassuf, ming taassufki, bunday baxt unga nasib etmagan ekan. Taqdirida bu yozuqliklar bor ekan, to javob kelguncha mana shu balolarga muhtalo bo'lib o'tiribdi...

Mana endi, bugun o'z ahvoliga yig'lay desa — kulgilik, kulay desa — yig'lagulik. Andijonga bo'la Samarqandni qo'ldan bergan edi. Xayr, yaratganning irodasi shundaydir, balkim? Ammo Andijondan, kindik qoni to'kilmish, o'n ikki yasharligida taxtini tutgan Andijondan, tangri omonatini oladigan kuni bahuzur uzanib, manguga ko'z yumishni niyat qilib qo'ygani Andijondan tirik ayrilganiga Mirzo sira-sira toqat qila olmas, hasratga to'lgan vujudi shu ikki o't orasida tunu kun qovrilar edi. Kechalari go'yo kiprigiga qadoq-qadoq tosh osib qo'yilgandek, ko'z yuma olmas, qulog'i ostida allakimning masxaraomuz makkor tovushi o'rmalar edi:

¹ Musannafoti — asarlari.

Bunday paytlarda Bobur o'rnidan turib ketar, sutday oydinda sharqirab yotgan soy bo'yiga tushib borar va subhidamgacha sohil yoqalab goh asabiy, goh parishon kezib yurar edi.

Bukun ham, keyingi vaqtlarda muttasil yalang yurishni odat qilib, tog'u toshni mutlaqo tafovut etmaydigan bo'lib ketgan oyoqlari ixtiyorsiz suratda yana xilvat go'shaga yetakladi. Bir qizg'ish tus xarsang ustiga chiqib, beshik urib kelayotgan qop-qora, loyqa to'lqinlardan nigohini uzmay, suvga tikilib qoldi.

Nahot, tole haqiqatan ham undan butkul yuz o'giran bo'lsa? Nahotki, bir paytlar uning bolalik osmonida juda erta balqigan shamsi saodat endi shu qadar erta botsa? Bu besh kunlik o'tar dunyo uchun jam'u jam bebaqoligi ayon, ammo hali uning dunyodan umidvorligi bitgan emas. Beayb — parvardigor, lekin undan qaysi bir gunohi azim sodir bo'ldiki, xalloqi olam uni bunchalar qahriga olmasa?!

Yo'q, bu bandai noshukurlik emas, bu — jaloyi vatan bo'lib, sargardon sarg'aygan kimsaning yaratganga munlug' istid'osi², xolos. Balki bu uning gohi haq, gohi nohaq oqizgan daryo-daryo qonlari, ko'z yoshlari barobarida muyassar bo'lib turgan ehsonlaridir?..

Valiahd tariqatida toju taxt, saltanatni qo'lga kiritganiga muqim yetti yil bo'libdi. Biroq shu kechgan fursat ichida biror kun yo'qki, o'zi harbu zarbdan, dasti qilich bandidan bo'shagan bo'lsin! O'n bir yoshidan to hanuz bukungacha ikki ramazon iyidini³ aslo bir yerda qilolgan emas. Mana, necha-necha yillarkim, umri sohibqiron ajdodi Temurbekning tanazzulga yuz tutgan o'lkasi Movarounnahrda bir-biri bilan qirpichoq bo'lib yotgan chig'atoy, temuriy, o'zbek sultonlari, beklari va hokimlariga qarshi jangu jadal bilan o'tib bormoqda.

¹ G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ayrilgan.

² I s t i d ' o s i — iltijo.

³ I y d — hayit.

Ba'zan yengib, ba'zan yengilib, g'animlar ustiga cherik¹ tortib, qochib-quvib o'tkargan mutla'q ul-inon² kunlarida, alhaq, ko'p xatoliqlar, ko'p gunohlarga yo'l qo'ydi. Irodasiga itoat etmaganlarni so'zsiz qatli om qildi, umriga muttasil qutqu solib, nihoniy nayza sanchguvchi og'a-ini, birodarlarining holini ham ko'p bor zabun etdi, shafqat tilab, ko'zda yosh bilan titrab-qaqshagan dushmanlariga rahm nimaligini... bilmadi. «O'zlarining beklariga ne vafo qildilarkim, bizga vafo qilgaylar?» qabilida hukm yuritdi...

Poyida suron solib guvillayotgan soyga mahzun termilgan gancha tangri inoyati bilan ro'zi zafar qozonib sha'nu shavkatga botib yurgan kezlari ko'z o'ngidan bir-bir o'tarkan, Bobur Mirzoning alamzada yuragi tutday to'kilar edi.

Padari buzrukvori Mirzo Umarshayx vafotidan so'ng erishgan g'alabalari hali-hanuz uni masrur etib keladi. Samarqandni olganida sanog'liq ikki yuz qirq kishi bilan bu xatarli jasoratga qo'l urgan edi. Shu jasorat daldasi va yigitlarining sadoqatiga tayanib, Saripulda Shayboniyxonga qarshi qo'shin tortdi. Shayboniydek purtajriba lashkarboshi shu urushda uni ne-ne ulug' beklaridan, ne-ne sodiq navqironlaridan judo qilmadi? Ibrohim otlig' ishongan uch mardona beklari — Ibrohim tarxon, Ibrohim joniy, Ibrohim soru o'sha jangda uning uchun jon berdilar...

Tirik qolgan o'n-o'n ikki yigiti qanotiga kirib, ne mashaqqatlar bilan Samarqand qal'asiga chekingani hamon ko'z oldida... Bunda to'rt oy mobaynida boshiga tushgan qismatning qaro kunlari, chekkan xorlik va aziyatlari... Nahot, shular xotirdan ko'tarilsa? Ochlikdan it etini, eshak etini yegan faqir va miskinlar-chi? Nahotki, ularni hargiz unuta olsa?

Uni tole yorlaqamadi, hech kimdan ko'mak yetmadi. Hatto Sulton Husayn Mirzo... Shunday sohibtajriba podshoh ham unga madad qilmay, Shayboniyxonga elchi yubordi...

¹ Ch e r i k — qo'shin.

² M u t l a ' q u l - i n o n — o'z erki qo'lida.

Qamal so'ngida zaruriyat majbur etdikim, mag'rur boshini egib, sulhi murosa qilishga majbur bo'ldi. Ko'nglidek simsiyoh bir tunda Shayxzoda darvozasidan o'g'rincha chiqib ketarkanlar, suyuqli egachisi Xonzoda begim g'anim qo'liga tushib qoldi...

Mirzo hanuz o'sha mudhish tunni eslarkan, a'zoyi badani muzlab ketar, yaralangan arslondek o'zini qayerga urishni bilmay qolar edi. Hozir ham achchiq bir o't ko'ksini tig'i parrondek tilib o'tdi.

Samarqanddan quvilib, bor dunyosi qorong'i bo'lib yurganida Andijondan kelgan mash'um xabar to so'nggi dam yodidan o'chmasa kerak. O'shanda inisi Jahongir Mirzo taxt hokimi qilib ko'tarilgan edi.

Yo rabbiy, nechun bu charxi gardunning ishlari bunchalar teskari! Bu qanday charx kajraftorki, ini o'z og'asining ko'ziga cho'p solsa, tog'a tuqqan jiyani sarsari hijron etsa, farzand o'z padarining boshini uzsa!

Quyosh ufqni qizartirib botib bormoqda. Yomg'irdan keyin qorayib yotgan adir etagidagi ang'izdan allakim ot yetaklab o'tdi. Zaif, beqaror shamol qarorgoh tarafdandan tutun isi va namxush tuproq hidini olib keldi. Bobur suv yoqalab horg'in kezishga tushdi. Uni yana xayol olib qochdi.

Bu olamda qaysi bir bandaga ishonib bo'ladi? Kimni ko'ngilga mahrami asror etsa bo'ladi? Qayon boqma — xiyonat, makr, nayrang... So'nggi paytlarda, ne boiskim, bu hazin, nolakor baytlar tez-tez xotiriga keladigan, bir zum hofizasini tark etmaydigan bo'lib qoldi?

Kim ko'rubtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshiliq?

Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq...

Ne-ne mardumlar bilan sadoqat umidida hamjihatlik orzu qildi. Ammo ularning makridan har vaqt g'ofil qoldi. Ali Do'st va Qambar Alidek ulug' beklari, Muhammad Do'st singari suyangan tog'lari unga pand yetkazdilar, shu tariqa uning inson farzandiga bo'lgan e'timodini sindirdilar.

Yo‘q, qodiri xudo barchasidan boxabar ekan, yomonlarning jazosini o‘zi berdi. Ota-bola Ali Do‘st va Muhammad Do‘st unga necha bor firib berib, amakisi Sulton Ahmad Tanbal tomoniga butkul o‘tib ketgan edilar. Bir-ikki yildan so‘ng Ali Do‘stni qo‘liga yara chiqib o‘ldi, deb eshitdi. Qisiq ko‘z, imoni ham harakatlari singari sust Muhammad Do‘stni yaxshi xotirlaydi. Bu dog‘uli Tanbalni ham nayrang bilan laqillatib, Shayboniyga o‘tib ketgan edi. Asli haromnamak ekan, undan ham qochib, Andijon kentlarida fitna-g‘avg‘olar qilib yurganida yana Shayboniy qo‘liga tushdiyu ko‘zlarini o‘yib oldilar.

«Ko‘zlarini tuz tutti», degan gapning ma‘nisi shu erkan-da», deya ko‘nglidan o‘tkazdi Bobur va oyog‘i ostidan mushtumdek bir chag‘ir tosh olib, suvga irg‘itdi. Tosh shalop etib cho‘kib ketdi. Bobur yana so‘ngsiz xayollarga berildi.

Nahotki, o‘zi ham shu tosh singari benomu nishon yo‘q bo‘lib ketsa? Yuragida qaynab-toshgan intiqom, hali yuzdan biri ro‘yob ko‘rmagan niyatlari, nahot, shu gadoy topmas xilvatda butkul bitsa? Axir, og‘ir kunda qora tortib kelganida toshkandlik xon dodasi ham, tog‘alari ham: «Holing ne?» deb bir qayrilib boqmadilar-ku... Xon dada inoyat yo‘sinda O‘ratepani va‘da qilgan edilar, Muhammad Husayn Mirzo bermadi. Kim bilsin, o‘zi bermadimi yo yuqoridan bir ishorat bo‘ldimi, yolg‘iz ollohga ayon...

Boburga alam qilar edi. Bu qanday bedodlikki, kuni kecha butun Movarounnahrda o‘zligini tanitib, na‘ra tortgan amirzoda bu kunga kelib, shu kimsasiz Farkatda, tog‘u toshlar orasida darbadardek pusib yursa!..

Tortayotgan bu xor-zorliklari badalida podshoh degan nom ko‘tarib yurguncha boshi oqqan tomonga ketgani afzal emasmi? Bu sharmisorlikda nimaga ko‘z tutmog‘i mumkin? Viloyat yo‘q, viloyat umidvorlig‘i yo‘q, navkar parokanda...

Ba‘zan uning xayolini sarhad sari ot surish fikri qamrab olar, shunda yo‘lga chorlovchi tovushlarni eshitgandek bo‘lar, tomirlarida qon jo‘shib. yuragi gupurib ketar edi.

Sarhadga! Sarhadga! Ehtimol, o‘zga yurtlarda tole unga yana iltifot aylar? Musofir bo‘lmagan — musulmon bo‘lmas.

Balki begona zaminda bu kunlar tushdek unutilib ketar? Ammo, Andijon...

Ko'ngliga shu fikr kelishi bilan Bobur Mirzoning qizigan asov qoni suv sepgandek birdan sovib, shirin xayollari chilparchin bo'lar edi.

G'urbat qaysi bir kimsaning umrini shodmon etibdi? Yot ellarda jismidan jon chiqquncha achchiq armon yuragini tosh kabi ezmasligiga kim kafolat bera oladi?

Yo'q, vatandan ayru tushgan qismat, so'zsiz, kishini tiriklayin qabrga eltgay. Axir, tirik jonga yolg'iz mozor uchun to'rt gaz qaro yer emas, balki hamdamu hamnishin elu yurt kerak. Va lekin, tangri taolo agar rizqi ro'zini o'sha yoqlarga sochgan bo'lsa... Unda ne iloj?

Ammo mamlakatdorlikda garchi ba'zi ishlar zohiran ma'qul ko'rinsa-da, har bir ishning zaminida yuz ming mulohaza... Bir bemulohaza hukm tufayli ne miqdor fitnalarga duchor bo'ldi, endi ko'zni ochmoq lozim...

O'rkach-o'rkach suv uzra Bobur Mirzoning xayollari hamon chayqalar edi. Lojuvard osmonning Suvqoq kenti ustidagi burchida samo beliga belbog' tortdi — turfa rangda yal-yal tovlangan kamalak oqshomni nurga beladi. Etni junjiktirib, zaxkash shabada turdi. Bobur Mirzo oyog'idan zax o'tib uvishib qolganini endi payqadi-da, asta qarorgohiga qarab yo'l oldi.

Tepada navkarlar shovqin-suron bilan xirgohlarni buzib, anjomlarni yig'ishtirmoqqa kirishdilar.

* * *

Shu kech tun qorong'isi bilan yo'l bosib, kun ancha yoyilib qolganida kaftdek tekis bir mavzeda o'rnamashgan Somsarak degan ikki yuz uylik kichkina kentga yetib kelindi. Bobur tevarakni ko'zdan kechirib, taqir o'rib olingan bedapoya etagidagi baland adirga qarorgoh tikishga farmon berdi.

Kechga tomon bir zumda chang-to'zon ko'tarilib, go'yo chaqirilmagan mehmonlarni xushlamagandek, osmon yana burkanib, qovog'ini soldi. Bir necha muddat sekin-sekin tomchilab turgan yomg'irli havo yarim soatlardan so'ng

kuchayib shiddatli dovulga aylandi. Shamol ko'z ochirmay qo'ydi, ahyon-ahyonda Chotqol tog' ustini bir lahza yoritib chaqmoq chaqnar, keyin yeru ko'kni vahimali guldurak tovushi tutib ketar edi. Jami xirgohlar qulab, suv bosib ketgach, raoyoning¹ uylaridan boshpana topishdi...

Egnidagi bo'rkigacha ivib ketgan Bobur Mirzo tuya kigiz to'shalgan tanobiy xonada darichadan tashqariga xomush tikilib o'tirar, uying o'rtasida esa xush bo'y taratib, quruq archa shoxlari chirsillab yonar edi.

«Kuz oyoqlaganda qaldiraqlar! — deya o'ylar edi u. — Bu ne alomat?»

Gulxanning narigi tarafida uy xo'jasi bo'lmish Abdulkarim ismli qop-qora soqolli, baquvvat yigit qo'lidagi cho'p bilan o'tni titib qo'yarkan, ro'parasidagi odamga yer ostidan qiziqsinish va oshkora hadik bilan boqardi. Yigitning yonida rangi xazondek za'faron kekka bir kampir ko'zlarini yumgancha mushtday bo'lib jim o'tirar edi.

— Volidangizmi? — deya so'radi Bobur sekin.

Abdulkarim bosh chayqadi:

— Yo'q, taqdir... Bu kishi mening buvimga ham volida bo'ladilar. Muchalim baqar², der edilar, bu yil bir yuzu o'n oltiga kirdilar, chog'i.

— Bir yuz o'n oltiga?! Olloh umr bersin, ko'p umr topqon tabarruk ayol ekanlar.

— Mundan ikki oy muqaddam bunda Toshkandan chiqqan mo'g'ul cheriki to'xtab edi, — dedi Abdulkarim gulxanga shox tashlab. — Elni talab, bemiqdor yomonliklar yetkurdilar. Enam shu vajdan ta'blari parishon, ma'zur tutgaysiz, taqdir.

Bobur taassuf bilan so'zladi:

— Bir bu emas, hamisha badbaxt mo'g'ulning odati shul. Bossa ham o'lja olur, bostirsa ham talab-tushirib o'z elidan o'lja olur...

Shu vaqtgacha so'zsiz o'tirgan kampir tuyqusdan qonsiz lablarini qimtib tilga kirdi:

¹ R a o y o — mahalliy aholi.

² B a q a r — sigir.

— Oh, bo‘tam-a, endi menga ollohdan umr tilab ketasan... Azroilni so‘rasang-chi... «Omonatingni olib qo‘ya qol», deb uzzukun yaratganga iltijo qilaman. Yo‘q, meni yodidan chiqarib yuborganmi...

Bobur bo‘rkini olovda quritaturib, taskin ohangida:

— Undoq noshukur so‘z aytmang, momo, — dedi, — harna bo‘lsa tangri suygan banda ekansiz, dam o‘tganiga shukur qiling.

Kampirning cho‘pdek ingichka, burishiq barmoqlari oriq tizzalariga yopib qo‘yilgan qora kapanak¹ ustida go‘yo allanarsa axtargan kabi timirskilanan edi.

— Shukur qilaman, bo‘tam, shukur qilmaganimda ne iloj? Bu dunyoga kelib, ikki o‘lib bir tirilmadim, xolos, undan boshqa neki ko‘rgilik bo‘lsa, hammasini tortdim. Yigirma uch yildan buyon ko‘zlarim ojiz... Xudoi taolo suygan quliga dard berar, deb o‘zimni ovutdim. Olloi karim to‘qqiz farzand berdi, tag‘in o‘zi oldi, shukur qildim. Farzandlarim barchasi qaro tuproqda yotibdi, men bo‘lsam ... e voh! — Kampir ich-ichidan toshib kelgan dardli xo‘rsiniqdan og‘ir entikdi.

Bir muddat tek qoldilar. So‘ngra Bobur oraga cho‘kkan noxush sukunatni bir oz ko‘tarish niyatida tovushiga atay bardam tus berib:

— Qo‘ying, momo, ko‘p qayg‘urmang, — dedi. — Jannatmakon Amir Temur davri davronidagi ishlar xotiringizda bordir? O‘shal vaqtda ko‘rgan-bilganlaringizdan so‘ylang.

Kampirning bir burda za‘faron yuzi burishib, ajinlar g‘ujg‘on o‘ynadi.

— O-o, bo‘tam-a, biz ul paytlar yosh edik... Elas-elas xotirimda: Sohibqiron Temurbek zamonasida Malik Ubaydullo otliq bir xushsurat og‘am cherikka kirib edi. Naq qarchig‘ayday yigit edi. Ne vaqtgacha badgumon ketdi. Olti yildan so‘ng Hindistondami, allaqayda o‘libdi, degan xabari kelgan edi. O‘sha yili pushtipanoh Xoja Abdurasulning kichik inisi o‘g‘li bilan Suvqoqda ko‘chki bosib...

¹ K a p a n a k — jun chakmon.

Kimdir darvozani jon-jahdi bilan taq-tuq urdi, shu zumda momaqaldir oq gumburlab, atrof bir laha yorishib ketdi. Abdulkarim sapchib o'rnidan turdi-da, darvozaga qarab yugurdi.

— Kim?

— Oching! — degan keskin farmoyish yangradi.

Ustidagi engil-boshi ivib, badaniga chippa yopishib qolgan Ahmad Qosim bejo alanglab ichkari kirdi.

— Ne gap?

Ahmad Qosim ta'zim qildi:

— Gunohkor qulingizni afv eting, amirzodam... Falokat, falokat ro'y berdi... No'yon ko'kaltosh mastliqta jardan yiqilib...

Boburning borlig'i bir qalqib tushdi.

— Nima-nima?! Qachon? Qachon?... Nechun?! O'ldimi? Siz... siz qayda edingiz, axir?

Ahmad Qosim gunohkorona bosh egdi:

— Iqrorman, amirzodam, mendan ulug' xatoliq o'tdi. G'afolat bosib tunda bir uyda uxlab qolibman. Tonglasi shu xabarni yetkurdilar...

— Eh, bad amal¹ Mo'min! Eh, it emgan vahshzod! Samarqanddagi eski kiynani² hanuz saqlab erkan-da! — Bobur alamdan labini tishlab, ingrab yubordi... — Uh, mal'un!.. Jasad... jasadni ne qildingiz?

— Amirzodam, biz suhbat tutqon yerdan o'ttiz odim nari bir jarning ostida ko'kaltoshning o'ligini topdik. A'zoyi badan va boshqa ko'z tushar yerida hech bir shikast uchramadi. Tafsilini bilguvchi biror kimsa bo'lmay... Piskentda tufroqqa topshirib keldik... Buyuring, har ne jazoga mustahiqman...³

Yolg'iz o'rtangan yurakkina idrok qila oluvchi navha ko'ki⁴ vujudini zir titratgan Bobur unga g'amgin nazar tashladi. Bu olamda yagona sadoqatli do'sti, hamdami munisi yolg'iz bir

¹ Yovuz niyatli.

² K i y n a — gina, adovat.

³ M u s t a h i q — loyiq.

⁴ N a v h a k o' k i — motam kuyi.

shu ko'kaltosh edi. Taqdir uni ham ko'p ko'ribdi-da!.. O', qismat! Nahotki, sening Bobur Mirzoni mangu sinamoqdan bo'lak ermaging bo'lmasa!

U go'yo o'ziga o'zi so'zlagandek, allanechuk g'alati tovushda:

— Endi dardmanlig' behuda! — dedi sekin. — Avvalo, manglayi sho'r ekan... Makr qurboni bo'ldi, g'ofil qoldik... G'ofil...

Keyin yuz-ko'zini ayovsiz savalayotgan yomg'irga ham parvo qilmay, balchiq kechgancha shahd bilan yurib ketdi. Ahmad Qosim es-hushidan ayrilgandek, bir oz hayron bo'lib turdi-da, so'ng soya kabi izma-iz ergashdi. Bobur bo'tana suv toshib yotgan ariqdan o'tib, jar etagiga qarab yurdi. Shamoldan pana bir joyga muk tushib, muzdek ho'l toshga yuzini bosgan ko'yi uzoq jim qotdi. Ahmad Qosim sal narida nafasini yutib, xiliy vaqt sharpasiz turdi, nihoyat, xavotirlanib, yoniga keldi:

— Amirzodam, — dedi bo'g'iq ovozd.

Bobur Mirzo indamadi...

Yalt etib chaqnagan chaqmoq yorug'ida Ahmad Qosim uning titrayotgan yelkalarini ko'rdi-yu, botindan bo'zlab yig'layotganini angladi.

— Kun bemahal bo'lib ketdi, amirzodam...

Bobur boshini ko'tardi. Horg'in yuzini yomg'ir tomchilarimi, ko'z yoshimi... allanarsa yuvib tushar edi. O'ksik tovush bilan eshitilar-eshitilmas shivirladi:

— Kam kishining vafotidan muncha mutaassir bo'lib edim...

Uning zaif ovozini tevarak-atrofnii larzaga keltirib yangragan guldurak qahqahasi bosib ketdi.

* * *

Bobur necha vaqtlardan buyon qog'oz-dovotni yig'ishtirib qo'ygan, g'ashlik qoplab yotgan ko'ngliga nafaqat nazmi abyot, balki qil ham sig'mas edi.

Lekin hozir ich-ichidan to'liqinlanib kelayotgan shiddatli titroqni yengishga Bobur Mirzo qodir emasdi. Barmoqlar beixtiyor qalamga yugurdi, qulog'i ostida olis, juda olislardan

tanburning so‘ngan navosi yanglig‘ tiniq, hazin bir nola yangrab ketgandek bo‘ldi-da, Mirzoni bu g‘ira-shira dunyodan butkul sug‘urib, yiroq-yiroqlarga, shamsi tal‘atning munavvar nurlari bilan chulg‘angan ilohiy, sohir bir olamga olib ketdi. Oppoq qog‘oz betida to‘fonlarida uning joni pajmonini omonsiz qalqitgan g‘am-anduh dengizining asov mavjlari to‘lqin urib, namoyon bo‘la boshladi:

Bir kecha xotirim mushavvash edi,
Ko‘zda suv, ko‘nglum ichra otash edi...

Chirog‘poyadagi so‘nik sham o‘qtin-o‘qtin lip-lip soya tashlab qolar, bedapoyada chigirtkalar tinimsiz chirillar, kishanlab qo‘yilgan otlar goh-goh boshini ko‘tarib pishqirib qo‘yar, ammo xirgohda, oqiz shu‘la yorug‘ida bag‘rini qog‘ozga berib o‘tirgan o‘n to‘qqiz yashar, bodomqovoq navqiron yigit bularning birortasini na eshitar, na sezar, jismi jahoni xiyol titrab ravon yo‘rg‘alayotgan mo‘jazgina qalamda edi.

Ash‘or misralari bilan birga shoirning yuragida qaynab-toshgan achchiq-achchiq ko‘z yoshlari ham satrlarga quyilardi. Yonib tugayozgan shamning xira nurida buyuk insonning buyuk g‘ussasidan voqif bo‘lgan oq qog‘ozning tusi go‘yo yanada oqarib-bo‘zarib ketgandek...

Bobur ko‘ksini to‘ldirib beomon qiynagan hasratlarini to‘kib solmoqchidek, bor dunyoni unutib yozar, yozgan sayin qalbida sarrin bir yengillik sezar edi.

Goh bir qulni podshoh qilur,
Shohni banda goh-goh qilur.
Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.
Jonu ko‘nglida juz jaholat yo‘q,
Hech ishida aning adolat yo‘q.
Ne vafo qilg‘anini bilsa bo‘lur,
Ne jafosig‘a sabr qilsa bo‘lur...

... Xirgohning yaqinginasida ot betoqat kishnab, depsindi.
Allakim otdan sakrab tushdi-da, shitob bilan xirgohga qarab

yurdi. Qizil saxtiyon etigi, ko'k movut chakmoni va qosh-ko'zini to'rt enlik chang bosgan alpkelbat, qisiq ko'z G'ulda Qosimbek egilib ta'zim qildi:

— Toshkandin xabar, amirzodam!

Bobur Mirzo hamon o'sha taxlit qog'ozga qadalib o'ltirar edi — anglamadi. G'ulda Qosimbek ikkinchi bor takrorlaganida, hushi o'ziga kelib, shoshib unga tikildi:

— Ne gap?

— Amirzodam, Sulton Ahmad Tanbal O'ratepa ustiga kelmish. Bul kecha xon Toshkandin cherik otlandi...

Boburning ko'zlari chaqnab ketdi. Demak, hali butkul imkoniyat bitmagan ekan-da! Demak, hali noumid vasvasaga berilmaslik lozim ekan-da! Kim bilsin, ehtimol, xuddi shu safar unga uyqudagi baxtini uyg'otish nasib bo'lar? Nechun toleini yana bir bor sinab ko'rmasin?

Tuyqusdan tomirlariga qon kabi quyilib kelayotgan allaqanday g'ayritabiiy kuch-qudratni his qildi-da, yuragi entikib ketdi. U ildam kiyindi, beliga Samarqandda yasattirgan yassi qilichini taqarkan:

— Qani, yuring, G'ulda Qosimbek, — dedi favqulodda o'ktam tovush bilan. — Bor qo'shinni jamlang, mayli, xon ko'rsinlar. Agar... agar cherik bersalar!.. Burong'or va juvong'orni!... yasol yasaymiz!

Oldinma-keyin xirgohdan chiqdilar. Atrof suv quygandek jimjit. Bor tirik jonni mast sahar uyqusi taslim etgan, yulduzlar ham mudroq bosgandek xira miltillar, chigirtkalar charchab, nihoyat, tingan — oy botgan edi...

1977

NUQTA

Ikki haftadirki, Ograda bemorning hasratidek uzun, tinimsiz yomg'ir quyardi. Ikki haftadirki, fayzu shukuhini yo'qotgan Bog'i Nurafshonga darchadan mahzun boqib yotgan Zahiriddin Muhammad Bobur bu kun yostiqdan bosh ko'targan,

¹ Burong'or va juvong'or — qo'shinning o'ng va chap qanotlari.

tong sahardan Xilvatxonada yolg'iz o'tirgancha Kobulga — Humoyunga maktub bitmoqda.

O'tgan dushanba oqshomida Humoyunning elchilari — Bayonshayx Vays log'ariy bilan Bekkina degan navkar yigit xushxabar olib keldi. Bobur Mirzo bu o'ktam, sohibtadbir yigitlarni ilgaritdan — Samarqandda ekan chog'idan bilar, ularning omilkorligiyu ulug'yurakligiga ishongani vajhidan Humoyun qoshida xizmatga qoldirgan edi.

Elchilar keltirgan xabar, qaqroq qirg'oqqa urilgan dengiz to'lqinidek, orziqqan ko'ngliga quvonch berdi, biroq ular bilan bafurja so'ylashmoqqa ham qurbi yetmadi: mana, ikki haftadirki, vujudi isitma alangasida yonadi. Ayniqsa, sovuq tushgandan buyon dard yanada kuchaydi. Chap qulog'ida paydo bo'lgan, na hindi, na arab hakimlari davo topa olgan chidab bo'lmas bir og'riq ham kun sayin zo'rayib, mislsiz azob bera boshladi. Kuni kecha sartarosh bo'yniga lungi taqib, soch-soqolini taroshlayotganida, tillo gardishli ko'zguga termilgancha soqolidagi oq tolalarga nigohi tushdiyu ich-ichidan xo'rsiniq kelib, ko'zlarini bemajol yumdi. Shu ondayoq Alisherbekning hikmat to'la, dard to'la bayti iqror tig'i bilan yuragini tilib o'tdi:

Soqol oqi o'limga peshrovdur,
Tiriklik sabzasi uzra qirovdur.

Tiriklik sabzasi!.. Ha, uning ham umr ko'klami fasli xazonga yuz tutib, sarg'aygan yaproq yanglig' to'kilib borayotir. Padari buzurgvori Umarshayx Mirzo o'ttiz to'qqiz yoshida qazo topgan edi. U esa, qiblagohi yoshini allaqachon yashab bo'ldi, tangri umr bersa, shu qish qirq besh yoshni to'ldirur. Biroq taqdiri azalda shohlarga umr vafo qilgan emas, g'anim xanjaridan ming bir tadbir ila jon saqlaganlarida ham, ajal shamshirining nogahoniy zarbidan qutulmoqlari mahol.

Bobur Mirzo muttasil jangu jadal ichra qo'rqinchli tushdek kechgan umri poyoniga qarab borayotganini dil-dilidan anglar edi. O'lim vahmi endi yuragiga qutqu solmasdi, nadomat tuyg'usi ko'nglini o'rtamasdi, zero, goho qirq besh lahzadek,

goh esa qirq besh asrdek tuyulgan qirq besh yillik hayotida u achchiq qismat mayini bearmon sipqardi, dunyo kezib dunyo orttirdi, ko'p yaxshi-yomonni boshidan o'tkardi, tiriklik laz-zati qanchalar totli bo'lmasin, olamdagi har bir narsa kabi uning-da mangu emasligiga iqror bo'ldi: faqat, qilgan ishlaridan qilib ulgurmagan, ammo nihoyaga yetkazishi shart bo'lgan yumushlari hali ko'p ekanini bilar, shu bois, qaytmas bo'lib ketayotgan har bir daqiqa, har bir soniyani unsiz faryod bilan kuzatar edi.

U kumush suvi yuritilgan ju'z qatidan Humoyunning maktubini olib, qayta ko'zdan kechira boshladi. Bir zumdan so'ng taassuf ila bosh chayqadi: Humoyun nechog'li shavkatli podshoh bo'lmasin, harbu zarb ishida nechog'li porloq zafarlar qozongan bahodir bo'lmasin, hatto, mana, zuryod ko'rgan baxtiyor ota bo'lmasin, hali naqadar sabiy! Yigirma yoshda ham hanuz sabiy ekaniga ushbu nomasi yaqqol dalolat: boshdan-oyoq takalluf bilan yo'g'ribdi, dabdabadan xoli biror jumlanı chiroq yoqib ham topmoq mushkul: «Qulluq arzadosht ulkim... va sultoni salotin qiblagohimizning muruvvat va hamiyat quyoshi... shamsi tal'at Hut burjida edikim, abri nayson parishon bo'lib edi...»

Bobur Mirzo maktubga xomush tikilib qoldi. Humoyunni bir qarich chog'idan mudom yonida olib yurdi, o'zi bilgan va bilmagan jamiki ilmu hunarga, fayzu fazilatga o'rgatdi, tangri inoyati birla, inshoolloh, komil bo'ldi, deb xayol qildi, biroq, ming afsuski, bari bir nimadir xotiridan faromush bo'libdi. Axir, mamlakatdorlik minnatini bo'yniga olgan kishining xat biturda chuchmal va mug'laq alfoz bilan ish tutmog'i ulug' aybdir. Ammo ayb yolg'iz Humoyundami? Rasmiy devonning barcha nomalariyu farmoyishlari, bepoyon saltanatning to'rt tarafidan har kuni kelib turguvchi turfa maktublar, shikva-shikoyatlar, arizalarning jami ana shu yanglig' zebu jilo ila to'lib-toshgan. Ularni to ko'zdan kechirib chiqquniga qadar yuraklari xun bo'lib ketadi, biroq har biriga munosib javob qilmoq uchun boshdan-oyoq o'qib bitirmoq kerak, o'qib bitirmoq uchun sabr-toqat kerak, shu sabab yaratgandan sabru toqat tilashdan o'zga chora yo'q. Sovun ko'pigidek omonat, puch so'zlar bilan oq qog'ozni qora

qilmoq oriflar uchun fazilat emas. Taassufkim, buni juda oz kimsa anglaydi, anglagan mardumning ham aksari bu andisha ko'chasidan nari yurmoqni afzal biladi.

Asta xo'rsinib, qalam-dovotga qo'l cho'zarkan, xayolidan g'arib bir fikr kechdi: javobni shundoq mulohaza birlan bitmoq kerakkim, toki ham Humoyunning ko'ngli ozor topmasin, ham agar anglab yetsa, bu xat unga bir umrlik saboq bo'lsin!..

«Humoyunga mushtoqliklar bila sog'inib salom degach, so'z ulkim, dushanba kuni rabbi ul-avval oyining o'nida Bekkina bilan Bayonshayx keldilar, — deya boshladi u maktubini. — Xatlardin va arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holot mushaxxas va ma'lum bo'ldi...»

Birdaniga o'zining nabiralik bo'lganini, endi bundan buyon bobo ekanini eslab, isitma changalidagi bemador vujudiga orom yugurdi: Humoyun Yodgor tag'oyining qizidan o'g'il ko'ribdi... Ko'nglida ajib bir qanoat va qudrat tuydi. Shu shodumonlik ta'sirida misralar biri ikkinchisini inoq yetaklab keldi:

«Shukur, bermish sanga haq farzande,
Sanga farzandu manga dilbande...»

Beixtiyor o'zining ana shunday saodatli onlari, Humoyun tug'ilganda qalbini to'ldirgan iftixor tuyg'ulari yodiga tushdi. O'g'li Kobul arkida tavallud topgan edi. Viloyat yo'q, viloyat umidvorligi yo'q, navkar parokanda, sargardon sarg'ayib, Samarqand qamalida ochlikdan it etini, eshak etini yegan miskinlar bilan dahshatli uqubatlar chekib, Toshkand va Andijonda mislsiz mashaqqat va xorliklar tortib, nihoyat, Kobulda bir muddat qo'nim va osoyish topgan kunlari edi, shikasta ko'nglini quvonchga to'ldirib Humoyun dunyoga keldi. Shu vaqtgacha Temurbekning saltanat sohibi bo'lgan barcha avlodini «Mirzo», der edilar, o'sha yili u o'zini bundan buyon «Podshoh», deb atashlarini amr etdi. Mavlono Sayidiy shoir valodat tarixini «Sulton Humoyunxon» topib edi, bu nom o'ziga ham, ichkilarga ham ma'qul tushib, uch-to'rt kundan so'ng go'dak Muhammad Humoyun ismi bilan elga ma'lum bo'ldi.

Otalikning farzi ayni — farzandga munosib ism qo‘ymoq, deydi. U hamisha baqadri imkon bunga intildi; ikkinchi o‘g‘li tug‘ilganda unga umrlik baxt tilab, Komron nomini berdi; uchinchi o‘g‘il dunyoga kelganida unga askarlik shijoatini tiladi — Mirzo Askariy deb bag‘riga bosdi; Hindni olganida haq taolo to‘rtinchi o‘g‘ilni ato etdi — shavkatli kunlarimdan yodgor deb Hindol ism qo‘ydi; tangri bir onadan uch qizni unga karomat qildi — gul bargi monand nozik zebolarga chaman gullarining xush ismlarini ravo ko‘rdi — Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Gulbadanbegim deb suydi. Mana endi, yaratgan unga nabira quvonchini baxsh etibdi...

«Tengri taolo mundoq sevinchlarni manga va sanga hamisha ro‘zi qilg‘ay, omin yo rabbal olamin, — deya davom etdi u. — Otini Al‘amon qo‘ymishsen. Tengri muborak qilg‘ay. Vale bovujudkim, o‘zung bitibsen, mundin g‘ofil bo‘lubsenkim, kasrati isti‘mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o‘zga mundoq aliflom otta kam bo‘lur...»

U barqut bolishga horg‘in suyangan ko‘yi asta o‘yga toldi. Bu go‘dakning manglayiga kotibi qudrat nelarni yozdi ekan? Saltanat dag‘dag‘asinimi, sarkardalik shavkatinimi, allomalik rutbasinimi, shoirlik qismatinimi? Tangri tanglayini qandoq fazlu karamlar bilan ko‘tardi ekan? Istiqboli yorug‘mikan, qorong‘i? Zero, shohlar inon-ixtiyori o‘zida deguvchilar adashur. Bu olamda shohu shahzodalar mudom o‘zgalarga — o‘zlaridan qudratliroq hukmdorga, ularning qosh-qovog‘iga qaram. Shu vajhdankim, taxt tegrasida bobolaru otalar, otalaru bolalar aksar qirpichoq. Axir, Sulton Mirzo Ulug‘bekdek fozili zamonning noraso farzandi Abdullatif shu besh kunlik o‘tar dunyo uchun shundoq qari va donishmand otasini qatl etdi; Sulton Husayn Mirzodek sohibtajriba, ish ko‘rgan ulug‘ podshoh keksaygan chog‘ida norasida nabirasi Mo‘min Mirzoning begunoh qoniga qo‘lini botirdi! Axir, padarkush Abdullatif dunyoga kelganida, Mirzo Ulug‘bek ham xuddi uning yanglig‘, olamdagi o‘g‘il ko‘rgan barcha orzumand otalar yanglig‘ boshi ko‘kka yetgan bo‘lsa, ne ajab! Evoh, kim bilsin, ko‘kka yetgan shu aziz va mo‘tabar boshini beshikda beozor tamshanib yotgan shu go‘dak bir kun kelib sapchaday uzdirib tashlashini bilganida... Yoinkim, Sulton Husayn

Mirzo Mo‘min Mirzoning tavalludidan xabar topganida ozmuncha sevingan, chog‘ir bazmi uchun yana bir bahona topilganiga ozmuncha quvonganmikan? Oqibat esa... Yo rab, ana shundoq ko‘rgiliklardan o‘zing asra!

«Tengri otini va zotini farxunda va muborak qilg‘ay, manga va sanga ko‘p yillar va bisyor qarnlar Al‘amonni davlat va saodat bila tuta bergay...»

Humoyun davlat ishlariga daxldor bir necha mulo-hazalarni bayon qilib, kengash tilagan edi. Maktubning ayni o‘rinlariga bo‘lakcha zehn solib angladiki, valiahdi ko‘pdan buyon uning dilidagi o‘tli armon — Samarqandu Andijon orzusini amalga oshirmoq taraddudida. Biroq Humoyun bu muqaddas armon uning dilida yongan faryod ekanini bilarmikan? Humoyun uchun bu bir jangovarlik havasi, hukmdorlik sha‘ni yo‘lidagi jozib bir orzugina emasmikan? Axir, o‘zi necha bor chog‘landi, yillab qulay fursat kutdi, fursat yetganda esa... jur‘at kutdi, ammo jur‘at etmadi — kindik qoni tomgan yurtlarni, endi eslagan chog‘ yuraklari tutdek to‘kilib ketadigan jannatmonand viloyatlarni qon bilan sug‘oradimi? Ota-bobolari mozorini fil tuyog‘i ostida toptaydimi? Bundan ne topadi — shon-shavkatu farog‘atmi? Murod topdim deya aldanib, xalqlar yodida sazovori la‘nat bo‘lib eslanmaydimi? Yoq, bundog‘ qaltis tavakkal uning ilgidan kelmas. Biroq, ayni navqiron chog‘ida ko‘ksi jangu jadal nash‘asi, zafar ishtiyoqi bilan to‘lib-toshgan bahodir valiahdining shijoatini qaytarmoq ham aqldan bo‘lmas. Kim bilsin, balki otaga muyassar bo‘lmagan saodat farzandga nasib etar?

«Yana Komrong‘a, Kobuldagi beklarga farmon bo‘l-dikim, — deya bir muddat o‘ylanib davom etdi u, — borib, sanga qo‘shilib, Hisor yo Samarqand, yo har sorig‘akim, salohi davlat bo‘lsa, yurugaysiz. Tengrining inoyati bila yog‘iylarni bosib, viloyatlarni olib, do‘stlarni shod, dush-manlarni nigunsor qilg‘aysiz, inshoollohu taolo. Sizlarning jon tortib, qilich chopmoq mahallaringizdur... Agar tengri inoyati bila Balx va Hisor viloyati muyassar va musaxxar bo‘lsa, Hisorda sening kishing bo‘lsun, Balxda Komronning kishisi bo‘lsun. Agar tengri inoyati bila Samarqand ham musaxxar

bo'lsa, — uning vujudi banogoh zirqirab ketdi, — Samarqandta sen o'lturg'il...»

Oh, qani endi, o'sha saodatli kunlarga yetib bo'larmikan? Asli, unda tole yoq ekan, tole yo'qligi joniga balo bo'ldi...

Vatandan ayri tushganiga yarasha, ishqilib, farzandlari mehr-muruvvatli, andishali, saxovatpesha bo'lsinlar. Shukr, shu kungacha o'rtalaridan oqibat ko'tarilmadi, ammo undan so'ng bu og'aliq-inilik shu yo'sin davom etarmikan? Yoxud Sulton Husayn Mirzoning uch nafaridan bo'lak jami valad-duzzino o'n to'rt o'g'li singari, farzandlari birining ko'ziga biri cho'p suqarmikan? Harne, orada mulkgirlik ta'masi bor, baloi nafs talvasasiyu shaytoni alayhila'na vasvasasi bor!.. Axir, o'zi bu borada ozmuncha sitam tortdimi? Ota bir Jahongir Mirzo otlig' inisi bor edi, boisi mulkgirlik, u bilan ne kuduratu nifoqlarga bormadi! Mudom ko'ziga cho'p solmoqqa intildi. Shayboniyxon changalidan bazo'r qutulib, dili vayron, ota yurti Andijonga panohtortib borganida, inisi shahar darvozalarini uning yuziga taqa-taq yopdi. Yo'q, donolar bu ajib forsiy masalni behuda aytmaganlar: «Dah darvesh dar gilame bixusband, du podshoh dar iqlime nagunjand!»¹ Humoyunga shuni uqtirmoq kerakkim, inilari bilan hamisha bahamjihat maosh qilg'ay, chunki ulug'lardan doimo ko'tarimlik, kengfe'llik lozim.

«Yana sendin ozroq ginam bor, — deya xat boshidan yozdi u, — bu ikki-uch yildan beri bir kishing kelmadi. Men yiborgan kishi ham rost bir yildin so'ngra keldi. Mundoq bo'lurmi?»

Shu payt chap qulog'ida kuchli bir og'riq qo'zg'alib, boshi qattiq zirqiradi, ikki chakkasiga burov solingandek, a'zoyi badani junbushga keldi. Qalam tutgan qo'li titragancha yana bolishga behol yonboshladi.

Tabiblar davo topa olmay hayron yurgan, qulog'idagi bu dard boisi ne ekani o'ziga yaxshi ayon. Mundan yigirma yil muqaddam, Ko'tali Zarrinda misli ko'rilmagan qor bo'roniga duchor bo'ldi. Sulton peshoyi otlig' kekxa yo'l boshlovchi sovuqdan gangibmi yo azbaroyi qarilikmi, yo'lni yo'qotdi.

¹ O'n darvesh bir gilamga sig'adi, ammo ikki podshoh bir iqlimga sig'maydi.

Kechga borib qor behad zabtiga oldi. Qosimbekning zo'ri bilan yaqinroq deb shu yo'ldan yurilgan edi, oriyatmand odam, nomusga tushib, ikki o'g'lini yoniga olib, qor kechib yo'l ochgancha olg'a boshladi. Laylakqor lahza sayin tobora kuchayar, dovon uzra uv tortgan izg'irin esa yuz-ko'zga, qo'l-oyoqlarga yuzlarcha, minglarcha chayonlarni keltirib urayotgandek bo'lar edi. Havoli Kutiy degan bir joyga yetganda ortiq toqat qilib bo'lmay qoldi, shunda tunamoqqa qaror berildi. Kim ot ustida, kim qor-toshdan baholi qudrat panoh yasab boshini tortgan, kim iztiroblar bilan ko'zda yoshi shashqator... U qo'lga kurak olib, g'or yaqiniga muk tushdi, ikki quloch chamasi yerning qorini kuray boshladi. Tizzagacha, beligacha, ko'ksigacha kuradi — hanuz yer ko'rinmas edi. Qor uyumidan hosil bo'lgan chuqurga tushib, boshini ichikari tortib o'tirdi. Olam-jahonni butkul yakson qilmoq qasdida quturib esayotgan izg'iridan xiyla pana bo'ldi, o'lim vahmi nari chekingandek tuyuldi. Tishini tishiga zo'r berib bosgan ko'yi, dilda alam saratoni, jismu jonida qish qahratoni, ko'nglidek qop-qorong'i osmonga tikilgancha qimir etmay o'tiraverdi. Allazamon o'tib, beklardan ikki-uch kishi keldi, g'orga boring, harna, jon saqlasa bo'lur, dedilar. U keskin bosh chayqadi. Axir, qaysi yuz bilan borsin? Barcha navkarlar bunda — bo'ron changalida titrab-qaqshab o'tirsa-yu, u issiq g'orda, farog'at og'ushida mudrasa!.. Yo'q, bu muruvvat lafziga xilof, hamjihatlik rasmiga yot ish bo'ladi, u ham ne mashaqqat bo'lsa, barcha qatori bardosh berur, agar vaqti qazosi yetgan bo'lsa, ko'pchilik bilan jon taslim qilur! Shu ko'yi chohga tushgandek joyidan qimirlamay o'tiraverdi. Qor kuchaygandan-kuchaydi, namozi xufton bo'lganda, yelkasini, boshiyu quloqlari ustini to'rt enlik qor bosgan edi. Qulog'iga ne balo tekkan bo'lsa, o'shanda tekkan. Yana bir daf'a, xuddi shu singari ayozli kun edi, daryo labiga yetganda cherik bir seskandi; u otdan ildam tushib sohilga bordi, muzni teshib, o'n olti bor sho'ng'idi...

Ha, charxning u ko'rmagan jabru jafosi qoldimi?!

U chap qulog'iga kaftini bosgancha, bir muddat kutdi. Og'riq xiyol pasaygandek tuyulgach, yana Humoyunning maktubi uzra egildi. Bu ne sinoatkim, xatda yolg'izlik, yolg'izlik azobi xususida bir necha hasratomuz so'zlar bitilgan edi. Bobur

hayron qoldi: yigirma yashar navqiron juvonmardning dilida bunchalar nola-nadomat? Taajjub bilan bosh chayqadi. Xah, bolam, dedi xayolan, sening yoshingda men ham hali yolg'izlik balosi neligini bilmasdim, ammo uning iztirobi ila chulg'anmoqni xush ko'rar edim!..

U shiftga tikilib, fikrini jamlab oldi-da, shitob bilan yoza ketdi:

«Yana xatrlaringda yolg'uzlik, yolg'uzlikkim, debsen, podshohlikta aybdur, nechukkim debturlar:

Agar poy bandi rizo pesh gir
Va gar yaksuvori sari xesh gir¹.

Hech qayda podshohlik qaydicha yo'qtur. Podshohlik bila yolg'uzlik rost kelmas...»

Chindan ham, jahongirlik havosi bilan yolg'uzlik havasi rost kelganini shu paytgacha kim ko'ribdi? Yolg'uzlik istagan kishi zinhor-bazinhor toju taxt minnatini bo'yniga olmasin. Yo bo'yniga kashkul osib qalandarlik yo'lini tutsin, yoxud zohidlik tariqatini ixtiyor etsin. Aslida, yolg'uzlik ne ekanini sen qaydan bilursan, bolam? Sen dunyoga kelib ne ranju alamlar tortdingki, dilingni bundog' sitamlar o'rtaydi? O'n ikki yoshda suyukli padaringdan yetim qoldingmi? Otangning tuprog'i sovimasdan, hali ko'zingning yoshi qurimasdan sag'ir boshingga toj kiydirdilarmi? Beg'ubor bolalik damlaring, pokiza o'smir chog'laring qonu qatron ichida, dudu chopqin ichida bargi xazondek chirpirak bo'lib ketdimi? G'addor raqib o'z qiliching bilan boshingni chopdimi? Tug'ishgan jigarlaring betingga tuflab, g'animga qo'shilib yurtindan mosuvo etdimi? Mangu judo bo'lgan ona yurtind dardi yuragingni ezdimi? O'zga viloyatlar, o'zga ellar nafrati birla tavqi la'natga sazovor, sargardon tentiradingmi? Qirchillama yoshingda malika Bayda senga zahar tutdimi?

¹ Agar oyog'ing band bo'lsa, rizoni oldinga qo'y, agar tanho suvori bo'lsa, o'z boshingcha bor, ya'ni jahonga bog'langan bo'lsang, boshingga kelgan har narsaga rozi bo'l, agar hech narsaga bog'lanmagan kishi bo'lsang, yo'lingdan qolma, keta ber.

Umrining gul ochgan ko'klam fasli g'aflat bilan chog'ir dengizi ichra g'arq bo'lib ketdimi? Nega buncha nola chekasan, o'g'lim Muhammad Humoyun podshoh? Bu cheksiz iztiroblar boisi ne?

Va shu ondayoq bu hadsiz-hisobsiz savollarga javob topgandek bo'ldi: iztiroblar boisi — tiriklikda, insonlikda. Faqat tirik odamgina iztirob chekmoqqa, iztiroblar ichra tobora tozarib, yuksalib, hayotning jamiki mashaqqatlarini yengib bormoqqa qodir. Dunyodagi hatto eng ulug' o'lik ham iztirob chekmoqdan mahrum, zero, insoniy iztirob — tiriklik nishonasi, barhayot diyonat ovozidir. Demak, mehnatu tarbiyatlari zoye ketmabdi — Humoyun tegrasiga boqar ekan, yuragi dardga to'ladi, dard uni bezovta xayol bilan qadamini taftish etadi. Demak, uning ko'ksida vijdoni uyg'oq, adlu insofi tirik. Balli, o'g'lim, deb shivirladi u, barakalla, bahodirim!.. Ammo shu zahoti ko'nglini muzlatib xavotir tuyg'usi bostirib keldi: bu yumshoqfe'llik bilan Humoyunning mamlakatdorlik qilmog'i qiyin, benihoyat qiyin!

Dili muztar bo'lib, o'g'lining maktubidan bir taskin-tasalli qidirdi. Humoyun xushxat edi, lekin maktubning ba'zi o'rinlarini qiynalib, tasmollab ma'nosini chaqdi.

«Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding, — deya tashvish bilan yoza boshladi u. — O'qiyolmagan-din so'ng, albatta tag'yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'latur, vale asru mug'laqtur. Nasri muammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni 6 bila bitibsen. Qulunjni «yo» bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qisa bo'latur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda qohilliging ham ushbu jihattandur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'latur. Bundan nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'uchig'a...»

Maktub shu yerga yetganda u to'xtab qoldi, chunki ayb faqat Humoyunda emasligini yaxshi bilar edi. Ko'p bo'ldi, u muqim bir qarorga kelgan: arabi imlo turkigo'y el uchun bag'oyat nomuvofiq. Arab o'z alifbosini o'z lisoni tiynatiga

monand joriy etgandir. Bu dunyoda arabi imlodek mashaqqatli imlo hech qayda ko'rilgan emas. Ulug' bir aybi budurki, har bir harf, go'yo munofiq kimsa kabi, to'rt o'rinda to'rt xil shakl ila tovlanib keladi, bir yerda zikr etgan ma'nosi o'zga yerda rost kelmay, kishini ishtibohga soladi. Axir, turkigo'y elning ham o'z so'zlar yo'sini, talaffuzda o'z tariqi, zarofat bobida o'z yo'rig'i bor. Taassufki, ularning bari arabi imloda to'kis mujassam topmog'i mahol. Xususan, zeru zabar degan chalkash unsurlari borkim, kishining zehniga kishandir, hatto uni bir nav egallamoq uchun ham chorak umr sarf bo'lg'usidir. Yodida, o'zi ham bir gal g'alat nuqta tufayli, bir badbaxt kimsa tufayli xo'b jafu chekkan — qariyb jon taslim qilayozgan.

Ulug' jang arafasi edi. Yangibek otlig' ishongan mardona begi xat yo'llab ma'lum qildikim, Sherg'oridan maxfiy yo'l bordir, yog'iy ustiga qo'qqis bostirib borsa bo'lur. Tonglasi farmon berib, Sherg'ori sari yurildi. Borib, dushmanning mo'r-malaxday lashkariga duch keldi, o'lgan o'lib, qochgan qolib, zo'r talafot bilan arang qutuldi. Darg'azab yonib, Yangibekni chorlab qasdi basdiga oldilar. U tangri taoloni shohid keltirib qasamyod qildiki, Sherg'oridagi yo'lni o'z ko'zi bilan ko'rgan edi, kechgacha shunda hayrona kutgan, bir kimsadan darak bo'lmagan. Xatni qayta tahqiq qilib ko'rdilar. «Sherg'ori»da bir nuqta g'alat bo'lgan ekan, Yangibek, azbaroyi zehni sustligidanmi, fikri tanballigidanmi, harchandi e'tibor bermagan ekan, badxatligi tufayli badbaxt bo'lib ketishiga bir bahya qoldi... Arabi imlo joriy etilganiga ne zamonlar bo'libdur, biroq, taajjub, nahot shu paytga qadar turkiy tilda so'z aytgan ne ulug' allomalar, buyuk jahongiru mulkgirlar uning nomavzunligini anglamagan bo'lsalar? Anglagandirlar-u, ammo nozik bir andisha ularning jur'atiga g'ov bo'lgan esa ehtimol. Hech kimsa yurak yutib oshkora izhori arz etolmagan, boisi, Qur'oni sharif ayni imlo birla mazkur bo'lgandir. Ollohning kalomi bitilgan imloni isloh qilmoqqa da'vat etgali qay bahodirning yuragi dov bersin? Lekin nafaqat arab, balki tuman-tuman turkigo'y el ham anga sodiq bandadir, bas, ular ham yaratganga hamdu sano bitmoq uchun avvalo pok bir alfozga ega bo'lmoqlari farzdir.

Buni anglab yetmoq uchun g'afolat va jaholatdan ko'zni bir oz ochmoq kifoya, xolos. Demakkim, shu nuqtai nazardan isloh tabiiy bir ehtiyojdirki, turkigo'y elning bor suxan va lafzi unda e'tiborga olinsin. Eng avvalo, zeru zabardan voz kechmoq darkor, aql ko'zini tindirguvchi barcha nuqtalarni bartaraf etmoq kerak. Harflarning turlik-turlik munofiq maqomiga chek qo'ymoq lozim, toki imloning qat'iy, barqaror bir shakli ta'min bo'lsin. Ana shunda imlo ajab bir soddalik kasb etadi, jami mavhumliklar tugatiladi. Faqat bunga bir jur'at kerak, xolos!

U bunga jur'at qildi — yangi bir imlo tuzdi. O'zi yaratgan loyihani ko'p allomayu fozillar hukmiga havola etarkan, uning ne bir afzalliklarini kuyib-kuyunib uqtirdi.

Taassufki, har qayda so'zlarini jimgina ma'qullab eshitardilar-u, somiyalar yuzidagi tashvish ko'lankasi siyratdagi xavotirni fosh qilib turar edi. Shu tariqa «Xatti Boburiy» jiddiy bir rag'bat ko'rmadi. Ammo u ortga qaytmadi. Qasdma-qasd yana bir tavakkal qildi: eng xushxat kotiblarga Qur'oni sharifni «Xatti Boburiy»da ko'chirtirib, kitobat qildirdi-da, Makkai mukarramaga yubordi!.. Oqibat shu bo'ldiki, bir kuni bag'oyat mo'tabar ulamoyu kiromlar salobat va salmoq bilan huzuriga tashrif buyurdilar, zohiran ehtirom saqlagan, biroq botinan jiddiy tahluka ohangi ayon bir tarzda uni «ba'zi nomunosib harakatlardan ogoh bo'lmoqqa» da'vat etdilar. Zero, Olloh bir, Rasul barhaq ekan, u — Tangrining o'jiz bandasi Zahiriddin Muhammad ham buni aztahidil e'tirof etar ekan, Kalomullohning imlosi ham yagona va sobit ekaniga imon keltirmog'i lozim. Bunga ishtiboh qilgan zoti kimsaning e'tiqodi ishtiboh ostida qolishi hammadan avval uning o'ziga ma'lumdir.

Ulamoi zamonlarning og'ir, vazmin so'zlariga jimgina quloq osdi, alam bilan lablarini qimtidi: orzu qilgan narsasi imkon sarhadidan naridagi sarob bo'lib chiqqanini qayg'u ila tan oldi. Zotan, qarshisida saf tortgan minglab lashkarga nechog' salohiyatli bo'lmasin, yolg'iz sarkardaning qarshi bormog'i aqlga zid, mag'lubiyati muqarrar bir hol edi. Agarchi, birda-ikkida keskin qarshi borib, hukmini o'tkazgan bo'lsa-da, bu gal chekinmoqdan o'zga chora qolmadi... Ularning so'zlarini

tinglay turib, Muhammad Sharif munajjimning kirdikorlarini esladi. O'ziga xiliy bino qo'ygan bu zot yulduzlarga qarab karomat qilar, biroq bashoratlari mudom ters chiqar edi. Shu vajhdan keyin-keyin uni xushlamay qo'ydi. U ham azbaroyi hayiqqanidan, uning ko'ziga ko'rinmaslikka tirishar edi. Bu shumnafas munajjim, hukmdorga aytish imkonidan mahrum, duch kelgan kimsani chetga tortib, vahima bilan shivirlar ekan: go'yo bu oqshom Mirrix g'arb sari oqqan emish, kimki shu tarafdin urushsa, albatta mag'lub bo'lar emish. Uning gaplari parishon navkarlar ko'nglini battar sindirar edi. Oqibat, shumnafasligini qo'ymagach, dargohidan quvib solmoqqa majbur bo'ldi. Ammo, afsuski, huzuridagi bu kishilar Muhammad Sharif munajjim emas — har birining etagida yuz minglab mo'min namoz o'qimoqqa hozir mo'tabar shariatpeshalar! Muhammad Sharif kabi ularni haydab solmoq esa oqil kishining ishi bo'lmagay. Beixtiyor bundan besh-olti yil muqaddam, G'azni kentlarida ro'y bergan voqea yodiga tushdi. Bir safar G'azni kentlaridan birida g'alati mozor xususida allanechuk mishmishlar qulog'iga yetdi. Go'yoki, salovat aytilsa, qabr tebranur emish. O'zi borib, uzoq razm soldi, qabr tebrangandek ko'rindi. O'sha yerda o'tirib, bir oz mulohaza qildi. Ma'lum bo'ldiki, mujovirlar qabr tepasiga bir halqa yasabdirlar, har zamonda sezdirmay halqani qimirlatib qo'yar ekanlar. Halqa tebrangach, qabr tebrangandek ko'rinar ekan — umrida kemaga tushmagan odam, kemaga kirgach, xuddi qirg'oq tebrangandek tuyulgani singari. Shu fikrga kelib, mujovirlarga halqadan nariroq turib salovat aytishlarini buyurdi. Harchand zo'r berib salovat aytdilar, biroq qabrda hech qanday harakat sezilmadi. Kulimsirab, iziga qaytarkan, halqani buzib tashlab, qabr ustiga gumbaz barpo qilishni, mujovirlarning minba'd bunday riyokorlik ila mashg'ul bo'lmasliklarini qattiq amr etdi. Ha, ammo ular sayoq mujovirlar edi, ularga kuchi yetardi, biroq huzurida savlat to'kib o'tirgan bu ahli ulamoga!..

Shu tariqa «Xatti Boburiy» amalga oshmay qolib ketdi. Keyin ham bu xususda necha bor so'z qo'zg'alganda, eng yaqin kishilaridan ham xayrixohlik o'rniga taajjub va norizolik

zohir bo'ldi. Lekin imoni komilki, qachondir vaqti-soati yetib, turkigo'y elning fozil farzandlari arabi imloning islohi muqarrar ekanini anglab yetadilar, shunda «Xatti Boburiy»ni ham afsus bilan eslaydilar!.. Bas, shunday ekan, Humoyundan ranjimog'i bekor. Yaxshisi, «Xatti Boburiy»ning sarxatini unga, Komron Mirzoga, Xoja Kalonga bir nusxadan kitobat qildirib yuborgani ma'qul, qachonki zarurat bo'lganda asqotg'u-sidir.

U xayollariga chek qo'ygandek, maktubini xotimalashga kirishdi. Xat so'ngida ko'ngli Humoyunga ikki-uch og'iz nasi-hatomuz so'zlar bitmoqni tiladi:

«Yana ulug' ish ustiga borasen, ish ko'rgan, ra'y va tadbirliq beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilg'aysen.

Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishinliqni va el bila kam ixtilohliqni bartaraf qilg'il. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyorlarig'a qo'ymay, qoshingga chorlab, har maslahat bo'lsa kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila har so'zunga qaror bergaysen...»

U Movarounnahr yurishida farzandlariga nechog' zafar va nusrat tilamasin, dilining bir burchida andak shubha ham pinhon edi. Shu bois ko'ngli tubiga vasiyatdek tugib qo'yan bir niyatdan Humoyunni hozirdanoq voqif qilib qo'ymoqni lozim topdi:

«Yana muncha fath va zafarlar Kobulda ekanda bo'ldi, Kobulni shugun tutubturmen, ani xolisa qildim. Hech qaysingiz ta'ma qilmag'aysiz».

Birdan vujudi titrab ketdi: Kobul uning uchun diyori o'rniga diyor, vatani o'rniga vatan bo'ldi. Agar taqdirida ona yurtga qaytmoq nasib etmagan bo'lsa, xokini Kobulga, o'zi barpo ettirgan so'lim bog'lardan biriga qo'ymoqni vasiyat qiladi, toki jazirama, mayin tuproqda mangu farog'at og'ushida yotarkan, daryoning u betidan esgan xush nasimlar qabri uzra yurt nafasini ufurib tursin!..

Behad mutaassir bo'lib, so'nggi jumlaning shiddat bilan qog'oz uzra chekdi:

«Cherikni yaxshi yig'ib yurgaysen. Og'iz so'zlaridin Bayonshayx sohibi vuqufdir, ma'lum bo'lg'usidir, deb

mushtoqliklar bila salom. Panjshanba kuni rabbi ul-avval oyi-ning o'n uchida bitildi».

Bobur shunday deb xatga nuqta qo'ydi.


* * *

Biz ham shu o'rinda hikoyaga nuqta qo'ysak bo'lar. Ammo hikoyaga sig'may qolgan ikki og'iz mulohaza borki, muhtaram kitobxon buning uchun bizni aybsitmas.

Boburdek zakiy zotning bir nuqta tufayli bu qadar iztirob chekkani bejiz emas edi — hayot buni isbotladi: taqdirning g'alati o'yinini qarangki, Bobur vafotidan keyin ham zeru zabar jabrini tortadi — uzoq yillar mobaynida nomi «Bobir» deya yozib kelinadi. Faqat, uning besh yuz yillik to'yi arafasida nuqtadon bir olim «Bobir emas, Bobur!» deya na'ra tortib chiqadiyu bu boradagi «g'alati mashhur» bartaraf etiladi.

Bir nuqtaning tarixi, qadri va mavqei ana shunday.

Tamom. Nuqta.



ESSELAR:

BOBURNING TUSHLARI

Bu muazzam asarning har bir satri haqida bittadan hikoya yozish mumkin.

Chunki ulug' insoniy tajriba va beqiyos insoniy fazilatlar ila yo'g'rilgan kitobdir. Chunki bu nodir dardonaning yaratguvchisi, sohibi fazilat, sohibi hikmat bo'lgan mumtoz bir kishidir. Jahon tarixi uning singari zakovatli va shijoatli zotlarni kam ko'rgan.

Shurbois ham «Boburnoma»ni kitobat qilgan kitoblardan biri kitob nihoyasida asar muallifini ta'riflab: «Va fazilat bobida kamligi yo'q erdi», deya ta'kidlaydi.

Bu so'zlarda muholaga yo'q rayni haqiqatdir.

Bunga ishonch hosil qilmoq uchun «Boburnoma»ni ko'ngil ko'zi bilan yana bir katta mutolaa qilish kifoya:

Mutolaa so'ngida esa odamning xayoli osmon qadar yuksalib, itasavvuri benihoya ravshani tortib ketishi ta'biydir.

Men bugun shunday holatdaman:

Bobur va «Boburnoma» haqidagi ba'zi qaydlarimda bu asarni Ibrat kitobi, Mardona kitobi, Donishmandlik kitobi deya atagan edim. Navbatdagi mutolaadan keyin bu muhtasham asar sahifalarida buyuk bir sir, insonni loti hayron etadigan sehrlil tilsimlar ham pinhon ekaniga iqror bo'ldim:

Va shu sabab bu kitobga Buyuk sirlar kitobi deb ta'rif berish o'rinlidir, degan mulohazaga keldim.

Buyuk sirlar kitobi... Olamning yaratilishi, tuzilishi, uning ajabtozur ishlarini — boshdan-oyoq sir, odam esa undan-da sirlaroq bir xilqatdir. «Boburnoma»ni sahifama-sahifa varaqlab ko'rsangiz, uning qatlarida qintlab g'aroyib tilsimotlarga duch kelasiz.

Ularning sharhiga tilingiz, tafakkuringiz tojiz qoladi.

Chunki shu sirli hodisalarni zikr etgan zotning o‘zi ularga sharh topolmagan. Dunyoda ilmi g‘ayb deb atalmish mo‘jiza mavjudligiga «Boburnoma»dek haqqoniyat kitobini mutolaa qilgan kishi, shubhasiz, imon keltiradi.

Bilamizki, Bobur o‘z davrining peshqadam mutafakkiri sifatida xurofotdan, taraqqiyot yo‘liga g‘ov tashlaydirgan turli bid‘atlardan yiroq bo‘lgan. Imkoni qadar buningdek qarashlar va xatti-harakatlardan uzoq yurmoqqa tirishgan. Xurofot bilan haqiqat chegarasini juda nozik farqlagan.

Ilohiy haqiqat nima, xurofiy aqida nima — bag‘oyat teran anglagan Bobur murakkab, qaltis tarixiy muhitda yagona to‘g‘ri yo‘lni adashmay topa bilgan.

«Boburnoma»ning ilohiy yog‘du bilan munavvar sahifalarida Boburning g‘aroyib tushlari tafsiliga duch kelamiz.

Hijriy to‘qqiz yuz oltinchi yil, kech kuzak. Qorong‘i, uzun kechalardan biri. Xazonlar hazin shivirlagan shu sokin tunda Bobur Mirzo sirli bir tush ko‘rdi. Bu tush ta‘biriga kirishmoqdan avval bir soniya hikoyamiz uchun benihoya ahamiyatli bo‘lgan bir nuqtaga diqqat qilaylik. Ma‘lumki, Bobur zamonasining piri komili, davrning mo‘tabar zotlaridan biri bo‘lmish Xoja Ubaydullo Ahrorga yuksak e‘timod qo‘ygan edi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy singari daholar pir deb bilgan va ma‘naviy ustoz sifatida g‘oyat qadrlagan Xoja Ahrori valiyning pok suvrat va siyrati «Boburnoma» sahifalarida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Bobur Xoja Ahror siymosini ilohiy qalamning ilohiy qudrati bilan chizadi. Bu suvrat keyinchalik, oradan ne bir zamonlar o‘tishi bilan yolg‘onchi muarrixlar va qalamkashlarning zamonasozlik bo‘yog‘i ila qalbakilashtiriladi. Xoja Ahrori valiy jamiki noinsoniy xislatlarning mujassam timsoliga aylantiriladi. Shu tariqa sinfiy yondashuv asosida ham kulgili, ham ayanchli mantiqsizlik vujudga keladi: o‘nlab, yuzlab ilmiy tadqiqotlarda, badiiy asarlarda go‘yoki Jomiy va Navoiy taraqqiyparvaru ularning ruhiy kamoliga ko‘prik bo‘lgan Xoja Ahror borib turgan jaholatparast bir kimsa... Bunday tuhmatlarning qay daraja qabihligini va da‘volarning nechog‘li puchligini anglamoq uchun ham «Boburnoma»ga murojaat etsak o‘rinli bo‘lur.

Bobur zamonasidagi biror kishiga baho berar ekan, aksariyat hollarda uning Xoja Ahrorga bo'lgan munosabati yoki Xoja Ahrorning shu shaxsga bo'lgan munosabatini asosiy mezon qilib oladi. Jumladan, padari buzurgvori Umarshayx Mirzoning fe'l-atvorini ta'riflab kelib: «Hazrat Xoja Ubaydullog'a irodati bor erdi, suhbatlarig'a bisyor musharraf bo'lub erdi, Hazrat Xoja ham farzand der edilar», deydi. Yoki Sulton Ahmad Mirzoning Xoja Ahrorga bo'lgan ixlosi xususida so'z yuritib, ushbu lavhani zikr etadi: «...derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-bir tiziga yovutkagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bar xilofi odat oyog'ini yovutkab o'lturubtur. Mirzo qo'pqondin so'ng hazrati Xoja buyuribdurilarkim, Mirzo o'lturg'on yerni boqqaylar, bir so'ngak bor ekandur».

Sulton Ahmad Mirzodek davr surgan hukmdorki Xoja Ubaydullo Ahror suhbatida shu qadar odob saqlab o'ttirar ekan, demak, chuqur bir ma'no bor. Shuning uchun ham Bobur so'zida davom etib: «Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy edilar», deydi.

Bobur goho zamondoshlaridan birining salbiy xislatlari haqida so'z yuritar ekan, o'sha shaxsning Xoja Ahrorga nisbatan salbiy munosabati uning tabiatidagi illatlarning pirovard natijasi ekanini alohida ta'kidlaydi. Sulton Mahmud Mirzo, deb yozadi u, «bad e'tiqod kishi edi. Hazrati Xoja Ubaydullog'a istixfof qilur edi. Yuraksiz kishi edi. Hayosi kamroq edi. Bir necha masxara va bebok tegrasida bor edi. Devon boshida va xaloyiq qoshida zisht va shani' harakatlar qilurlar edi».

Shunisi diqqatga sazovorki, Bobur tarixiy shaxslarga baho berayotib, birinchi galda ularning nasl-nasabi — valodati, shakl-shamoyili, axloq va atvori bilan bir qatorda ustoz — tarbiyat bergan murabbiy va muqavviylariga maxsus e'tibor qaratadi. «Xoja Mavlonoi qozining oti Abdullodur. Bu ot bila mashhur bo'lub edi. Ota tarafidin nasabi shayx Burhoniddin Qilichqa muntahi bo'lur. Ona tarafidin Sulton Ilik Mozig'a yetar. Farg'ona viloyatida bu tabaqa muqtado va shayxulislom va qozi bo'la kelgandurlar. Xoja qozi hazrati Xoja Ubaydulloning muridi edi. Alardin tarbiyat topib edi. Xoja qozining valiylig'ida mening hech shakkim yo'qtur».

1. Ko'rdikki, Bobur Mirzoning Xoja Ahrori valiyga e'tiqod-
 ehtiromi g'oyat baland maqomda bo'lgan. Xoja Ahrori valiyning
 mo'tabar shaxsiy va ilohiy siymosi, o'zi navbatida, Bobur
 taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bobur mulk bala dila
 i.e. Bu fikrni Boburning ishlarigina emas, hatto tushlari ham
 tasdiq etadi. Dastur jamaluzm to'zad k qur'andiluz ilah hod
 ber Darvoqe, so'z Boburning tushlari xususida edi. masl qo'z
 .di Alqissa hijriy to'qqiz yuz oltinchi yil, kech kuzak, qorong'i/
 uzun kechalardan birida Bobur Mirzo siri bir tush ko'rdi: «O'shul
 fursatta ajab tush ko'rdim, deb hikoya qiladi Bobur: «Tush
 ko'rdim men kim, hazrat! Xoja Ubaydullo kelmishlar, men
 istiqbollarig'a chiqmish men. Xoja kelib o'turdilar. Xojaning olig'a
 g'olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat
 xotiriga nima kelmish. Mullo Bobo mering sari boqib ishorat
 qiladur. Men ham imo' bilan dedim kim, mendin emastur. J
 Dastorxon solg'uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uz
 masmul tushin. Qo'ptilar. Uzata chiqdim. Ushbu uyning dolonida
 o'ng qo'lumdin yo so'l qo'lumdin tutib andoq ko'tardilarkim,
 bir oyog'im yerdin qo'pti. Turki dedilarkim. Shayx maslahat
 berdi: O'shul recha kunda-o'q Samarqandni oldim»»
 Tushda ayon bo'lgan bu ilohiy karomatning qay tariqa va
 qay daraja amalga oshganini bilmoq uchun «o'shul fursatta»
 Bobur hayotida qanday tarixiy hodisalarni yuz berganini
 kuzatmoq lozim. Mazkur tush tafsilotidan xiyol avvali Bobur
 bunga izoh berib o'tadi: «Bir kuni Asfidak qo'rg'onida jami
 ichkilar, misli Do'sti Nosir, No'yon ko'kaltosh, Xonquli,
 Karimod, Shayx Darvesh, Xisrav ko'kaltosh, Mirim Nosir
 borichozir edilar, z mening qoshimda o'turub edilar. Har
 tarafdin so'z o'tar edi. Dedim kim: «Keling, ayting kim, tengri
 rost keltursa, Samarqandni qachon olg'aybiz?» Ba'zi dedilar:
 kim: «Yozg'a olg'aybiz». Ul mahal kech kuz edi. Ba'zi «bir
 oy-qirq kun», ba'zi «yigirma kun» dedilar. No'yon ko'kaltosh
 dedikim: «O'n to'rt kunda olurbiz». Tengri rost kelturdi, rost
 ofn to'rt kunda-o'q Samarqandni olduk»»
 «Tengri rost kelturdi.» Tengri rost keltirgan bu bashorat-
 ning avvalo No'yon ko'kaltosh tiliga, so'ngra Bobur Mirzo
 diliga Xoja Ahrori valiy tomonidan solinishi chindan ham ilohiy
 bir mo'jiza emasmi?

Biz bugungi kunda g'ayrioddiy xislatlari bilan ko'pchilikni hayratga solayotgan afsungarlar, ko'zboylig'ichlar va ular safidagi talay tovlamachilarning xatti-harakatlariga qoyil bo'lib tahsin o'qib o'tiribmiz. Biroq ko'hna tariximizni sinchiklab ko'zdan kechiradigan bo'lsak, har qadamda ilohiy kuchlarning haqiqiy qudrati bilan izohlashgina mumkin bo'lgan tilsimot va jumboqlarga duch kelaveramiz.

Hijriy to'qqiz yuz sakkizinchi yil, qahraton qish, sovuq, zimiston tunlarning birida Bobur Mirzo yana bir tilsimli tush ko'rdi. «Boburnoma»da bu tush tavsifi va u bilan bog'liq tarixiy holatlar shu qadar haqqoniy va shu qadar teran insoniy iztirob bilan yo'g'rilganki, birmuncha uzunroq bo'lsa-da, batafsilroq ko'chirmalar keltirib o'tish hikoyamiz maqsadiga muvofiq bo'lur.

Alqissa, hijriy to'qqiz yuz sakkizinchi yil qishiga kelib Bobur Mirzoning ishlari taraqqiydan tanazzulga yuz tutgan edi. Samarqanddan quyilib, Andijondan ayrilib sargardon yurgan kezlariida uning ahvoli bisyor parishon edi. O'z holatini o'zi ta'riflab aytganidek, viloyat, yo'q; viloyat, umidvorligi yo'q, navkar parokanda. Ana shunday ma'yus, qutsiz ya tahlikali kunlarning birida u Karnon degan bir maskanda yog'iy qo'lida qurshovda qoladi. Uni ne vaqtga qadar izma- iz ta'qib etib kelgan g'anim navkarlari makr-hiyla ila triklayin qo'lga tushirmoqqa tirishadilar. Yolg'on va dalar berib aldamoqqa urinadilar. Bobur Mirzo yolg'iz o'zi, qurolsiz, yarog'siz, ulovsiz — imkonsizlik qa'rida qolib, eng so'nggi choraga ahd qiladi: «Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yomonroq nima bo'lmas emish. Men dedimkim, rostlig'ini ayt. Agar ish o'zgacharak bo'l- g'udektur, xud vuzu qilay. Yusuf ontlar ichti, vale aning ontig'a kim inonadur. O'zumda betoqatlig'e fahm qildim. Qo'ptum, bog' go'shasig'a bordim. O'zim bila andisha qildim. Dedimkim, kishi agar yuz, agar ming yashasa oxir o'lmak kerak.

Agar sad sol moni var yake ro'z
Biboyad raft azin xoxi dilafro'z'.

¹Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngul ochguvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur. (Fors.)

O‘zumni o‘limg‘a qaror berdim, — deya qayg‘uli qissasini davom ettiradi Bobur Mirzo. — O‘shal bog‘da bir suv oqib keladur edi, vuzu qildim, ikki rak‘at namoz o‘qudim, boshimni munojotqa qo‘yub, tilak tilaydur edimkim, ko‘zum uyqug‘a boribtur. Ko‘radurmenkim, Xoja Ya‘qub Xoja Yahyoning o‘g‘li — hazrati Xoja Ubaydulloning nabiralari ro‘baro‘yimg‘a ablaq ot minib, ko‘p jamoati ablaq suvor bilan keldilar. Dedilarkim, g‘am yemangiz, Xoja Ahror meni sizga yibordilar. Dedilarkim, biz alarg‘a istionat tegurub, podshohliq masnading‘a o‘lturg‘uzubbiz. Har yerda mushkul ish tushsa, bizni nazarg‘a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo‘lurbiz. Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. Bosh ko‘taring, uyg‘oning».

«O‘shal holda xushhol bo‘lib uyg‘ondimkim, — deya hikoya qiladi Bobur Mirzo, — Yusuf dorug‘a va hamrohlari bir-biriga maslahat qiladurlarkim, bahona qilib hayal qiladur, tutub bog‘lamoq kerak.

Bu so‘zni eshitib men dedimkim, sizlar bu yo‘sunliq so‘zlashursiz, ammo ko‘rayinkim, qaysingiz mening qoshimg‘a kela olursiz?.. Ushbu so‘zning ustida edikim, bog‘ning devoridin tashqari qalin otliqning kelur ovozi keldi. Yusuf dorug‘a dedikim, biz agar sizni olib Tanbal qoshig‘a borsak edi, bizning ishimiz ilgari borur edi. Holo yana ko‘p kishi yiborubtur, sizni tutg‘ali. Ul yaqin qildikim, bu ovoz Tanbalning yiborgan kishilarining otini tovushi bo‘lg‘ay. Bu so‘zni eshitgach, manga iztirob ko‘prog‘ bo‘lub, qilur ishimni bilmadim...»

Bu satrlarni yuragimiz entikib hayajon ila o‘qir ekanmiz, biz ham qattiq iztirobga tusha boramiz. Ammo ich-ichimizdan allaqanday bir mo‘jiza ro‘y berishiga, mo‘jiza ro‘y bermasdan mumkin emasligiga imon keltiramiz. Chunki boyagina mazkur bo‘lgan tushda: «Har yerda mushkul ish tushsa, bizni nazarga kelturub yod etsun, biz anda hozir bo‘lurbiz», degan ilohiy bir karomat eshitilgan edi-ku? Tahlika va hayajondan jonimiz bir joyga yetganida intizorlik ila ko‘z tutganimiz mo‘jiza sodir bo‘ladi — Bobur Mirzoning tovushi yana qat‘iyat va shijoat bilan yangray boshlaydi:

«O'shal holda bu otliqlar bog'ning eshigini toparg'a fursat qilmay, devornikim, eski bo'lg'on yeridin raxna qilib kirdilar. Ko'rsamkim, Qutluq Muhammad barlos va Boboi Parg'ariykim, mening jon tortqon navkarlarim, o'n-o'n besh, yigirma kishi bo'lg'oy, yetib keldilar. Bular yovuq kelib, ottin o'zlarini tashlab, yirog'din yukunib, ta'zim qilib mening oyog'imga yiqildilar. O'shal holda manga andog' holat bo'ldikim, go'yo manga yangi boshtin xudoy jon berdi. Men dedimkim, ul Yusuf dorug'ani va bu turg'on muzdur mardaklarni tutub bog'lang. O'shal mardaklar qocha berib edikim, bir yerda bironi tutub bog'lab kelturdilar...»

Endi bir zum nafasni rostlab, ajal changalidan qaytgan Bobur Mirzo bilan birgalikda tangriga shukrona aytmog' fursati yetdi. Tabiiyki, vujudni zilzila yanglig' zir titratgan o'lim vahmi xiyol arigach, xaloskorlarga yuzlanib savol berilgay:

«Men dedimkim, sizlar qaydin kelasiz, nechuk xabar topdingiz?

Qutlug' Muhammad barlos dedikim, Axsidin qochib chiqq'onda sizdin ayrila tushganda Andijon keldimkim, xonlar ham Andijon keliburlar. Men tush ko'rdumkim, Xoja Ubaydullo dedilarkim(!), Bobur podshoh Karnon degan kenttatur, borib ani olib kelingkim, podshohliq masnadi anga taalluq bo'lubtur. Men bu tushni ko'rub, xushhol bo'lub, ulug' xon, kichik xong'a arz qildum, xonlarg'a dedimkim, mening besh-olti ini-o'g'lum bor, yana bir necha yigit qo'shungiz, Karnon tarafdin borib xabar olayin. Xonlar dedilarkim, bizning xotirimizg'a ham yetadurkim, o'shal yo'lg'a borg'on bo'lg'ay. O'n kishi tayin qildilar... Boboi Parg'ariy dedikim, men ham borib istarmen, ul ham ikki yigit inisi bilan ittifoq qilib otlanduk. Bu kun uch kundurkim, yo'l kelabiz. Alhamdulillah, sizni topduk...»

Xo'sh, bu aql bovar etmas holni qandoq sharhlash mumkin? Oddiy bir tasodifning oddiy bir ko'rinishi deb talqin etsak, kulgi va mazaxga sazovor bo'lmaymizmi?

Har qalay, moddiyunchi — materialistik dunyoqarashga asoslangan bizning tasavvurimiz bu g'aroyib tilsimotni dabdurustdan qabul qilishi va idrok etishi mahol. Moddiyunchi dunyoqarashning ulug' bir aybi budurkim, u olamni sirru

sehridan binobariti, jozibadan mahrum qilib qo'yadi. U hamma narsani quruq va jo'rgina marziq qotipiga tortishga urmadi, besharh hodisa-holatlarga sharh topishga urmadi. Shu tariq moddiyunchilikka ixlos qo'ygan odamning tasavvuri ham qashshoqlashib, bepoyon va rangin olam, bag'rida millionlab tilsimlarni jo'etgan koinotni ummonlar shunchaki oddiy tabiiy jismlarga aylanib qoladi. Moddiyunchilik insonning ko'figlidagi ilohiy nurni so'ndiradi. So'ndiradi-yu, evaziga, afsuski, hech narsa taqdim qila olmaydi...

Bobur Mirzo, ko'rdikki, qalbida hamisha ilohiy nur shu'la sochgan bir zot bo'lgan. Ana shu qudratga ishonchi, uni tar olish, uning hukmi va adolatiga bo'yinsinish, uning qasosidan hayiqish — bularning barchasi buyuk jahongirning har bir qadamini qattiq taftish ostiga olib kuzatib borgan, uni o'rinsiz xunrezliklar, shariat ahkomlari va davrning axloqiy qoidalarini buzishdan saqlab kelgan. Shu ma'noda «Boburnoma»da aks etgan adolat tushunchasi, adolat tuyg'usi g'oyat e'tiborga molikdir. Bu tuyg'u zikr etganimiz o'sha ilohiy qudrat bilan chambarchas bog'liq, undan ma'naviy oziq oladi.

Ma'lumki, Bobur o'z qo'shini o'rtasida juda qattiq tartib-intizom o'rnatgan. Xalqqa nohaq zulm qiladigan, talonchilik bilan shug'ullanadigan navkarlarga, askarboshilarga uning nafrati benihoya cheksiz bo'lgan. Boburning nuqtai nazaricha, bunday manfur kimsalar muqarrar ravishda sazovori la'nat bo'lib, qasosga uchrashlari shubhasizdir.

«Bu yurttin ko'chib, Qorabog' yonidagi Oqsaroy o'langiga tushuldi, — deya sarguzashtlaridan birini hikoya qiladi Bobur. — Xisravshohning eli — kuni zulm va besarliqqa o'rgangan el, elga zulm qila boshladilar. Oxir Sayidim Ali Darbonning bir o'bdon navkari birovning bir ko'za yog'ini tortib olg'on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida-o'q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar».

Yoki boshqa bir o'rinda — Yom navohisida ekan chog'ida ro'y bergan voqeani so'ylab, Bobur ibratomuz bir holni bayon etadi. Bu kentda aholidan zo'rlik bilan talab olingan mol-mulkni tongga qadar ega-egasiga qaytarib berishni askarlariga qat'iy suratda amr qiladi. «Ertasiga, — deb xotir-

laydi, u, «cherik do'rida nima sinig'iyu ip uchligacha qol-
madi» buni elga qaytarib berildi». Donishmand saltanat
sohibi Bobur hijriy to'qqiz yuz o'ttiz ikkinchi yili maxsus
farmon chiqardi. Bu farmonga binoan kishilardan, shahar va
qishloqlar, ko'cha va guzarlardan olinadigan soliq tamga
puli bekor qilinadi. Nazmiy yo'sinda bitilgan, iqtisodiy
muammolar tahliliga bag'ishlangan risolasi «Mubayyin»da esa
u mulkdor guruhlarning beva-bechora, qashshoq-notavonlarga
doimiy ravishda ko'mak berib turishlarini amr qilgan. Taddi-
qotchilarning fikriga ko'ra, bu bilan Bobur mazkur buyruqda
qonun tusini bergan ekan.

Saodatli shoh el-ulusning muqaddas joylariga, xalq tavof
etadigan mozor va sag'analarga hamisha ehtirom bilan munosabatda bo'lib kelganligi, ularning qaysi din, qaysi mazhabga mansubligidan qat'i nazar, oyoqosti etilishiga, taqchilinishiga qarshi keskin kurashgani yaxshi ma'lum.

«Uch kun Sind yoqasi bilan-o'q kelduk. Uch kundin so'ng
Pir Qonu mazori to'g'risidin Sind daryosidin ayrilib, Pir
Qonu mazorig'a kelib tushtum. Cherik elidin ba'zi mazorning
mujovirlarig'a mazehim bo'lg'on uchun birini siyosat uchun
pora-pora qildurdim. Bu mazor Hindistonda bisyor mo'tabar
mazordur».

Bu satrlar beixtiyor kishini teran o'ylarga g'arq qiladi.

Boburni talonchi deb atagan, mustabid, qonxo'r, deya malomat taqqan, umr bo'yi xalqning muqaddas mehroblariga o't qo'yish bilan, o'zi suv ichgan buloqlarga tupurish bilan mashg'ul bo'lgan zamonamizning ba'zi arboblari bugun — el nafratiga duchor bo'lib o'ltirgan chog'larida «Boburnoma»ni qo'llariga olib, ayni shu sahifalarni o'qib ko'rsalar qandoq bo'larkin? Mozorlarni buzgan, ziyoratgohlarni kunpayakun qilib «oq oltin» maydoniga aylantirgan, xalqning asriy bayramlarini taqiqlagan, eski imlodagi har qanday kitobni ko'rib labiga uchuq toshadigan bu jaholat bandalari shunda qanday holatga tushgan bo'lar edilar?

Badbin ko'ngillarida bir zum ishtiboh paydo bo'larmikan?

Tazarru uyg'onarmikan?

Afsuski, biz buni bilmaymiz.

Bilolmaymiz.

Endi mulohaza qilib ko'raylik: xo'sh, Boburning ko'nglida adolat tuyg'usi qachon, qay tariqa qaror topgan edi? Tabiiyki, bunda birinchi galda u unib-o'sgan oila muhiti, unga ta'lim bergan murabbiylarning tarbiyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Masalan, uning padari buzurgvori Umarshayx Mirzoga xos adolat tuyg'usini olib ko'raylik.

«Adolati bu martabada ediki, — deydi Bobur, — Xitoy korvoni keladurganda Andijonning sharqiy tarafidag'i, tog'larning tubida ming o'yuk korvonni andog' qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar yiborib, korvonning jami jihatini zabt qildi. Har chandikim vorisi hozir yo'q erdi, bovujudi ehtiyot saxlab, bir-ikki yildin so'ngra Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim topshurdi».

Bobur ana shunday odamlarning farzandi edi.

Boburga xos bo'lgan insoniy fazilatlarining zamirida ilohiy qudratga ishonch va iymon mujassam ekanini ko'rdik. Taassufki, bizning kunlarimizga kelib, bu noyob insoniy fazilat yo'qlik sari yuz tutdi, ko'nglida uncha-muncha ilohiy yog'du zarrasi qolgan kimsalar qadr topmadilar, aksincha, el aro taajjub va kulgiga sabab bo'ldilar. Kishi molidan hazar qilmaslik, harom-harishdan jirkanmaslik odat tusiga kirdi. Shular va shular singari o'nlab, yuzlab nomarg'ub xususiyatlar jamiyatni tanazzul ko'chasiga boshlagani sir emas.

Suhbatimiz davomida qayta-qayta zikr etganimiz ilohiy bir qudrat Bobur Mirzoni umr bo'yi tark etmadi. Hatto hayotining so'nggi soniyalarida ham u samoviy sirlar og'ushiga qovushib ketdi. «Boburnoma»da qayd qilingan shu lavhani o'qir ekanman, ko'p vaqt hushdin ayru tushgan kabi behol o'ltiraman. Hayot va o'lim, borliq va yo'qlik — bu chigal, azaliy tilsimot ayni shu lahzalarda kishi xayolini butunisicha chirmab oladi.

Keling, yaxshisi, shu sirli lavhani birgalashib ko'zdan kechiraylik:

«Va Muhammad Humoyun Sanbalg'akim aning joygiri edi, ruxsat berildi. Olti oygacha anda erdi, zohiran, ani yer va suyi xush yoqmadi. Isitma tutar ekandur, bora-bora uzoqqa rortar. Toonki biz eshittuk, farmon berildikim, Dehlig'a kelturub,

Dehlidin kemag'a solib keltirsinlarkim, hakimi hoziqlar ko'rub, dardig'a davo qilsunlar. Bir necha kunda daryo yo'li bilan kelturdilar va tabiblar har necha doru darmon berdilar, yaxshi bo'lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug' kishi erdi, arzg'a yetkurdikim, ushmundoq dardlarg'a davo budurkim, yaxshi nimalsalardin tasadduq qilmoq kerak. Toinki tengri taolo sihat bergay. Mening ko'nglumga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o'zga yaxshiroq nimarsasi yo'q. Men o'zum tasadduq bo'layin, xudoy qabul qilsun. Xoja Xalifa, o'zga muqarrablardin arzg'a yetkurdilarkim, Muhammad Humoyun sihat topar, siz bu so'zni nechun tilingizga kelturasiz. G'araz budurkim, dunyo molidin yaxshisini tasadduq qilmoq kerak. Bas, o'shal olmoskim, Ibrohimni urushida tushub edi, Muhammad Humoyung'a inoyat qilib erdingiz, tasadduq qilmoq kerak. Tilga keldikim, dunyo moli aning ivazig'a nechuk bo'lg'ay, men aning fidosi qilurmenkim, hol anga mushkul bo'lubtur. Va andin o'tubturkim, men aning betoqatlig'ini toqat kelturgaymen. O'shal holatga kirib, uch qatla boshidin o'rgulib, dedimkim, men ko'tardim harne darding bor. O'shal zamon men og'ir bo'ldum, ul yengil bo'ldi. Ul sihat bo'lub qo'pti. Men noxush bo'lub yiqildim...»

Yo'q, endi bu tilsim tahliliga adibning emas, tabibning qalami, nuqtai nazari darkor! Xalq orasida ko'p bora eshitganmiz: «jonim sadag'a bo'lsin», «jonimni berayin» kabi kalomlarni. Ayni manzara xuddi o'sha farzandiga jonini qurbon qilishning ham ilohiy, ham moddiy — zaminiy ko'rinishi emasmi?!

Ustoz Erkin Vohidov bir suhbatda aytgan edilar: «Hazrat Alisher Navoiyni mutolaa qilib o'ltirib ba'zan shubhaga ham boraman — hazrat bu dunyoning odami emasmikan, deb...»

Shu singari Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ham bizning odatiy turmushimizdan, kundalik mayda hoyu havaslar ila xiralashgan, samoviy sirlardan, ilohiy jozibadan mahrum bo'lib benihoya g'ariblashib, huvillab qolgan hayotimizdan naqadar yuksakda!

Biz taraqqiyot olg'a qarab borayotir, deymiz. Tashqi — zohiriy jihatlardan, darhaqiqat, shunday. Ammo botiniy belgilarga qarab baho beradigan bo'lsak, ruhimizning parvozi, xayollarimizning miqyosi, orzu-niyatlarimizning teranligi

tarafidan biz ulug' ajdodlarimiz yetib borgan manzil-ritardotlarning yaqiniga ham yo'layolmaganimiz ma'lum bo'ladi. Shu ma'noda taraqqiyot so'qmoqlaridan biri sirli, ilohiy Mozjy orqali o'tadi; deb aysak, xato bo'lmas.

1990

TAVBA

Boburning buyuk sarkarda bo'lganligi bizga tarixdan ayon. Buyuk sarkarda degan sharaftga esa buyuk g'alabalar tufayli erishiladi.

Jahongir Bobur quchgan mislsiz zafarlar to hanuz olarn ahlini hayratga soladi, Dunyoning turli mintaqalaridagi tadqiqotchilar, yakdillik bilan e'tirof etadilarki, «Bobur insonlar ichida eng botiridir». (Eduard Xolden)

Bu fikrga qo'shimcha qilib, Bobur insonlar ichida eng rostgo'yidir, deb aysak ham, xato bo'lmas. Uning qalb'daftari «Boburnoma»ni diqqat bilan yaraqlagan kishi bunga amin bo'ladi. Bobur, tarixiy voqealar, tarixiy siymolar, tabiat hodisalari haqida qanchalar aniqlik va haqqoniyat bilan mulohaza bildirsa, o'z shaxsiyatidagi nomarg'ub xususiyatlar haqida ham shunchalar mardonalik bilan so'z yuritadi. Fe'l-atvoridagi juz'iy va ulug' nuqsonu ayblarni yashirmay so'ylaydi, iztiroblari, ruhning ichki, og'riqli ziddiyatlarini kitobxondan pinhon tutmaydi.

Bu hol odamni beixtiyor ajib o'ylarga g'arq qiladi. Ulug' tafakkur, sohibi, ulkan saltanat egasi bo'lgan bir zotning qalamini mudom nazorat ostida tutgan teran haqqoniyatning boisi nimada? Bunga ne sabab zarurat tug'ilgan? Axir, cheksiz hokimiyat — cheksiz imkoniyat degani emasmı? Axir zamon-doshlar va kelasi nasllar nazdida o'zining tarixiy mumtoz siymosiga soya solishi mumkin bo'lgan noxush holatlardan ko'z yumib qo'yaqolish Bobur Mirzo uchun unchalar mushkul emas edi-ku?! Nainki uni yolg'onchilikda, bugungi til bilan aytganda, tarixni soxtalashtirishda ayblashga biror kimsaning haddi sig'ardi?

Mening nazarimda, bu holning ikkita sababi bordek. Qadim dunyoning orif insonlari oq qog'oz betiga yolg'on yozmoqdan

parhez qilar edilar. Chunki ular kalomni hamisha tangri taoloning nomi bilan boshlardilar. Qog'ozni ham, unga bitilgan so'zlarni ham non darajasida muqaddas, mo'tabar tutar edilar. Bobur Mirzo ham, tabiiyki, yoshlik chog'laridan ana shunday ziyoli muhitda voyaga yetgan, bihobarin, davrning mazkur udumiga qat'iy rioya qilishi shubhasiz edi. Ikkinchi sabab esa, Boburning shaxsiyatidagi mardonalik, rostgo'ylik, shijoat va o'ktamlilik bilan chambarchas bog'liqlidir. «Boburnoma» sahifalarida haqiqat Bobur hayotining bosh mezonini, asl mohiyati sifatida ko'rinadi. Boburning axloqiy nuqtai nafari, ma'naviy tahliliga o'z qat'iyat beshafqat ayovsiz o'zgalarning faoliyati, xatti-harakatlarini qandoq talablar asosida baholasa, bu talablarni eng avvalo o'ziga qo'yib ko'radi, ya'ni pichoqni oldin ko'ziga uradi. Biz o'tmish haqida so'z yuritganimizda ko'nglimiz mumdekerib, ba'zan turfa xil xayollarga berilamiz. Moziyda kechgan turmush ko'z o'ngimizda goho mujassami axloq, mujassami odob kabi hamoyon bo'ladi. Holbuki, u davrlarda ham farishtalar emas, sizni bizga o'xshagan fe'lli odamlar yashaganlar, u odamlarning ham, zamonaning ham o'z ma'naviy muammolari mavjud bo'lgan. Va taajjubki, ularning aksariyati hozirga qadar muammoligicha qolib kelayotir. Donishmand adibimiz Abdulla Qodiriyning so'zlari bilan aytganda: «Xalqimiz ta'biricha, u zamonlar musulmonobod bo'lsa-da, biroq bu tantanali ta'biri buzib qo'yadigan ishlar ham yo'q emas edi. Xon — musulmon, bek — musulmon, xalq — musulmon, buning ustiga, yurish-turish ham musulmoncha edi. O'g'rilik qilgani uchun qo'l kesiladi va yo dorga osiladi. Zoni bilan zoniyalar ham peshtoqdan tashlanadilar, ichkilik uchun qirq darra uriladi. Ish shunchalik nozik bo'la turib ham o'g'rilar o'z tirikliklari orqasidan qolmaydilar, peshtoqdan qopga bo'g'ilib tashlanmoq uchun fohishalar ham yetishib turadilar. Ko'p kishilarning uyularida musallas bilan bo'zalar xumlab qaynab yotsa, ikkinchi tomondan rasmiy suratda ichkilik sotish bilan tirikchilik qiluvchilar ham yo'q emas edilar.»

Shavkatli shoh, hassos shoir Boburning hayotida ham ana shu tantanali ta'biri buzib qo'yadigan birmuneha ishlar

sodir bo'lgan ediki, biz ulardan avvalo Boburning mardona e'tirofi tufayli voqif bo'lamiz: «Shanba kuni oying yigirma uchida bu gird sufaning ustig'a chanor niholi va tol niholi darham tikildi. Namoz peshin chog'ir suhbatini bo'ldi, sahari ushbu sufaning ustida sabuhiy qilduk...»

Chog'ir suhbatini!

Jahondagi ne-ne ulug' zotlarning aqlu hushini zabt etib, irodasini mahv etgan chog'ir balosi Zahiriddin Muhammad Boburni ham o'z domiga tortgan edi...

Sohibi fazilat va sohibi hikmat bo'lgan Bobur bir muddat may dengizida suzgani va qariyb g'arq bo'layozganini, bundan qandoq iztiroblar, ranju aziyatlar chekkanini rostgo'ylik bilan yashirmay hikoya qiladi: «Tonglasi devon tarqag'ondin so'ng sayrga otlanib, kemaga kirib araq ichildi... Namoz digargacha araq ichildi. Araqning badxo'rlik'idin mutanaffir bo'lib, bu yuzdagilarning ittifoqi bila ma'jun ixtiyor qilduk. Kemaning ul uchidagilar ma'jun yeganimizni bilmadilar, araq-o'q ichtilar... Bir zamon takalluf bila suhbat tutuldi. Chun ma'jun suhbatini bila hargiz araq va chog'ir suhbatini rost kelmas, mastlar har tarafdin guftu go' qila kirishtilar, aksar taarruzlari ma'jun va ma'juniylar bila edi. Bobojon ham mast bo'lub, g'alaba parishonlar aytti. Turdi Muhammadqa ham mastlar to'la-to'la ayoqlarini paydar-pay berib, oz fursatda masti loya'qil qildilar. Har necha sa'y va isloh maqomida bo'lduk, baham yetmadi. Shaloyinliq xili bo'ldi, har sorig'a tarqalishtilar...»

«Suhbat bemaza bo'ldi...» May dengizida ixtiyorsiz suzgan kemaning sarguzashtlarini iztirob bilan bayon qilar ekan, Bobur aksariyat hollarda chog'ir bazmlarining tasvirini ayni shu so'zlar bilan nihoyasiga yetkazadi. Yoinki, ko'p lavhalarda so'z zamirida shu ma'no pinhon yotgan bo'ladi.

Boburning chog'ir suhbatlari ba'zan aql bovar etmas ishlar bilan yakunlanar edi.

«Ushbu fursatlardakim, Behrada eduk, — deya hikoya qiladi u, — namoz xuftang'acha kemada ichib, namoz xuftanda kemadin mast tofiq chiqib, otlanib, mash'alni ilgimga olib, daryo yoqasidin o'rduq'acha otning bu yuzig'a egilib, gah ul yuzig'a egilib, yakjilov chopib kelib turmen, g'ariyb mast

ekandurmen. Tonglasig‘a mundoq mash‘al olib, o‘rdug‘acha yakjilov kelganimni sharh qildilar. Aslo xotiring‘a kelmadi. Uyg kelganimda xili istifrog‘ qilibturmen...»

Benihoya tanish holat, shunday emasmi? Xususan, ayrim zamondoshlarimiz uchun kundalik tabiiy holat...

«Boburnoma»ni mutolaa qilar ekansiz, umrining ma‘lum bir davrida Bobur erta-yu kech sharobdan bosh ko‘tarmagan, ko‘tarolmaydigan bir kimsa bo‘lgandek taassurot qoladi. Nahotki, deysiz, ko‘zlarigizga ishonmay, nahotki shunday bo‘lsa? Tasavvuringizdagi ulug‘vor, dini islom ahkomlarini mahkam tutgan, shijoatli hukmdor siymosini axtarib, yana sahifalarni varaqlashga tutinasiz. Lekin, taassufki...

«Chorshanba kuni oyning o‘n yettisida Haydar Naqiyning bog‘ida Tengriberdi ba‘zi beklarg‘a va yigitlarga‘a suhbat beradur edi, men ham ul suhbatqa borib ichtim. Kech namoz xuftan andin qo‘pub kelib, ulug‘ oq uyda ham ichildi...»

Hafsalangiz pir bo‘lib, boshqa sahifani ochasiz. Yana umidvor bo‘lib termilasiz: «Oftob yoyila Bog‘i Binafshag‘a borib havz yoqasida ichildi. Tush bo‘la uyqulab, namoz peshin yana ichildi...»

Albatta, Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab ziddiyatlarga to‘la shaxsiyati sotsialistik realizm tuvaklarida o‘stirilgan ijobiy qahramonlarga o‘xshamasligi tabiiydir. Ammo, har qalay, inson birovga ixlos qo‘yganidan so‘ng uni bekamu ko‘st ko‘rgisi kelar ekan. Shu bois ham Boburning tabiatidagi bu nomatlub xislat boisi sababini aniqlash istagi tug‘iladi. Xo‘sh, Bobur nima sababdan mayga bu qadar ruju qo‘ygan edi? Yoki avval-boshdan moyilligi bormidi? Qani, so‘zni o‘zidan eshitib ko‘raylik-chi: «Ishrat paymonalarin to‘ldurub, soqiylar yurub majlis ahlig‘a tuta kirishtilar. Muravvaq chog‘irlarni majlis ahli ham hayvon suyidek (hayot suvidek — X.S.) yuta kirishtilar, majlis qiziqti, chog‘irlar boshqa chiqti, bu xayolda edilarkim, menga ichirg‘aylar, meni ham bu doirag‘a kiyurg‘aylar, men agarchi bu choqqacha nash‘a bo‘lg‘uncha chog‘ir irkitob qilmaydur edim, mastliq va sarxushluq kayfiyati va holatini qamoqaquhu bilmaydur edim, vale chog‘ir ichmoqqa maylim bor edi va bu vodini tay qilmoqqa ko‘nglum tortar edi. Kichiklikta bemayl edim, chog‘irning nash‘a va kayfiyatini bilmas edim. Otam gohikim chog‘ir taklif qilsalar ham uzrlar aytib, irtikob qilmas edim... So‘ngralar

yig'itlik havasidin va nafs-taqozosidinkim, chog'lig'a mayl paydo bo'ldi, taklif qilur/kishi yo'q erdi, balki chog'irg'a maylimni bilur kishi yo'q edi. Ko'nglum agarchi moyil edi, mundoq qilmog'on amri b'zruk bila qilmoq mushkil edi. Xotirg'a kechtikim, chun muncha taklif qiladurlar, yana Hiridek orosta shahrig'a kelib turibizkim, jami' aysh-ishrat, asbob va oloti mukarrifal va muhayyo va bori takalluf va tana'um ashyo va adovat-i omada va paydo, holo ichmasam, qachon ichamen, deb ichmakka azm qildim va bu vodini tay qilmoqni jazm qildim.

Bu voqea: Bobur Mirzoning navqiron chog'larida, bir ining besh yuz yettinchi yili Hirotda, Husayn Boyqaroning o'g'li Muzaffar Mirzo Konadonida yuz bergan edi. Bobur shali umrida, boda kayfini tatib ko'rmagan, binobarin, yuz-xotir, andisha, tuyg'ularini unutmagani ediki, mazkur o'ltirishda chog'irni rad qiladi (garchand ko'ngul anga moyil bo'lsa-da!) va buning boisini shunday izohlaydi: «Vale xotirg'a kechtikim, Babiuzzamon Mirzo og'ladur, aning iligidin, va aning uyida ichmay, inisining iligidin va inisining uyida ichsam, xotirig'a nima kelg'ay, deb, bu taraddudimni aytdim! Bu uzrumni ma'qul deb, bu suhbatta chog'ir taklifi qilmadilar.

Odamzot nima uchun ichadi o'zi? Yer yuzida hayot paydo bo'lganidan buyon dunyoning jamiki axloq qoidalari ma'n qilib kelishiga qaramay, nega inson bu qadar mayga ruju qo'lygan? Kim biladi deysiz. Birovlar yo'qchilikdan ichadi, birovlar to'qchilikdan. Ayrimlar g'amu qayg'ularga chidayolmay ichsa, ayrimlar shodu xurramligidan ichadi. Mabodo, bir mojiza ro'y berib, tarix levrilsayu Bobur Mirzoga ham shu savol berilsa, qandog' javob olgan bo'lur edik? Afsuski, biz buni bilmaymiz. Taxmin qilmog'imiz mumkin, xolos. Ehtimol, shoir dilini o'rtagan armonlar bois chog'irga mayl qo'lygandir. Ehtimol, dunyoning bebaqoligini teran anglagan faylasuf bo'lgani tufayli ko'ngil faryodini bosmoq uchun mayga zo'n bergandir? Balki. Lekin menga shunday tuyuladiki, Bobur Mirzoning sharob bazmiga yuz burganokezlari uning faoliyatsizlikdan zerikkan chog'laridagina ro'y beradi. Jangu jadallar bilan tinimsiz harbu zarblar, yoxud ulkan, mashaqqatli ijodiy mehnat bilan band bo'lgan paytlarida, (ya'ni bu dunyoning yakrang, fayzsiz va bequt manzaralaridan ruhi o'zga bir sirli olamga ko'chgan vaqtlarda

boda istagi, butkul unutiladi; nafaqat istak; bu tushunchaning o'zi Bobur hayotidan go'yo badarg'a qilinadi, qilib olinib to...

Jahoniy faoliyat miqyoslariga yaratilgan ulkan muhtarib qalb hamisha ham o'ziga munosib mashg'ulot topolmagan chog'larida oddiy, hoyu havasning, insoniy nafsning quli bo'larkan-qolarkan. «Bukun Gandamakka tushub, tonglasi Jigdalik tushuldi, Namoz shomg'a yaqin chog'ir majlisi bo'ldi, aksar ichkilar bor, edilar, oxir, suhbatta, Qosimbekning xoharzodasi Gadoyi Muhammad xili shaloyinliq qildi, Mast bo'lg'onda mening yonimdagi takyag'a tayandi, Gadoyi tag'oyi majlisdin ko'tarib chiqardi.»

Zikr etilmish tafsilotlarning aksariyati, bir ming besh yuz yigirma beshinchi yil yoqealariga Boburning afg'on diyorida turg'un bo'lib qolgan davriga to'g'ri keladi. «Oqmay turib qolsa, suy ham buziladi», deydi mavlono Gulxaniy. Bu kezlar Bobur Mirzoning hayotida ayni shunday damlar bo'lgan edi. Atrofini qurshagan bir guruh mayzadalar bilan u o'ziga xos bir dunyoda yashardiki, bu dunyoning g'aroyib qonunlari, rasm-rusumlari-yu g'alati mantiqlari bor edi. Bu muhitda uyat, sharmu hayo va andisha degan tushunchalarga u qadar o'rin berilmas edi: «Mundin otlanib, Gulbahor borildi. Namoz shomdin so'ng chog'ir suhbat bo'ldi. Bu suhbatlarda Darvesh Muhammad sorbon bo'lur edi. Agarchi yigit edi va sipohi edi, vale chog'ir irtikob qilmas, toib edi. Qutluq Xoja ko'kalto'sh muddati madid edi, sipohilikni tark qilib, darvesh bo'lub edi. Yoshi ham, xili bor edi, soqoli xud oppoq oqarib edi. Hamisha bu suhbatlarda harifi sharob edi. Men, Darvesh Muhammadqa dedimkim, Qutluq Xojani, soqolidan uyali, Darvesh va qari va oq soqolliq hamisha chog'ir icharsen, sipohi va yigit va qop-qora soqolliq hargiz ichmassen, ne ma'ni? Sabohi sabuhiy qilduk.»

Bu davrda chog'ir bazmi uchun joy tanlamas edi: «Shanba kuni oyning o'ri birida majlis edi, namoz digar bila namoz shomning orasida, ulug' kaptarxonaning tomining ustig'a chiqib ichildi.»

Suhbat uchun sabablar ham mudom tayyor edi: «Chun bu dagidag'a bor edikim, qirq yoshqa bir yildan ozroq qolib edi, ifrot bilan ichilur edi.» «Xazon bois bo'ldi, chog'ir ichildi, Zavol vaqtig'acha munda ichildi.»

Balzan kayf ustida hamisha bo'lganidek ham kulgini, ham

qo‘rqinchli voqealar ro‘y berib turar edi: «Andin so‘ng otlanildi. Majlis ahli guzaro mastlar bo‘lub edilar. Sayid Qosim andoq mast edikim, ikki navkari tashvish bila ot ustig‘a olib, o‘rdug‘a yetkurdilar. Do‘st Muhammad Boqir andoq mast edikim, Amin Muhammad tarxon va Mastiy chuhra boshliqlar har necha sa‘y qilib, otlandura olmaslar. Boshig‘a suv quyarlilar ham bo‘lmas. Bu fursatta bir pora afg‘on paydo bo‘lur. Amin Muhammad tarxon chog‘ir kayfiyatida xayol qilurkim, muni mundoq etib oldirg‘uncha boshini kesib olib ketarbiz. Bori yuz mashaqqat bila ot ustig‘a solib, olib kelurlar...»

Bu muhitda hatto ayol kishining ham ichishiga izn berilar edi. Mana shunday chog‘ir bazmlaridan birida Boburning mulozimi Turdibek Hulhul enaga degan bir ayol podshoh bilan may ichmak orzusida ekanini bayon qiladi. Bobur ham qiziqib, xotin kishining ichganini ko‘rgan emasdim, deya rozilik beradi. Ammo oz fursat o‘tmay, bu badmast xotin — Hulhul enaga ko‘rsatgan shaloyinliklardan bezor bo‘lib, o‘zini mastlikka solib bazo‘r qutuladi...

Tabiiy bir savol tug‘iladi: nahotki Boburdek zakiy, nozik-ta‘b bir zot shu qadar inon-ixtiyorini muhit erkiga butkul berib qo‘ygan bo‘lsa?..

Yo‘q, Bobur dengiz to‘lqinlariga tashlab qo‘yilgan kemaning halokati muqarrar ekanligini yaxshi anglardi. Ayni sarguzashtlaridan mutanaffir bo‘lib — nafratlanib yurardi. Tushib qolgani girdobdan xalos bo‘lish yo‘llarini tunu kun axtarar edi. O‘z holatini istehzo va ma‘yuslik bilan e‘tirof etar, e‘tiroflarini samimiyat bilan «Boburnoma» sahifalariga qayd qilar edi: «Bog‘i Kalonda... tonglasi chog‘ir majlisi bo‘ldi. Oxshomg‘acha ichildi. Sabohi sabuhiy qilduk... Namoz xuftang‘acha o‘shul yerda-o‘q suhbat edi. Mulla Mahmud Xalifa keldi. Ani ham suhbatqa chorladuk. Abdullo xili mast edi. Xalifa tarafidin bir so‘z chiqdi. Mullo Mahmudtin g‘ofil bu misra‘ni o‘qudikim: «Bar harki singari bahamin dog‘ muhtaloast». («Kimga qarasang, shu dardg‘a muhtalodir.»)

«Kimga qarasang, shu dardg‘a muhtalodir...» Bu gap qachon, qaysi zamonda aytilgan? Kechami yo bugun? Yana ne vaqtga qadar dolzarb bo‘lib qolarkin u?..

Shu tariqa oradan uch yil o‘tdi. Saodatmand shoh, armonli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bu kechgan fursat mobaynida

ko'p yaxshi-yomon kunlarni boshidan o'tkardi, charxning jabru jafosini ham, hayot nash'asi va quvonchlarini ham obdan tortdi. Va nihoyat umr shunday bir manzilga yetib keldiki...

«Dushanba kuni, jumodil-avval oyining yigirma uchida sayr qila otlandim. Sayr asnosida xotiring'a yettikim, hamisha tavba dag'dag'asi xotirimda bor edi, bu nomashru' amr irtiqobidin alad-davom ko'nglumda g'ubor edi, dedimkim, ey nafs:

Chand boshi zi maoyey mazakash,
Tavba ham bemaza nest bichash...»¹

Bu voqea hijriy to'qqiz yuz o'ttiz uchinchi — milodiy bir ming besh yuz yigirma oltinchi yili sodir bo'ldi. Bobur o'sha yili Hindistonni zabt etib, porloq, olamshumul zafar quchdi.

Xuddi shu yili u yana bir buyuk g'alabaga erishdi.

Bu ulug' zafarning nomi — T A V B A dir.

Bobur ayni o'shal fursatda Nafs ustidan buyuk g'alaba qozondi — ichkilik balosini yengdi. Keling, bu mashaqqatli, uqubatli g'alaba tafsilotlarini ko'zdan kechiraylik. G'alaba sharafiga, ma'lumki, tantanavor qasidalar munosibdir. Shu bois ham Bobur bu haqdagi hikoyasini endi nasr bilan emas, nazmning baland pardalarida davom ettiradi:

«Necha isyon bila oludalig'ing,
Necha xirmon aro osudalig'ing.
Necha nafsingga bo'lursen tobi',
Necha umrungni qilursen zoyi'.
Niyati gazv ila kim yurubsen,
O'lmakingni o'zungga ko'rubsen,
Kimki o'lmak o'ziga jazm etar,
Ushbu holatta bilursenki netar.
Dur etar jumla manohiydin o'zin,
Aritur barcha gunohidin o'zin,
Xush qilib o'zni bu kechmakliktin,
Tavba qildim chog'ir ichmakliktin.
Oltunu nuqra surohiyyu ayoq,
Majlis oloti tamomin ul choq,

¹ Qachongacha gunoh ishlardan zavq olasan, tavba ham bemaza emas, undan ham tatib ko'r! (*Fors.*)

Hozir aylab borini sindurdum,

Tark etib mayni, ko'ngul tindurdum.

O'n ikki yoshidan to hanuz taxt ustida, saltanat tashvishlari, chopqin va bosqinlar bilan yurib, Bobur Mirzo talay g'alabalarni qo'lga kiritgan edi. Goh Shayboniyxon ustidan, goh afg'on beklari ustidan, goh Ibrohim Lo'diy, goh Rano Sango ustidan g'olib kelib, muzaffarlik shavkatiga botgan edi. Ammo bu safargi g'alabaning nash'u namosi, shukuhi ya ahamiyati butkul o'zgacha edi. Chunki hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, to'qaydagi yo'lbarsni yenggan kimsa bahodir emas, balki o'z nafsini yenggan kimsa bahodirdir.

Bu tavbaning boshqalarga ham taalluqi va ibrati jihatlaridan bor edi. «Bu sindurilg'oni oltun-kumush surohiy va olotni mustahiq'larga va darveshlarga ulashildi. Ul kishikim, tavbada muvofaqat qilib edi. Asas edi. Soqol qirmoqta va qo'ymoqta muvofaqat qilib edi, ul kechasi va tonglasi beklardan va ichkilardan va sipohlardan va g'ayri sipohidin uch yuzga yaqin kishi tavba qildilar. Hozir chog'irlarni to'kturub, Boburost kelturgan chog'irlarni buyurdakkim, tuz solib sirka qilg'aylar. Chog'irlarni to'kkan yerda bir voyin qozdurildi. Niyat qildumkim, bu voyinni tosh bila qo'portub, bu voyinning yonida buq'ayi xayre qilg'aylar.»

Tamom. Shu bilan chog'ir, balosi ya buyuk bir zotning undan qay tariqa xalos bo'lgani, xususidagi suhbatga nuqta qo'ysak ham bo'lardi, biroq... «O'rgangan ko'ngil — o'rtansa qo'ymas», degan xavotir bilan, «Boburnoma»ning keyingi sahifalarini hadiksirab varaqlashda davom etamiz. Biror sahifadan Boburning samimiy e'tirofi ila bu tantanali ta'biri buzib qo'yadigan dalolat chiqib qolmasmikan, degan ishtiboh xayolning bir chetida muqim turaveradi. Lekin, ming shukrki, bundog' xijolatli holni qaytib uchratmaymiz. Aksincha, tavbaning qanday mashaqqatlar evaziga kelganini, unga eltir yo'llarning nechog'li og'ir va azobli bo'lganidan xabar topamiz.

Bir ming besh yuz yigirma sakkizinchi yili, Bobur Xoja Kalonga bitgan maktublarning birida bu xususda yuragini ochib so'zlaydi: «Yana Abdullog'a bitilgan kitobatta mastur edikim, tavba vodisida muvofaqat dag'dag'asi ko'p bo'lub edi, bu ruboiy andake moni' bo'ldi:

May tarkini qilg'all parshondurmen,
Bilmon qilur ishimniyu hayrondurmen.
El borcha pushaymon bo'luru tavba qilur,
Men tavba qilubmenu pushaymondurmen...

«Yana ul ruboiy o'tgan yili aytilib edi, — deya izoh beradi Bobur. — Filvoqi', bu o'tgan ikki yilda chog'ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g'oyat edi, andoqkim, chog'ir ishtiyoqidin borlar yig'lamoq sarhadig'a yetar edim. Bu yil, alhamdulillah, ul dag'dag'a tamom xotirdin raf bo'ldi... Siz ham tavba qiling...»

Bobur Mirzo bu g'alabaning o'z shaxsiy hayoti va saltanat hayotidagi beqiyos ahamiyatini teran anglar edi. Shu sababdan mazkur ulug' zafar munosabati bilan Boburiylar saltanati bo'ylab maxsus farmoni oliy e'lon qilindi. Farmonda, jumladan, quyidagi so'zlar ham bitilgan edi:

«... Tavfiq yo'lovchisi «Kimki astoydil eshik qoqsa, kiradi», mazmuniga muvofiq iqbol eshigini ochdi va bu urushni nafsga qarshilik ko'rsatishdan iborat bo'lgan zo'r urush bilan boshlashni buyurdi.

Alqissa, «Ey rabbim, nafslarimizga zulm qildik»ni ixlos tiliga keltirib, «Sening oldingda tavba qildim va men musulmonlarning birinchisiman», degan gapni dil lavhasig'a naqsh qildik. Ko'ngul xazinasida maxfiy qolgan ichkilikdan qaytish tavbasi istagini yuzaga chiqardik.

... Bu orzu va bu osoyishtalik to'la-to'kis oxiriga yetganidan so'ng, olam bo'ysunishi lozim bo'lgan farmon ijro sharafiga erishdiki, tinch saqlangan mamlakatda (xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o'zida saqlamasin, eltmasin va keltirmasin: «Ichkilikdan qochinglar, shoyadki najot topsanglar».


Bu g'alabaning shukronasi va bu chin tavbaning qabul darajasiga yetishmog'ining sadaqasi uchun, podshohlikning baxshish daryosi jo'sh urib, olam obodonligi va kishilik obro'yi bo'lgan karam to'lqinlarini paydo qildi: butun mamlakat bo'ylab, o'tgan sultonlardan qolib kelgan va daromadi haddan ortiq ko'p bo'lgan tamg'ani, o'zi ham shariat qoidalaridan tashqari bo'lgani uchun musulmonlar ustidan olib tashlab,

farmon sodir bo'ldiki, hech bir shahar, qishloq, yo'l, ko'cha, guzar va bandarlarda tamg'a olmasinlar va undirmasinlar ham bu hukmning qoidalariga o'zgartish kiritmasinlar: «Kimki buni eshitgandan keyin o'zgartirsa, gunohi o'zgartiruvchilarga bo'ladi».

Tavba va uning xosiyati ana shundoq yakun topdi.

Shoyadki, u bizga ham ibrat bo'lsa.

«Ichkilikdan qochinglar, shoyadki najot topsanglar».



MUNDARIJA

Qissalar

«Ko'ngul ozodadur...».....	3
Saodat sohili.....	82

Hikoyalar

Oy botgan pallada.....	124
Nuqta.....	138

Esselar

Boburning tushlari.....	153
Tavba.....	164

Adabiyat badiiyi nashr

Xayriddin Sulton

SAODAT SOHILI

Qissalar, hikoyalar, esselar

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*

Musavvir *Anatoliy Bobrov*

Badiiy muharrir *Rustam Zufarov*

Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*

Kichik muharrir *Nasmi Fozilova*

Musahhih *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Surayyo Rahmedova*

IB № 4276

Bosishga 13.10.05 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Tayms garniturası. Ofset bosma. 9,24 shartli bosma toboq. 11,0 nashr tobog'i. Jami 5000 nusxa. 328 raqamli buyurtma. 5--2005 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi. 30 // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.